

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MOLIYA KAFEDRASI

“DAVLAT BUDJETI”

fanidan

O‘QUV - USLUBIY MAJMUUA

Bilim sohasi:	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230000	- Iqtisod
Ta’lim yo‘nalishi:	5230600	- Moliya

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli hamda 2019 yil 04 oktabrdagi 892-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

U.To'lov – TerDU “Moliya” kafedrasida dotsenti, PhD

Taqrizchilar:

Avazov E.X. – TerDU «Moliya» kafedrasida dotsent, i.f.n.

Xatamov O.Q. – TerDU professori., i.f.d.

O'quv uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o'quv uslubiy Kengashining 2024 yil 26 iyundagi 11-son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

© TerDU “Moliya” kafedrasida

MUNDARIJA

I-BO‘LIM. O‘QUV MATERIALLAR	6
1.1. MA‘RUZALAR MATNLARI	6
1-MAVZU: “DAVLAT BUDJETI” FANIGA KIRISH.	6
2-MAVZU: DAVLAT BUDJETINING MOHIYATI VA AHAMIYATI	10
3-MAVZU. BUDJET TUZILISHI VA BUDJET TIZIMI.....	18
4-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI	30
5-MAVZU. DAVLATNING BUDJET SOLIQ-SIYOSATI	39
6-MAVZU. DAVLAT BUDJETINI BOSHQARISH.....	46
7-MAVZU. BUDJETLARARO MUNOSABATLAR	54
8-MAVZU. BUDJET TASNIFI.....	64
9-MAVZU. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TIZIMI	77
10-MAVZU. DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI TIZIMI.....	86
11-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HOLATI.....	99
12-MAVZU. BUDJET JARAYONI	112
13-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH.....	122
14-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING TA‘LIM TIZIMI XARAJATLARI	134
15-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING SOG‘LIQNI SAQLASH XARAJATLARI	154
16-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING MADANIYAT VA SPORT XARAJATLARI	171
17-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOY HIMOYA XARAJATLARI	180
18-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI	199
19-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, PROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI	210
20-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING BOSHQA XARAJATLARI	219
1.2. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.....	231
1-MAVZU. “DAVLAT BUDJETI” FANIGA KIRISH	231
2-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING MOHIYATI VA AHAMIYATI	232
3-MAVZU. BUDJET TUZILISHI VA BUDJET TIZIMI	233
4-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI.....	235
5-MAVZU. DAVLATNING BUDJET SOLIQ-SIYOSATI.....	237
6-MAVZU. DAVLAT BUDJETINI BOSHQARISH.....	237
7-MAVZU. BUDJETLARARO MUNOSABATLAR	239
8-MAVZU. BUDJET TASNIFI.....	240
9-MAVZU. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TIZIMI.....	242
10- DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI TIZIMI	243
11-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HOLATI	244
12-MAVZU. BUDJET JARAYONI	245
13-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH.....	246
14-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING TA‘LIM TIZIMI XARAJATLARI	247
15- DAVLAT BUDJETINING SOG‘LIQNI SAQLASH XARAJATLARI	249
16-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING MADANIYAT VA SPORT XARAJATLARI	251
17-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOY HIMOYA XARAJATLARI	252
18-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI	253
19-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, PROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI	254
20-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING BOSHQA XARAJATLARI	254
21-MAVZU. BUDJET NAZORATINI TASHKIL QILISH	255

II-BO‘LIM. MUSTAQIL TA‘LIM	257
III-BO‘LIM. GLOSSARIY	262
IV-BO‘LIM. ILOVALAR.....	269
4.1. TARQATMA MATERIALLAR	269
4.2. TEST SAVOLLARI.....	270
4.3. NAZORAT SAVOLLARI.....	280
4.4. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	282

KIRISH

“Davlat byudjeti” fanining o‘quv-uslubiy majmuasi bakalavriatning “Moliya”, ta’lim yo‘nalishi davlat ta’lim standartlari va “Davlat byudjeti” fanining fan dasturida belgilangan talablarga muvofiq egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or xorijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish, o‘quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarga erishish, mustaqil bilim olish va o‘rganish hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan o‘quv-uslubiy vosita bo‘lib, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o‘qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmuada “Davlat byudjeti” fanining o‘quv dasturiga muvofiq ravishda ma’ruzalar matnlari, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, fanning namunaviy va ishchi-o‘quv dasturlari, fan yuzasidan testlar, yakuniy nazorat savollari va variantlari, talabalar bilimini baholash mezonlari, fan mavzulari bo‘yicha tarqatma materiallar, fan mavzularini o‘zlashtirish bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda boshqa didaktik materiallar jamlangan.

I-BO‘LIM. O‘QUV MATERIALLAR

1.1. MA‘RUZALAR MATNLARI

1-MAVZU: “DAVLAT BUDJETI” FANIGA KIRISH.

REJA:

- 1.1. “Davlat byudjeti” fanining predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari
- 1.2. Fanning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar
- 1.3. “Davlat byudjeti” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Tayanch so‘z va iboralar: *davlat moliyasi; davlat byudjeti; moliya tizimi; iqtisodiy o‘rish; davlatning funksiyalari; iqtisodiy dastaklar; o‘qitishning interaktiv usullari; aqliy hujum, bahs, muzokaralar, pinbord texnikasi, keys-stadi; multimedia ta’lim vositalari; o‘quv adabiyotlari; elektron darslik; testlar majmuasi.*

1.1. “Davlat byudjeti” fanining predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan davlat byudjeti alohida o‘rin egallaydi. Davlat byudjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va mamlakat moliya tizimining barcha bo‘g‘inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi. O‘zbekiston Respublikasi bosh qomusi-mamlakat Konstitutsiyasining 148–moddasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat ekanligi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi hamda fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o‘rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o‘rishni ta’minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to‘liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat byudjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o‘rganish har qachongidan ham dolzarbdir. Davlat moliyasi tizimida faoliyat qiluvchi mutaxassislardan davlat byudjet munosabatini to‘g‘ri va samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta bilish va amaliyotda qo‘llay olish talab etiladi. Shu sababli bakalavriatning bir qator ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga “Davlat byudjeti” nomli fan kiritilgan bo‘lib, ushbu fan dasturida davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy aiyosatni amalga oshirishdagi ahamiyati, byudjet tizimi va byudjetlararo munosabatlar tamoyillari, byudjet daromadlari va xarajatlari tizimining amal qilish mexanizmlari, byudjet jarayoni va byudjet nazoratini tashkil qilish, xorijiy davlatlar byudjet tizimi va byudjet jarayonini tashkil etish masalalari qamrab olingan.

Davlat byudjeti davlat moliya tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi va davlat byudjetining mazmuni bevosita davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy soha va tarmoqlarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashda davlat byudjeti asosiy moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Davlat byudjetini boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda, har

bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy dastaklari qatori, davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi, bu vazifalarning samarali ijrosi davlat byudjeti amal qilishining tegishli mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash bilan ta'minlanadi.

“Davlat byudjeti” fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keyslardan foydalaniladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning interaktiv usullari (vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, insert, klaster, “Venn diagrammasi” va boshqalar)dan foydalaniladi. Fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyillari asosida “Davlat byudjeti” fani o'quv mashg'ulotlarining loyihalari ishlab chiqiladi. Amaliy mashg'ulotlarda muammoni jamoaviy tarzda hal etishning usullari va vositalari: aqliy hujum, bahs, muzokaralar, pinbord texnikasi, keys stadi (muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish) kabi usullar qo'llaniladi.

Shuningdek, fanning amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, UzASBO), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, Internet sahifalari va tizimlaridan hamda davlat moliyasini boshqarish tizimida qo'llaniladigan dasturiy mahsulotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu fanni o'zlashtirishda talabalarga mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish ham tavsiya etiladi.

“Davlat byudjeti” fanining predmetini davlatning markazlashgan pul fondi bo'lgan davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi borasida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va chuqurlashtirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarning nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuvi hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.
Talaba:

- davlat byudjetining mohiyati, zarurligi va funksiyalari, byudjet tizimi, byudjet tuzilishi, byudjet siyosatining mazmuni, vazifalari, rivojlanish bosqichlari, byudjet tizimini boshqarish va tartibga solish asoslari, xorijiy mamlakatlar byudjet tizimi va byudjet jarayoni, byudjet daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi, byudjet daromadlarining shakllanish manbalari, byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarning shakllari, byudjet munosabatlarini tashkil etish shakllari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- davlat byudjeti rivojlanishining qonuniyatlarini, davlat byudjeti holatini baholash va tahlil qilishni, byudjet istiqbolini belgilash asoslarini, byudjet jarayonining tashkil etilishi va o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekiston Respublikasining moliya-byudjet qonunchiligi asoslarini, byudjetning g'azna ijrosini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini, byudjet tizimini tashkil etish tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- byudjet ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, byudjet ijrosi yakunlarini tahlil etish, byudjet tizimi va byudjet tuzilishi, byudjet nazorati, byudjet mablag'lari oluvchilar va byudjet tashkilotlari majburiyatlarini bajarish, byudjet tizimi byudjetlari faoliyatini tartibga solish, byudjet ijrosi va byudjet tashkilotlari smetalari ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi*;


- davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish, ijro natijalarini hisob-kitob qilish, byudjet munosabatlarini tashkil qilishda axborot tizimlaridan foydalanish, byudjet amaliyotiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish, davlat

byudjetining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha malakalarga ega bo'lishi kerak.kerak.

1.2. Fanning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda, davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat (1.1-rasm):

Davlat yuqorida bayon qilingan o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat byudjetining mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi.



1.1-rasm. Davlatning asosiy funksiyalari

Iqtisodiy ilm ahlari orasida o'zining teran ilmiy qarashlari, moliya, soliq, sug'urta, davlat byudjeti kabi kategoriyalarning mazmun-mohiyati, funksiyalari, kishilik taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati, amaliyotda namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi fundamental tadqiqotlari va o'quv-uslubiy ishlanmalari bilan tanilgan o'zbek iqtisodchi olimlari T.Malikov va N.Xaydarovlarning "Davlat byudjeti" nomli o'quv qo'llanmalarida "davlat byudjeti" tushunchasi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Davlat byudjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan bo'lib, uning vujudga kelishi, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va byudjetning taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi"¹.

Turli davrda va turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan yaratilgan darslik va ilmiy adabiyotlarda "davlat byudjeti" tushunchasining turlicha talqini keltiriladi. Ayrim adabiyotlarda

¹ Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 5-bet

davlat byudjetiga “davlat daromadlari va xarajatlari yozilmasi” sifatida ta’rif berilsa, boshqalarida “davlatning asosiy moliyaviy rejasi” deb ta’riflanadi, uchinchlari esa “markazlashgan pul fondini shakllantirish va ishlatish shakli” deb qaraydilar.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning har biri davlatning ma’lum funksiyalarini bajarish maqsadida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularda jamlangan moliyaviy resurslarni sarflash bilan bog‘liq munosabatlarning u yoki bu jihatini aks ettiradi.

Davlat byudjetining mazmunini yoritishga turli davr va turli yo‘nalishdagi iqtisodiy maktablar vakillari bo‘lgan iqtisodchi olimlar turlicha yondoshganlari haqida yuqorida fikr yuritgan edik. Masalan, nomi keltirilgan o‘quv qo‘llanmada “Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo‘shilishini tushunmoq kerak: birinchisi davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar (iqtisodiy kategoriya) va ikkinchisi shu kategoriyaning namoyon bo‘lish shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi”¹, - deb izohlangan.

Agar xorijiy adabiyotlardagi “davlat byudjeti” tushunchasining talqiniga nazar tashlasak, masalan, “Public budgeting systems”² nomli qo‘llanmada keltirilishicha, “davlat byudjetining kelib chiqishi, rivojlanishi va isloh qilib borilishi davlat boshqaruvidagi rasmiy shaxslarni o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik va mas’uliyatga chaqirishga bo‘lgan intilish bilan bog‘liq”³. “Demokratik jamiyatda byudjet – bu hukumatning kuch va imkoniyatlarini cheklash, bir qolipga solish vositasi sifatida qaralishi mumkin”⁴.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida, moddiy tushuncha sifatida, huquqiy kategoriya sifatida amal qilishini tushuntirib bering.
3. Davlat byudjeti funksiyalarining amal qilishini misollar asosida ta’riflab bering.
4. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimida qanday o‘rin egallaydi, uning boshqa bo‘g‘inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan “Davlat byudjeti” tushunchasiga berilgan ta’riflarni aniqlang, ularning byudjetning kelib chiqishi bilan bog‘liq ma’lumotlarini solishtiring.
2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash nisbatlarini xarakterlovchi ma’lumotlarni to‘plang, solishtiring va taqsimlash nisbatlarining turlicha bo‘lish sabablarini tushuntirib bering.
3. Lee, Robert D.ning “Public budgeting systems” nomli qo‘llanmasi asosida byudjet va byudjetlashtirish tushunchalariga ta’rif bering. Ushbu qo‘llanmada keltirilgan izohlar bilan an’anaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalardagi izohlarni solishtiring, xulosalaringiz asosida tezis tayyorlang.

¹ Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. 5-bet

² Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

³ White, M. (1978). Budget policy: where does it begin and end? Governmental Finance, 7, 2-9. Credits W. F. Willoughby's The problem of a national budget (1919) with an early statement of budgeting as a process for holding government accountable.

⁴ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 7

2-MAVZU: DAVLAT BUDJETNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

REJA:


- 1.1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati
- 1.2. Davlat byudjetining funksiyalari
- 1.3. Davlat byudjetining mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari
- 1.4. Byudjet munosabatlari, ularning ko'pqirraliligi

Tayanch so'z va iboralar: Davlat byudjeti; iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti; moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti; huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti; Davlat byudjetining funksiyalari; Byudjet munosabatlari

1.1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Bir qator ilmiy adabiyotlarda davlat byudjetining *ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini* yoritishda uning:

- iqtisodiy kategoriya sifatida;
- moddiy tushuncha sifatida;
- huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligi va amal qilishi nazarda tutilgan (2.1-rasm).



2.1-rasm. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati¹

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti) - davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi².

¹ Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2014. 99-bet.

² O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. 3-modda.

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar oʻrtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning, uning faol qismi boʻlgan milliy daromadning (qisman milliy boylikning) qiymatini qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi boʻlib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarini, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashtirishga moʻljallangan pul fondi – *davlat byudjeti* shakllanadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini taʼminlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga moʻljallangan markazlashtirilgan pul mablagʻlari fondidir.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashgan pul mablagʻlari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni koʻzda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida Oʻzbekiston Respublikasida davlat byudjeti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili¹ uchun tuziladi, koʻrib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 3-moddasida esa “davlat byudjeti” iborasi “davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan taʼminlash uchun moʻljallangan markazlashtirilgan pul jamgʻarmasi”² deb taʼriflanadi. Ushbu taʼrif davlat byudjetining yuqorida sharhlangan moddiy tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyatiga mos keladi.

“Public budgeting systems” nomli qoʻllanmada “davlat byudjeti nima?” deb qoʻyilgan savolga “Sodda qilib taʼriflaganda, byudjet - bu tashkilotning (masalan, oila, korporatsiya, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalarini, yaʼni daromadlar, xarajatlar rejasi, maqsadlar va natijalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oluvchi hujjat yoki hujjatlar yigʻindisi”³, deb taʼrif berilgan. Retrospektiv xarakterga ega boʻlgan, yaʼni oʻtgan davr maʼlumotlarini aks ettirishga asoslangan buxgalteriya hisobotidan farqli oʻlaroq, (garchi byudjet ishlab chiqilayotganda byudjetning oʻtgan davrdagi daromadlari va xarajatlari ijrosining buxgalteriya hisobi maʼlumotlaridan foydalanilsada) byudjet – kelgusida kutilayotgan daromadlar, xarajatlar va natijalarni koʻrsatuvchi perspektiv hujjat hisoblanadi. Tarixan, *byudjet* soʻzi charm karmon, hamyon, sumka maʼnosini anglatgan. Xususan, “Britaniya davlatida Xazina kansleri (Moliya vaziri) hukumatning ehtiyojlari va resurslari hajmi aks etgan bayonotini mamlakat parlamentiga charm sumkada taqdim etgan va bu hujjat keyinshalik byudjet nomini olgan”⁴.

2.2. Davlat byudjetining funksiyalari

Davlat byudjetining mohiyati uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi *funksiyalarida* namoyon boʻladi. Turli davr va turli maktab iqtisodchilari davlat byudjetining funksiyalarini yoritishga turlicha yondoshadilar. Masalan, T.Malikov, N.Xaydarov hammuallifligidagi “Davlat byudjeti” oʻquv qoʻllanmasida davlat byudjetining funksiyalari quyidagi tarzda bayon qilingan: “Davlat byudjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa boʻlinmalari singari, ikki xil funksiyani bajaradi: 1) taqsimlash; 2) nazorat.”⁵

Bu va shu kabi boshqa adabiyotlarni oʻrganish asosida, davlat byudjetining amalda namoyon boʻlish shakllarini oʻrgangan hamda koʻpchilik iqtisodchi olimlarning fikriga qoʻshilgan holda, davlat byudjeti quyidagi *asosiy funksiyalarni* bajaradi, deyishimiz mumkin (2.2-rasm):


¹ Oʻzbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning anʼanalari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, byudjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin.

² Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. OʻRQ-360-son, 26.12.2013. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015 y. 52-son, 645-modda.

³ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 14

⁴ Burkhead, J. (1956). Government budgeting, 2.

⁵ Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. Oʻquv qoʻllanma – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. 5-bet



2.2-rasm. Davlat byudjetining funksiyalari¹

- yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi;
- iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi;
- ijtimoiy funksiyasi;
- nazorat funksiyasi.

Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi. Davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda o'zining qayta taqsimlash funksiyasi bilan ishtirok etadi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida yaratilgan YaIMning qiymatidan to'lanadigan soliqlar va soliq xarakteridagi boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi asosida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi sifatida, davlatning funksiyalarini bajarish uchun sarflanadi. Ular pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoridagi markaziy va mahalliy byudjetlarga kelib tushadi. O'zbekiston Respublikasida har yili davlat byudjeti orqali mamlakat YaIMining 18-20 foizi qayta taqsimlanadi. Davlat maqsadli jamg'armalari bilan birga hisoblaganda esa bu ko'rsatkich bugungi kunda 34-35 foizni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi. Soliqlar va byudjet xarajatlari orqali byudjet iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi. Bunda byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari – aviasozlik, kosmik dasturlar va loyihalar, atom sanoati, energetika va mashinasozlik sanoatlari kabilar qo'llab-quvvatlanadi.

¹ Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2014. 101-bet.

Samaradorligi yuqori bo'lgan va o'zini tez qoplovchi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Lekin davlat byudjetining bu funksiyasidan orqada qolayotgan va qoloq ishlab chiqarishlarga moliyaviy yordam berish kabi o'tmishda mavjud bo'lgan va o'zini oqlamagan maqsadlarda foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jiddiy putur etkazishini unutmaslik lozim.

Davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat byudjeti katta o'rin egallaydi. Davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat sohalarini mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, bolalar, kam ta'minlangan oilalar) ijtimoiy himoya qilish - ijtimoiy siyosatning ustuvorliklari hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniyat sohasi keng ma'noda iqtisodiy taraqqiyotning muhim komponentlaridan biridir, bu borada jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini rivojlantirish taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shunday ekan, bu yo'nalishdagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazoratning zarurligi va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada: "byudjet hujjatlari aniq yuridik maqomga ega bo'lmasligi ham mumkin. Federal hukumat darajasida byudjet cheklangan yuridik maqomga ega bo'lib, u prezidentning Kongressga taqdim qiladigan rasmiy bayonoti hisoblanadi, lekin u hukumatning keyingi harakatlarini belgilab beruvchi rasmiy hujjat emas"¹, deb ta'riflangan. AQShning rasmiy operativ byudjeti esa bir nechta hujjatlar majmuasidan, xususan, ajratmalar to'g'risidagi qonunlardan (Appropriation Acts) iborat bo'ladi. Aksincha, munitsipal tuzilmalarning merlari tomonidan taklif qilingan mahalliy (munitsipal) byudjetlar munitsipal kengashlar tomonidan rasman qabul qilingan operativ ishchi byudjet sifatida amal qiladi.²

Boshqa hollarda hukumatning bir qator byudjet hujjatlari mavjud bo'lishi mumkin (yagona byudjet o'rniga). Bu hujjatlar tarkibiga (1) asosiy joriy xarajatlarni aks ettiruvchi operatsion byudjet; (2) yirik qurilish loyihalarini o'z ichiga olgan kapital byudjet; (3) aniq daromad manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlar uchun mo'ljallangan maxsus moliyaviy fondlar. Masalan, maxsus fondlar byudjetlari benzin va avtotransport shinalarini sotishdan tushgan maxsus soliqlar hisobidan shakllanishi va avtomagistrallarni rekonstruktsiya qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq dasturlariga yo'naltirilishi mumkin. Yoki boshqa bir misol: baliq tutish va ov qilish uchun litsenziyalardan yig'imga evaziga shakllanadigan maxsus fondlar oq qilishga mo'ljallangan suv havzalari va hududlarini sog'lomlashtirishga yo'naltiriladi.

Byudjet hujjatlarining hajmlari ham xilma-xil bo'lib, odatda, byudjet daromadlariga qaraganda, byudjet xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni o'zida aks ettiradi. Byudjetlarning xarajatlar qismi ko'pmaqsadlilik bilan ajralib turadi, shu sababli byudjetni aks ettiruvchi biron bir hujjat byudjetning funktsiyalari yoki uning ishlatilish shakllari to'g'risida to'liq xulosa chiqarishga asos bo'la olmaydi. Umumiy jihatdan qaraganda, byudjetlar (1) xarajatlar bayoni sifatida, (2) xarajatlarning tavsilotlari sifatida, (3) ustuvorliklar va maqsadli vazifalar bayoni sifatida qaralishi mumkin.³

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada ta'kidlanishicha, davlat sektorida byudjetlashtirish maqsadlar va ularga yetishish uchun zarur mablag'lar o'rtasida bog'liqlikka

¹ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 15

² Bland, R. (2007). A budgeting guide for local governments (2nd ed.). Washington, DC: International City Management Association.

³ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 15

erishishni nazarda tutadi. Davlat sektoridagi byudjet munosabatlarida qo'llaniladigan mezonlar xususiyl sektoridagi byudjetlashtirish mezonlaridan bir qadar farq qiladiki, buning asosiy sababi – davlat darajasida byudjet masalalarida qabul qilinadigan qarorlar, xususiyl sektordan farqli o'laroq, diqqat markaziga foyda olish va samara ko'rish maqsadlarini qo'ya olmaydi. Xususiyl sektorda esa byudjetlashtirish jarayonining asosiy maqsadi uzoq muddatli daromadlilik va foydalilikni ko'zlaydi va firmaning uzoq istiqboldagi moliyaviyl holatini ta'minlashga qaratiladi.

Xorijiy davlatlarda davlat darajasida byudjetlarni tuzish hukumatlarning o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatlarini oshirish vositasi sifatida yuzaga keldi. Byudjet protseduralari shunday ishlab chiqiladiki, hukumatlar jamoatchilik oldida, ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat oldida hisobdor bo'ladilar. Federal byudjet defitsiti va davlat qarzining o'sib borishi, ayrim munitsipal byudjetlarning nobarqaror holatlari borasidagi xavotirlik hukumatlarni davlatning uzoq muddatli moliyaviyl ahvoli uchun javobgarlikka tortish vositasi sifatida byudjetdan foydalanishni taqozo etdi. Mamlakat fuqarolari tobora ko'proq o'z hukumatlaridan mamlakatdagi moliyaviyl ahvol, to'langan soliqlarning sarflanishi va davlatning boshqa dasturlarining moliyaviyl ta'minlanishi to'g'risida hisob berishlarini talab qila boshladilar. Bunday sharoitda byudjetni tuzish, uni ommaga e'lon qilish va ijrosi bo'yicha soliq to'lovchilarga hisob berish masalasi byudjet islohotlariga asos bo'lib xizmat qilgan.¹

Xulosa qilib aytganda, davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun, shuningdek, taraqqiyotning u yoki bu bosqichida uning oldida turgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviyl resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Shu bilan birga, mablag'larni davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash ko'lamiga ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasiga, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish ko'lamlariga, ijtimoiyl sohadagi davlatning majburiyatlari ko'lamiga, aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining qamrovliligiga bog'liq. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va taribga solishda, ijtimoiyl-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum vazifalarni bajaradi. Lekin bu vazifalarning samarali bajarilishi tegishli byudjet mexanizmining ishlab chiqilishini va samarali ishlashini taqozo etadi.

2.3. Davlat byudjetining mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari


Davlat moliyasi davlatning markazlashgan pul daromadlarini shakllantirish va ulardan o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish maqsadida turli yo'nalishlarda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarning turli-tumanligi asosida davlat moliyasining bir qator aniq tashkiliyl shakllari shakllanadi. Bular:

- davlat byudjeti;
- davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari;
- davlat krediti;
- davlat korxonalari moliyasi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra *davlat moliyasi* – davlatning va uning mulkidagi davlat korxonalarining ixtiyorida moliyaviyl resurslarning shakllanishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyat a'zolarining ortib borayotgan ijtimoiyl-madaniyl ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaasi va davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida sodir bo'ladigan pul munosabatlari yig'indisidir.

Davlat moliyasi sohasida sodir bo'ladigan pul munosabatlarining subyektlari bo'lib davlat (hukumatning tegishli organlari timsolida), yuridik shaxslar (korxona va tashkilotlar timsolida) va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.

¹ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 21.



2.3-rasm. Mamlakat moliya tizimining tarkibiy tuzilishi¹

Davlat moliyasining iqtisodiy mazmuni bir xilda emas: uning tarkibida alohida bo‘g‘inlarni ajratib ko‘rsatish mumkin, ularning har biri o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Davlat moliyasining tarkibiga quyidagilar kiradi: davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalari, davlat krediti, davlat korxonalari moliyasi (2.3-rasm). Har bir bo‘g‘inning turlicha funksional tayinlanishga ega ekanligidan davlat keng miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi, tarmoq va hududiy muammolarni hal qiladi.

Davlat moliyasining bosh va markaziy bo‘g‘ini davlat byudjetidir. Davlat byudjeti – davlatning markazlashgan pul fondi bo‘lib, asosan yuridik va jismoniy shaxslarning soliqlari va majburiy to‘lovlari evaziga shakllanadi va davlatning turli vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta‘minlashga yo‘naltiriladi.

Davlat byudjeti davlatning qonun kuchiga ega bo‘lgan asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi. Byudjet hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat moliyasining ahamiyat jihatdan muhim bo‘g‘inlaridan yana biri – *davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalari* bo‘lib, ular jamiyatning ayrim ehtiyojlarini mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish shakli hisoblanadi. Bu fondlarning asosiy tayinlanishi maxsus maqsadli ajratmalar va boshqa qator manbalar hisobidan davlatning aniq maqsadli tadbirlarini moliyalashtirishdan iborat.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning turlari, maqsadli tayinlanishi, ularga egalik qilish huquqi, amal qilish davomiyligi turlicha bo‘lishi mumkin. U yoki bu fondni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilishda davlat va jamiyat taraqqiyoti oldida turgan vazifalarning ustuvorligi muhim ahamiyatga ega.

¹ Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 27-b.

Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan fondlar davlat maqsadli jamg'armalari deb ataladi. Bu fondlarning xususiyati shundaki, davlat byudjetida defitsit yuzaga kelganda ularning ijobiy qoldig'i byudjet defitsitini qoplashga safarbar etilishi mumkin. Shuningdek, byudjetdan tashqari fondlarning joriy faoliyatida kassaviy uzilishlar bo'lgan hollarda davlat byudjetidan byudjet dotatsiyalari berilishi yoki boshqa shakldagi moliyaviy yordam ko'rsatilishi mumkin.

Davlat krediti – davlat bilan (uning hokimiyat va ijroiya organlari timsolida) yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari o'rtasidagi muddatlilik, qaytishlilik va to'lovlilik asosida pul mablag'larining harakati bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarda davlat qarz oluvchi, qarz beruvchi (kreditor) yoki olingan (berilgan) qarzlarni bo'yicha garant (kafil) sifatida ishtirok etadi.

Davlat korxonalarini moliyasi davlat moliyasining o'ziga xos bo'g'ini bo'lib, bunda u YalMning birlamchi taqsimotida bevosita ishtirok etadi. Davlat korxonasi ustav kapitalining shakllanishida byudjet mablag'lari, boshqa davlat korxonalarining badallari, markazlashgan fondlar va vazirliklar, mahkamalar, uyushmalar qoshida tuziladigan rezervlari asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti markaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali davlatning qo'lida katta hajmdagi moliyaviy resurslar to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat anfaatlarni inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlar uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordamida moliyaviy resurslarni jamlash bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet ajratmalarining hajmi oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o'sha sektorlardan mablag'larni davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlarining rivojlanishida asosiy manba rolini ham o'ynashi mumkin. Masalan, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo'lsa, uning paydo bo'lishini hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli obyektiv va subyektiv omillarning ta'siri ostida ayrim subyektlarning o'z moliyaviy resurslari ularning sog'lom faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lmay qolganda chetdan mablag' jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida davlat byudjeti mablag'lari subyektlarning o'z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so'ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalaniladi.

Subyektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda davlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- moliyaviy resurslarga bo'lgan yangi talabni kelgusi byudjet yilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

- moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud byudjet resurslarini bir obyektidan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim subyektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqqan olmasligi bilan izohlanadi;

- qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyot korxonalarini texnika vositalari bilan qayta qurollantirishda alohida ahamiyatga ega. Byudjetdan iqtisodiyotga qilinayotgan xarajatlarni markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, eng avvalo, ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot) xarajatlarni moliyalashtirish, oilalarga ijtimoiy nafaqa berish, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini

moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda davlat byudjetining ahamiyati beqiyosdir.

2.4. Byudjet munosabatlari, ularning ko'pqirraliligi

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat maqsadli jamg'armalaridagi vaqtinchalik kassaviy uzilishlar mablag' bilan qoplanishi mumkin, o'z navbatida, davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari davlat byudjetida yuzaga kelgan taqchillikni qoplashning noinflyatsion manbasi bo'lib xizmat qiladi;

- davlat krediti orqali davlat o'z majburiyatlarini bajarish uchun ichki va tashqi manbalardan qarz oladi, shuningdek mamlakat ichkarisidagi subyektlarga hamda xalqaro moliyaviy munosabatlarining ishtirokchilari bo'lgan subyektlarga qarz beradi, byudjetning taqchilligini qoplash manbai sifatida ham davlat qarzi maydonga chiqadi, shu munosabatlarda davlat byudjeti bilan davlat moliyasining alohida bo'g'ini bo'lgan davlat krediti o'rtasida muayyan moliyaviy munosabatlar sodir bo'ladi;

- mamlakat moliya tizimining alohida sohasi bo'lgan tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi orqali davlat byudjetining daromad manbai bo'lgan qo'shilgan qiymat, foyda, daromad yaratiladi va ularning qayta taqsimlanishi asosida davlat byudjetiga daromad va tushumlar kelib tushadi, o'z navbatida, davlat byudjeti mablag'laridan bu korxonalar resurslarining shakllanishida ma'lum ko'lamlarda foydalaniladi, buni davlat byudjetining iqtisodiyotga va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar harakatida ko'rish mumkin;

- ma'lumki, moliya tizimining alohida bo'g'ini notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi muassasa va tashkilotlarda sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi, ularning aksariyatini esa turli tarmoq va sohalardagi byudjet tashkilotlari tashkil qiladi, ularning joriy faoliyatini, ayrim hollarda kapital mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish yuzasidan ular bilan davlat byudjeti o'rtasida byudjet mablag'larining taqsimlanishi bilan bog'liq munosabatlar sodir bo'ladi;

- shuningdek, davlat byudjeti bilan uy xo'jaliklari o'rtasida ijtimoiy transfertlarning ajratilishi, davlat mablag'lari bilan mustahkamlangan imtiyozli kreditlarning berilishi yuzasidan muayyan moliyaviy munosabatlar shakllanadi, shu bilan birga, uy xo'jaliklari ham soliqlar, majburiy to'lovlar, zaym obligatsiyalar sotib olish kabilar bilan davlat byudjet resurslarining shakllanishida ishtirok etadilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

5. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimada?
6. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida, moddiy tushuncha sifatida, huquqiy kategoriya sifatida amal qilishini tushuntirib bering.
7. Davlat byudjeti funksiyalarining amal qilishini misollar asosida ta'riflab bering.
8. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimida qanday o'rin egallaydi, uning boshqa bo'g'inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

4. Turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan "Davlat byudjeti" tushunchasiga berilgan ta'riflarni aniqlang, ularning byudjetning kelib chiqishi bilan bog'liq ma'lumotlarini solishtiring.

5. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash nisbatlarini xarakterlovchi ma'lumotlarni to'plang, solishtiring va taqsimlash nisbatlarining turlicha bo'lish sabablarini tushuntirib bering.

3-MAVZU. BUDJET TUZILISHI VA BUDJET TIZIMI


REJA:

- 3.1. Davlat tuzilishi shakllari va ularning mamlakatdagi byudjet tuzilishiga ta'siri. Byudjet tuzilishi modellari
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi asoslari. Byudjet tizimi. Byudjet tizimi byudjetlari to'g'risida tushuncha
- 3.3. Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari
- 3.4. Konsolidatsiyalashgan byudjet tushunchasi, unu tuzishning zarurligi va maqsadi

Tayanch so'z va iboralar: davlat tuzilishi shakllari; byudjet tuzilishi; byudjet tizimi; byudjetlari byudjetlararo munosabatlar; konsolidatsiyalashgan byudjet; Byudjet tuzilishi modellari; unitary davlat tuzilishi; federativ davlat tuzilishi

3.1. Davlat tuzilishi shakllari va ularning mamlakatdagi byudjet tuzilishiga ta'siri. Byudjet tuzilishi modellari

Byudjet tuzilishining qanday bo'lishi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provintsiyalar, oblastlar, o'lkalar, erlar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar *unitar* va *federativ* (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan (3.1-rasm).



3.1-rasm. Turli davlatlarning davlat tuzilishi shakllari xususiyatlari¹

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.

Unitar davlatlarga Angliya, Frantsiya, Italiya, Vengriya, Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi.¹

¹ Nurmuxamedova B. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2014. 114-bet

Federatsiya davlat tuzilishining ancha murakkab shakli hisoblanadi. Federativ davlat bir qancha boshqa davlatlardan yoki federatsiya a'zosi (subyektlari) bo'lgan davlat tuzilmalari (shtatlar, kantonlar, ittifoqdosh yoki avtonom respublikalar va b.)dan tarkib topadi. Ularning har biri o'z ma'muriy-hududiy bo'linishiga ega. Butun federatsiya uchun umumiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, har bir federatsiya subyektining hududida o'z davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy va mahalliy organlari faoliyat ko'rsatadi. Federatsiya a'zolari (subyektlari) o'zining sud organlari va boshqa adliya organlariga ham ega bo'ladi, o'z konstitutsiyasi va qonunlarini qabul qiladi.² Federativ davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh, Kanada, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya kabi davlatlar kiradi.

Konfederatsiya nisbatan kam tarqalgan davlat tuzilishi shaklidir. Konfederatsiya davlatlar birlashmasi yoki ittifoqi bo'lib, uni tashkil etuvchi davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'zining hokimiyat, boshqaruv va adliya organlariga ega bo'ladi. Konfederatsiyaga a'zo davlatlar o'z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qo'shma organlar tuzadi. Mazkur organlar qat'iy belgilangan sohalarida faoliyat ko'rsatadi va qat'iy belgilangan (iqtisodiy, siyosiy, harbiy va b.) maqsadlarni ko'zlaydi. Konfederatsiyaga ba'zan davlatlarning federatsiyaga birlashish sari tutgan yo'lidagi oraliq bo'g'in deb ham qaraladi. Konfederatsiya alomatlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da ham mavjud.

Konfederatsiya - davlatlarning ittifoqi bo'lib, xalqaro-huquqiy xarakterga ega. Konfederatsiya yangi davlatning vujudga kelishiga olib kelmaydi. Jahon tarixida konfederatsiyalar vujudga kelib, ulardan federativ davlatlar ajralib chiqqanligi bilan bog'liq voqealar uchrab turadi. Ayrim davlatlar amalda federativ davlatlar bo'lsada (Shveytsariya, Kanada), o'z nomlarida konfederatsiya qo'shimchasini saqlab qolganlar. Yaqin o'tmishga qaraydigan bo'lsak, ayrim konfederatsiyalar tashkil etilib, uzoqqa cho'zilmaganligiga guvoh bo'lamiz (masalan, Senegambiya - Senegal va Gambiyaning 1981-1988-yildagi ittifoqi).

Byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjetini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet tizimi byudjetlari tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi (3.2-rasm).

Byudjet tuzilishining asosini mamlakatning davlat tuzilishi shakli, amaldagi qonun hujjatlari, davlat byudjetining iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi o'rni belgilab beradi.

Unitar davlatlarda, odatda ikki pog'onali byudjet tizimi amal qiladi:

- davlat byudjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, davlat byudjeti, markaziy byudjet, respublika byudjeti, hukumat byudjeti kabi);
- mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali byudjet tizimi shakllangan bo'lib, quyidagi bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

- federal byudjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat byudjeti, markaziy byudjet, federal byudjet);
- federatsiya subyekt(a'zo)larining byudjetlari;
- mahalliy (munitsipal) byudjetlar.


Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda bir qancha *byudjet tuzilishi modellari* shakllangan:

¹ Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoev – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2006 yil. - 584 bet. Manba: <http://www.lex.uz/dictionary>

² Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2006 yil. - 584 bet. Manba: <http://www.lex.uz/dictionary>

- markazlashmagan (nomarkazlashgan) model;
- markazlashgan model;
- aralash model.

Byudjet qurilishining *markazlashmagan (nomarkazlashgan) modelida* markaziy va mahalliy byudjetlar avtonom (mustaqil) bo‘lib, ularning har biri o‘z xarajatlarini to‘liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo‘ladi.



3.2-rasm. Byudjet tuzilishining tarkibi¹

Markazlashgan model barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy byudjet barcha mahalliy byudjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchilik vazifasini bajaradi.

Byudjet qurilishining aralash modeli barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir mahalliy byudjetning o‘z xarajatlarini qoplashga mo‘ljallangan o‘z daromad manbalari mavjud bo‘lgani holda, har bir yuqori turuvchi byudjet o‘zidan quyi turuvchi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini o‘taydi.

Byudjet tuzilishining har qanday modeli byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish shakli sifatida, quyidagi uchta holatning mavjudligiga asoslanadi: birinchidan, hokimiyatning barcha darajalarida xarajat vakolatlarining aniq chegaralanishi; ikkinchidan, bu vakolatlarni to‘liq bajarish uchun har bir

Fiskal federalizm – federal hukumat va hududiy hokimiyatlarning moliya sohasidagi vakolatlarining o‘zaro taqsimlanishi.

Мапба: Экономика и право: словарь-справочник. - М.: Вуз и школа. Л. П.Кураков и др. 2004.

¹ Nurmuxamedova B. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2014. 113-bet

darajadagi hokimiyatning yetarli fiskal resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi; uchinchi, byudjet tizimidagi vertikal va gorizontal nomutanosiblikni byudjet transfertlari yordamida tekislash va shu asosda mamlakatning barcha hududlarida davlat xizmatlarining bir xildagi standartini ta'minlash.

Lekin jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hech bir mamlakatda fiskal federalizmning eng mukammal modelini yaratishga muvaffaq bo'linmagan. Mamlakatlardagi siyosiy, tarixiy va milliy omillarning ta'sirida dunyoda turlicha byudjet tizimlari shakllangan bo'lib, ular bir-biridan jiddiy farq qilish bilan birga, ko'p hollarda nazariy jihatdan eng oqilona hisoblangan modellarga ham zid keladi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi asoslari. Byudjet tizimi. Byudjet tizimi byudjetlari to'g'risida tushuncha

Byudjet qurilishining asosiy tarkibiy qismi *byudjet tizimidir*. Bir qator adabiyotlarda byudjet tizimi tushunchasiga keng ma'noda va tor ma'nodagi yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagicha ta'riflar berilgan:

Keng ma'noda byudjet tizimi – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat tuzilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy byudjetlar yig'indisidan, shuningdek, har bir byudjet bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar yig'indisidan, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning xarajat vakolatlari taqsimoti hamda byudjetlararo transfertlar yig'indisidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 6-moddasida: "*Byudjet tizimi* barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi"¹, - deb ta'rif berilgan.

Tor ma'noda byudjet tizimi mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilishiga mos ravishda shakllangan va yagona byudjet tizimiga kiruvchi barcha darajadagi byudjetlar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimini shakllantirish, shuningdek, byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har moliyaviy yil qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risidagi" Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun tasdiqlanadigan "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi tuzilishining *asosiy tamoyillari* quyidagilardan iborat²:

1. *Byudjet tizimining yagonaligi printsiipi* – byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo'lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutadi.

2. *Byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi printsiipi* – byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Ushbu printsiipga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining har bir ma'muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman) o'z byudjetiga ega bo'lib, u mamlakatdagi yagona byudjet tizimining tegishli darajadagi bo'g'inini tashkil qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 2-bob, 6-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, I-bo'lim, 2-bob, 7-17-moddalar.

3. *Byudjet tizimi byudjetlarining balansiligi va o'zaro bog'liqligi printsiplari* – byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak. Bu printsiplari byudjet tizimi tuzilmasidagi har bir byudjet(respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar)ning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishini, shu bilan birga, byudjet ijrosida daromad va xarajatlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosibligi byudjetlararo transfertlar mexanizmlari yordamida tekislanishi lozimligini nazarda tutadi, ya'ni byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda ularning mablag'lari mazkur byudjetlarning balansiligini ta'minlash uchun turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

4. *Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarni rejalashtirish printsiplari* ko'ra, byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

5. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati printsiplari* byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi. Tasdiqlangan byudjetda nazarda tutilmagan, yoki byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga kiritilmagan yoxud byudjet tasnifida ko'zda tutilmagan maqsadlarga xarajat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. *Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi printsiplari* har bir byudjet o'z daromad manbalariga ega ekanligi, xarajat yo'nalishlarini belgilashda mahalliy hukumat organlari ma'lum xarajat vakolatlariga ega ekanliklari, mahalliy byudjetlarni tasdiqlash, shuningdek, ijrosi yuzasidan hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash vakolatlari mahalliy boshqaruv organlariga berib qo'yilganligi bilan izohlanadi.

7. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi printsiplari* byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida o'z byudjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda muayyan natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu printsiplari "natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish" talablaridan kelib chiqqan holda Byudjet Kodeksiga kiritilgan bo'lib, byudjet xarajatlarni amalga oshirishda bevosita rejaning bajarilishiga emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida xarajatlarning natijaviylikka yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

8. *Kassaning yagonaligi printsiplari* byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Moliya vazirligi G'aznachiligining Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilishini va ularning barcha xarajatlarni to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ushbu printsiplarning amal qilishi davlat byudjeti mablag'larining hajmi va harakati to'g'risida tezkor axborotlarga ega bo'lish, byudjet mablag'larini samarali boshqarish, vaqtinchalik kassaviy uzilishlarning oldini olish, byudjet ijrosining operativ joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

9. *Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi printsiplari* byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishini nazarda tutadi, chunki davlat byudjetining shakllanishida jamiyatning ko'pchilik a'zolari – yuridik va jismoniy shaxslar bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, keng jamoatchilikning mablag'lari evaziga shakllangan moliyaviy resurslarning maqsadga muvofiq ishlatilishi uchun javobgarlik iqtisodiy, ma'muriy (ayrim hollarda jinoiy) huquq normalari bilan tartibga solinadi.

10. *Ochiqlik printsiplari* davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, tasdiqlangan davlat byudjeti to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini (chop etilishini), byudjet ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi.

Barcha darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi – daromadlar va xarajatlarni tasnif obyektlariga ko‘ra guruhlovchi xos raqam(kod)lar berish bilan guruhlash ko‘rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi. *Byudjet tasnifi* – O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining guruhlanishidan iborat.

Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma‘lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va byudjet ma‘lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Byudjet tasnifi:

- davlat byudjeti daromadlari tasnifini;
- davlat byudjeti xarajatlari tasnifini;
- davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o‘z ichiga oladi.

Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuqorida ta’riflangan davlat byudjeti tuzilmasi *O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan* tashkil topgan. Bu byudjetlar mamlakatimizdagi davlat byudjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo‘lib xizmat qiladi.

Respublika byudjeti byudjet tizimining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Respublika byudjeti Byudjet Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va ishlatiladi. *Respublika byudjeti* davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining barcha daromadlari tarkibida Respublika byudjeti daromadlari o‘rtacha 52-58 foizni tashkil qiladi, davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlarning esa 44-46 foizi respublika byudjeti hisobiga to‘g‘ri keladi

Mahalliy byudjetlar darajasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahar byudjeti e’tirof etiladi. Ularning tarkibiga, o‘z navbatida, mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq ravishda quyi (shahar, tuman) byudjetlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 5-bob, 35-moddasiga muvofiq, mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar tuzilmasiga quyidagi byudjetlar kiradi:

- *Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti* tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi;
- *viloyatlar mahalliy byudjetlari* tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi;
- *Toshkent shahar mahalliy byudjeti* tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo‘ljallangan xarajat yo‘nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

3.3. Byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, pirovardida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida hududlar taraqqiyoti orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishilganligini xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmi, mahalliy byudjetlarning barqarorlik ko'rsatkichlari ko'p jihatdan shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'z vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, hududlardagi vakolatli hokimiyat organlarining soliq qonunchiligida belgilangan mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalarini o'zgartirish huquqi qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalarining belgilanishi va ular qonun asosida mahalliy byudjetlarga biriktirib qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlashdan manfaatdorligini oshiradi. Bunda mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan mablag'larning tartibga soluvchi manbalari belgilangan bo'lib, ularning jumlasiga belgilangan me'yorlar bo'yicha umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan mablag'lar kiradi. Barcha darajalardagi byudjetlar xarajatlarining yo'nalishlari aniq taqsimlab qo'yilganligi, shuningdek qo'shimcha daromadlarni taqsimlashda mustaqillikka ega ekanliklari mahalliy hokimiyat organlarining byudjet mablag'larini mintaqaviy rivojlanish dasturlariga muvofiq samarali sarflab borish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq, mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

- 1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;
- 2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- 3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 4) bozorlardan tushadigan daromadlar;
- 5) boshqa daromadlar.

Xorijiy mamlakatlar byudjet amaliyoti tajribalaridan ma'lumki, mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish darajasining turlicha ekanligi va boshqa omillar sababli mintaqalar ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatining boshlang'ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning eng muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash va barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga esa davlatning moliyaviy resurslarini byudjetlararo munosabatlar orqali qayta taqsimlash orqali erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining "Byudjetlararo munosabatlar" deb nomlangan alohida bobida byudjetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari o'z aksini topgan.

Byudjetlararo munosabatlar turli darajadagi byudjetlar (masalan, respublika byudjeti bilan viloyat byudjeti) o'rtasidagi, shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir.

Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida *byudjet transfertlari shakllari* asosida qayta taqsimlanadi. Byudjet transfertlarining Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan quyidagi shakllari amalda qo'llaniladi:

subvensiyalar - muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablagʻlari;

oʻtkazib beriladigan daromadlar - tegishli maʼmuriy-hududiy birlikda (masalan, biror tuman, shahar yoki viloyat hududida) shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga oʻtkaziladigan, keyinchalik ular qayerda shakllangan boʻlsa, oʻsha maʼmuriy-hududiy birlik byudjetiga oʻtkazib beriladigan daromadlar;

dotatsiyalar - byudjet tizimi byudjetlariga ularning oʻz daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar oʻrtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablagʻlari;

byudjet ssudalari - qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlariga ajratiladigan pul mablagʻlari;

oʻzaro hisob-kitoblar boʻyicha mablagʻlar - moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari oʻzgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar oʻrtasida yuzaga keladigan oʻzaro pul munosabatlari.

Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari Byudjet Kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalarning miqdori quyidagilarga bogʻliq:

- hududlarning moliyaviy holatiga, jumladan, ularning oʻz daromad bazalarining mustahkamligiga;
- hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari koʻlamiga;
- hududlar boʻyicha tovar(ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- hududlardagi aholi soniga;
- ushbu hududda joylashgan va tegishli byudjetdan mablagʻ oluvchi tashkilotlarning byudjet ajratmalariga boʻlgan ehtiyojiga;
- hududlar oʻrtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim boʻlgan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga koʻra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega boʻlishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligiga yoʻl qoʻyilmasligi lozim.

Bundan tashqari, Byudjet Kodeksi bilan mahalliy byudjetlar uchun quyidagi cheklovlar oʻrnatilgan, yaʼni Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda quyidagilarga yoʻl qoʻyilmaydi:

- mablagʻlar jalb qilishni amalga oshirish, bundan yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish mustasno;
- tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablagʻlardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish;
- tegishli byudjetlar mablagʻlari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berish.

Shunday qilib, “Byudjetlararo munosabatlar - byudjet mexanizmining muhim ajralmas elementi boʻlib, mamlakatning maʼmuriy-hududiy tuzilmalari subyektlari oʻrtasida markaziy boshqaruv tomonidan barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni taʼminlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni oʻzaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablagʻlarining bir qismini ushbu subyektlar oʻrtasida qayta taqsimlanishini oʻz ichiga oluvchi munosabatlarni anglatadi”¹.


3.4. Konsolidatsiyalashgan byudjet tushunchasi, unu tuzishning zarurligi va maqsadi

¹ А.Вахобов, Х.Жамолов. Согласование межбюджетных отношений. «Молия». Т.; 2002г.

Bugungi kunda davlat byudjetida Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan davlat maqsadli jamg'armalari ham konsolidatsiyalashadi va davlat byudjeti bilan birgalikda jamlanma byudjetni (konsolidatsiyalashgan byudjet) tashkil qiladi.

Konsolidatsiyalashgan byudjet O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibi rasmda ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi (3.5-rasm):



3.5-rasm. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining tarkibi¹


- Davlat byudjeti;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti bilan bir qatorda, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tarkibidan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi "ijtimoiy sug'urta fondi" negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat byudjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda "nobyudjet fondlar" yoki "byudjetdan tashqari fondlar" deb yuritilgan. Shuningdek, Byudjet kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bo'lgan oxirgi o'n yilliklar davomida "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg'armalarning davlat byudjetida konsolidatsiyalanishi (jamlanishi) belgilab berildi va ular byudjet nazariyasi va amaliyotida "davlat maqsadli jamg'armalari" degan umumiy nom oldi. Lekin jamlanma byudjet tarkibiga kirmagan, shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari hukumatning tegishli qarorlari bilan belgilab qo'yilgan, vazirliklar va boshqa davlat idoralari tasarrufidagi fondlar ham bugungi kunda davlatning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 7-bob, 46-modda asosida.

uchun xizmat qilib kelmoqda va ularga nisbatan adabiyotlarda “maqsadli fondlar” iborasi qo‘llanilmoqda.



3.6-rasm. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti tuzilmasi¹

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet tuzilishi deganda nima tushuniladi?
2. Unitar va federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tuzilishi modellarini tavsiflab bering.
3. Byudjet tizimiga ta'rif bering.
4. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi qanday tamoyillarga asoslanadi?

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 46-moddasi asosida

5. O'zbekiston Respublikasida qaysi qonun byudjet tizimi faoliyatini belgilaydi?
6. Byudjetlararo munosabatlar nima va O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida byudjetlararo munosabatlarning qaysi shakllaridan foydalaniladi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Unitar va federativ davlatlarda byudjet tuzilishini tavsiflovchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.
2. Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi bo'yicha taqdimot tayyorlang.

4-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI

REJA:

- 4.1. Byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi
- 4.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, mazmuni va ahamiyati
- 4.3. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati
- 4.4. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari

Tayanch so'z va iboralar: *byudjet qonunchiligi; Byudjet Kodeksi; Soliq kodeksi; qonuniy-huquqiy hujjatlar; respublika byudjeti; mahalliy byudjetlar; xalqaro me'yorlar va qoidalar; huquqiy demokratik davlat; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari; byudjet masalalaridagi qarorlar; mahalliy davlat hokimiyati.*

4.1. Byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng, xo'jalik yuritishning bozor tizimiga o'tilishi, iqtisodiyot bozor infratuzulmasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo'jalik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratishni talab etdi. Undan tashqari, jahondagi glaballashuv jarayonlarida faol qatnashayotgan O'zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish va tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pog'onasiga ko'tarish talab etilmoqda¹.

Bizga ma'lumki, mamlakatda sodir bo'layotgan har qanday jarayonlar tegishli qonuniy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Bosh hujjat esa – bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Byudjet munosabatlarini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy hujjat ham Konstitutsiya hisoblanadi. Davlat byudjeti bilan bog'liq bo'lgan barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham Konstitutsiya bilan belgilab qo'yilgan normalar asosida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Davlat byudjeti va uning tuzilishi bilan bog'liq normalar Konstitutsiyaning XXV bobida "O'zbekistonning Davlat byudjeti respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat"² ekanligi belgilab quyilgan.

Ma'lumki, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mos huquqiy bazaga tayanishi lozim. Shu sababli yangi qonunlar turkumini ishlab chiqish zaruriyati tufayli O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi. Bunday qonunlar avvalgi "markazlashtirilgan rejali tizim ruhi bilan sug'orilgan", haddan tashqari mafkuralashtirilgan, xalqaro me'yorlar va qoidalarining talablarini inkor etuvchi sovet davri qonunlarining o'rniga keldi va yosh mustaqil davlatimizning huquqiy demokratik yo'ldan og'ishmay ravnaq topishi uchun xizmat qila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet qurilishi, byudjet tizimining amal qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalaridagi (markaziy, hududiy va mahalliy) byudjet borasidagi vakolatlari byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

¹ Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYUN ISTIQLOL MO'JIZASI. 2009. 87-88-betlar

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 122-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 213-modda

Byudjet qonunchiligi – byudjet munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turishga xizmat qiluvchi barcha qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisi. Huquqiy me'yorlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, byudjet qonunchiligini bir necha darajaga ajratish mumkin:

1-daraja – O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi - byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2-daraja – O'zbekiston Respublikasi hukumatining (Vazirlar Mahkamasining) byudjet masalalaridagi qarorlari.

3-daraja – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va byudjet sohalariga taalluqli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlari (Nizomlar, Yo'riqnomalar, Qoidalar)

4-daraja – mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari (Masalan, tegishli viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjeti parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarining qarorlari).

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan va O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni va byudjet masalalari bo'yicha boshqa qonuniy va normativ xujjatlardan tashkil topgan.


O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri 2004 yil 26 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II sonli Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

Keyingi yillarda ham davlat byudjeti g'azna ijrosining me'yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 69-sonli (04.08.2009) buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2007-raqam (16.09.2009) bilan ro'yxatga olingan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari"ning qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Mazkur "Qoidalar" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Xususan, ushbu "Qoidalar" muqaddam amal qilib kelgan bir qator me'yoriy xujjatlarni o'zida mujassamlashtirdi va G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartiblarini belgilab berdi.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, mazmuni va ahamiyati

Ma'lumki, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o'tgan davr mobaynida byudjet tizimi amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ular:

- davlat byudjeti ijrosi g'aznachilik tizimining joriy etilishi;



4.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining tasnifi

- bir qator davlat maqsadli jamgʻarmalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qoʻshimcha mablagʻlarni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bogʻliq boʻlib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi hamda “Davlat byudjetining gʻazna ijrosi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida oʻz aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan.

Ushbu Kodeks Oʻzbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, koʻrib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish va byudjet toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 2013 yil 26 dekabrda qabul qilingan boʻlib, 9 ta boʻlim, 28 ta bob, 192 moddadan iborat. Ushbu Kodeks:

- Oʻzbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjetini tuzish printsiplari va uning tuzilmasini;
- davlat byudjetini tuzish, koʻrib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish printsiplarini;
- davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni;
- davlat byudjeti mablagʻlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartiblarini belgilab beradi.

Kodeksda byudjet tizimi va byudjet tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar tarkibi, davlat byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi, respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet boʻgʻinlari oʻrtasida taqsimlash tartiblari, byudjet jarayonini tashkil qilish tartiblari; byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari, davlat maqsadli jamgʻarmalari, ularni tashkil qilish va ular mablagʻlaridan foydalanish tartibi kabilar belgilab berilgan.

Yangi Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud boʻlgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarini bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi meʼyorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Byudjet Kodeksining alohida boblarida byudjet tizimi, uning tamoyillari, byudjet tizimini boshqarish organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari, byudjet tizimi tarkibiga kiruvchi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari kabilar belgilab berilgan.

Umuman olganda Byudjet kodeksi 50 ga yaqin qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlarini oʻz ichiga oladi. Moliya-byudjet tizimida mazkur huquqiy hujjatning qabul qilinishi bilan Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi davlatlari orasida oʻz Byudjet kodeksiga ega boʻlgan davlatlar safiga qoʻshildi (4.1-jadval).

Xalqaro tajribada Byudjet kodeksi – maʼlum bir mamlakat byudjet tizimining asoslarini, uning tuzilishi, umumiy printsiplarini, turli darajadagi byudjetlar va ularning vakolatlarini, byudjet jarayoni asoslari va byudjetlararo munosabatlarni, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi qonun hujjati hisoblanadi. Oʻzbekistonda mazkur

Kodeks mamlakatimizning mustaqillik davridagi qonunchilik faoliyatida qabul qilingan oʻn oltinchi kodeks boʻlib, u koʻpqirrali moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi Bojxona va Soliq kodekslaridan keyin qabul qilingan byudjet-moliya sohasiga taalluqli boʻlgan uchinchi kodeksdir.

4.1-jadval

MDH davlatlarida Byudjet kodeksining mavjudligi toʻgʻrisida maʼlumot

№	MDH davlatlari	Byudjet kodeksining mavjudlik holati
1.	Armaniston	mavjud emas
2.	Belorussiya	mavjud, 16.07.2008 yilda qabul qilingan
3.	Moldaviya	mavjud emas
4.	Ozarbayjon	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
5.	Rossiya	mavjud, 31.07.1998 yilda qabul qilingan
6.	Tojikiston	mavjud emas
7.	Turkmaniston	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
8.	Ukraina	mavjud, 21.06.2001 yilda qabul qilingan
9.	Qozogʻiston	mavjud, 04.12.2008 yilda qabul qilingan
10.	Qirgʻiziston	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
11.	Oʻzbekiston	mavjud, 26.12.2013 yilda qabul qilingan

Yuqorida sanab oʻtilgan barcha oʻzgartirishlar va yangiliklar ilgʻor xalqaro tajribani oʻrganish asosida joriy etilgan boʻlib, ularda mamlakatimiz byudjet tizimining samaradorligi hamda ochiq-oydinligini yanada oshirish koʻzda tutilgan.

4.3. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga biznesni yuritish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasidagi engilliklar, kichik biznes subʼektlariga berilayotgan preferentsiyalar soliq mexanizmlarini ham yanada takomillashtirishni hamda yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

2007 yilgacha amalda boʻlgan Soliq kodeksi 135 moddadan iborat boʻlib, soliq munosabatlarini tartibga solishda u bilan birga koʻpgina yoʻriqnoma, nizom va tartiblar ham qoʻllanilar edi. Soliq qonunchiligiga tez-tez oʻzgartirishlar kiritilishi va soliq normalarining boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi muayyan noaniqlik, tushunmovchilik va soliq normalarining har xil talqin qilinishiga olib kelardi, bu aksariyat hollarda soliq toʻlovchilarning haqli eʼtirozlariga sabab boʻlardi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oʻn ikkinchi yalpi majlisida soliq siyosati va tizimini yanada isloh qilish hamda erkinlashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi maʼqullanib, Prezident tomonidan imzolanganidan soʻng, 2008 yil 1 yanvaridan eʼtiboran kuchga kirdi. Kodeksda koʻzda tutilgan meʼyor va qoidalar, avvalo, soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror hamda mutanosib rivojlantirishda soliqlarning ragʻbatlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

“Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasiga binoan, ikki yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam monitoring va tahlil qilib borish, zarur boʻlgan hollarda esa uni yanada takomillashtirish uchun takliflar kiritish belgilandi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida idoralararo maxsus guruh va uning doimiy ishchi organi tuzildi. Ikki yil mobaynida ushbu ishchi organga Soliq kodeksini takomillashtirish

bo'yicha mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Ular asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan seminarlarda, davra suhbatlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, tadbirkorlar, tijorat banklari, xalqaro moliya tashkilotlari va ekspertlar tomonidan berilgan takliflar bo'lib, 2008 yildayoq ana shu takliflar asosida Soliq kodeksining 79 ta moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam ravishda monitoring va tahlil qilib borish bo'yicha belgilangan muddatning ikkinchi yilida, ya'ni 2009 yil mobaynida kelib tushgan takliflar asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda "Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlar loyihalari Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritilgan. Quyi palata tomonidan qabul qilingan mazkur qonunlar Senatning yigirmanchi yalpi majlisida ma'qullandi hamda Prezident tomonidan imzolaniib, 2010 yil 1 yanvaridan hayotga tatbiq etila boshlandi¹.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi² soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeks 64 ta bob, 392 moddadan iborat bo'lib, u soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi. Jumladan, yangi Kodeksda iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlarida bayon etilgan normalar to'liq ifodasini topgan.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining tadbirkorlar imkoniyatlarini kengaytirish va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatga katta. Unga muvofiq, soliqqa tortish masalalarida baxsli holatlar yuzaga kelganda, masala soliq to'lovchi foydasiga hal etiladi. Soliq kodeksiga (avvalgi tahrirdagi kodeksda mavjud bo'lmagan) soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsipli kiritildi, ya'ni soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchi foydasiga talqin etiladi va bu Soliq kodeksining tamoyillarida alohida belgilab qo'yildi.

Soliq kodeksining 6-11-moddalariga muvofiq, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatiligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va, yuqorida ta'kidlanganidek, soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsiplariga asoslanadi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari Kodeksda belgilangan ushbu printsiplarga zid bo'lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining soliq ma'murchiligi masalalariga bag'ishlangan umumiy qismi avvalgisiga nisbatan tubdan o'zgartirildi va kengaytirildi. Mazkur qismda fuqarolarga sodda va tushunarli bo'lishi uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchalariga, shuningdek, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor kabi tushunchalarga alohida ta'riflar berildi. Endilikda barcha soliq to'lovchilar soliqlarni qaysi maqsadda to'layotganliklari to'g'risida to'liq va kengroq tasavvurga ega bo'ladilar, bu esa, o'z navbatida, soliq madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Soliq kodeksida soliq nazoratining shakllari ham belgilanib, ularning mazmun-mohiyati alohida moddalarda aniq-ravshan tarzda yoritildi. Chunonchi, unda soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning shakllari, soliq tekshiruvlarining turlari, ishtirokchilari, tekshiruvni o'tkazish uchun asos bo'ladigan holatlar, muddatlar, uning davriyligi hamda soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risida tushunchalar ochib berildi.

¹ "Xalq so'zi" gazetasi 2010 yil 15 yanvar, №10 (4925)

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 1-modda

Soliq nazorati bobida, jumladan, kameral nazorat, xronometraj masalalari yoritilgan. Ularni o'tkazish tartibi, muddatlari, davriyligi hamda ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ko'rsatib o'tilgan.

Soliq kodeksi soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylantirilganligi bois, uning amalga kiritilishi munosabati bilan o'z ahamiyatini yo'qotgan bir qator qonun hujjatlari butunlay bekor qilindi. "Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish to'g'risida"gi, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Patta to'lovi to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Soliq kodeksi mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sishiga, uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishga, xususan, tadbirkorlik, kichik biznes va fermerlik harakatining izchil rivojlanishiga kafolat va imtiyozlar beradigan siyosatni davom ettirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. U soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror hamda mutanosib rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini yanada kuchaytirish, yurtimizda islohotlarni amalga oshirish uchun ilg'or zamonaviy soliq solish tizimiga mos keladigan va byudjetning daromad qismining shakllanishini barqaror ravishda ta'minlaydigan hamda iqtisodiy o'sishga ta'sirchan omil bo'ladigan samarali soliq tizimi barpo etilishini ta'minlaydi.

4.4. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari

Hududlardagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati organlari alohida o'rin egallaydi. 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi № 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari"¹ hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish asosida o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

Mahalliy byudjetlarni shakllantirish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy byudjetlardan foydalanish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga "mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish"² vakolati berilgan. Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining byudjet sohasidagi faoliyatining konstitutsiyaviy asosi o'rnatilgan. Joylardagi mahalliy vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining bu sohadagi vazifalari,

¹ "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.93.) 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'R QHT, 2014 y., 16-son, 176-modda.

vakolatlari turlicha bo'lib, ular avvalo "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi mahalliy hokimiyat organlarining ularga tegishli hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Mahalliy byudjetlarning salmog'i oshishi ustun ravishda xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq, ya'ni markaziy hokimiyat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani saqlash, ishchi kuchini qayta tayyorlash bilan bog'liq vakolatlarni joylarga berib bormokda. Mahalliy byudjetlardan davlat takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishda keng foydalanmokda, mahalliy boshqaruv organlari hududiy darajada davlatning maqsadga muvofiq vazifalarini tobora ko'proq bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga muvofiq, "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki ob'ektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'siqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar".

Yuqoridagi Qonunning 8-moddasiga muvofiq esa "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan ob'ektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy byudjetlarning mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturasi ob'ektlari va boshqa ob'ektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin"¹.

Mahalliy byudjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar berish xarajatlari moliyalashtirib boriladi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 8¹-moddasida² Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan, ularga quyidagilar kiritiladi:

- fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (bundan byudjet tashkilotlari mustasno) ixtiyoriy badallari va xayriyalari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar.

Mahalliy hokimiyat organlari viloyat, tuman, shahar byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadi, olib qo'yilmaydi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga ko'ra sarflanadi.

¹ "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi (O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda O'RQ-361-sonli [Qonuni](#) tahririda - O'R QHT, 2013 y., 52-son, 686-moddada)

² 8¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda O'RQ-361-sonli [Qonuniga](#) asosan kiritilgan (O'R QHT, 2013 y., 52-son, 686-moddada)

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-bob, 27-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining, 28-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, 30-moddasi bilan esa hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Kodeksning tegishli moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari¹:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Shuningdek, Byudjet Kodeksining tegishli bob va moddalarida hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari (30-modda), mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartiblari belgilab berilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet Kodeksining mazmuni va byudjet munsabatlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini sharhlab bering.

2. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining zarurligi va ahamiyati nimada? Misollarda tushuntiring.

3. "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va byudjet parametrlari prognozlar to'g'risida"gi Prezident Qarorlarining mazmunini tushuntiring.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet qonunchiligini ko'rsatuvchi klaster tuzing va izohlab bering.

2. Byudjet qonunchiligini tashkil qiluvchi hujjatlar ro'yxatini tuzing va har biriga qisqacha izoh yozing.

3. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi haqida ma'lumot tayyorlang, keyingi yillarda unga qanday o'zgartirishlar kiritilganligini sharhlab bering.

4. Xorijiy davlatlarda byudjet qonunchiligi to'g'risida taqdimot tayyorlang.

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 27-modda. O'RQHT, 2014 y., 36-son, 452-modda

5-MAVZU. DAVLATNING BUDJET SOLIQ-SIYOSATI

REJA:

- 5.1. **Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi**
- 5.2. **Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari**
- 5.3. **O‘zbekiston Respublikasining yaqin va o‘rta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari**

Tayanch so‘z va iboralar: *siyosat; byudjet siyosati; byudjet daromadlari bo‘yicha siyosat; byudjet xarajatlari bo‘yicha siyosat; davlat krediti siyosati; byudjet taqchilligini boshqarish siyosati; byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish siyosati; byudjet strategiyasi; byudjet taktikasi.*

5.1. Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi

Siyosat – bu jamiyat ustqurmasiga taalluqli tushuncha bo‘lib, davlatning o‘z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan rivojlanish yo‘nalishlari va chora-tadbirlari yig‘indisidir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat bo‘ladi:

birinchidan, rivojlanishning u yoki bu bosqichida jamiyat hayotini yaxshilash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vazifalar va maqsadlar aniqlanadi va belgilab olinadi;

ikkinchidan, istiqboldagi va yaqin kelajakdagi vazifalar va maqsadlarga erishish uchun eng qulay, eng yaxshi natija beradigan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;

uchinchidan, belgilangan vazifalarni amalga oshiruvchi shaxslar, ijrochi organlar, alohida vakolatli tashkilotlar aniqlanadi, kadrlar tanlanadi va joy-joyiga qo‘yiladi.

Byudjet siyosati – byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta‘minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat byudjeti orqali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlari yig‘indisidir.

Byudjet siyosati davlat va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo‘lishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Byudjet siyosati:

- byudjet daromadlari bo‘yicha siyosat;
- byudjet xarajatlari bo‘yicha siyosat;
- davlat krediti siyosati;
- byudjet taqchilligini boshqarish siyosati;
- byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish siyosati kabilarning uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi.

Demak, *byudjet siyosati* – davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va asosiy yo‘nalishlari yig‘indisidir.

Byudjet siyosatining asosiy maqsadi – jamiyatda yaratilgan boylik va ne'matlarning jamiyat a'zolari o'rtasida maksimal darajada adolatli taqsimlanishini ta'minlashdan iborat.

Byudjet siyosatining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni ta'kidlash muhim:

- davlat byudjetining barqaror daromad bazalarini mustahkamlash;
- iqtisodiyot ustivor tarmoqlarining rivojlanishini rag'batlantirish;
- fan-texnika taraqqiyotining jadallashuviga ta'sir ko'rsatish;
- mamlakatda kambag'allik va ijtimoiy tengsizlikka barham berish;
- rivojlanish istiqboli yuqori bo'lmagan hududlarning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish;
- bu hududlardagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va shu yo'llar bilan siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish;
- davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning sifatli va aholi ijtimoiy muhofazasining manzilli bo'lishini ta'minlash;
- byudjet siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi maqbul byudjet mexanizmini ishlab chiqish va uning samarali ishlashini ta'minlash va sh.k.

Byudjet siyosati o'z-o'zidan yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin emas. Byudjet siyosatining ahamiyatini baholash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilayotganligini, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar qanchalik darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini to'g'ri belgilash, holis baholash lozim.

Byudjet siyosatining mazmuni ko'pqirrali bo'lib, qo'yidagilarni amalga oshirish orqali hayotga tatbiq etiladi:

1. *Byudjet munosabatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan kontsepsiyalarini ishlab chiqish.* Bu kontsepsiyalar quyidagilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi:

- iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish;
- milliy xo'jalik holatini har tomonlama tahlil qilish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollari o'rganish;
- aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish.

2. *Istiqbolda va joriy davr mobaynida byudjetdan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish.* Bunda iqtisodiy va moliyaviy siyosatda belgilangan maqsadlarga erishish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

3. *Qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy xatti-harakatlar qilish, chora-tadbirlar belgilash, maqbul byudjet mexanizmining dastak va vositalarini ishlab chiqish.*

Faqat hozirgi kundagi joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan siyosat samarasizdir, shuningdek, uzoq davrni mo'ljallab, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan kontsepsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik olijanob, jozibali bo'lmasin, davlatning tegishli amaliy xatti-harakatlari, ta'sirchan dastak va vositalari bilan ta'minlanmasa, inqirozga yuz tutadi, ko'zlangan maqsadlar amalga oshirilmay qoladi.

Davlat oldida turgan va muayyan davrda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va ko'zlangan davrning uzoqligiga ko'ra byudjet siyosati:

- byudjet strategiyasi;
- byudjet taktikasidan iborat.



Byudjet strategiyasi – ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan uzoq istiqbolga mo'ljallangan va yirik ko'lamdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u rivojlanishning asosiy kontsepsiyalarini ishlab chiqish, byudjet munosabatlarini tashkil etishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqishni, uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish istiqbollari belgilashni ko'zda tutadi.

Byudjet strategiyasi uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutadi.

Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida byudjet strategiyasining asosiy vazifalaridan biri – byudjetning barqarorligini ta'minlash, ortib borayotgan byudjet defitsitini jilovlash bo'lgan bo'lsa, bu vazifani bajarish uchun: ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri uchun xos bo'lgan yangi byudjet qonunchiligini ishlab chiqish; mustaqil davlatning yangi soliq tizimini shakllantirish; byudjetning xarajatlar qismini qayta tuzish; byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish kabi chora-tadbirlar belgilandi va ma'lum muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.



Byudjet taktikasi – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va aniq sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

Byudjet siyosatining strategiyasi va taktikasi o'zaro bog'liqdir. Strategik vazifalarni hal qilish uchun taktika qulay shart-sharoit yaratadi. Taktika iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sohalarini, rivojlanishning muhim muammolarini aniqlab, moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish shakllari va usullarini o'z vaqtida o'zgartirish yo'li bilan strategiya balgilab bergan vazifalarni qisqa muddat ichida, eng kam xarajatlar bilan amalda bajaradi.

5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston o'zining davlat suverenitetini e'lon qilib, mamlakatni inqiroz holatidan olib chiqish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil, qudratli, rivojlanib boruvchi, ko'p qirrali demokratik davlat yaratish dasturini belgilab oldi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston davlat byudjetining tarixiy jihatdan juda qisqa, lekin yosh mustaqil davlat uchun sarmazmun, serqirra davrdagi rivojlanish bosqichlari boshlandi. Respublika hukumati tomonidan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari va bozor mexanizmlarini ishga tushirish choralari ko'rildi, natijada qator moliyaviy institutlarning samarali faoliyati ta'minlandi.

Respublika davlat byudjetiga o'zining ichki daromadlari jalb qilindi va ular 1991 yilgacha bo'lgan sobiq Ittifoq davlat byudjetidan ajratilgan transfertlar summasidan oshib ketdi. Qat'iy moliyaviy cheklashlarning qo'llanilishi natijasida davlat byudjetining daromadlari, xarajatlari va taqchilligi hajmi YaIM dinamikasiga muvofiq ravishda tartibga solib turildi. Ijtimoiy sohaga xarajatlarning o'sish sur'atlari umumiy xarajatlarning o'sish sur'atlariga bog'liq bo'ldi, ya'ni O'zbekistondagi bozor islohotlari mamlakat byudjetiga, uning xarajatlar qismi tarkibi va tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti o'z rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

- Fiskal bosqich (1991-1995-yillar);
- Noinflyatsion bosqich (1996-2002 yillar);
- Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003 yildan bugunga qadar).

Fiskal bosqich(1991-1995-yillar)ning vazifalari:

- yangi byudjet qonunchiligini yaratish;
- soliq islohotlarini o'tkazish;
- byudjetning xarajatlar qismini qayta tarkiblash;
- byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtirishga erishish

Davlat byudjeti rivojlanishining birinchi bosqichi juda og'ir kechdi. Bunga sabab ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatning byudjetini shakllantirish mamlakatda kechayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida (YAIM ishlab chiqarishning keskin pasayishi, bu esa o'z navbatida davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga olib keldi) amalga oshirildi. Daromadlar va xarajatlarning samarasiz tarkibi byudjet inqirozi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu bosqichda davlat byudjeti yaqqol namoyon bo'luvchi fiskal xususiyatga ega edi. Turli-tuman va yuqori soliq stavkalari amal qilib, ular davlat byudjetining daromadlar qismining shakllanishiga xizmat qildi. Byudjetning asosiy vazifalari davlatni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlash, milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat edi.

Fiskal bosqich davri yuqori soliq stavkalari va soliq solish bazasining kengligi bilan tavsiflanib, bu hol respublikada ishlab chiqarishning rivojlanishiga to'sqinlik qilar, iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun sharoit yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish talablariga javob bermas edi. Kiritilgan ko'p sonli imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va tadbirkorlikning rivojlanishida muhim rol o'ynamadi, balki aksincha, soliq to'lashdan bo'yin tovlashga imkoniyat yaratdi.

Noinflyatsion bosqich (1996-2002 yillar)ning vazifalari:

- balanslashgan byudjetni shakllantirish;
- soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish va unifikatsiyalash;
- byudjet xarajatlarini optimallashtirish, xususan, xalq xo'jaligi tarmoqlarini qaytarib olinmaydigan moliyalashtirish amaliyotidan ularni investitsiyalashga o'tish;
- byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish vazifalarini hal qilish.

Iqtisodiy islohotlarning zamonaviy xalqaro amaliyoti byudjetning makroiqtisodiy tartibga solish va boshqarish vositasi ekanligini ko'rsatadi. Hukumat byudjet qonunchiligi yordamida xarajatlarning umumiy darajasini, byudjet taqchilligi va davlat qarzi hajmini nazorat qiladi. Natijada, qonunchilik makroiqtisodiy siyosatning quyidagi jihatlarini namoyon etadi:

- qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari o'rtasida byudjet vakolatlarining taqsimlanishi;
- hukumatning byudjet protseduralari nazoratini cheklovchi va oshkoraligini pasaytiruvchi byudjetdan tashqari yoki kvazibyudjet faoliyatining ta'qiqlanishi;
- qonunchilikni makroiqtisodiy nazoratni ta'minlash vositasi sifatida ishlatish maqsadida byudjet taqchilligi, davlat qarzi va mablag'larni jalb qilishning cheklanishi.

O'zbekistondagi byudjet islohotlari ham shu yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Byudjet islohotlarining ikkinchi bosqichi 1995-yilda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larini yagona byudjetga jamlash bilan boshlanib, buning natijasida byudjetning shakllanishi va taqsimlanishi jarayoni ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish imkoniyati vujudga keldi.

Milliy valyuta – so'mning joriy etilishi, pul muomalasini tartibga solish va pul-kredit siyosatini qat'iyalashtirish yordamida pul islohotlarining o'tkazilishi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va o'sishga sharoit yaratdi. O'tish davrida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sohaning moliyaviy ehtiyojlari davlatning yaratilayotgan milliy daromadini ishlatish bo'yicha real imkoniyatlaridan yuqori bo'ladi. Shu sababli moliya organlarining muhim vazifasi moliya resurslari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim yo'nalishlarida mujassamlashuvini byudjet taqchilligini oshirish evaziga xarajatlarni oshirib emas, balki oqilona soliq tizimini yaratish evaziga amalga oshirishdir. Iqtisodiy o'sishning muhim sharti, shuningdek, byudjet taqchilligini, ichki va tashqi davlat qarzini cheklash hisoblanadi.

Islohotlar ikkinchi bosqichining muhim jihatlarini quyidagilardir:

- byudjet qonunchiligi shakllanishini davom ettirish;

- soliq tizimining takomillashuvi va unifikatsiyalashuvi;
- byudjet xarajatlarini optimallashtirish, shu jumladan, milliy iqtisodiy tarmoqlarni begʻaraz moliyalashtirish amaliyotidan investitsiyalashga oʻtish;
- balanslashgan byudjetni shakllantirish.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003 yildan bugunga qadar)ning asosiy yoʻnalishlari:

- zamonaviy markazlashgan gʻaznachilik tizimini shakllantirish;
- yangi byudjet tasnifi va buxgalteriya hisobining yangi hisoblar rejasiga asoslangan yagona byudjet va hisob tizimini yoʻlga qoʻyish;
- oʻrta muddatli byudjet strategiyasini va dasturiy byudjetlashtirishni joriy qilish,
- byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish;
- davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini taʼminlash asosi sifatida soliq siyosatini yanada takomillashtirish va sh.k.

Ushbu davrda davlatning byudjet siyosati quyidagilarga yoʻnaltirilgan:

- byudjet xarajatlarining ijtimoiy yoʻnaltirilganligini yanada kuchaytirish;
- davlat xarajatlari samaradorligi va optimalligini oshirish. Buning uchun byudjet mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini va manzilliligini oshirish maqsadida byudjetni rejalashtirish metodlarini takomillashtirish;
- byudjetni ijro etishning gʻaznachilik tizimini kiritish asosida davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilish samarali tizimini yaratish;
- iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar xarajatlarni quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha kengaytirishni nazarda tutadi: qishloq xoʻjaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; sugʻoriladigan dehqonchilik yerlarini suv bilan taʼminlash; fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish; bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini boshqarish tashkiliy tuzilmasini joriy etish; qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish;
- markazlashgan investitsiyalarga xarajatlarning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, ular quyidagi vazifalarni yechish uchun zarur capital mablagʻlar hajmini oshirishni nazarda tutadi: YAIMning barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlarini; bandlik muammosi va aholi daromadlarini oshirish muammosini; iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni davom ettirishni; moliyaviy resurslarni ishga tushiriladigan obyektlarga yoʻnaltirishni; strategik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni;
- byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

5.3. Oʻzbekiston Respublikasining yaqin va oʻrta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yoʻnalishlari

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda Oʻzbekistonning munosib oʻrin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasini amalga oshirish yoʻlida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro

tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o’rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Shularning asosida 2017-2021-yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi¹ ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi - olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir². Ushbu maqsadga erishish uchun Harakatlar strategiyasida O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi belgilab olindi, ular quyidagilardan iborat:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash, chuqur o’ylangan, o’zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo’nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo’limlardan iborat. Xususan, “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan yo’nalish yaqin va o’rta istiqbolda quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish,
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish,
- qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish,
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo’yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish,
- xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish,
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirish,
- hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish,
- investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Yuqorida sanab o’tilgan ustuvorliklarni bajarish byudjet-soliq siyosatida ham muayyan o’zgarishlarni amalga oshirish zarurligini nazarda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlar zahirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadlari mujassamlashgan. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma’murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro’yobiga qaratilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari yo’g’risida nimalarni bilasiz?
2. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasini misollarda tushuntirib bering.
3. Mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichning ustuvor vazifalari nimalardan iborat bo’ldi?

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so’zi, 2017 y., 28 (6722)-son; O’R QHT, 2017 y., 6-son, 70-modda

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoniga sharh. Manba: <http://www.uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasini-yanada-rivozhlantirish-b-yicha-arak-07-02-2017>

4. Xorijiy davlatlarda byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish yo'llari va mexanizmlari haqida nimalar bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet-soliq siyosatining bosqichlari va har bir bosqichning asosiy vazifalarini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.
2. O'zbekiston Respublikasining yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot tayyorlang.
3. "Public budgeting systems" o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.

6-MAVZU. DAVLAT BUDJETINI BOSHQARISH

REJA:

- 6.1. Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari
- 6.2. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari
- 6.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari

Tayanch so'z va iboralar: bozor mexanizmi; davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi dastak va vositalari; rejalashtirish; tashkil etish; muvofiqlashtirish; nazorat; rag'batlantirish; byudjet tizimini boshqarish obyektlari; byudjet tizimini boshqarish subyektlari; boshqaruv organlari; davlat hokimiyati organlari; byudjet sohasidagi vakolatlari

6.1. Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari

Davlat moliyasini boshqarish masalalari iqtisodiyot va moliya nazariyasida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va davlat moliyasini boshqarishdagi muammolar shundan iboratki, bozor xo'jaligi o'zini o'zi tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning "ko'rinmas qo'li") bo'lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuviz samarali ishlamagan. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, umuman olganda, kapitalistik bozor xo'jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan birga sodir bo'lgan. Masalan, 1563-yilda ingliz qirolichasi Yelizaveta I milliy baliqchilikni qo'llab-quvvatlash va unga bo'lgan talabni oshirish maqsadida o'z xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishni ta'qiqlagan¹. 1666-yilda esa Angliyada jun mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni tugatish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, dafn etilayotgan marhumlarni jun matodan bo'lgan liboslarda dafn etish majburiy qilib qo'yildi. Bu qonunni buzganlarga 5 funt-sterling miqdorida jarima belgilandi.

Aksariyat hozirgi zamon iqtisodchi-olimlarining fikricha, bozorning "ko'rinmas qo'li" davlatning "ko'rinadigan qo'li" bilan to'ldirilib turilishi kerak. Bu borada kelishmovchiliklar, qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishining sababi – bu aralashuvning qay darajada bo'lishi bilan bog'liq, lekin davlatning tartiblovchi prinsipi asosan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunday yakdillikning asosiy sababi shundaki, olimlarning fikriga ko'ra, bozor o'z-o'zidan mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning barchasini hal qila olmaydi. Misol uchun, monopoliya sharoitida o'z-o'zini tartiblash raqobatni rivojlantira olmaydi, bu esa tovarlar ma'lum turlari narxining oshishiga olib keladi va natijada aholi daromadlari iqtisodiyotning alohida bir sektorida ushlanib qoladi. Bunday hollarda bozor mexanizmi samarasiz ishlay boshlaydi va iqtisodiy tanglik davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda bozor mexanizmi sust qatnashadi. Shuning uchun, iqtisodiyotni tartiblovchi qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi. Ana shunday mexanizmlardan biri - bu davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi unsurlari – dastak va vositalaridir. Ana shu dastak va vositalar ichida davlat byudjeti asosiy o'rinni egallaydi. Davlat byudjeti davlatning qo'lidagi iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish quroli bo'lish bilan birga, iqtisodiy kategoriya sifatida muayyan iqtisodiy munosabatlar yig'indisini tashkil etadi, bu munosabatlarni boshqarish davlat byudjetini va, umuman, mamlakat byudjet tizimini boshqarishda namoyon bo'ladi.

Byudjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

¹ Экономическая история зарубежных стран: учебное пособие / Т.М.Тимошина; под ред. проф. М.Н.Чепурина. – 9-ое изд., стер. – М.: Юстицинформ, 2013. -504 стр.

byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini boshqarish;

barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;

byudjet jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, organlar va byudjet mablag‘larini oluvchilar faoliyatini boshqarish.




Byudjet tizimini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funksiyalarini bajaradi, ular orqali byudjet tizimini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funksiyalar: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va rag‘batlantirish.

Byudjet tizimini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha bo‘lib, u alohida vakolatli organlar tomonidan amalga

oshiriladi, ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Byudjet tizimini boshqarish *obyektlari* bo‘lib byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo‘yicha shakllanishi va xarajatlar bo‘yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan ajratilgan mablag‘laridan foydalanish asosidagi xo‘jalik-moliyaviy faoliyati hisoblanadi. Byudjet tizimini *boshqarish subyektlari* esa bevosita shu munosabatlarni boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo‘lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – *boshqaruv organlaridir*. Byudjet tizimini boshqarish subyektlarini, byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarga ko‘ra, quyidagicha guruhlash mumkin:



6.1-rasm. Byudjet tizimini boshqarish subyektlarining guruhlanishi

Byudjet tizimini boshqarish organlarining vakolatlari, funktsiya va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, tegishli organlarning nizomlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilab beriladi

6.2. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida quyidagi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda belgilab berilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet sohasidagi vakolatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining byudjet sohasidagi vakolatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;



- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari;
- Hududiy moliya organlarining



byudjet sohasidagi vakolatlari;

- Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;
- Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;
- Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarning byudjet sohasidagi vakolatlari.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari:

- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;
 - Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;
 - byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
 - byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;
 - davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;
 - Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;
 - o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;
 - Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;
 - moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;
 - O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013). 25-modda.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;
- moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;
- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish borasidagi vakolatlari:

– Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini ko‘rib chiqadi;

– O‘zR Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

– O‘zR Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasiga O‘zR Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi;

– byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga va DMJlarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini etkazadi;

– byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– O‘zR respublika byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritadi;

– O‘zR Vazirlar Mahkamasiga O‘zR Davlat byudjeti, respublika byudjeti va DMJlari byudjetlari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar taqdim etadi;

– moliya yili mobaynida QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining QR byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqadi;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

– byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi va b.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi (O‘RQ-360-son. 26.12.2013). 29-modda.

va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz



yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

2017-yilga qadar Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish bo'yicha vakolatlari, asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrda 553-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom"¹ bilan tartibga solinib kelingan.

2017-yilga kelib, respublikadagi barcha moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko'rib chiqish maqsadida 2017-yil 18-martda "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2847-sonli Qarori² qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining quyidagi ustuvor vazifalari hamda yo'nalishlari belgilab berildi:

- iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta'minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo'naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

- iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, mineral-xom ashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

- byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 27-son, 355-modda

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda

– moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo‘nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me‘yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirishga jamlash;

– iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to‘lov intizomini mustahkamlash;

– byudjet tizimidagi byudjet mablag‘laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat‘iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torajlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo‘jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– fuqarolarning pensiya ta‘minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta‘minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalarining qo‘llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

– sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

– davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o‘z vaqtida e‘tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas‘uliyatini oshirish.

Yuqorida nomi keltirilgan Prezident qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to‘g‘risidagi Nizom, Moliya vazirligi va vazirlik markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining, shahar hokimliklari moliya bo‘limlarining, tuman va shaharlar hokimliklari moliya bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari ham tasdiqlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet tizimini boshqarish obyektlari va subyektlari qaysilar? Misollarda tushuntiring.

2. Byudjet tizimini boshqarishga mas‘ul organlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Markaziy va mahalliy jroiya hokimiyati organlarining byudjet borasidagi vakolatlari va mustaqilligi shartlari va mezonlari qanday?

4. Byudjet istiqbolini belgilash, byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud, ularni hal etish yo‘llari qanday? Bu borada O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida qanday ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan?

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyatini nimalar bilan izohlash mumkin?

6. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tarkibiy bo‘linmalarining byudjet tizimini boshqarish borasidagi vakolatlari nimalardan iborat?

7. Xorijiy davlatlarda markazlashgan va nomarkazlashgan byudjet tizimini boshqarish organlari haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet tizimini boshqarishga mas’ul organlarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aks ettirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar katalogini ishlab chiqing.

2. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini o‘rgasnish asosida “Byudjet tizimini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari” mavzusida taqdimot tayyorlang.

7-MAVZU. BUDJETLARARO MUNOSABATLAR

REJA:

- 7.1. Byudjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha
- 7.2. Byudjetlararo munosabatlarning shakllari
- 7.3. Byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlilikini tartibga solishda byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati
- 7.4. Byudjetlararo munosabatlarning jahon tajribalari

Tayanch so'z va iboralar: *byudjetlararo munosabatlar; respublika byudjeti; Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti; viloyatlarning viloyat byudjetlari; Toshkent shahrining shahar byudjeti; byudjetlararo transfertlar; subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar.*

7.1. Byudjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha

Barcha mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, tarmoqlarning turli darajada rivojlanishi va boshqa omillar sababli mintaqalar ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatning boshlang'ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning eng muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash va barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdir. Bunga esa davlatning moliyaviy resurslarini byudjetlararo munosabatlar orqali qayta taqsimlash orqali erishiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2013 yil qabul qilingan "Byudjet kodeksi"ning 132-moddasida Byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha yondoshilgan, Byudjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi Kodeks bilan tegishli byudjetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir.

Byudjet jarayonida:

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan; davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan;

tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasida o'zaro munosabatlariga yo'l qo'yilmaydi. Byudjetlararo munosabatlarning birmuncha to'laroq ta'rifi rus iqtisodchi olimlari A.M.Babich va L.N.Pavlova tomonidan tayyorlangan "Finansi" nomli darsligida berilgan: "Byudjetlararo munosabatlar davlat hokimiyat organlari, markaziy hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida byudjetlarni tuzish va ijro etish hamda byudjet jarayonini tashkil etish bilan bog'liq huquq va majburiyatlar, vakolatlarining birlashtirilishi va chegaralanishiga oid munosabatlar majmuidir"¹.

Ushbu ta'rifni ham yetarlicha aniq berilgan deb hisoblab bo'lmaydi, chunki u mazkur muammoni hal etishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqish va tayyorlash jarayonidagi munosabatlarnigina aks ettiradi. Byudjetning ijro etilishi davomida mablag'larning bir byudjet bo'g'inidan boshqasiga yoki bir darajadagi byudjetlar o'rtasidagi haqiqatdagi harakati haqida ushbu ta'rifda umuman fikr bildirilmagan.

Byudjetlararo munosabatlar mazmuni va turli adabiyotlarda talqin etilish darajasini tahlil etish natijasida shunday xulosa qilish mumkin: byudjetlararo munosabatlar sodir bo'layotgan byudjet tizimi darajalariga ko'ra ularni byudjet tizimi pog'onalari o'rtasidagi va bir darajadagi byudjet bo'g'inlari

¹ Babich A. M. Finansi : Uchebnik/ A. M. Babich, L. N.Pavlova. -M.: ID FBK-PRESS, 2000.

o'rtasidagi munosabatlarga bo'lish mumkin. Demak, "byudjetlararo munosabatlar" tushunchasi, bizning fikrimizcha, quyidagilarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- byudjet jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarning birmuncha to'liqroq tarkibini;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining o'zaro (bir darajadagi) munosabatlarini;
- quyi byudjet bo'g'inlarining respublika byudjeti bilan o'zaro munosabatlarini;
- moliyaviy yordamning nafaqat yuqoridan quyiga, balki quyi byudjetlardan yuqori

byudjetlarga ham berilish holatlarini va hokazo.

Bulardan kelib chiqib, byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy voqelik sifatidagi tabiatini tahlil qilish asosida quyidagilarni ta'kidlash zarur:

- birinchidan, byudjetlararo munosabatlar - keng qamrovli byudjet siyosatini markaziy va hududiy darajada amalga oshirish jarayonining ajralmas qismidir;

- ikkinchidan, byudjetlararo munosabatlar byudjet siyosatining boshqa yo'nalishlariga nisbatan birlamchi ahamiyat kasb etadi;

- uchinchidan, byudjetlararo munosabatlar — nafaqat boshqaruvning turli darajalaridagi hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabat, balki eng avvalo, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari sub'ektlari o'rtasida markaz orqali shakllangan va davlat hokimiyatiga uning aniq funktsiyalarini hududiy darajada bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadida berilgan barcha pul mablag'larining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlardir;

- to'rtinchidan, hududlardan, joylardan markaziy hokimiyat (respublika darajasi)ga mablag'lar tushib turishining ta'minlanishi o'z navbatida ularga davlat boshqaruvi bo'yicha aniq vazifalar va majburiyatlarning bajarilishini talab qilib olish huquqini ham beradi, bu holat respublika davlat hokimiyatining o'z hududlari manfaatida yagona va samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mablag'larni ajratilishi mamlakatni markazdan boshqarishda mahalliy byudjetlar zimmasidagi majburiyatlarning bajarilishi uchun dastak yaratadi hamda hududlarda ma'lum mahalliychilik kayfiyatlari yuzaga kelishining ob'ektiv asoslarini bartaraf etadi;

- beshinchidan, byudjetlararo munosabatlar - bu mutlaqo teng ahamiyatli tarzda quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga harakatlanuvchi moliyaviy oqimlardir. Ushbu munosabatlarsiz turli darajadagi byudjetlarni muvaffaqiyatli shakllantirib bo'lmaz edi. Shu sababli ushbu moliyaviy oqimlar mahalliy byudjetlarni shakllantiruvchi ta'sirchan omil hisoblanadi.

Shunday qilib, byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: *"Byudjetlararo munosabatlar - davlat byudjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari sub'ektlari o'rtasida markaziy boshqaruvning markazdan turib barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funktsiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining ushbu sub'ektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisidir"*¹.

7.2. Byudjetlararo munosabatlarning shakllari

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Byudjet kodeksi"ning yigirmanchi bobi "Byudjetlararo munosabatlar" deb nomlanadi va bu bobda quyidagilar o'z akchini topgan:

Byudjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish, daromadlarni kompensatsiya qilish yoki xarajatlarni qoplash Davlat byudjetini ijro etish jarayonida Kodeksning 138-moddasida nazarda tutilgan, quyi turuvchi byudjetlarning daromadlarini va (yoki) xarajatlarini kamaytirishga yoxud ko'paytirishga olib keladigan hollarda o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni ajratish yoki olib qo'yish orqali majburiy tartibda amalga oshiriladi.

¹ A.Vaxobov, X.Jamolov. Soglasovanie mejbyudjetnix otnosheniy. «Moliya» / T.;2002 g.

Byudjetlararo transfertlarning shakllari. Byudjetlararo transfertlar subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar shaklida amalga oshiriladi.

Byudjetlararo transfertlarning hajmlari:

- joriy moliya yilida turli darajadagi byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda;

- tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda byudjetdan ajratiladigan mablag'larning o'zlashtirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqori turuvchi byudjet quyi turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning bir shakli bo'yicha majburiyatlari quyi turuvchi byudjetning yuqori turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning boshqa shakli bo'yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin.

Subvensiyalar. Subvensiyalar asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Foydalanilmagan subvensiyalar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi kerak.

O'tkazib beriladigan daromadlar. Tegishli ma'muriy-hududiy birliklar hududida shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma'muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo'lsa, o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga o'tkazib berilishi mumkin.

O'tkazib beriladigan daromadlarning umumiy hajmi:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga – asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan tumanlar va shaharlar byudjetlariga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi tegishli quyi turuvchi byudjetga tushishi lozim bo'lgan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi.

O'tkazib beriladigan daromadlarni o'tkazish ular bo'yicha haqiqatda tushgan tushumlar doirasida, biroq ularning tasdiqlangan hajmidan ortiq bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Dotatsiya. Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subventsiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlariga dotatsiya jamg'armalar xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi yil boshidagi qoldiq hisobga olingan holda jamg'armalar daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratilishi mumkin.

Dotatsiyaning miqdori:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga ajratilganda — asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratilganda — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi;

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar. Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar:

- qonun hujjatlari qabul qilinganligi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlarining prognozi aniqlashtirilganligi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarganda xarajatlar bir byudjetdan boshqa byudjetga o'tkazilganligi;
- kapital qo'yilmalar limitlari byudjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi munosabati bilan yuzaga keladi.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo'lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi.

Byudjetlararo transfertlarni o'tkazish tartibi. O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan byudjetlararo transfertlar O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan byudjetlararo transfertlar ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tumanlar, shaharlar byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjetlararo transfertlar ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Byudjetlararo transfertlarni o'tkazish g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Byudjetlararo transfertlar bo'yicha hisob-kitoblar joriy moliya yilida qo'shimcha vaqt davri hisobga olingan holda tugallanishi kerak.

Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert. Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert (byudjet ssudasi) byudjet manbalarining to'liq safarbar qilinishi tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlar qoplanishini ta'minlamagan taqdirda, qaytarish sharti bilan va foizsiz beriladi.

Byudjet ssudasi:

- prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun — to'qqiz oygacha bo'lgan muddatga;
- daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun — olti oygacha bo'lgan muddatga beriladi.

Rejali byudjet ssudasi daromadlarning prognoz qilingan tushumlari, nazarda tutilgan subvensiya, o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi, aylanma kassa mablag'laridan va yil boshidagi erkin qoldiqlardan vaqtinchalik mablag' jalb qilish, dotatsiya tasdiqlangan tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan ayrim choraklardagi xarajatlar qoplanishini ta'minlamagan hollarda beriladi.

Byudjet ssudasi:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan — Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag'lari hisobidan — tumanlar va shaharlar byudjetlariga ularning daromadlari hamda xarajatlari o'rtasidagi rejali yoki kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi.

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida qoplashdan iboratdir.

Byudjet ssudasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining byudjet ssudasiga bo'lgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan yozma so'rovi asosida beriladi. Byudjet ssudasi berish to'g'risidagi yozma so'rovni ko'rib chiqishda moliya organi qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot va hisob-kitoblarni so'rab olish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining yozma so'rovini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha byudjet ssudasini berish to'g'risidagi qaror:

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan — O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjetidan — tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari tomonidan besh ish kuni ichida qabul qilinadi.

Byudjet ssudasini ajratish byudjet ssudasini berayotgan moliya organi va byudjet ssudasini oluvchi moliya organi (davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organ) o'rtasida byudjet ssudasi berish to'g'risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Byudjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish byudjet ssudasini oluvchida uni belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lash imkoniyatini istisno etadigan moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan hollarda amalga oshiriladi.

Byudjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish byudjet ssudasini berish uchun ushbu moddada belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Byudjet ssudasini oluvchi tegishli moliya organiga byudjet ssudasini to'lash muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi yozma so'rov bilan to'lash muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin murojaat etadi.

Byudjet ssudasini to'lash byudjet ssudasini berish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda:

- mablag'larni o'tkazish;

- quyi turuvchi byudjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilishi kerak bo'lgan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar va dotatsiyalar evaziga o'zaro hisobga olish;

- ish haqini to'lash, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, stipendiyalar, pensiyalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, kompensatsiya to'lovlari va nafaqalar to'lash xarajatlari qoplanganidan so'ng quyi turuvchi byudjetlarning va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni so'zsiz undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi;

Aylanma kassa mablag'lari. O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent

shahri shahar byudjetining, shuningdek tumanlar, shaharlar byudjetlarining aylanma kassa mablagʻlari ularning daromadlari bilan xarajatlari oʻrtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash maqsadida shakllantiriladi.

Aylanma kassa mablagʻlarining miqdorlari:

- Oʻzbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari uchun — asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

- tumanlar va shaharlar byudjetlari uchun — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Yil mobaynida aylanma kassa mablagʻlaridan jalb qilingan summalar yil oxirigacha tiklanishi lozim. Aylanma kassa mablagʻlarining yil oxiridagi miqdori belgilangan summaga mos kelishi kerak.

Kelgusi moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablagʻlari:

- tegishli byudjetlarning shaxsiy gʻazna hisobvaraqlaridagi mablagʻlarning yil boshidagi qoldiqlari;

- joriy yilning birinchi — uchinchi choraklari yakunlari boʻyicha daromadlar prognozining oshirib bajarilishi summolari hisobidan toʻldiriladi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining manbalari yetarli boʻlmaganda tumanlar va shaharlar byudjetlarining aylanma kassa mablagʻlarini toʻldirish toʻgʻrisida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan qaror qabul qilinishi mumkin.

7.3. Byudjet tizimi boʻgʻinlari daromadliligini tartibga solishda byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati

Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga qoʻllaniladigan cheklovlar. Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega boʻlishi lozim. Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda:

- mablagʻlar jalb qilishni amalga oshirishga, yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno;

- tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablagʻlardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga, ushbu Kodeksning 143-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- tegishli byudjetlar mablagʻlari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yoʻl qoʻyilmaydi.¹

Oʻzbekiston Respublikasida faol amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarini erkinlashtirish, mamlakat byudjet tizimida ham sezilarli oʻzgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi umumjamiyat taraqqiyotining asosini davlatning faol islohotchilik roli oʻrniga keladigan fuqarolik jamiyati egallashiga erishishdan iborat. Byudjetlararo munosabatlarni maʼlum darajada oʻzgartirish, kuchli davlatchilikdan kuchli fuqarolik jamiyatiga oʻtishning muhim omillaridan sanaladi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bunday oʻtishning universal modeli hali ishlab chiqilmagan. Byudjet tizimini rivojlantirish nuqtai-nazaridan esa, yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga mablagʻ ajratishdagi oʻzgarishlar mamlakatning ixtisoslashuv darajasiga va oldiga qoʻygan maqsadlariga mos ravishda amalga oshiriladi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi

7.4. Byudjetlararo munosabatlarning jahon tajribalari

Aksariyat etakchi tadqiqotchilarning fikricha, soliq vakolatlarining hukumatning turli bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishda muhim o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlash joizki, daromadlarning davlat hokimiyatining turli bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi xarajat vakolatlarini nomarkazlashtirish tamoyilidan kelib chiqadi hamda mos ravishda, hududiy va mahalliy hukumat organlarining funktsiyalarini (ma'muriy-hududiy birliklar aholisiga to'g'ridan-to'g'ri davlat xizmatlarini ko'rsatishni) kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Bunda hukumatning turli bo'g'inlari o'rtasida solikli daromadlarning ma'lum turlarini to'liq biriktirib qo'yish bilan muammo hal etilmaydi. Aksariyat hollarda, solikli daromadlarni va soliq vakolatlarini biriktirishning turli sxemalari mavjudligi va uni tadbiq etish muammoning echimi bo'lishi mumkin.

Soliq vakolatlarini hukumatning markaziy va mahalliy organlari o'rtasida taqsimlash muammosini hal qilish bo'yicha ikki xil yondoshuvni kuzatish mumkin: soliq vakolatini taqsimlashning an'anaviy modeliga ko'ra, mahalliy hukumat organlarining o'z (ya'ni, ma'lum hudud darajasida tartibga solinadigan) soliq bazasi, huddi shu an'anaviy model asosida amalga oshirilishi zarur bo'lgan xarajat majburiyatlaridan doimo kichik. Bunday nomuvofiklik natijasida byudjet tizimida yuzaga keladigan nomutanosiblikni byudjetlararo hisob-kitoblar yordamida tenglashtirish zaruriyati paydo bo'ladi. An'anaviy tahlil doirasida ta'kidlanishicha, hududiy darajaga ko'plab soliq vakolatlarining berilishi hududlar o'rtasida resurslar taqsimotida nomutanosiblikni kuchaytiradi. Soliq vakolatlarini samarali taqsimlashning asosiy maqsadi ham bunday nomutanosibliklarni minimallashtirish hisoblanadi. Shuningdek, ushbu holatda, byudjetlararo transfertlarni tartibga soladigan tizimga katta e'tibor karatiladi. Agar mamlakat bo'yicha soliq bazasi nomutanosib tarzda taqsimlangan bo'lsa, unda soliqqa tortish vakolati markaziy hukumatga tegishli bo'lishi lozim.

Byudjetlararo munosabatlarda, nafaqat respublika byudjetining mahalliy byudjetlar bilan munosabatlari, balki hududiy byudjetlarning ham mahalliy byudjetlar bilan munosabatlari o'rtasida yuzaga chiqadigan muammolar etarlicha o'rganilmaganligi namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda asosiy e'tiborni hududlarning iqtisodiy holatini yaxshilash va shu asosda ular byudjet potentsialini mustahkamlashga qaratish kerak. Shundagina byudjetlararo pul oqimlarini minimallashtirishga erishiladi.

Ma'lumki, byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish mamlakatdagi davlat qurilishi bilan bevosita bog'liq. Unitar davlatlarga byudjet resurslari markazlashish darajasining yuqori bo'lishi hamda mahalliy byudjetlar byudjet huquqi va majburiyatlari hajmining nisbatan past bo'lishi xosdir. Federativ asosdagi davlat qurilishiga ega davlatlarda esa byudjetlararo munosabatlar byudjet federalizmining bir qismi hisoblanadiki, u vakolatlar va javobgarlikni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida mutanosib taqsimlashni, turli darajadagi byudjetlarning nisbatan mustaqilligini nazarda tutadi. Hozirgi kunda o'tish iqtisodiyotidagi xoh federativ, xoh unitar davlat qurilishiga ega bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda byudjetlararo munosabatlar islohotlari byudjetlarning nomarkazlashuvi doirasida amalga oshirilmoqda. Nomarkazlashuv – islohotlarning so'nggi maqsadi emas. U faqat aholining ehtiyojlariga muvofiq tarzda samarali ijtimoiy xizmatlarni ularga etkazishning ta'sirchan usulidir.

Rivojlangan davlatlarda alohida elementlari o'zgarib turadigan byudjetlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi allaqachon ishlab chiqilgan. O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan davlatlar uchun islohotlarni o'tkazish va byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni qurishga yangi tamoyillar va sharoitlarda olib borish xarakterlidir. O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pgina davlatlarning byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilishda ilgarilab ketishi, ularning tajribasini o'rganish, xatolarini tahlil qilish va O'zbekiston uchun saboq bo'ladigan jihatlarini topish vazifasini oldimizga qo'yadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, byudjetlararo munosabatlar muammolarini hal qilishda quyidagi uchta masala ko'ndalang qo'yiladi:

- turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash;
- byudjetlar o'rtasida xarajatlarni moliyalashtirishdagi vakolatlarni chegaralash;
- bir pog'onadagi byudjetdan boshqasiga mablag'larni turli shakllarda qayta taqsimlashga asoslangan byudjetni boshqarish va tartibga solish.

Jahon amaliyotida soliq vakolatlarini taqsimlashning quyidagi modellari keng qo'llaniladi:

- soliq solish manbalarini taqsimlash va ulardan alohida-alohida foydalanish;
- soliq solish bazasidan birgalikda foydalanish;
- olingan solikli daromadlarni markaziy va mahalliy hukumatlar o'rtasida bo'lib olish.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, turli davlatlarda soliq vakolatlarini taqsimlashning turlicha modellaridan foydalaniladi. Masalan, Germaniya modelida olinadigan daromad soliqlari federatsiya va erlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanishi ustunlikka ega bo'lsa, Kanada va AQSh da soliq daromadlarini taqsimlash qo'llanilmaydi¹.

Rossiya byudjet tizimi darajalari o'rtasida soliq vakolatlarini taqsimlashning uchta asosiy shakllarining hammasi rasmiy ravishda ishlatiladi. Bunda, barcha darajalardagi byudjetlar o'rtasida federal soliqlarni taqsimlash ustunlikka ega, ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda daromad bazasini birgalikda ishlatish shakli hisoblanadi, manbalardan bir-biridan alohida holda foydalanishdan nisbatan kamroq foydalaniladi. Amaliyotda barcha federal soliqlar markaz va federatsiya sub'ektlari o'rtasida taqsimlanadi. Oqibatda, pul oqimlarini qayta taqsimlash, soliqlarni hisobga o'tkazish va ularni me'yorlar asosida taqsimlash borasida doimiy kelishuvlar yuzaga keladi.

Tartibga soluvchi soliqlarning normativlar asosida taqsimlash muammosi O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilishni amalga oshirayotgan ko'pchilik davlatlar tajribalarining ko'rsatishicha, tabaqalashgan va har yilda o'zgaradigan me'yorlardan barqaror me'yorlarga o'tishga intilish kuchli. Barqaror me'yorlar Sharqiy Evropa mamlakatlarida qo'llaniladi. Islohotlar doirasida Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston ham byudjetlararo munosabatlarda barqaror me'yorlarni qo'llab kelmoqda. Bu holat shu bilan izohlanadiki, me'yorlarning har yili o'zgarib turishi mahalliy byudjetlar tomonidan o'z daromadlarini prognoz qilishni qiyinlashtiradi va ularning daromad qismining barqarorligiga putur etkazadi. Soliqlar bo'yicha me'yorlar Moliya vazirligi va viloyat boshqaruv organlari o'rtasidagi muvofiqlashtiruv, kelishuvlar asosida o'rnatilishi bois alohida olingan mintaqalarga sub'ektiv tarzda yondoshish ehtimolini yuzaga keltiradi.

Qirg'izistonda me'yorlar bo'yicha uchta asosiy soliq (yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i va aksizlar), Qozog'istonda ikkita (foyda solig'i va aksizlar) taqsimlanadi. Soliq tushumlari ichida eng barqaror balgan QQS to'lig'icha respublika byudjetiga o'tkaziladi va subvensiyalar va dotatsiyalar shaklida nisbatan kam ta'minlangan mintaqalarga qayta taqsimlanadi.

O'zbekistonda esa ko'rsatilgan barcha soliqlar bo'yicha normativlar har yili qayta ko'rib chiqiladi va hududlarning iqtisodiy potentsiali hamda byudjet ta'minoti ko'rsatkichlariga qarab Prezident Qarori bilan belgilanadi. Normativlarning qat'iy belgilanishining ijobiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham mavjud. Qo'shni davlatlarning tajribalarini o'rganish ular yo'l qo'ygan xatolarga yo'l qo'ymaslik va ular amaliyotidan tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, Qirg'iziston va Qozog'iston tajribalari ko'rsatishicha, chegaralangan me'yorlarni belgilash moliyaviy resurslarni ma'lum darajada qayta taqsimlash zaruratini tug'diradi, ya'ni dastavval respublika byudjetiga soliqdan ajratmalar ko'rinishida mablag'lar markaziy byudjetga tushadi, so'ngra barcha mahalliy byudjetlarga istisnosiz ravishda subvensiya ko'rinishida mablag'lar taqsimlanadi. Tabiiyki, bunday hol qarama-qarshi moliyaviy resurslar oqimining ko'payishiga olib keladi, bu esa moliya tizimidagi munosabatlarning sezilarli darajada murakkablashuviga olib keladi.

Ikkinchidan, yagona me'yor miqdorini belgilash masalasi ham muammoligicha qolmoqda. Masalan, Qirg'izistonda 35 foizli me'yorni belgilash Bishkek tomonidan tartibga solinadigan soliqlarning 65 foizini respublika byudjetiga o'tkazgani xolda, respublika byudjetidan subvensiyalar va toifalashtirilgan grantlarni olish vaziyatini vujudga keltiradi. Shu sababli hozirgi vaqtda mazkur mintaq uchun belgilangan me'yorlarni o'zgartirish masalasi turmoqda.

Qozog'istonda ham belgilangan 50 foiz me'yorlarda alohida olingan mintaqalarning daromadlari ularning xarajatlaridan ortib ketmoqda. Shu sababli mahalliy byudjetlar daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi hollarida byudjet tomonidan ushbu farqni qaytarib olish ko'zda tutilgan,

¹ Robert D. Lee, Ronald W. Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition (July 30, 2012). USA.

ya'ni ular qonun hujjatlarida belgilangan summalar chegarasida Ostona va Olma-ota shaharlari byudjeti va viloyatlar byudjetlari tomonidan respublika byudjetiga o'tkaziladi hamda Maslahatlar¹ qarorlarida belgilangan summalar chegarasida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan viloyat byudjetiga rasmiy transfertlar shaklida o'tkazib beriladi.

Sharqiy Evropaning alohida olingan mamlakatlarida shunga o'xshash oqibatlar oldindan hisobga olingan bo'lib, mahalliy va umumdavlat (tartibga solinuvchi) soliqlarining zaruriy qismi hisobiga eng ko'p ta'minlangan mintaqalarning xarajatlarini qoplash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagi me'yorlar darajalari o'rnatilgan. Bunday yondoshuv ushbu mintaqa uchun moliyaviy resurslarning o'zaro oqimlari paydo bo'lishining oldini oladi.

Me'yorlar asosida soliqlarni byudjetlar o'rtasida taqsimlash avvalambor rejalashtirilgan soliq ko'rsatkichlariga taalluqlidir. Biroq, mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini mustahkamlashni rag'batlantirish, ularning soliq bo'yicha tushumlarini ko'paytirish nuqtai nazaridan, rejalashtirilgan soliq bo'yicha tushumlaridan ortiqcha tushumlarni taqsimlash mexanizmi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday mexanizm Qirg'iziston Respublikasida qo'llanilmokda. Rejalashtirilgandan ortiqcha olinadigan soliq tushumlari uchun me'yor 75 foizni tashkil qiladi, ya'ni rejalashtirilgandan ortiq yig'iladigan barcha soliqlardan 75 foizi mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladi, bu esa o'z navbatida ular uchun soliqlarni yig'ishga qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, byudjet transfertlarini taqsimlash anchagina murakkab masala hisoblanadi. Agar transfertlar markaziy hukumatning faqatgina makroiqtisodiy maqsadlariga ko'ra belgilanganda edi, unga nisbatan diskriminatsion yondoshish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biroq, byudjet tiniqligini ta'minlash uchun mahalliy hokimiyat organlariga o'z byudjet operatsiyalarini rejalashtirish va markaziy hukumatning siyosiy maqsadlarini oydinlashtirish imkonini beruvchi me'yorlashtirilgan hisob-kitoblar kerak bo'ladi.

O'tish davri iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda transfertlarning jamlangan hajmi markaziy hukumat tomonidan belgilanadi. Vengriyada u har yili byudjet jarayoni doirasida hisoblanadi va markaziy hukumat tomonidan olib borilayotgan byudjet cheklashlari qattiq siyosatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shunday vaziyat Polshada ham kuzatiladi. U erda transfertlarning hajmi nisbatan tiniq va oldindan taxmin qilish mumkin bo'lib, u formula yordamida hisoblanadi. O'tish iqtisodiyotini boshqa mamlakatlarda (Bolgariya, Latviya, Litva, Gruziya, Qirg'iziston, Rossiya) axborot tomondan kengroq ochiqlik va byudjetlar o'rtasidagi transfertlarni taqsimlashning asoslanganligini ta'minlash bo'yicha choralar qabul qilingan.

Jahon banki mutaxassislari tomonidan keltirilgan aniq formulalarning tahlili ko'rsatishicha, ularning har biri tuzatishlar kiritilishini talab qiladi va undan so'ng ular yanada samaraliroq bo'lishlari mumkin. Bunda ijobiy holat bo'lib, ushbu formulalar ko'pgina mamlakatlarda xarajatlarning aniq darajalarining tegishli ko'rsatkichlarini, ya'ni aholining soni va yoshi bo'yicha tarkibini hisobga olishi hisoblanadi. Ikkita mamlakatda (Latviya, Litva) esa ba'zi bir holatlarda gorizontal tenglashtirish ham hisobga olinadi.

O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda mablag' jalb qilish amaliyoti submilliy va mahalliy darajalarda o'z rivojini topdi. Mablag' jalb qilishlar bir qancha manbalardan, jumladan yuqori darajadagi byudjetlardan, submilliy va milliy moliya institutlaridan hamda xususiy kapital bozoridan amalga oshiriladi. Bunda, mablag' jalb qilishlar zayomlar yoki obligatsiyalarni chiqarish shaklida amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlardagi mablag' jalb qilish amaliyotini kuzatish, har bir mamlakat bo'yicha ushbu instrumentni rivojlanish darajasi sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lib, u ushbu mamlakatlardagi byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilish elementlariga mos keladi.

Shunday qilib, turli mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish byudjetlararo munosabatlarning tashkil qilinishiga turlicha yondoshuvlar mavjudligidan dalolat beradi va O'zbekiston byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish borasida qator saboqlar olishga imkon beradi:

Birinchidan, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda barqarorlikni ta'minlash, mahalliy hukumat organlarining soliqlarni yig'ish, soliq bazalarini kengaytirish, byudjetga tushumlar

¹ Qozog'istonda mahalliy hukumat ijroiya organlari

yuzasidan boqimandalarni kamaytirishga bo'lgan manfaatdorligini oshirish maqsadida tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning ma'lum davr mobaynida (3-5 yil ichida) o'zgarmaydigan, barqaror, yagona normativlarini o'rnatishni amaliyotga tadbqiq etish lozim.

Ikkinchidan, xarajatlar bo'yicha vakolatlarning aniq chegaralanmaganligi bois ko'pchilik xarajatlarni amalga oshirish mahalliy hududlar zimmasiga tushadi, natijada ko'zlangan xarajatlarni to'liq va samarali moliyalashtirish mumkin bo'lmay qoladi, yuqoridan mahalliy byudjetlarning shakllanishi va ijro etilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatilgani bilan mahalliy ijroiya organlarning mas'uliyati va javobgarligi pasayadi.

Uchinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda yagona uslubiyot bo'yicha byudjet transfertlarini qo'llash, mahalliy byudjetlarni gorizontaal va vertikal muvofiqlashtirish, quyi byudjetlar uchun yuqori byudjetlardan moliyaviy resurslarni undirib olish amaliyotidan voz kechish, bundagi sub'ektiv omillarni bartaraf etish.

Umuman olganda, byudjetlararo munosabatlarni yaxshilash, byudjetga tushumlarning barqarorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlar daromadlarini va daromad bazalarini mustahkamlash, byudjetlararo transfertlar tizimini takomillashtirish borasidagi xorijiy tajribani o'rganish va uning ijobiy jihatlarni O'zbekiston byudjet amaliyoti sharoitiga mos holda tadbqiq etish masalalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjetlararo munosabatlarning zarurligi va mohiyati nimada?
2. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslariga nimalar kiradi?
3. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning zarurligi nimada?
4. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud va ularni hal etish yo'llari qanday?
5. Byudjetlararo munosabatlar tizimida respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratmalarning ahamiyatini nimalarda izohlash mumkin?
6. Viloyat moliya boshqarmalarining byudjetlararo munosabatlardagi vakolatlari qanday?
7. Quyi byudjet bo'g'inlari faoliyatiga qo'yilgan cheklavlarning ahamiyati qanday?
8. O'zaro hisob-kitoblar tarzida respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga tushadigan mablag'larning xususiyatlarini izohlang.
9. Byudjetlararo munosabatlar tizimiga oid boy xorijiy tajribalardan foydalanish zarurligi nimada?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi hududlarida mahalliy byudjetlarni dotatsiya va subvensiyadan chiqarish Davlat dasturi va ularning ijrosi yakunlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.
2. Byudjetlararo munosabatlar samarali faoliyatini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati qaysi xorijiy davlat modelini asos qilgani ma'qul, deb hisoblaysiz, shu haqida esse yozing.

8-MAVZU. BUDJET TASNIFI

REJA:

- 8.1. Byudjet tasnifining zarurligi, mohiyati va ahamiyati
- 8.2. Byudjet tasnifining turlari
- 8.3. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tasnifi bilan qiyoslash

Tayanch so'z va iboralar: *Byudjet tasnifi; to'liqlilik; yagonalik; o'zaro muvofiqlik; byudjet tizimining yagonaligi; davlat byudjeti daromadlarining tasnifi; davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi; davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.*

8.1. Byudjet tasnifining zarurligi, mohiyati va ahamiyati

O'zbekistonda keyingi yillarda islohotlar natijasida byudjet jarayonida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar Davlat byudjetida moliyaviy resurslar oqimini tartibga solish, moliyaviy mablag'larni yagona hukumat organiga markazlashtirish, davlat moliyasining holati bo'yicha tezkor axborot olish, daromadlar va xarajatlarni kassali rejalashtirish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni boshqarish, narxlar monitoringini yaxshilash, byudjet takchilligini tartiblash, byudjet tasnifi tizimini takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Davlat byudjetini tuzish aniq tamoyillarga asoslanadi, ya'ni byudjet jarayonining barcha bosqichlarini bir tizimga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunday tizimlardan biri - bu byudjet tasnifidir. "Byudjetning muhim qismini tashkil etuvchi tizim - byudjet tasnifidir. Byudjet tasnifi turli darajadagi byudjet ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash, moliyaviy manbalarni, byudjet taqchilligini qoplash manbalarini belgilash imkonini beradi.

Byudjet tasnifini tuzishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan:

- to'liqlilik – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi shart;
- yagonalik – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona bo'lishi shart;
- o'zaro muvofiqlik – byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida byudjet jarayonining har xil operatsiyalarini aks ettirish uchun qo'llanilmasligi kerak, ya'ni byudjet tasnifining har bir kodi o'ziga xos bo'lishi shart.

Byudjet tasnifi mazmuniga ko'ra ko'p qirrali kategoriyadir. Byudjet tasnifi, davlat va mintaqaviy mablag'lar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiruvchi yagona tizimning ajralmas qismidir. Byudjet tasnifi mablag'larni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifidan byudjetning maqsadli va manzilli xarajatlari va daromadlarining aniq manbalari byudjet jamg'armasini hosil qilish va ishlatish funktsiyasini bajaradi.

Byudjet tasnifi quyidagi masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibini belgilaydi hamda barcha byudjet jarayonini nazorat qiladi;
- byudjet tizimi birligi tamoyilini amalga oshirish mexanizmini shakllantiradi;
- byudjet tizimidagi barcha ma'lumotlarni taqqoslash va baholash uchun jamlaydi.

Tasdiqlangan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etiladi, shuningdek

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy (www.mf.uz) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi) veb-saytida joylashtiriladi va yangilab boriladi.

«2000-yilning birinchi 10 kunligiga qadar, Federal hukumatining Byudjet va Menejment idorasi (OMB) dasturning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashda va byudjetlashtirish jarayonida resurslarni taqsimlashga yordam berishda, hukumat orqali har tomonlama ijro baholashga qattiq urg'u beradi. Bu natijalar mamlakatda yaratilgan www.peformance.gov sahifasida onlayn tizimida joylashtirilgan. Davlat va mahalliy hokimiyat ham byudjet jarayonlarida dastur ma'lumotlaridan juda keng foydalanishgan. 1900-yilning boshida bo'lgan o'zgarishlar bunday natijalarga sabab bo'lgan. Byudjetlashtirish juda uzoq yo'lni bosib o'tgan.

Byudjet tayyorlanish bosqichida, xarajatlar bilan bog'liq muhim qarorlar bir vaqtning o'zida daromadlarni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan qarorlar bilan birga amalga oshirildi. Byudjetlashdagi bu ikki asosiy ahamiyatli axborotlar dastur va resurslar axboroti deb yuritiladi. Dastur axboroti hukumat amalga oshiradigan vazifalarga asoslangan axborotlardan iborat. Resurs axboroti esa bu vazifalarni bajarishda kerak bo'ladigan va kiritiladigan axborotlardan iborat. Bu axborotlarga dollarlar, qulayliklar, jihozlar, etkazib berishlar va xodimlarni o'z ichiga oladi va bular byudjetlashtirish tizimini tashkil etgan xususiyatlari hisoblanadi. Dastur axborotidan foydalanish esa asta-sekin byudjetlashtirishning ajralmas qismi sifatida paydo bo'lgan. Bu ikki axborotga bog'liq bo'lgan muhim bahs-munozaralardan biri shuki, agar byudjetlashtirish resurslarni taqsimlashda muhim jarayon bo'lishi kuzatilganda, bu ikki axborot bir-biridan ajralmagan holda hisobga olinishi kerak. Byudjet mavjud resurslarga asoslangan hokimiyatning ijrosiga bog'liqligi nazarda tutiladi. Byudjetlashtirish islohotlari tarixi shuni ko'rsatadiki, bunday byudjet tizimini yaratishda ancha harakatlar amalga oshirilgan»¹.

Byudjet Kodeksida byudjet tizimi tamoyillari aniqlangan: yagonalik; muvofiqlik, byudjetlarning balansliligi va o'zaro bog'liqligi; daromadlarni prognoz qilish va xarajatlarni rejalashtirilishi; byudjet mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadliligi; byudjetlarning mustaqilligi; byudjet mablag'laridan foydalanishning natijadorligi; kassaning yagonaligi; ochiqlik; byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi.

«Byudjetlashtirish xarajatlarni boshqarishga, resurslardan foydalanishga va kelajakdagi taqsimlash qarorlarini rejalashtirishga diqqatni qaratish kerak. Biz rejalashtirish orqali kelajakda o'zimizning maqsadimizga erishishimizda bajarishimiz kerak bo'ladigan vazifalarni aniqlab olamiz. Vaqt davomida yuqoridagi uch ta'kidning rivojlanishi ketma-ket bo'lgan paytda bo'lsada, ular ma'lum bir vaqt uchun qat'iy doimiy bo'lmagan rejalashtirish va boshqarish bosqichlari dastur axborotidan ko'proq foydalanishni talab qilar edi. Bu bosqichlarning mashhurlik davrida vujudga kelgan noaniq farqlar bo'lishiga qaramasdan, rejalashtirish bilan dastur axborotidan foydalanish birlashishi XX asr boshlarida allaqachon himoyalangan edi.

Federal byudjet tizimi yaratilishidan oldin, byudjetlash dastur natijalariga erishish uchun resurslarni joylashtirish vositasi sifatida qo'llab-quvvatlanib kelingan. Bu tizim asosiy tarafdorlari Prezident Taft⁴ va iqtisodiyot va samaradorlik 1912 Taft Komissiyasi bo'lgan. Komissiya o'zining ma'ruzalaridan birida shuni ta'kidlaydiki, rahbarlar o'zining vazifalariga ma'suyatli yondoshishi uchun donolik bilan ish olib borish maqsadida, ular har doim o'zlarining bayonotlarida natijaga ta'sir qiladigan sifat va miqdor ko'rsatkichlarini taqdim etishi kerak.⁵ Rahbarlar natijalarning sifati va miqdorini narx birliklari va samaradorlik birliklari tomonidan aniqlay oladigan bo'lishi kerak (urg'u berilgan). Shunga qaramasdan, bu erda tejamkorlik tarafidan yorqin bir manfaat bor ediki, dollarni tejab qolishda, yana ishlatilgan resurslarni davr mobaynida eng samarali yo'lda qaytib kelishi ham ularni qiziqtirgan.⁶

1910-yillarda byudjetlashda dastur natijalariga hissa qo'shgan yana bir qancha vakillarni aytib o'tishimiz mumkin. Ularga Frederik A. Kleveland⁷ va Villiam F. Villogbilarni⁸ misol qilishimiz mumkin. 1920- 1930-yillarda byudjetlashda dastur natijalaridan foydalanish

¹Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –P.187.

tarafdorlari bir muncha ko'paydi ular Lent D. Upson,⁹ A.E. Bak,¹⁰ Vilay Kilpatrik¹¹ va 1937-yilda Ma'muriy Boshqaruv¹² Komiteti Prezidenti A.E. Buk fikricha, klassik ijtimoiy byudjetlashtirishda (1929) kuchli dastur axboroti yo'nalishi yo'qligini tan olish kerak, lekin A.E. Buk hukumat faoliyati ishlarini baholashga katta urg'u berdi»¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi. «Davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi. O'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi»². Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida vujudga kelgan barcha moliyaviy muammolar byudjet tizimining butunlay yangi huquqiy va qonunchilik asoslarini yangilash, iqtisodiyotning sifat jihatidan yangi holatga o'tishi va modernizatsiyalash bu jarayonni tezlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Mana shu jarayonlarda byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar, yig'imlar va boshqa daromadlarning hisob-kitobini to'g'ri yuritish, xarajatlarni amalga oshirayotganda ularni maqsadli va manzilliligini to'liq va aniq ko'rsatish zarur bo'lib, bunda bizga byudjet tasnifi ko'mak beradi. Davlat byudjeti ijrosi byudjet jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadiki, g'aznachilikda belgilangan istiqbol ko'rsatkichlari, tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar bo'yicha rejalar hamda respublikada ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy-iktisodiy dasturlarning amaliyotdagi ijrosi qattiq nazorat qilinadi. G'aznachilik tasnif asosida davlat byudjetini ijro qilish jarayonida soliqlar,bojlar va boshqa byudjetga tushadigan tushumlarni yig'adi, byudjet kreditlarini ochadi, tasdiqlangan byudjet rejasiga muvofiq, tasnif asosida byudjet tashkilotlariga mablag'larini taqdim qiladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy printsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Byudjetning g'azna ijrosi shunday jarayonki, moliya yili mobaynida to'liq va o'z vaqtida, byudjet daromadlari tasnifiga muvofiq, har bir manba bo'yicha byudjet daromadlari bajarilishi boshqariladi. Byudjet tashkilotlarning tasdiqlangan byudjet xarajatlari smetasi chegarasida, davlat byudjeti xarajatlarning tasnifiga muvofiq, xarajatlarni to'lashni ta'minlaydi.

Tasnif yoki turkumlash deganda u yoki bu iqtisodiy hodisa, jarayon va munosabatlarning tarkibiy tuzilishi, belgilanishi va iqtisodiy mazmunini to'liq va batafsil o'rganish, aniqlash, rejalashtirish va tahlil qilish maqsadida turli sinflarga ajratish tushuniladi. Byudjet tasnifi alohida olingan byudjet tizimini tarkibiy tuzilishini, uning alohida daraja va sohalar bo'yicha elementlari to'plamini tashkil etadi.

«Dastur axboroti va rejalashtirishdan foydalanish XX asrning 40-yillariga qadar oqlanib kelinishiga qaramasdan, bu masala 1940-yilda juda katta e'tiborga sazovor bo'ldi. V.O. Key oldingi byudjet uslubiga shubha ostida qaradi, chunki u byudjetlashtirishning asosiy muammolariga qarashni da'vat etdi va unga bir necha alternativ dasturlar loyiqiligini solishtirgan: "X dollarni B jarayondan ko'ra qandaydir A jarayonga taqsimlash kerakligini bilishda qanday asoslar bo'lishi kerak?" deb aytadi. ¹³ Hukumatning ijro organi 1949-Komissiyasi (Komissiyani birinchi Guveri nomi bilan mashhur) Federal byudjet funktsiyalar, faoliyatlar va dasturlarga asoslangan bo'lishi kerakligini maslahat berdi va bu byudjet ijrosi deb nom olgan. Byudjetlashtirish qandaydir ish yoki xizmatni bajarishdek vazifa bo'lishi kerak.

¹⁴

¹Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –P.187-188.

²Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет Кодексини тасдиqlаш тўғрисида”ги Қонуни. 2013 йил. 26 декабр.

1950-yilda bu qarashlar tarafdorlari ancha ko'paydi. Bular qatoriga Vern B. Levis,¹⁵ Frederik C. Mosher,¹⁶ Ketarin Sekler-Hadson¹⁷ va Artur Smizlar¹⁸ kabi olimlarni kiritish mumkin. Ikkinchi Guver Komissiyasi o'tmishdoshlarining fikrini qo'llab-quvvatladi. A. E. Smizning fikriga ko'ra, byudjetlashda dastur axborotidan foydalanish hukumatga ijroi va qonuniy qarorlarni qabul qilishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi¹⁹. Jess Bukxedning Davlat byudjetlashtirishi (1956) me'yoriy hujjatdan ko'ra ko'proq tasvirlovchi hisoblanadi va byudjetlashtirish dasturi va ijrosiga ko'proq bag'ishlangan.²⁰

1950-yilgacha, byudjetlashtirishda axborot dasturidan foydalanish asosiy masalaga aylandi. Bir vaqtning o'zida, yana boshqa bir maktab tarafdorlari Charlez E. Lindblom, Aaron Vil va boshqalar byudjet islohotlarini rivojlantirishgan. Bunda siyosiy qarorlar tizimi rejalashtirilgan dasturga tezda moslasha olmadi. Lindblom byudjet islohotlari harakatlariga qarshi chiqadigan qarorlarni qabul qiluvchi "engish" modelini kuchaytirdi. Vildavskiy esa byudjetlashda axborot dasturidan foydalanish yaxshi natija bermasligiga eng shubha bilan qaraganlardan biri bo'lgan. 1969-yilda «byudjet dasturidan qanday foydalishni hech kim bilmaydi», deb xulosa qildi.²¹

Yana bir maktab tarafdorlari David Novik, Charlez J. Xitch, Roland MakKin va boshqalar nazariya va texnikaga asoslangan sohalarni ikkinchi jahon urishidan keyin rivojlantirgan. Bu sohalar va texnologiyalar byudjet islohotlari siljishlari bilan mos ravishda rivojlanib borayotgan edi va rejali-dasturli byudjetlashtirish (PPB) va dasturlash uchun nazariy boshlang'ich tizim sifatida 1960-yillarda xizmat ko'rsatgan. Eng muhim oltita soha va texnologiyalar quyidagilardan iborat:

1. Ko'rsatilgan vazifalarni tadqiqot vaziyatini ko'rsatuvchi modelni rejalashtirishni va mos keladigan ma'lumotlarni yig'ish va qo'llashni o'z ichiga oluvchi operatsiyalar tadqiqoti va texnikalar.²³

2. Iqtisodiy tahlil, bunda dastur bilan joriy dastur xarajatlarini qoplashi aniqlanadi.²⁴

3. Asosiy tizim nazariyasi yondoshuvi, bunda tizimning tarkibiy qismlari bir-biri bilan aloqadorligiga urg'u beriladi.²⁵

4. Kibernetika, nazorat va kommunikatsiya.²⁶

5. Informatsion texnologiya, bunda axborotlar qayta ishlanib, qaror qabul qilish jarayonida tahlil va yordam vazifasini bajarishda mos keladigan axborotlarni yaratish uslubidir.²⁷

6. Tizim tahlili, bunda yuqoridagi beshta punktlarni tahlili ko'rsatuvchi eklektik tahlil ko'rinibdir.²⁸

Bu sohalar va texnologiyalar byudjet islohotlaridan tashqarida alohida rivojlanib kelinganiga qaramasdan ular bir-biriga juda mos edi. Yuqorida ko'rsatilgan oltita nazariy va texnologik baza rejali-dasturli byudjetlashtirish (PPB) tizimini 1960-yilda Mudofa Bo'limida qo'lladi. 1900-1960-yillardagi islohotlar dastur axborotidan foydalanishga urg'u berishi, byudjetdan tashkari tizimdagi rivojlanishlar bilan uyg'unlashdi va hozirgi zamonaviy byudjet tizimini yaratishda bir nechta yangiliklar va asoslar yaratildi¹.

Byudjet loyihasini tayyorlashda tasnifning umumiy tamoyillariga, davlat va mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining mohiyati va ularni guruhlashtirish va ulardan optimal ravishda foylanishga qaratilgan muhim qarashlar berilgan. Shuningdek, davlat va mahalliy byudjetlar jarayonida tasnifning iqtisodiy mohiyati va uning roli to'g'risida ham gapirib o'tilgan. Bunda byudjet daromadlari va xarajatlarini jamiyatning iqtisodiy hayotidagi, xususan ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati, xarajatlarni aniq belgilariga asosan guruhlashtirish, iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha mohiyatini ochib berishga xarakat qilinadi.

Guruhlash tavsifi va ularni tuzish tamoyillari, byudjet daromadlari va xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, iqtisodiyotni tuzilishi va uni boshqarishga bog'liq ravishda aniqlanadi. Daromad manbalarini bilish va byudjet sarflarining yo'nalishini aniqlab olish, bu

¹ Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –P.188-189.

byudjet jarayonining samarali ishlashiga sharoit yaratadi. Shuningdek byudjet daromadlari va xarajatlarini bir tizimga solib guruhlash nafaqat bir qancha o'xshash daromad va xarajatlarni birlashtirish, balki iqtisodiyotda moliyaviy nazoratni mustahkamlashi va byudjet intizomiga rioya etilishini ham ta'minlaydi".¹ Byudjetning daromadlar manbalari yig'indisi va byudjet xarajatlari maqsadlarini aniqlash - butun byudjet jarayonining samarasi hamda faoliyatini zaruriy shartidir. Byudjet tuzilishining muhim tarkibi qismi byudjet tasnifidir. Byudjet tasnifi turli darajadagi byudjetlarning daromadlar va xarajatlarni guruhlovchi to'plamdir. Davlat byudjetining taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlab beradi. Byudjetlarni tuzish, qabul qilish va ijro etishda foydalaniladi, umuman byudjet jarayonida ma'lumotlarni shakllantirishni ta'minlaydi. Byudjetni boshqarish tamoyillari byudjet daromadlari va xarajatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqaruv tizimi bilan belgilanadi.

Byudjet jamg'armasi daromadlarini: solikli va soliqsiz daromadlar, beg'araz yordamlar, boshqa daromadlar orqali shakllantirish hamda markazlashgan jamg'armani sarflash, ijtimoiy himoyani moliyaviy ta'minlash, soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, moliyaviy nazorat bilan joriy va kapital xarajatlarni amalga oshirish Davlat byudjetining asosiy funktsiyalari hisoblanadi. Soliqlar milliy daromadning bozor iqtisodi sharoitida asosiy taqsimlash usulidir. Soliqlar yordamida byudjetning asosiy qismi shakllanadi. Ko'pgina davlatlarning byudjet daromadlarini 80-90% soliqlar tashkil qiladi. Davlat tomonidan yig'ilgan mablag'larni qaysi maqsadlarga yo'naltirilgani byudjet xarajatlari ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tasnifi quyidagi tasniflarni o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti daromadlari tasnifi;
- Davlat byudjeti xarajatlarning vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;
- Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

O'zbekistonda amalda bo'lgan byudjet qonunchiligi xalqaro tasniflash asosida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarni milliy tasniflashni ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Ushbu tasniflar davlat moliyasi hisobini yuritish va uni boshqarishni yaxshilash imkonini beradi. Turli darajadagi byudjetlarning barcha daromad manbalari va xarajat yo'nalishlari belgilanadi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Byudjetga oid adabiyotlarda davlat byudjeti daromadlarini tasniflashning ikki mezoniga, ya'ni daromadlarni davlat qurilishiga ko'ra va tashkil topish manbalariga ko'ra tasniflash mezoniga amal qilingan. Respublika byudjeti daromadlarining tashkil topish manbalari quyidagilardan iborat.:

- umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident - yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;
- boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti daromadlari tashkil topish manbalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan egri, to'g'ri va mulkiy soliqlar;
- aholidan olinadigan soliqlar;
- hukumatning qimmatli qog'ozlaridan olinadigan daromadlar;
- davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar;
- xorijiy va xalqaro kreditlar hamda moliyaviy yordamlar;
- boshqa daromadlar.

¹http://ru.wikipedia.org/wiki/Бюджетная_классификация интернет сайти маълумотлари.

Davlat byudjetining daromadlari undirish usuliga ko'ra ikkiga bo'linadi: solikli daromadlar va soliqsiz daromadlar. Davlat byudjeti daromadlari soliq turlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- korxonalar daromadidan olinadigan soliqlar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- mol-mulk va yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- boshqa soliqlar.

Bir xil turdagi daromad va xarajatlarni birlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan sharoitda byudjet daromadlari va xarajatlarini to'plash bilan amalga oshiriladi. Bu moliya tizimida moliyaviy nazoratni amalga oshirishni hamda byudjet intizomiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Davlatning pul mablag'lari jamg'armasini biror sohaga ma'lum maqsadlar uchun taqsimlashda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar davlat byudjetining xarajatlari deb aytiladi. Byudjetning xarajatlar kategoriyasi sarf-xarajatlarning aniq turlari orqali ifodalanadi, bularning har qaysisi son va sifat jihatdan izohlanadi. Sifat jihatidan izohlanishi byudjet turlarining qaysi maqsadlarga sarflanishini ko'rsatadi, son jihatidan miqdorini ko'rsatadi. "Davlat byudjeti moliya tizimining barcha asosiy moliya institutlari- daromadlar, xarajatlar davlat qarzlari birlashadigan va o'zaro bog'lanadigan markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Byudjet xarajatlari bu davlatning o'z vazifalarini bajarishi jarayonidagi sarflardir. Xarajatlar iqtisodiy munosabatlarni bildiradi, uning asosi markazlashgan jamg'arma pul mablag'larini har hil yo'nalish bo'yicha sarflashdir.

Sarf-xarajatlar butun iqtisodiyotni qamrab oladi, chunki davlat jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga oladi. «Davlat byudjeti xarajatlari miqdori va tuzilishiga ko'pgina faktorlar ta'sir etadi: davlat tuzilishi, davlatning tashqi va ichki siyosati, iqtisodiyotning umumiy darajasi, aholining turmush darajasi, iqtisodiyotda davlat sektori va xususiy sektorning holati.

Davlat byudjeti o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra – YaIMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan pul munosabatlaridir. Byudjet munosabatlarining sub'ektlari bo'lib davlat, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, turli darajagi byudjetlar va fuqarolar hisoblanadi. Davlat xarajatlari uning daromadlariga qarab shakllanadi va quyidagi yo'nalishda boradi: ijtimoiy soha xarajatlari; investitsiya xarajatlari; milliy xavfsizlikni va ichki tartibni saqlash xarajatlari; boshqaruv xarajatlari; tashqi qarzni uzish xarajatlari.

Davlat byudjeti daromadlar va xarajatlarning yaxlitligi va ularning balansidan iborat. Byudjet tasnifi Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, Davlat byudjetining taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdan iborat. "Byudjet taqchilligi - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasidir.. Byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ma'lumotlarini tahlil qilishni ta'minlaydi. Byudjet tasnifining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undan:

- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etishda;
- byudjet mablag'larining ajratilishi va mablag'larning foydalanilishini nazorat qilishda;
- turli darajadagi byudjetlarning ko'rsatkichlarini bir-biri bilan
- taqqoslashda;
- barcha darajadagi byudjetlarni tuzishda foydalaniladi.

Tasnif asosan guruhlovchi bo'lib, barcha soliq va yig'imlar turlari va ularni undirish manbalarini, xarajatlarning yo'nalishlari, maqsadi, qanday vazifani bajarish uchun vazirlik, idora yoki byudjet tashkiloti amalga oshiradigan to'lovlarni guruhlash orqali byudjet ma'lumotlarini aniq shaklda aks ettirishni ta'minlaydi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va o'zgartirishlar kiritiladi.

«Markaziy Byudjet idorasi yolg'iz o'zi kichik tashkilotlarsiz byudjetni tashkil eta olmaydi. Yuqoridagi bobda aytilganidek, Byudjetni tayyorlash operatsion agentligida va Federal hukumatining Byudjet va Menejment idorasidan byudjet yo'riqnomalarini berish idorasida bir vaqtning o'zida ajoyib yordam vazifasini o'taydigan axborotlarni berishdan boshlanadi.

Bu bosqichda axborotni rivojlanishi qisman har bir agentlikning tanlovlari maqsadga erishish uchun qilingan qarorlaridan kutiladigan usulga bog'liq. Agar faqat dollar talablari tayyorlangan bo'lsa, umumiy olganda dastur muvaffaqiyati haqida hech qanday xulosa yuritib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy Byudjet idorasi muhokama jarayonida, xattoki unga talab bo'lsada, dastur axborotidan foydalanmasligi ham mumkin. Shunday bo'lsada, agar aniqlangan axborot boshqa byudjet ishtirokchilari, ayniqsa, qonunchilik organlari talab qilsa, boshqa bir omil qanday axborot kerakligini aniqlaydi. Agentlik yoki bosh ijrochi o'zining maqsadida qarorlarni qabul qilishda ularni ishlatishda maqsadi katta bo'lmasa-da, juda ham ko'p axborot yig'ishni talab etilishi mumkin. Chunki, har yili qonunchilik organi bu axborotlarni talab qiladi. Dastur axboroti muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qonunchilik organi, qonunchilik idoralariga yuborgan mablag'lar talablari haqidagi qarorlarida ishlatilishi mumkin, lekin bu axborotlar qonunchilik organlari tomonidan aniq bir mablag'lar bilan bog'liq jarayonda inobatga olinmasligi ham mumkin.

Byudjet tayyorlash amaliyoti agentliklar ichida juda farq qilishi mumkin. Soha ofisi xodimlari va turli darajadagi boshqa bir qator xodimlarning qatnashishlari mumkinligi va bunday o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan, umumiy jarayon hukumatning markaziy byudjeti ma'lum bir sanada berilgan ko'rsatmalar orqali boshqariladi.

Federal hukumatga qaraydigan bo'lsak, OMB Circular A-11ikki pog'onali jarayonni tasvirlaydi. OMB Circular A-11 yozda chop etiladi va agentliklar o'zlarining talabnomalarini bir nechta farq qilinadigan belgilangan sanalarda etkazib beradi. Shundan so'ng agentliklar o'zlarinig taqdim etgan hujjatlariga tasdiqlanganlik yoki tasdiqlanmaganlik haqida xat oladi va kerak bo'lsa kompyuter yordam tizimi orqali yanada to'liq axborot taqdim etadi. Ikkinchi pog'onasi esa noyabrda boshlanadi, yilning boshlanishidan keyin bu axborotlarni Kongress Federal byudjet to'g'risidagi taqdimotni prezidentgacha etib borish jarayonini o'z ichiga oladi.

Qonunchilik qanday bo'lishidan qat'iy nazar, standart mahsulotlarni deyarli barcha byudjet qo'llanmalarida topish mumkin. Tegishli hollarda, idoralar daromad to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishadi (qaytish fondi va kredit dasturi bilan faoliyat olib boruvchi agentlik). Garchi ko'rsatmalarning ko'p qismi xarajatlarga bog'liq. Xarajatlar buxgalteriya tizimi bilan bog'lanilgan. Bunda, xodimlar va etkazib berish kabi xarajatlar obektlaridan foydalaniladi. (moliyaviy menejment bobini ko'ring). Shuningdek, shaxslarni soni bo'yicha batafsil yutuqlari, ularning ish unvonlari va ularning joriy ish haqi bo'yicha ma'lumotlar bo'lishi mumkin Ko'rsatmalar, odatda agentliklarning talablarini oqlash uchun bayonot berishi uchun zarur bo'ladi.

Davlat tomonidan ko'rsatilganidek, ko'rsatmalar alohida to'plam bo'ladi, operatsion va kapital jamg'armalar, byudjetlar, shuningdek, boshqa fondlar uchun Jadval 7 – 2 Nyu-York shtatidek taqdim etilishi kerak. Keyinchalik ko'rsatmalar, davlat va mahalliy darajada ko'p ishlatiladiganlari, davlat umumiy fondidan ko'ra turli fondlarda hisobga olinishi kerak bo'lgan xarajatlar talabnomalarni farqlash uchun ishlatiladi. Misol uchun birinchi navbatda yirik bo'lgan fondlar uchun mo'ljallangan aktivlarni o'z ichiga oladi. Bu fondlarga bino va inshootlar, federal daromadni shtat daromadlaridan ajratuvchi maxsus fondlar va boshqalar kiradi. Federal agentliklar o'zining mablag'larini asosiy vositalarga investitsiya qilishlari shart, lekin Kongress agentliklarga mablag' ajratganda aktivlar yoki asosiy vositalarga investitsiyalarni ajratmaydi»¹.

¹Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –P.189-193.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini boshqarishdagi o'zgarishlarda Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etishdan asosiy maqsad – byudjet mablag'larini samarali boshqarish, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish asosida byudjet daromadlarini shakllantirish, xarajatlarni amalga oshirish shuningdek, byudjet tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yanada takomillashtirishdir. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilari, taqdim qilingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobni amalga oshiruvchilar – byudjetdan mablag' oluvchilardir yoki byudjet tashkilotlaridir. Davlat byudjeti g'azna ijrosi kassa birligi, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish hisobini yuritish, byudjet tiniqligi, byudjet majburiyatlarini limiti, shartnomalarni ro'yxatga olish kabi tamoyillarga asoslanadi. Davlat byudjeti g'azna ijrosida Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy organlari, moliya organlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar muhim rol o'ynaydi. Byudjetdan mablag' oluvchilar uchun tasdiqlangan tartibda g'aznachilik organlarida hisobvaraqlar ochiladi, bu hisobvaraqlarda Davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mablag' saqlanadi. Ijro bosqichida belgilangan tartibda va chegaralangan mablag'lar doirasida tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan byudjet majburiyatlarini to'lovi amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan majburiyatlarning to'lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan byudjet mablag'i oluvchilarining taqdim qilgan va byudjet majburiyatlari ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar asosida xarajatlar amalga oshiriladi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan pul mablag'lari o'tkazilishi quyidagi talablarga asoslangan to'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladi:

- to'lov topshiriqnomasida byudjet tasnifining tegishli kodlari to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa;
- moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari asosida va byudjet mablag'lari bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchilarning bank hisobraqamlarida mavjud bo'lgan, xarajatlarning tegishli guruhlariga bo'yicha byudjet mablag'lari qoldiqlarining summalari doirasida;
- agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasidan oshmasa;
- tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib berilishini va byudjetdan mablag' oluvchining etkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan hisobvaraqlar-fakturalar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchi zimmasiga etkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlar bo'lganida;
- etkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari etkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lsa.

Ma'lumki, byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

8.2. Byudjet tasnifining turlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasida qayd etilgan *byudjet tizimining yagonaligi* tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo'llaniladi. Barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash ob'ektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

Byudjet tasnifi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda ulardan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llaniladi hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek davlat byudjeti va

davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq, yangi byudjet tasnifi 2011 yil 1 yanvardan amalga kiritildi.

Ushbu yo'riqnoma ko'ra, *byudjet tasnifi* O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining guruhlanishi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat byudjeti daromadlarining tasnifi;
- davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;
- davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.


Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va byudjet ma'lumotlarining xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.

Byudjet tasnifini tuzishning *asosiy tamoyillari* quyidagilar hisoblanadi (11-rasm):

–*to'liqlilik* – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi shart;

–*yagonalik* – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona bo'lishi shart;

–*o'zaro muvofiqlik* – byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida byudjet jarayonining har xil operatsiyalarini aks ettirish uchun qo'llanilmasligi kerak, ya'ni byudjet tasnifining har bir kodi o'ziga xos bo'lishi shart.



Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

21 koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi				Daromadlar turi			Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif	
x	xxx	x	x	x	xxx	xxx	xxx	xx	xxx

Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi (DMBAT) tatbiq etilguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzishda faqatgina "Daromadlar turi" kodi qo'llaniladi.

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi (1–6 kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni tegishli mablag'lar manbasi va byudjetlar darajalariga (tegishli byudjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlari turiga) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

7 ta raqamli daromadlar turi (7–13 kodlar) quyidagilardan iborat:

- bo'lim;
- paragraf;
- daromad turi.

Bo'lim daromadlarni ularning olish manbalari bo'yicha guruhlanishini bildiradi, masalan:

- 3 100 000 "Soliqlar";
- 3 200 000 "Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar";
- 3 300 000 "Grantlar";
- 3 400 000 "Boshqa daromadlar";
- 3 500 000 "Aktiv va majburiyatlarga tranzaktsiyalar bo'yicha tushumlar".

Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha daromadlarning guruhlanishini bildiradi.

1. "Soliqlar" (3 100 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

- 3 110 000 "Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar";
- 3 130 000 "Mol-mulkka solinadigan soliq";
- 3 140 000 "Tovarlar va xizmatlarga soliqlar";
- 3 150 000 "Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar";
- 3 160 000 "Boshqa soliqlar";

2. "Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar" (3 200 000) 3 210 000 "Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar/badallar" paragrafini o'z ichiga oladi.

3. "Grantlar" (3 300 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

- 3 310 000 "Xorijiy davlatlar hukumatlaridan";
- 3 320 000 "Xalqaro tashkilotlardan";
- 3 330 000 "Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklaridan".

4. "Boshqa daromadlar" (3 400 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

- 3 410 000 "Mol-mulkdan daromadlar";
- 3 420 000 "Tovarlar va xizmatlar sotilishi";
- 3 430 000 "Jarimalar, penyalar va neustoykalar";
- 3 440 000 "Ixtiyoriy transfertlar, grantlar bundan mustasno";
- 3 450 000 "Aniqlab bo'lmaydigan va boshqa daromadlar".

5. "Aktiv va majburiyatlarga tranzaktsiyalar bo'yicha tushumlar" (3 500 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

- 3 510 000 "Tranzaktsiyalardan aktivlarga tushadigan tushumlar";
- 3 520 000 "Majburiyatlarga tranzaktsiyalar bo'yicha tushumlar".

Tegishli bo'lim va paragrafning yanada detallashtirilishi va tavsifi 2146-sonli "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ning 2-ilovasiga muvofiq daromadlar turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tegishli byudjetning daromadlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar daromadlar tasnifining mumkin bo'lgan barcha elementlarini qo'llagan holda shakllantiriladi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasidagi byudjet darajalari bo'yicha tushumlarning taqsimlanishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Tashkiliy tasnif (14–16 kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni ularni boshqaruvchi tegishli tashkilotlarga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va sh.k.) tegishli ekanligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha yuqori (quyi) byudjetning quyi (yuqori) byudjet oldidagi majburiyatining qaytarilishi hisobiga quyi byudjetlarga dotatsiya, subventsiya, byudjet ssudalari va mablag‘lari kelib tushganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga birlashtirilgan koddan foydalaniladi.

Hududiy tasnif (17–21 kodlar) tushayotgan daromadlarni mazkur daromadlarni to‘layotgan tegishli hududlarga mansub ekanligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

Xarajatlar tasnifi. Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar xarajatlari tasnifi barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o‘zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga byudjet mablag‘larining yo‘naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlar tasnifi quyidagilardan iborat:



8.1-rasm. Xarajatlar tasnifining guruhlanishi

- mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- hududiy tasnif;
- xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi (xarajatlar guruhi bo‘yicha);
- tashkiliy tasnif;

Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi				Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi			Tashkiliy tasnif	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi			Hududiy tasnif	
x	xxx	x	x	x	xxx	xxx	xxx	xx	xx	xxx	xx	xxx

DMBAT to'liq tatbiq etilguniga qadar xarajatlar smetasini va xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotni (davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni qo'shgan holda) tuzishda "Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi", "Tashkiliy tasnif" va "Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi" kodlari qo'llaniladi.

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi (1–6 kodlar) amalga oshirilayotgan xarajatlarning qaysi mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasiga (tegishli byudjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va sh.k.) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi (7–13 kodlar) barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funktsiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi ikki darajadan iborat:

Vazifa jihatdan tasnifning birinchi darajasi (bo'limlar) davlatning asosiy vazifasini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yo'nalishini aks ettiradi. Kichik bo'limlar vazifa jihatdan tasnifning ikkinchi darajasi hisoblanib, davlat vazifalarining bajarilishida byudjet mablag'larining bo'limlar doirasidagi yo'nalishini aniqlashtiradi.

Vazifa jihatdan tasnifning kichik bo'limlarining tuzilishi davlatning asosiy vazifalarini aniqlashtirish tamoyiliga asosan qurilgan.

Vazifa jihatdan tasnifning kodi 7 ta raqamdan iborat bo'lib, shundan 4 ta raqam – bo'lim, 3 ta raqam esa – kichik bo'limdir.

Vazifa jihatdan tasnifning bo'limlari va kichik bo'limlari yagona bo'lib, byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini tuzishda, tasdiqlashda va ijro qilishda foydalaniladi.

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi O'zbekiston Respublikasi barcha darajadagi byudjetlari xarajatlarni xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi. Davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Toifa	Modda va kichik modda	Element
xx	xx	xxx

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o'z ichiga olgan 7 raqamdan iborat.

toifa – 2 ta raqam;

modda – 1 ta raqam;

kichik modda – 1 ta raqam;

element – 3 ta raqam.

Misol uchun: 41 00 000 "Ishchilar mehnatiga haq to'lash" toifasi mehnat qonunchiligiga muvofiq byudjet tashkilotlari ishchilariga bajargan (bajarilayotgan) ishiga pul yoki natura ko'rinishda taqdirlash lozim bo'lgan xarajatlarni aks ettiradi. Mazkur toifaga ijtimoiy sug'urta dasturiga ishchilar nomidan ish beruvchilarning amalga oshiradigan "Ish haqi" (41 10 000) va "Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar" (41 20 000) moddalari kiradi.

41 10 000 "Ish haqi" moddasi ish beruvchi tomonidan davlat xizmatchilariga beriladigan barcha to'lovlarni o'z ichiga oladi va unga 41 11 000 "Pul shaklidagi ish haqi" kichik moddasi ham kiradi.

41 11 000 "Pul shaklidagi ish haqi" kichik moddasi quyidagi elementlardan iborat: 41 11 100 "Asosiy ish haqi", 41 11 200 "Ish haqiga ustama va qo'shimcha to'lovlar", 41 11 210 "Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini

rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'lari", 41 11 220 "Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo'shimchalar".

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishmanbalari tasnifi. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi ularni moliyalashtirishning *ichki va tashqi manbalari* bo'yicha guruhlanishidan iborat.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi quyidagilardan tashkil topadi:

- bo'lim;
- paragraf.

Bo'lim – davlat byudjeti taqchilligini uni moliyalashtirish manbalari bo'yicha guruhlanishidan iborat.

Paragraf – davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish turlari bo'yicha guruhlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, byudjet amaliyotida amalga oshirilayotgan tadbirlar amaldagi byudjet tasnifini ham takomillashtirishni taqozo etadi. G'aznachilik tizimi samarali faoliyat qilishi uchun byudjet daromadlari va xarajatlarining mukammal ishlab chiqilgan funktsional va iqtisodiy tasnifi bo'lishi lozim. Davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini bank tizimidan G'aznachilikka o'tkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona G'aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritishda G'aznachilikning hisob-kitob schyotlari byudjet daromadlari va xarajatlarining tasniflash tizimiga mos kelishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, G'aznachilikning ma'lumotlar bazasida barcha ma'lumotlar byudjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet tasnifining mazmuni, zarurligi va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Byudjet tasnifining turlari qanday?
3. Byudjet daromadlarini turli belgilariga ko'ra guruhlash sabablarini tushuntirib bering.
4. Byudjet xarajatlarini tasniflash turlarini tushuntirib bering.
5. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalariga ko'ra qanday guruhlarini bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet tasnifi turlarini aks ettiruvchi klaster tuzing va tushuntirib bering.
2. Byudjet tasnifini takomillashtirish zarurligini ifodalovchi omillar ro'yxatini tuzing va izohlab bering.
3. Axborot resurs manbalari ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini xorijiy davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslang va qisqacha xulosa yozing.

9-MAVZU. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TIZIMI

REJA:

- 9.1. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari
- 9.2. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi
- 9.3. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati
- 9.4. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi

Tayanch soʻz va iboralar: *davlat byudjeti daromadlari; milliy daromad; milliy boylik; soliq; iqtisodiy kategoriya; soliqqa tortish obyekti; oborotdan olinadigan soliqlar; daromaddan olinadigan soliqlar; mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar; bevosita va bilvosta soliqlar; umumdavlat va mahalliy soliqlar; majburiy to'lovlar; bojxona bojlari; soliqsiz daromadlar.*

9.1. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari

Jahonning turli mamlakatlarida har xil sabablar bilan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuz berayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda puxta o'ylangan soliq-byudjet siyosati mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil odimlab borishiga xizmat qilmoqda. Oxirgi yillarda yalpi ichki mahsulot o'sishi 8 foizdan kam bo'lmayotganligi, davlat byudjetining profitsit bilan ijro qilinayotganligi ham mamlakatimizda yuritilayotgan fiskal siyosatning oqilona ishlab chiqilganligi va samarali amalga oshirilayotganligining yana bir isbotidir.

Rivojlanishning navbatdagi ustuvor yo'nalishlari va vazifalarini samarali bajarishda davlat byudjeti ham samarali dastak-vosita sifatida faol ishtirok etadi.

Ma'lumki, davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. *Milliy boylik* deganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutiladi.

Milliy daromadni davlat tomonidan davlatlashtirish (davlat ixtiyoriga o'tkazish) turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyat organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va byudjet daromadlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan usullarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Bu usullar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qarama-qarshiliklarning o'tkirlik darajasi, davlatning moliyaviy siyosati va moliyaviy ahvoli bilan belgilanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy usuli soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida byudjet daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 60-95 foizni tashkil etadi.

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undirilishi tufayli ularga nisbatan bu jarayonda quyidagi prinsiplardan foydalaniladi:

- soliqlarning byudjetga undirilishi mamlakat milliy daromadi va milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi;
- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanishi;
- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;
- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;
- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi;
- soliqlarning undirish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi.

Davlat byudjeti daromadlarining amal qilishi mexanizmi haqida so'z borar ekan, avvalo byudjet daromadlarining nazariy asoslariga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Ayrim adabiyotlarda, ma'ruzalarda va boshqa ilmiy ishlarda "davlat byudjeti daromadlarining asosiy bosh manbai soliqlardir", degan bizning nazarimizda birmuncha noto'g'ri bo'lgan fikrlarni uchratish mumkin. Aslida, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib mamlakat yalpi milliy mahsuloti va milliy daromadi hisoblanadi, davlat markazlashgan pul fondiga mablag'larni jalb qilish quroli esa soliqlardir.

Soliqlar majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi. Korxona va tashkilotlar tovar mahsulotlarini ishlab chiqarganida va sotganida, aholiga turli xizmatlarni ko'rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilganda ham pul to'lovlarini amalga oshiradi. Lekin bu munosabatlarning hammasi ham soliq munosabati bo'la olmaydi. Soliq munosabatida davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan majburan davlat byudjetiga mablag' to'plash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlar davlat byudjetiga, davlatning boshqa maqsadli jamg'armalariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlaridir. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir yuridik shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yetkazib beruvchini ixtiyoriy tanlashi va o'zi iste'molchini topib, unga mahsulotini sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ular daromadlarining bir qismini taqsimlab, byudjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq shaklida daromadlarni undirish uchun qonun chiqaruvchi organning qarori zarur, ya'ni qonuniy asosda undirilgan to'lov byudjetga o'tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, soliq munosabatlarini tashkil qilishda soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini albatta e'tiborga olish zarur. Davlat soliq to'lovchilar daromadini istaganicha ololmaydi, soliqlarni byudjetga undirishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu chegarani davlat, soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib belgilaydi. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makrodarajada iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun yetarli moliyaviy resurslar to'plash uchun foydalaniladi. Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

9.2. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi

Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lib, markazlashgan pul fondi bo'lgan davlat byudjetini va davlatning boshqa maqsadli jamg'armalarini majburiy tashkil etadigan soliqlar va yig'imlar turlarining yig'indisiga *soliq tizimi* deb ataladi.

2008 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-"Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari" nomli moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi (9.1-rasm):

Barcha soliqlarni *soliqqa tortish obyektiga, iqtisodiy mohiyatiga va byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra* quyidagicha guruhlash mumkin:

Soliqqa tortish ob'ektiga ko'ra soliqlar quyidagi mezonlarga qarab guruhlanadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar;
2. Daromaddan olinadigan soliqlar;
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojlari va yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgaridagidek, mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlar jumlasiga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini ham kiritish mumkin.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar *egri va to'g'ri* soliqlarga yoki *bevosita va bilvosta* soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy jihatdan to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga daromaddan va mulkdan to'lanadigan barcha soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, ular investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi va shu yo'l bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki beriladi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, korxonalarning biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak, bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

Egri soliqlarning yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlar) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) bo'lib, soliqning haqiqiy og'irligi keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadi, ya'ni bu yerda haqiqiy soliq to'lovchi yashiringan. Bu soliqlarning summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bu soliqlarning ijobiy tomoni respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarning chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa, korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab, foyda olishni ham, byudjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.


Bu soliqlarning yana bir tomoni - muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inflyatsiyani jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadlarini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini yoki iqtisodiy qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin. Masalan. AQSh da to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti amal qilayotganidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi.

Byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra soliqlarning *umumdavlat va mahalliy soliqlarga* bo'linishi hukumat idoralarining markaziy hukumat va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi (9.2-rasm).

Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni - mudofaa, milliy havfsizlikni ta'minlash, tartib intizom infratuzilmasini yaratish, turli ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, fuqarolar ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham, soliqlari hajmi ham salmoqli bo'lishi shart. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi(foydasi)dan, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi.



9.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibidagi soliqlarning byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra guruhlanishi¹

Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlar daromadlilik darajasini tartibga solib turish maqsadida ajratmalar ajratilishi mumkin. Bordi-yu, ajratmalar evaziga ham mahalliy byudjetlarning xarajatlari qoplanmasa, u holda subvensiya yoki dotatsiya beriladi. Agar kelgusi yilda mahalliy byudjetlarning o'z manbalari barqarorlashib, soliqlari hajmi ko'payib borsa, respublika soliqlaridan ajratmalar berishning zaruriyati bo'lmaydi.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ular ijtimoiy masalalarni - maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin odatda bu soliqlar va yig'imlar ular byudjetlari xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasi asosida.

mahalliy hukumatgina o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishi mumkin. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi. Ular hisobidan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksining IV bo'limi "Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari" deb nomlanadi. Ushbu bo'limning 9-bobida davlat byudjeti daromadlari tarkibi tegishli moddalarda belgilab berilgan. Xususan, Kodeksning 50-moddasi "Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish" deb nomlanadi va unda davlat byudjeti qanday daromadlar hisobidan shakllantirilishi ko'rsatilgan (9.3-rasm).



9.3-rasm. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi¹

Xulosa qilib aytganda, byudjet daromadlarining shakllanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Byudjetning qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'lish shakli davlat byudjetiga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalarning harakatida namoyon bo'ladi.

9.3. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati

Miqdor jihatdan byudjetning daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda byudjetda to'planadigan mablag'larning miqdori va ularni undirishning shakl va usullari belgilanadi.

Bugungi kunda davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi har bir mamlakat hukumati oldiga makroiqtisodiy barqarorlik va izchil o'sish sur'atlarini ta'minlashga

¹ "O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-360-son (26.12.2013) O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksiga asosan.

yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni yuritish vazifasini qo'ymoqda. Bunda samarali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat yuritish masalasi markaziy o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga, umumiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan yaxlit davlat siyosati bilan bog'liq muammolar ham aynan davlatning fiskal siyosati instrumentlariga bog'liq bo'lmoqda. Buni o'z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan byudjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat byudjeti daromad ko'rsatkichlarining orttirib bajarilayotgani, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida byudjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin.

9.4. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli byudjet fondlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga ko'ra, davlat byudjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.

Soliqqa kirmaydigan, ya'ni soliqsiz daromadlarning ko'pchiligi doimiy, qat'iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (byudjet) daromadlari ko'rinishiga ega bo'lmaydi. Byudjetning soliqsiz daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular, odatda ilgari yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar, soliq daromadlari kabi, O'zbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo'lishi mumkin.

Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi byudjetlar uchun yagona bo'lib, byudjet tasnifi bilan belgilanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;

- vaqtinchalik bo'sh turgan byudjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;

- xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;

- davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;

- kvartiralarni sotishdan tushumlar;

– davlatning ishlab-chiqarish va noishlab-chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;

– musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Er va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.

5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo'llash, etkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:

– standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;

– narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;

– jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

– davlat kreditlari bo'yicha foizlar;

– davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

– markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;

– tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Byudjetning soliqsiz daromadlari hududiy belgiga ko'ra (muayyan darajadagi byudjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga ko'ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarini shakllantiradigan to'lovlarni undirishning konkret asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning ko'pgina o'xshash tomonlari bilan birga, qator farqlarga ham ega.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular ham soliqlar va boshqa yig'imlar singari davlat oliy hokimiyat idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagilardan iborat deb belgilash mumkin:

– soliqsiz to'lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to'lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo'ladi;

– soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar ko'pchilik hollarda majburiy ravishda to'lanmaydi. Soliq esa uni to'lash ob'ekti mavjud bo'lganida to'lanadi;

– soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar muayyan maqsadga mo'ljallanadi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar soliqsiz daromadlarining guruhlanishi. Soliqsiz to'lovlar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig'imlarning to'lovchilar doirasi, soliq solish ob'ektlari, soliq va yig'imlar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig'imni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o'zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to'lovlar hududiy belgisiga ko'ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to'lovlarga; shakllanish usuliga ko'ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko'ra: davlat byudjetida yoki byudjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo'linadi.

Soliqsiz to'lovlar olinish asoslariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar, bu to'lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;

– davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan to‘lovlar. Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to‘lanadigan to‘lovlar;
- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to‘lanadigan davlat boji;
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to‘lovlar;
- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shaxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to‘lovlari;
- qimmatli qog‘ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o‘yinlarini o‘tkazish uchun to‘lovlar;
- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;
- jarima tarzidagi to‘lovlar (jarimalar, penyalari va boshqalar).

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo‘lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko‘ra nobarqaror jarayon bo‘lib, xususiylashtirishdan olinadigan daromadlarni nobarqaror bo‘lishiga olib keladi; *ikkinchidan*, davlatga tegishli oltin-valyuta zahiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lganligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; *uchinchidan*, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, soliqsiz daromadlar fiskal va iqtisodiy funktsiyalarni bajaradi. Ular daromad manbai sifatida nobarqaror bo‘lib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet daromadlari qanday mezonlar asosida tasniflanadi?
2. Byudjet daromadlari manbalariga ko‘ra qanday guruhlanadi?
3. Byudjetning solikli daromadlari tarkibi nimalardan iborat?
4. To‘g‘ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibi nimalardan iborat?
5. Davlat byudjeti daromadlari tarkibiga Byudjet Kodeksiga muvofiq qanday daromadlar kiritilgan?
6. Soliqlar deb nimaga aytiladi? Soliqlar qanday xarakterli belgilarga ega? Soliqlar qanday funktsiyalarni bajaradi?
7. Soliq tizimi deb nimaga aytiladi?
8. Sizningcha, hozirgi sharoitda soliq tizimida qanday muammolar mavjud?
9. Soliq islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat byudjeti daromadlarining guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlang va himoya qiling.
3. “Soliq kodeksi”ning tegishli moddalarini o‘rganish asosida soliqlarning turli belgilariga ko‘ra guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.
4. Davlat moliyasini sog‘lomlashtirish va byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqing va shu asosda taqdimot tayyorlang.

5. “Public budgeting systems” (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o‘quv qo‘llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet daromadlari tizimining xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot tayyorlang.

10-MAVZU. DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI TIZIMI

REJA:

- 10.1. Davlat byudjeti xarajatlarning davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi
- 10.2. Byudjet xarajatlarning tarkibi va tuzilishi
- 10.3. Byudjetning iqtisodiy maqsaddagi xarajatlari
- 10.4. Byudjetning ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari
- 10.5. Byudjetning davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari, ularni qisqartirish masalalari

Tayanch so'z va iboralar: *davlat byudjeti xarajatlari; iqtisodiy maqsaddagi xarajatlari; ijtimoiy sohalarni saqlash; aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari; byudjetning davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari.*

10.1. Davlat byudjeti xarajatlarning davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi

Davlat miqyosida byudjet mablag'lari va korxona darajasida moliyaviy resurslar etarli darajada mavjudligi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy qiyinchiliklar va moliyaviy inqirozlardan xalos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi.

Davlat byudjeti – umumijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan jamg'arma bo'lib, byudjetni moliyaviy tenglashtirish siyosati, byudjetlararo munosabatlar, byudjet jarayoni va byudjet mexanizmini o'z ichiga oladigan moliyaviy institutidir.

Aholi farovonligi va aholining real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini echish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik xarakatini yanada rivojlantirish davlat tomonidan beriladigan aniq manzillik ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish kabi vazifalarni bajarish jamlanma Davlat byudjeti tarkibiy tuzilishi va uning to'liq ijrosiga bog'liq.

Moliya munosabatlari – bu iqtisodiyot sub'ektlarining moliya resurslari xususidagi o'zaro aloqalari bo'lib, YaIM va milliy boylikni taqsimlash va ishlatish jarayonida yuzaga keladi. Mamlakatda YaIM va milliy daromadni taqsimlash zarurligi, byudjet munosabatlarining amal qilishi davlatning moliyaviy faoliyatida maqsadli moliyaviy mablag'lar yig'ilishi va taqsimlanishini taqozo etadi. Moliya, davlat moliyasi, davlat byudjetiga oid iqtisodiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, davlat moliyasini boshqarish¹ - davlat zimmasidagi funktsiyalarni bajarilishini ta'min etish yo'lida pul mablag'larini to'plash, taqsimlash va qayta taqsimlash hamda ishlatish sohasidagi chora-tadbirlardan iborat.

Umumdavlat moliyasining maqsadi – resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash, ijtimoiy farovonlikka yo'naltirilgan jamiyatni barpo etishdir. Umumdavlat moliyasining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan zamonaviy umumdavlat moliyasini barpo etish boshlangan. Bu mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgartirishlar sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, umumdavlat moliyasining asosiy vazifalarini ham belgilab berdi. Bunda O'zbekiston iqtisodiyotini xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga moslashtirish, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirish alohida o'rin egallaydi.

Moliya tizimining tarkibi quyidagilardan iborat deb ko'rsatiladi: davlat moliyasi, korxonalar moliyasi, sug'urta. O'zbekistonda davlat moliyasining tarkibiy qismi Davlat

¹Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2008. –B.27.

byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, byudjetdan tashqari maqsadli fondlar, davlat korxonalarining moliyasi, davlat krediti. Korxonalar moliyasi tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi, notijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi, jamoat birlashmalari moliyasidan iborat. Sug'urta bo'g'ini ijtimoiy pensiya sug'urtasi, shaxsiy sug'urta, tibbiy sug'urta, mulkni sug'urtalash, masu'iyatni sug'urtalash, tadbirkorlikni sug'urtalash kabi qismlarga bo'linadi.

Moliyaviy resurslarning ikki xil turi mavjud¹. Makroresurslar, markazlashgan resurslar. Ular mamlakat miqyosida tashkil topgan, davlat byudjet, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar hisobiga paydo bo'ladi va davlat ixtiyorida turadi. Mikroresurslar, markazlashmagan resurslar. Ular korxona, firma, kompaniya, kontsern, tashkilot, jamoat uyushmalari doirasida bo'lib, xo'jalik sub'ektlarining o'ziga tegishli pul mablag'lari hisoblanadi. Mikroresurslar korxona, tashkilotlar faoliyatiga xizmat qilsa, makroresurslar (davlat byudjeti) umumdavlat ehtiyojlariga yo'naltiriladi. Bozor iqtisodiyoti tizimida mikroresurslar birlamchi bo'lib, ular ustuvorlikka ega, chunki iqtisodiy erkinlik sharoitida xo'jalikning dastlabki bo'g'ini - korxona, firma, kompaniya korxonalar moliyasi iqtisodiy o'sishning tayanchi hisoblanadi. Makroresurslar iqtisodiyotni tartiblashda asosiy rol o'ynaydi va davlatning iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti jamiyatning boshqa taqsimlash vositalari (narx siyosati, pul-kredit siyosati, minimal ish haqi va boshqalar) va moliya tizimining bo'g'inlari bilan uzviy bog'langan.


Davlat byudjeti davlat moliyasida shakllanadigan, taqsimlanadigan va foydalaniladigan moliyaviy resurslarning 70-75 foizini tashkil etib, davlat moliyasida etakchi o'rinni egallaydi. Shu bois, amaliyotda Davlat byudjetini mamlakatning asosiy moliya rejasi ham deb atashadi. Davlat byudjetini yaxlitligini uning daromadlari va xarajatlari uyg'unligi ta'minlaydi. Taomilga binoan Davlat byudjeti daromad va xarajatlarini tasdiqlashda muvozanatlashgan tamoyil qaror topadi. Ya'ni xarajatlar hajmiga mos ravishda daromadlar qaror topishi lozim. Lekin shuni alohida qayd etish joizki, Davlat byudjetini tasdiqlash uchta iqtisodiy ko'rsatkichdan biri orqali amalga oshiriladi. Xususan: profitsit ko'rsatkichi; muvozanatlashgan ko'rsatkich; defitsit ko'rsatkichi.

Mamlakatimizda 2005 yildan boshlab Davlat byudjeti defitsit bilan tasdiqlanayotgan bo'lsa-da ammo, oqilona olib borilayotgan moliya siyosati negizida doimo profitsit bilan yakun topmoqda

Yuqorida qayd etganimizdek, har qanday davlat byudjetini daromadlar va ularga mos ravishda xarajatlardan iborat bo'ladi. Davlat byudjetining daromad manbalari turli xil manbalardan tashkil topsada, lekin aksariyat daromadlar soliqlar va soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlardan tarkib topishini dunyo mamlakatlari amaliy tajribasi tasdiqlab turibdi.

Davlat byudjetining asosiy moliyaviy kategoriya sifatida jamiyat hayotidagi rolining oshib borishiga birinchi navbatda, uning daromad bazasini qay tarzda va qay darajada shakllanishiga bog'liq

Byudjet orqali iqtisodiyotga quyidagi tarzda faol ta'sir ko'rsatish mumkin:



¹O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Sharq. 2006. –B.377.

Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo'lishi bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funktsiyalarini amalga oshirishda, ularni moliyaviy resurslar bilan ham ta'minlab turish orqali ishtirok etadi. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati – YaIMning hamda milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va davlat korxonalari ixtiyorida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi, shuningdek, kengaytirilgan ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy-madaniy tadbirlarini moliyalashtirishda namoyon bo'ladi. Davlat moliyasi yordamida davlat jamiyatning kam ta'minlangan va yordamga muhtoj bo'lgan qatlamlarining ijtimoiy jihatdan himoyalashni ta'minlaydi, iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlantirish choralari ko'radi.

Iqtisodchi L.A.Drobozina byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi. Davlat byudjeti davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir. Davlat byudjeti o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra - milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir. Muallif byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, bergan ta'rifi aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy daromadning taqsimlanishida ijtimoiy xarakterdagi ijtimoiy sohalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan qatlamni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri sifatidagi byudjetning mazmuniga urg'u beradi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning keynscha nazariyasi uch asosiy holatni o'z ichiga oladi: birinchidan, o'z-o'zidan harakatga keladigan bozor mexanizmiga baho beriladi; ikkinchidan, iqtisodiyotni noto'g'ri boshqarish asosida paydo bo'ladigan ijtimoiy qiyinchiliklar va ziddiyatlarning sabablari ko'rsatiladi; uchinchidan, kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida byudjet asosida iqtisodiyotni tartibga solish chora-tadbirlari tizimi belgilanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim zaruriyati sifatida vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotni ingliz iqtisodchisi Dj.Keyns (1883-1946) yaratdi, davlat moliyaviy siyosati g'oyasiga ulkan hissa qo'shdi. Muallif davlatning byudjet vositasida iqtisodiyotga aralashuvining zarurligini "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" nomli asarida (1936 yil) asosladi. Ingliz iqtisodchisi Dj.Keyns tomonidan davlat byudjetini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy quroli sifatida foydalanish zarurligi haqidagi yondoshuvlardan keng foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida belgilab qo'yilganidek, «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va konuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi»¹. «Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyatning barcha a'zolari uchun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik soliq-byudjet siyosati va ijtimoiy siyosat choralari qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantiriladi»². «Iqtisodiyot va siyosat biri-biri bilan chambarchas bog'langan jarayonlardir. Jamiyat rivojlanishida ular bir-biri bilan aloqador bo'lib, biri-biriga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy tuzimdagi ishlab chiqarish munosabatlari majmui, xalq xo'jaligi va ayrim tarmoqlarning ahvolini ifodalaydi. Siyosat esa, bu ijtimoiy hayotdagi bir maqsadga etishish uchun yo'naltirilgan voqea-xodisalar, ish-harakat uslublari majmuidir. Jamiyat oldiga qo'yilgan siyosat iqtisodiyotni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda jamiyat oldiga qo'yilgan siyosatning xususiyatlari e'tiborga olinadi. Jamiyat mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi jamiyat a'zolarining bir guruhi manfaatlarini bilan emas, umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi»³.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 14-modda. Toshkent. O'zbekiston. 2013. –B.11.

² Abduraxmonov Q.H. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot. 2013. –B.6.

³ Akramov E. A. Iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli" amalda. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2011. –B.43.

Respublikamizda «hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun» kontseptsiasining izchil amalga oshirilishi O'zbekistonda insonni rivojlantirish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minladi. Insonni rivojlantirish kontsepsiyasi – ijtimoiy taraqqiyotga yangicha istiqbolli yondoshuv bo'lib, uning markaziga insonning hayoti tanlov imkoniyatlarini kengaytirish qo'yilgan»¹. «O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab moliya tizimining tarkibiy qismi hisoblangan davlat moliyasini tashkil etishga va davr talabiga mos ravishda rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Pirovardida, hozirgi kunga kelib, mamlakatning davlat moliyasi tarkibida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari davlatning maqsadli jamg'armalari va davlat korxonalari moliyasi tashkil etadi»². «Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning etakchi yo'nalishlarini belgilash, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ruyobga chiqarishi kerak»³. Mamlakatimiz iqtisodiyotining etakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bu o'rinda mazkur tarmoq dasturlarini moliyalashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosati tamoyillarini amalga oshirish aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar rolini kuchaytirish bo'yicha tegishli xulosa va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda Davlat byudjetining ijtimoiy sohani moliyalashtirish xarajatlari o'sish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi muammolari paydo bo'lmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjetni ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilligini kuchaytirish va davlatning maqsadli ijtimoiy dasturlarni mablag' bilan ta'minlash mexanizmining samaradorligini oshirish zarur.

«Dastur axboroti turli-tuman bo'lishi, ijtimoiy ko'rsatkichlarning xilma-xil yoki ko'proq umumiy turlari bo'lishiga bog'liq. Jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy muhitda bu chora-tadbirlar uchun mo'ljallangan jarayon hayot darajasi deb ataladi. Ishsizligi, ishchi kuchi, jinsi, irqi va daromad bo'yicha ulushi muhim ijtimoiy ko'rsatkichlar majmuini tashkil etadi. Juda ko'p tarqalgan ijtimoiy ko'rsatkichlar oila barqarorligi, bolalar o'limi, aholi daromadi bo'yicha aniqlanadi. Bu kabi o'lchovlar oldingi va tarixiy tendentsiyalarni hisobga olgan holda, dasturlashni amalga oshirishda yordam beradi.

Shu kabi ijtimoiy indikatorlar kamdan-kam holda dastur unumdorligini baholay oladi, chunki ular juda ko'p bo'lgani uchun maxsus dastur xarajatlari va yuqoridagi indikatorlar o'rtasidagi odatiy bog'lanishni namoyon etishini e'tiborga olmaydi. Lekin ular muammolarni aniqlashda judayam muhimdir, ayniqsa davlat uchun uzoq muddatli tendentsiyalari aniqlashda qo'l keladi, xattoki, bu tendentsiyalar ijobiy yoki salbiy bo'lsa ham. Prezidentning yillik Federal byudjetidagi Analitik Istiqbollar bo'limi hujjati ijtimoiy indikatorlarni o'z ichiga oladi. Bu bo'lim bizga ijtimoiy indikatorlar maxsus federal dastur ijrosi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmasligini aytadi. " Ular hukumat siyosatining natijalarini baholamaydi, lekin hukumat targ'ib etish niyatida bo'lgan yakuniy natijalarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi haqida miqdoriy o'lchovni aytib beradi.

Ko'pg ijtimoiy indikatorlar davlat va mahaliy darajada ham birdek ishlatiladi. Seattl hududida 1993-yilda bir ko'ngilli tarmoq rivojlandi, 40 taga yaqin bunday indikatorlar shu hududning madaniy, iqtisodiy, atrof-muhit va ijtimoiy holatining barqarorligini saqlab

¹Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik.– T.: Iqtisodiyot. 2013. –B.363.

²Haydarov N. Davlat moliyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni. // Moliya. -Toshkent. 2015. -№1. – B.7

³Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Asarlar to'plami. 3-jild. –T.: 1996. – B.178..

qolyaptimi yoki yo'qmi aniqlashgan. 1990-yilda jamoa shuni aniqladiki, bu hududda suvsizlik, energiya iste'moli va bolalarning qashshoqlikda yashashi barqarorligi kamaymoqda. 2000-yilda Seatl shahri barqarorlikka kurashayotgan paytda, ta'lim - tarbiya rivojlanib borayotgan edi.

Original Seatl o'lchovlarining va boshqa ijtimoiy indikatorlarning bir kamchiligi shundaki, ularning hech biri berilgan hukumat xizmatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan edi, buning ma'nosi shuki, yillik byudjetni yaratishda foydasi kamroqdir. Bolalarning qashshoqlikda yashashiga bir necha omillar ta'sir qiladi va hukumatning dasturi bu muammoning echimini yolg'iz o'zi topa olmaydi.³⁵ Shu paytning o'zida, jamiyat ijtimoiy indikatorlari esa jamiyatning har bir qatlamiga qanday yordam kerakligini aniqlashi mumkin. Sietl kuyi darajada bu muammoni echish uchun bir necha yil o'zining ijtimoiy indikatorlar dasturini qarab chiqdi. Bu barqarorlik dasturining 4-pog'onasida, dastur yangi bir tashkilotga o'tdi ya'ni, www.B-Sustainable.org Agregatning eng quyi pog'onasida asosiy ijtimoiy indikatorlar yuqoridagi holatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega»¹.

«Davlat moliyasi va uning tuzilmaviy bo'limlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini jahon hamjamiyati sub'ektlari tajribasida ham bilish mumkin. Davlat moliyasining tarkibiy qismi har bir davlatda o'ziga xos bo'ladi. Bunga ta'sir etgan bosh omil har bir davlatning olib borayotgan moliyaviy siyosati strategiyasi va taktikasidir. Odatda, moliyaviy strategiya va taktikani qabul qilishda, o'sha davlatning geografik joylashuvi, milliy mentaliteti, turli xil xalqaro guruh va uyushmalarga a'zoligiga bog'liq bo'ladi. Maqsadli xarajatlar bo'yicha davlat moliyasi asosan umumjamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Shuningdek, ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi xarajatlar ham markaziy o'rinda turadi»². Ma'lumotlarga tayanib, aytadigan bo'lsak, dunyo mamlakatlarida davlat byudjeti daromad qismining 80-95 foizi asosan soliqlar xisobidan shakllanishi namoyon bo'lmoqda. Yaponiyada davlat byudjetining 80 foizi soliqlardan shakllantirilsa, qolgan qismi soliqsiz daromadlar (davlat obligatsiyalari, g'aznachilik majburiyatlari, davlat mulkini xususiylashtirish, davlat aksionerlik jamiyatlaridagi dividendlar) hisobiga shakllanadi

10.1-jadval

Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi

Xarajat turlari	Kodlar		
Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari	7	010	000
Ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlar, Byudjet-moliyaviy masalalar, xalqaro aloqalar	7	011	000
Mudofaa	7	020	000
Jamoat tartibi va havfsizlik	7	030	000
Iqtisodiy masalalar	7	040	000
Atrof muhitni muhofaza qilish	7	050	000
Uy joy va kommunal xizmatlari	7	060	000
Sog'liqni saqlash	7	070	000
Dam olish, madaniyat, sport va din	7	080	000
Ta'lim	7	090	000

¹Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –R.194.

²Haydarov N. Davlat moliyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni. // Moliya. -Toshkent. 2015. -№1. – B.6.

Xarajat turlari	Kodlar		
Ijtimoiy himoya	7	100	000

Davlat moliyasi tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari shakli afzalliklariga har qanday ehtiyojni qondirishni iqtisodiy imkoniyatlar bilan bevosita bog'lash, resurslarni ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining asosiy yo'nalishlarida jamlashni ta'minlash, jamiyatda jamoa va shaxsiy manfaatlarini bir-biri bilan to'laroq muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. «Davlat moliyasini rivojlangan mamlakatlar YaIM ning katta qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Yaponiyada - 1/3, Frantsiya, Niderlandiya, Norvegiyada - 1/2, Shvetsiyada-2/3, Rossiyada - 1/3. O'zbekistonda ham davlat moliyasining asosiy daromadlari va shunga mos ravishda xarajatlarini aynan davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Qolgan qismi esa byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari hissasiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham davlat moliyasi tizimida davlat byudjeti uning markaziy va asosiy bo'g'ini xisoblanadi»¹.

Yaponiyada byudjetdan tashqari fondlarning faoliyati - milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma'lum ijtimoiy guruxlari foydasiga qayta taqsimlash usuli sifatida ko'rinadi. Yaponiyada quyidagi ijtimoiy byudjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatadi: «Sog'liqni saqlashni sug'urtalash fondi», «Milliy pensiya fondi», «Ishlab chiqarishda zarar ko'rganda sug'urtalash fondi», «Ishsizlikni sug'urtalash fondi». Yaponiyada ham turli xildagi iqtisodiy jamg'armalar mavjud: «Investitsion byudjet» yoki «Davlat investitsiyalari va karzlari dasturi»; markaziy va mahalliy hukumatning avtonom byudjetlari; maxsus xisobraqamlar.

Eng yirik byudjetdan tashkari fondlardan biri - «Investitsion byudjet» yoki «Davlat investitsiyalari va qarzlari dasturi» bo'lib, uning maqsadi - davlat tomonidan investitsiyalar yo'naltirish va qarzlarni berish dasturini bajarishdir. Bu fond sug'urta qilingan, jamg'arilgan pensiya va boshqa mablag'lardan shakllanadi, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'inishida davlat sektorini moliyalashtirishga ishlatiladi. Davlat tomonidan pasaytirilgan foizlar va ta'riflar siyosatidan foydalanib, davlat korporatsiyalarni faol faoliyat ko'rsatishishi uchun sharoit yaratiladi. «Investitsion byudjet» fondi korporatsiyalarga shunday xizmat ko'rsatadi, mazkur fond yordamida iqtisodiyot tartiblanadi, shuningdek keng tarmoqli xususiy sektorni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimini tubdan o'zgartirish mumkin. Davlat tomonidan investitsiyalarni moliyalashtirishni Yaponiya tajribasiga asoslangan holda, davlat moliya institutlari tizimi orqali amalga oshirish mumkin. Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot rivojlanishining turli strategiyalari mavjud. «O'tgan asrning 60-yillarida resurslarni samarali taqsimlash va kapital jamg'arish, 70-yillarida bozor mexanizmlarini keng joriy qilish hamda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini tugatish, 80-yillarda davlat moliyasining muvozanatlashganligi va pul-kredit siyosati masalalaridan keng foydalanilgan»². Xorijiy mamlakatlardagi mavjud kontseptsiyalarga ko'ra, iqtisodiyotga yo'naltirilgan asosiy kapitalda ishtirok etishga asoslangan rivojlanish strategiyasi yo'lidan borish mumkin. Bunda investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha, byudjetdan investitsiya resurslarini safarbar etish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarini jalb etish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash loyihalarini «davlat-tijorat moliyalashtirish» tadbirlarida byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalaniladi. Albatta, bu o'rinda investitsiyalarni har tomonlama rag'batlantirish, byudjetning markazlashgan investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, mamlakatga bevosita xorijiy investitsiyalari jalb etilishini qo'llab-quvvatlash zarur.

Byudjetdan tashqari fondlar Federal byudjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va

¹Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iqtisod va moliya. - Toshkent. 2012. -№12. – B.51.

²G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Monografiya. – T.: "Moliya". 2003. -B.27.

shartlari, shuningdek shu mablag'laridan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Rossiya Federatsiyasida byudjetdan tashqari fondlar qatoriga «Pensiya fondi», «Majburiy ijtimoiy sug'urtalash fondi», «Bandlik fondi», «Majburiy tibbiy sug'urtalash fondi» va «Yo'l fondi» kiradi. Rossiya Federatsiyasi byudjetdan tashqari fondlarining daromad manbalari quyidagilardan iborat¹.

- maxsus, maqsadli soliqlar, vzoslar va yig'imlar;
- korxonalar, tashkilotlar, foydasidan ajratmalar;
- byudjet mablag'lari;
- tijorat faoliyatidan olingan foyda;
- Markaziy bank va banklardan olingan qarzlari;
- qonun xujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar.

Rossiya Federatsiyasida YaIMning qariyb 40 foizi byudjet orqali taqsimlanadi, mamlakatdagi territoriyasida (oblastlar, rayonlar, o'lkalarda) hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishni e'tiborga olgan holda, moliyaviy resurslarni mintaqalar va tarmoqlar o'rtasida taqsimlashda byudjetdan foydalaniladi. Ijtimoiy xarajatlarning katta salmog'i byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar mablag'laridan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ehtiyojlar xarajatlari smetali rejalashtirish tamoyillari asosida aniqlanadi. Bu xarajatlar aniq tadbirlar va xarajatlarning turlari bo'yicha moliyalashtiriladi. Xarajatlar ham bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy soha tashkilotlarida ishlab chiqilgan smeta va moliya organlari tomonidan tekshirilgan byudjet mablag'lari hisob-kitobi asosida aniqlanadi. Byudjet amaliyotida hisob-kitoblar asosida xizmat ko'rsatiladigan kontingentlarni xarakterlovchi tashkilotlar faoliyatining ko'rsatkichlari yotadi. Byudjet mablag'larini ajratishda ularning yil davomida faoliyat ko'rsatish vaqti ham hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar hisob-kitob birliklari bo'lib xizmat qiladi. Hisob-kitob birligi to'g'ri keluvchi pul ko'rinishidagi xarajatlar byudjet tashkilotining faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlaydigan me'yor bo'yicha o'rnatiladi.

«Har qanday byudjet tizimi oldida turgan asosiy o'zgarishlar turli ko'rinishdagi ma'lumotlardan qanday foydalanish haqida qaror qabul qiladi. Qanday turdagi ma'lumotlar ishlatilishi mumkin, qanday kombinatsiyada va qay darajada? Boshlang'ich qadam – bu hukumatning moliyaviy operatsiyalarininig har bir zarur o'lchamlaridan foydalanishdir. Bunday yondoshuv muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Haqiqatdan ham, bunday ma'lumotlar “shovqin” deb ataladi.

O'n yillar ichidagi islohotlar davomida hukumat tomonidan komissiyalar o'z diqqat markazida byudjetga e'tibor qaratishdi, byudjetning maqsadi va tarkibiy tuzilishi bilan mashg'ul bo'ldilar. Osborne va Gaeblerning mashhur ishi “Hukumat qiyinchiliklarini qayta kashf qilish”, hukumatda qaror qilinayotganda birinchi navbatda missiyani yodda saqlash.⁴³ Davlat dasturi nima uchun zarurligining asosiy sabablarini mission ko'rsatadi.

Olimlar va amaliyotchilar byudjetlashtirish sohasida ko'zlangan maqsadga intiladi, har birlikka mablag'lar ajratiladi, bu maqsadlar to'g'risida doim o'ylash kerak, bo'lmasa jinoyat qilgandek bo'ladi. “Maqsadlar” – bu tushuncha ostida maqsadga etishishni uncha xohlashmasligi mumkin, lekin hukumatni maqsad tomon davomiy intilishga chaqiradi. Boshqa tarafdin, vazifalar ko'rsatilgan va yo'naltirilgan hamda tezkor va ta'sirli ma'lumotlar dastur o'zining maqsadi tomon intilishini o'lchash uchun ishlatiladi. Qonunchilik o'g'rilarini sonini kamaytirishga yo'naltirilgan va kelajak uchun miqdoriy maqsadni belgilashi mumkin, masalan, o'g'rilar 10% kamayishi kerak. Maqsadlar va vazifalarni belgilashda, qaror qabul qiluvchilar shuni tushunishlari shartki, ba'zi hohlangan natijalarga nisbatan qisqa muddatda, misol uchun bir yilda erishsa bo'ladi, shu bilan birga boshqa natijalar ko'p yillik harakatlarni talab qiladi.⁴⁴

¹http://studopedia.ru/7_111400_dohodi-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov-rossiyskoy-federatsii-i-territorialnih-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov.html Dohodi gosudarstvennix vnebyudjetnix fondov Rossiyskoy Federatsii i territorialnix gosudarstvennix vnebyudjetnix fondov. internet sayti ma'lumotlari.

Agentliklar rivojlantirgan dasturning o'lashi, ularning barcha turdagi xizmatlarining aksi bo'lishi mumkin. Bitta tadqiqot jamoasi to'rtta xizmat turiga ega: taqsimot, qayta taqsimot, boshqaruv va bozor emulyatori.⁴⁵ Taqsimot xizmatlarni o'z ichiga oladi, masalan, mudofaa va jamoat tartibi bo'lishi mumkin. Qayta taqsimot pul to'lovlari ijara subsidiyalariga va muhtojlar uchun tibbiy yordam ko'rsatishdek, maxsus guruhlariga yo'naltirilgan dasturlarga javob beradi. Boshqaruvda nazoratga urg'u beriladi, masalan, havoni ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi yoki oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari qattiq nazorat qilinadi. Bular barchasi millatning oziq-ovqat tarafidan xavfsiz bo'lishi uchun qilinadi. Bozor emulyatori davlatning tadbirkorga o'xshab boshqaradigan operatsiyalariga o'xshaydi, bunga jamoat uchun zarur bo'lgan kommunal xizmatlar misol bo'la oladi. Ijtimoiy eklektik kommunal xizmatlari, shahar golf kurslari, mashinalar to'xtash joyi va oliy ta'lim institutlari tadbirkor kabi ish yuritishi mumkin.

10.2-jadval

Federal Dasturlar va Agentliklar tipologiyasi

Dasturning turi	Tavsifi	Misol
Ochiq federal	Federal (davlat) darajasi xizmatlar ko'rsatish	Shtat departamentining vizasi va konsul xizmati dasturi
Raqobatdosh Grant	Mahalliy raqobatda shtatlarni grantlar bilan taqdirlash	Sog'liqni saqlash departamentidagi sog'liq saqlash idoralari markazi va aholi xizmatlari tashkilotlarni va shaxslarga xizmat ko'rsatish
Block/Formula Granti	Shtatlarni va mahalliy tashkilotlarni grantlar bilan taqdirlash formulasi	Energiyalarni boyitishga yordam, xukumatlarini va boshqa dasturlarning departamenti
Tartibga solishga asoslangan	Tugatilgan xizmatni ishlatib, foyda olish va kuchaytirish	Atrof-muhitni himoyalash, foyda olish va kuchaytirish agentligi, ko'chma manba havoni ifloslanishi va sertifikat dasturi
Kapital mulk va xizmatni sotib olish	Maqsadlar «erni, tuzilmalarni asosiy vositalarni va intellektual mulkni» sotib olib maqsadga erishish	Xarbiy dengiz floti, kema qurish
Kredit	Maqsadlarga qarz berish, qarz kafolatini berish va kreditlar berib maqsadlarga erishish	Eksport-import, banklarning kafolatlarini berish, kreditlar va uzoq muddatli kafolat dasturlari
Tadqiqot va rivojlantirish	Bilim yaratish va uni ishlatish	NASAning quyosh sistemasini o'rganish dasturi

Qisqasi, shaxslar davlat dasturlari tugashi to'g'risida turli-tuman, maxsus ko'rsatmalarni kutishadi. Ijarachilar, ijara uchun yaxshi uy dasturlarini kutishadi, uy egalari esa shahar siyosati xususiy mulkni himoya qilishini va soliqlarning pasaytirilishini kutishadi. Ijaraga yashayotgan insonlar, o'zlari qilayotgan investitsiyalardan yaxshiroq daromad bo'lishini kutishi mumkin. Oxir – oqibatda, davlat dasturlari bitta yoki ikkita insonni foydasini emas, barcha fuqarolarni foydasini o'ylab ish tutadi. Barcha fuqarolarni foydasini o'ylab ish tutish, dasturning maqsadiga erishishni qiyinlashtirib qo'yadi.

Chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ayniqsa, indikatorlar va ularning ta'siri qo'shimcha muammolar keltirib chiqaradi. Jamiyatdagi sharoit ko'p o'zgarishlarga bog'liq bo'lgani sababli, hukumat barcha holatni o'tkazib yubormasligi juda ham muhim. Dasturning chora-tadbirlarini rivojlantirishda eng qiyin masalalardan biri - bu hukumat amalga oshirgan ishlarni aks ettiruvchilarni tanlashdir. Federal hukumat bu sohada juda katta qiyinchiliklarga duch

keladi, chunki milliy dasturlar ko'p vositalar orqali o'tkaziladi. Xuddi bir necha federal agentliklarning bir xil harakati kabi kabi vositalar va ish qiluvchilar farqlanadi. Shunga o'xshash xarajatlarga grantlar orqali yordam ko'rsatiladi, kreditlar beriladi va kafolatlanadi. Jadval 7-3 da ko'rsatilganidek, berilgan dastur qancha omadli bo'lsa, uning omadi federal agentliklarining qanday moliyalashtirishiga bog'liq bo'ladi?»¹.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo'lishi bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funksiyalarini amalga oshirishda, ularni moliyaviy resurslar bilan ham ta'minlab turish orqali ishtirok etadi. Davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati – YaIMning hamda milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va davlat korxonalari ixtiyorida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi, shuningdek, kengaytirilgan ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy-madaniy tadbirlarini moliyalashtirishda namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti yordamida ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini, ijtimoiy ehtiyojni qondirish masalalari, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash sohalarini samarali tartibga solinadi. Shu yo'l bilan davlat jamiyatning kam ta'minlangan va yordamga muhtoj bo'lgan qatlamlarining ijtimoiy jihatdan himoyalashni ta'minlaydi, iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlantirish choralari ko'radi.

Davlat byudjetining xarajatlar qismida yana bir xarajat guruhi mavjudki, u ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugunga kelib, har bir mamlakat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi raqobat asosida rivojlanmoqda. Raqobatbardosh bo'lish uchun sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish zarur, aholini muqim yashashini ta'minlash, ya'ni istiqomat qiladigan hududida o'zi va oila a'zolariga etarli bo'lgan daromad manbalariga ega bo'lishi uchun ish o'rinlari lozim. Hayotda shunday holatlar ham mavjudki, yangi ish o'rinlarini ta'minlash yoki raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqish, yoki xizmat ko'rsatish muassasalarini tashkil etish uchun alohida hududning moliyaviy imkoniyatlari etishmaydi. Xuddi shunga o'xshash bir holatni alohida vazirlik yoki ko'mita misolida ham aytish mumkin. Keyingi salmog'i jihatdan katta xarajat yo'nalishi boshqa xarajatlar guruhi bo'lib, uning byudjet xarajatlardagi ulushi 20,6 foizni tashkil etmoqda. Milliy iqtisodiyotda shunday tarmoqlar ham mavjudki, zero ular o'z xarajatlari bilan o'z daromadlarini qoplay olmasa-da biroq, umumjamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan xizmatlarni ko'rsatadi. Ularning mavjudligi nisbatan ko'p qiymat yaratiladigan boshqa tarmoqlar uchun xizmat qiladi. byudjetidan xarajatlar amalga oshiriladi. Ana shunday tarmoqlarning faoliyatini moliyaviy ta'minlash va ularga faoliyat yuritayotgan ishchi va xizmatchilarni ishsiz qolib ketmasligining oldini olish maqsadida Davlat byudjetidan xarajatlar amalga oshiriladi. Shu bois, Davlat byudjetining xarajatlar qismida iqtisodiyot tarmoqlariga xarajatlar guruhida aks etgan va 2015 moliya yilida unga ketadigan xarajatlar ulushi jami byudjet xarajatlarning 10,8 foizini tashkil etmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, bozor iqtisodiyoti erkinlashgan sari mazkur yo'nalishdagi xarajatlar ulushi mos ravishda pasayib borishi muqarrar.

Davlat markazlashgan investitsiya mablag'lari orqali kam rivojlangan hudud va tarmoqlarda yangi ish o'rinlarini tashkil etish bilan birga, dunyo bozorida raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yadi. 2015 yilda jami byudjet xarajatlarning 3,2 foizi boshqaruv xarajatlari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakatimizda boshqaruv sohasiga zamonaviy axborot informatsion texnologiyalarini joriy etish va boshqaruv sohasida malakali kadrlar ishlashi ta'minlanayotganligi bois, Davlat byudjetida boshqaruv xarajatlarning pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash tadbirlarida, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish,

¹ Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –R.197-199.

mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi. Bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotini ortiqcha yukdan xalos qilish, byudjet va ish haqi bo'yicha umumiy miqdori 1 trillion so'm kreditorlik qarzini uzish, bankrot korxonalar negizida 100 dan ortiq yangi turdagi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qo'shimcha ravishda 17 mingdan ortiq ish o'rni yaratish imkonini berdi»¹. Shu o'rinda O'zbekistonda moliya-byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiquvchi vazifalarni amalga oshirishda salmoqli natija va sezilarli o'zgarishlar qo'lga kiritildi. Iqtisodiyotining yuqori barqaror sur'atlar bilan o'sishi va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlandi, ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari davom ettirildi.

Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz iqtisodiyotining deyarli barcha jabhalarini ham qamrab oldi. Milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlashda barcha soha va jabhalar o'rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilindi. Shu o'rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a'zosining mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda.

«Byudjetlashtirishga yaqinroq bo'lgan o'lchovlar bular natijalardir, yoki ta'sirlar deb ataladi. Bu kabi o'lchovlar muvaffaqiyatga urg'u beradi ya'ni kerakli ta'sirlar yoki ketma-ket maqsadlar qo'lga kiritildimi yo'qmi shu baholanadi.»³⁸ Davlatning byudjet ijrosi amalga oshgandan so'ng, fuqarolar, institutlar yoki atrof-muhitga bo'lgan ta'sir paydo bo'ladi. Bandlikka keladigan bo'lsak, natija o'lchovlari o'rtacha oq tanli bo'lmagan kishilarnig qilgan ishlari uchun olgan daromadlari bo'lishi mumkin. O'rtacha bir soatda olingan daromad oldingi davrlarda olingan daromad bilan taqqoslanadi. Bu borada judayam ehtiyot bo'lish kerak, chunki inflyatsiya darajasi va ishchining ish haqi oshishi yoki iqtisodiyotdagi keskin o'zgarish ta'sirini hisobga olish kerak. Natijalar hukumat xizmatlarining qiymatini baholovchi uslub sifatida ko'rilishi mumkin yoki xarajatlar qaror qabul qiluvchilar erishmoqchi bo'lgan natijarga muttanosibligini baholaydi.

Birinchi yondoshuv shuni ko'rsatadiki, natijalar "erishilmagan" qolganlari esa "moslashgan" bo'lishi mumkin. Erishilmagan natijalar ijroning har xil o'lchovlari bo'lishi mumkin, masalan, maktab bolalarining standartlashtirilgan test orqali olingan natijalari misol bo'ladi. ³⁹ *Moslashgan o'lchovlar bolalarning xulq atvorini, ularning oiladagi o'rnini va boshqalar oldidagi muhitini hisobga olishi mumkin.*

Mif yoki ta'limotlar ta'sir o'lchovlarining tanlanishiga olib kelishi mumkin. Masalan, politsiya departamentini moliyalashtirishda, jinoyatlar boshqariladi degan taxmin yotadi. Bu taxmin esa jinoyat darajasini ta'sir o'lchovi sifatida baholashga olib keladi va shunga qaramasdan, politsiya jinoyat yuzasidan qattiq qidiruv olib bormaydi.

Natija o'lchovlari bilan solishtirganda, qayta ishlash o'lchovlari ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlarga tezda ta'sir ko'rsatadi. Bandlik misoliga qaytadigan bo'lsak, dastur mashg'ulotini yakunlaganlar soni qayta ishlash bo'ladi. Biz bunda yildan-yilga yakunlaganlar ulushini yoki darajasini aniqlashimiz mumkin. Shu kabi o'lchovlar hohlagan ta'sir o'lchovlarini hisoblashdan ko'ra ancha engilroqdir, chunki ma'lumotlar tashkilotlar bilan bir bo'g'indadir. Bu erda eng asosiy qilinadigan ish, ehtiyotkorlik bilan yakunlaganlarni hisobga olishdir. Ta'sirlar esa tashqi tarafdin bo'ladi. Bu misoldan xulosa shuki, agar biz

¹Karimov I. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Tashkent. O'zbekiston. 2010. –30bet.

yakunlaganlarning ish haqiga nazar solsak, yakunlaganlar uchun tizimni kuzatish natija ma'lumotlariga erishishda muhimdir.

Bezgakni oldini olish uchun har bir sepilgan uy sonini aniqlash kerak, xuddi shunga o'xshab, agentliklar qayta ishlash kuzatuvlarini sepilgan uy kabi kattiq nazorat qilishga mas'uldir. Lekin bu agentlikning turli bo'limlari bo'lishi mumkin yoki umuman boshqa agentliklar ham bo'lishi mumkin. Salomatlik darajasini aniqlovchi o'ylangan yoki mo'ljallangan natija xususiy sektorda ham bo'lishi mumkin. Qo'shimcha qilib, bezgaklik kasalligini kamaytiruvchi bir nechta omillar bo'lishi mumkin, lekin ularning natijalarini sepish dasturi, boshqa dasturlar yoki atrof-muhit holatlariga tegishli miqdorini aniqlash qiyindir. Bunday holatga yana chivinlarning ko'payishi uchun qurg'oqchilikni kamaytirish imkoniyatlarini oshirish ham misol bo'ladi.

Natijalar va qayta ishlashlar o'rtasidagi bog'lanish aniq bo'lganda, resurslarni taqsimlash o'rinli bo'ladi. Masalan, qizamiqdan emlash kasallikni oldini olishini bilamiz, shu sababli byudjet fondlari orqali ularni moliyalashtirish kasallikka duchor bo'lish xavfi bo'lsada, kafolatlangan. Bezgak misolida esa, vaksinalash dasturi hozirda kasallik alohida qilingan hududlarda yangi bir vaksinalash dasturi o'ylangan paytda tugatiladi.

Qayta ishlash dasturini yolg'iz ishlatishdan kelib chiqadigan bir kamchilik shundaki, odatiy bog'lanish haqida noto'g'ri taxmin qilinishi mumkin. Ish mashg'ulotini yakunlovchilar dasturiga qaytadigan bo'lsak, u ishchilarning ishga joylashtirish darajasini ko'taradi. Kutilgan natijalarni tekshirish uchun ma'lumotlar yig'ilmaguniga qadar, dastur o'zining maqsadini tasdiqlamaguncha qo'llab-quvatlanadi.

Qayta ishlashlar keyinchalik suboptimizatsiyani jalb qilishi mumkin yoki yirik qiymatlardan qochish ehtimolligi riski paytida, sub maqsadlarga erishish uchun qilinadigan harakatlarning rivojlanishi kutiladi. Agar mashg'ulot dasturi samarali bo'lmasa, lekin urg'ular qayta tiklanishga qaratilgan bo'lsa, shunda qaror qabul qiluvchilar kamaygan birlik xarajati uchun qayta ishlashlar miqdorining o'sishiga e'tibor berishadi, bunda ular xarajatlarni umumiy holda kerakli natijalar uchun samarasiz ekanligini bilishmaydi.

Jorsh Bursh ma'muriyati paytida, bu suboptimizatsiya mumamosini hisobga olmaslik uchun, AQSh Byudjet va Boshqaruv ofisi agentliklardan qayta ishlash o'lchovlarini va so'ralgan maxsus dalillarni ishlatishni talab qilgan. Lekin bu paytda agentliklar «Reyting orqali baholash Dasturi» (PART) da faqat natijalar o'lchovini ishlatishni maslahat berishgan. Biroq, Reyting Dasturini Baholash Instrumentlari Dasturi ijrosi haqida Hukumat Mas'uliyat Ofisi (GAO) quyidagi fikrlarni aytdi, agentliklar qayta ishlash darajasi bilan amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarga urg'u berilgan natijalarni olishdi. Byudjet qarori jarayoni bobi qayta ishlash va natijalar haqida batafsil ma'lumot beradi.

Ish faoliyati, natija olish uchun amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Ko'rsatmalarning umumiy soati ish mashg'uloti dasturi uchun o'lchov bo'lishi mumkin yoki o'lchovlar ko'proq diqqat markazda bo'lishi mumkin. Bu kabi ko'rsatmalar soati tokarlik stanogi operatsiyalari bo'lishi mumkin. Faoliyatlar ba'zida ish yuki sifatida baholanishi mumkin. Qayta ishlangan ilovalar va dasturga kiritilganlar soni ikkalasi ish yuki o'lchovlari bo'lishi mumkin. Agar murojaatchilar soni hisobda turganlar soni (limit mavjud bo'lgani uchun) o'zgarmagan holda, ko'p bo'lsa, ish yuki baribir oshadi, chunki ko'proq murojaatchilar ko'paytirilishi kerak. Faoliyatlar va qayta ishlashlarning ikkalasi ham natijadan ko'ra o'lchashda juda muhim. Chunki, byudjetlashtirishda faoliyatlar va qayta ishlashdan foydalanish natijalarni ishlatishdan ko'ra doimiy va uzluksizdir.

«Samaradorlik» atamasi juda ham ko'p ma'noga egadir. Bu atama ba'zida, barcha dastur o'lchovini qamrab oluvchi vazifasida ishlatilishi ham mumkin. Ishlab chiqarish konsepsiyasi unumdorligini kamaytirgan holda, bu yondoshuv resurs ajratish va ishlarni taqqoslash bilan shug'ullanadi. Bunda ishlab chiqarish unumdorligi uchun darajalar ko'pincha ishlatiladi. Bularga misol qilib, ishchilarning ish o'rganish dasturi uchun ketgan xarajatlarni yakunlagan ishchilar soniga nisbatini olishimiz mumkin, bunda biz bir yakunlagan ishchi uchun o'rtacha ketgan xarajatni topamiz. Ish haqi stavkalari va turli xarajatlar ortishiga qaramay

o'rtacha qiymati bir yildan boshqasiga doimiy qolsa, so'ng taxmin birligi yanada samarali bo'ladi. OMB OMB Circular A-11dagi tashkilotlar, idoralar samaradorlik yutuqlari bo'yicha hisobotni berishi lozim, masalan, kishlok xo'jaligi uchun hosildorlik asosiy ko'rsatkich bo'la oladi.

Mahsuldorlik o'lchamlari doimiy va tezkor yuritishni talab qiladi. Agar hodimlar bir guruh bo'lib bir necha xil faoliyatni amalga oshirsa, so'ng har bir hodim tomonidan har bir soder bo'lgan tadbir uchun hisobot tizimi talab qilinadi. Bu hisob-kitoblar ba'zan kundalik hisobot shakllari orqali amalga oshiriladi. Ko'pincha, davlat va mahalliy politsiya patrullik uchun sarflagan soati bo'yicha kundalik hisobotlarni, tekshirishlarni, sudda guvohlik berishlarni va boshqalarni kunda yozib borishi kerak. Murakkab tizimlarda haftalik, oylik yoki choraklik hisobot shakllaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, buxgalteriya tizimlari faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni ajratish kerak.

Dastur uchun so'nggi baho berish o'lchami kerak. Ehtiyot chora xizmat darajasi va buning uchun extiyoj o'rtasidagi farq ko'rsatiladi. Ishchilar uchun o'quv dasturi etarli ish qobiliyatiga ega bo'lmagan ishchilarning sonini aniqlash uchun zarur bo'lgan o'lchamdir. Shuning uchun o'rgatishni talab qiladi.

Muhokamada zaruriyat, ehtiyotkorlik haqida bir necha fikrlarni va'da qilib, ijtimoiy ko'rsatkichlarga to'liq qaytdik. O'lchamlarning turlari orasidagi farqlarni ko'rsatish uchun bir necha misollarni keltirdik. Misol uchun, yong'indan jabr ko'rgan shahar, o't o'chirish bo'limining ta'siri va zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatkichlarining dollardagi qiymati ijtimoiy ko'rsatkich ko'rinishida bo'lishi mumkin»¹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funktsiyalari bilan bog'liqligi
2. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi
3. Byudjetning ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining tarkibi, tuzilishi va ahamiyati
4. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tarkibi, tuzilishi va ahamiyati
5. Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari
6. Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari
7. Davlat byudjetining boshqaruv xarajatlari
8. Byudjetning joriy va kapital xarajatlari
9. Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari mazmuni, tarkibi va tuzilishi
10. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari tarkibining o'zgarishi
11. Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni saqlash xarajatlari

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funktsiyalari bilan bog'liqligini aniqlang.
2. Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishini tushuntiring.
3. Byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari 3-yillik ma'lumotlari tahlilini keltiring.
4. Byudjetning ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlarini tahlil qiling.
5. Byudjetning boshqa xarajatlari tarkibini tushuntiring.
6. Byudjetning markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, ularning byudjet xarajatlari tarkibidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan ko'rgazmali ma'lumot tayyorlang.

¹Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company. –R.194-197.

7. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari tarkibining o'zgarishi tahlilini keltiring.

11-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HOLATI

REJA:

- 11.1. Davlat byudjetining holatlari to'g'risida tushuncha. Davlat byudjeti taqchilligi
- 11.2. Byudjet taqchilligining shakllari. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni qoplash manbalari
- 11.3. Byudjet taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy kontseptsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati
- 11.4. Xorijiy mamlakatlarda byudjet taqchilligi, taqchillikni boshqarish va tartibga solish tajribalari

Tayanch so'z va iboralar: davlat byudjetining holatlari; davlat byudjeti taqchilligi; taqchillikni qoplash manbalari; taqchillikni boshqarish va tartibga solish; davlat byudjeti profitsiti.

11.1. Davlat byudjetining holatlari to'g'risida tushuncha

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik subyektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko'ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, byudjet tomonidan moliyalashtirilishi obyektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni jalb qilishni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy subyektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur etkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlari bilan balanslangan bo'lishiga har doim ham erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida davlat byudjetining holatini belgilab beruvchi tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan¹:

***Davlat byudjeti profitsiti* – muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi**


***Davlat byudjeti taqchilligi* – muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.**

Davlat byudjeti daromadlarining byudjet xarajatlaridan oshish holati yuzaga kelganda, *byudjet profitsiti* paydo bo'ladi. Byudjet profitsiti, odatda, davlatning qarz majburiyatlarini to'lashga va likvidli mablag'larini ko'paytirishga jalb etiladi.

Mustaqillik yillarida davlat byudjet siyosatining eng muhim vazifasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish doirasida byudjet taqchilligining ortib borayotgan sur'atini jilovlashdan iborat bo'ldi. Bu vazifaning hal etilishi natijasida o'ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan joriy xarajatlargagina mablag'larni ajratish yo'lidan borildi va taqchillikning eng maqbul darajasi ta'minlandi. Islohotlarning 2-bosqichi yakunlariga kelib, byudjet taqchilligini yo'l qo'yilgan eng kam darajasi (YaIMning 3-3,5 foizi) doirasida cheklashga erishildi. 2000-2004 yillar davomida byudjet taqchilligi darajasi YaIM ning 1-1,2 foizidan oshmadi. 2005 yildan 2008 yilgacha 0,1-1,5 foiz profitsit bilan ijro qilingan bo'lsa, 2009 yildan 2016 yillargacha bo'lgan davrda Jahon

¹ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013). 3-modda.

moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida davlat byudjeti YaIM ga nisbatan 0,1-0,4 foiz darajasida bo'lmoqda.



11.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining holati

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida har yilgi taqchillikning va tez o'sib boruvchi davlat qarzining mavjud bo'lishi kuzatiladi. 70-yillar boshlariga kelib, byudjet taqchilligining YaIMga nisbatan foiz hisobida o'sgan davlatlar bu ko'rsatkich pasaygan mamlakatlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. AQSHda Ikkinchi jahon urushi yillarigacha byudjet taqchilligi bo'lmagan, faqat urush yillarida davlat byudjetida taqchillik yuzaga kelgan.

Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik yillarida davlat byudjeti taqchilligi uzoq vaqtlargacha mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinmagan. Davlat byudjetini shakllantirishda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda, ularni moliyalashtirish uchun mablag'lar qidirib topilardi va shu asosda davlatning moliyaviy manfaatlari ta'minlanardi. Rejali iqtisodiyot ma'lum davrlargacha hech qanaqa larzalarsiz, bir tekisda ma'muriy-buyruqbozlik asosida rivojlanib borishi daromadlar va xarajatlar orasida "kasallik" alomatlarini aniq ko'rsatmadi. Ammo, keyingi davrlarda (80-yillarning oxiriga kelib) sobiq Ittifoqda byudjet taqchilligi holati yuzaga chiqqan boshladi. Dastlabki yillardagi byudjet taqchilligi jamg'arma kassalardagi aholiga tegishli bo'lgan mablag'lar, uzoq muddatli hayot sug'urtasi badallarining o'sishi va aholi o'rtasida davlatning ichki yutuqli zayom obligatsiyalarini chiqarish (sotish) hisobiga qoplab borildi. Bu turdagi qarzar oldindan mavjud bo'lgan resurslarni qayta taqsimlash asosida amalga oshirilganligi uchun moliyaviy-moddiy balansning buzilishiga olib kelmadi, ammo bu jarayon davlat qarzarining o'sishiga olib keldi. 1986-yilda byudjet taqchilligining juda tez sur'atda o'sib ketishi (45,5 mlrd. rubl) Ittifoq moliya tizimining parokandalik holatini boshlab berdi.

Ammo byudjet taqchilligini favqulodda, mustasno hodisa deb qarab bo'lmaydi. O'zining tarixiy va iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu bosqichida byudjet taqchilligiga duch kelmagan davlat bo'lmasa kerak. Masalan, AQSH da federal byudjet keyingi yarim asr mobaynida faqat 1969-yildagina taqchilliksiz ijro etilgan.

Taqchillikning hajmi:

- milliy valyutada absolyut summada;
- mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan;
- milliy daromad hajmiga nisbatan;
- byudjet daromadlari va xarajatlarga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

11.2. Byudjet taqchilligining shakllari. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni qoplash manbalari

Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday byudjet profitsitli byudjet deyiladi. Aksincha, ba'zi hollar-da esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ko'p bo'lishiga byudjet defitsiti deyiladi.

Taqchillikning hajmi:

- milliy valyutada absolyut summada;
- mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan;
- milliy daromad hajmiga nisbatan;
- byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda, byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital quyilmalarini amalga oshirishning zarurligi;
 - favqulodda hodisalarning mavjudligi;
 - iqtisodiyotdagi tanazzulli (krizisli) holatlar va uning emirilishi;
 - moliya-kredit aloqalarining etarli darajada samarali emasligi;
 - hukumat tomonidan mamlakatdagi moliyaviy holat ustidan etarli darajada nazorat qila olmaslik;
 - ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan past darajada samaradorligi;
 - tashqi iqtisodiy aloqalarning nisbatan kam natijaliligi;
 - byudjet xarajatlarining nooqilona tarkibiy tuzilishi (strukturasi);
 - mamlakat miqyosida mavjud bo'lmagan mablag'lar hisobidan yashashga intilish;
 - yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyo-tining mavjudligi;
 - harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;
 - ichki real imkoniyatni etarli darajada inobatga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;
 - davlatga iqtisodiyot va sotsial sohani rivojlantirishga stimul sifatida foydalanish imkonini bermaydigan va etarli darajada samarali bo'lmagan byudjet mexanizmining mavjudligi va boshqa sabablar.
- Byudjet defitsiti vujudga kelganda, unga nisbatan strategik yondoshuv quyidagilarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:
- byudjet defitsitining mavjudligini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda, iqtisodiyotni "davolash" o'rniga uning kasalligi kuchayadi;
 - byudjetning balansliligi, daromadlarning xarajatlardan ko'pligi sog'lom va uzluksiz rivojlanayotgan iqtisodiyotdan dalolat bermaydi. Byudjet defitsiti bo'lishi mumkin;
 - byudjet defitsitining miqdori (darajasi), odatda, mamlakat yalpi milliy mahsulotining 2-3%dan oshmasligi lozim. Ana shu chegaradan oshilsa, uni tezroq qisqartirish (yoki shu darajaga keltirish) choralari ko'rish kerak;
 - byudjet defitsitini qoplash uchun, eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanmoq lozim. Shuningdek, davlat qimmatbaho qog'ozlarini moliyaviy bozorda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, milliy pul birligi belgilarini zarb etuvchi uskunani (stanokni) ishga solmaslik kerak;

– byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o‘zini “davolamoq” lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko‘zda tutilgan har qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– byudjet xarajatlarining investitsion yo‘nalishini o‘zgartirish, ularni eng ko‘p samara beradigan yo‘nalishlarga yo‘naltirish;

– xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;

– davlatdan moliyalashtirishni va davlat iqtisodiyoti sohasini qisqartirish, xorijiy davlatlarga yordam ko‘rsatishni keskin kamaytirish;

– harbiy xarajatlarni qisqartirish;

– eng muhim sotsial dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik byudjet xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabul qilishni to‘xtatib turish;

– qarzlarni davlat qimmatbaho qog‘ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kredit berishni Markaziy bank uchun taqiqlab qo‘yish;

– xorijiy sarmoyalarni jalb etish va boshqalar.

Byudjet defitsiti vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirish manbalarini aniqlab olmoq zarur. Uni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri davlatning qarz olishidir.

Davlatning qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo‘lib, ular bo‘yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo‘yicha kafolatchi sifatida hukumatning qarz majburiyatlari vujud-ga keladi.

Davlatning ichki qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxs-lar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qi-linadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo‘lib, ular bo‘yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo‘yicha kafolatchi sifatida hukumatning o‘z milliy valyutasida ifodalangan qarz majburiyatlari paydo bo‘ladi.

Davlatning tashqi qarzlarni olishi jismoniy va yuridik shaxs-lar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qi-linadigan zayom va kreditlarni olishdan iborat bo‘lib, ular bo‘yicha qarz oluvchi yoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo‘yicha kafolatchi sifatida hukumatning xorijiy valyutada ifodalangan qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalari jalb qilingan mablag‘larning barcha asosiy turlari bo‘yicha navbatdagi moliyaviy yilga mo‘ljallangan byudjet to‘g‘risidagi qonunda qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning manbai sifatida mamlakat Markaziy bankining kreditlari va Markaziy bank tomo-nidan hukumatning sotib olingan qarz majburiyatlari maydonga chiqishi maqsadga muvofiq emas.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikki guruhga bo‘lish qabul qilingan:

1) ichki manbalar;

2) tashqi manbalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;

– mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog‘ozlarni chiqa-rish orqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;

– davlat mulkiga tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;

– davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromadlarning xa-rajatlardan o'sgan qismi summasi;

– byudjet mablag'larini hisobga oluvchi hisob varaqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi va boshqalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

– mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;

– xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firma-lar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari oldidagi (davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari hukumatning davlat qar-zini vujudga keltiradi. Bu qarz davlat xazinasini tashkil eta-digan davlat mulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak. Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarz majburiyatlari va davlat qarziga xizmat qilish uchun respublika byudjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barcha vakolatlardan foydalanadilar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

– qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredit tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;

– mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;

– mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berish to'g'risidagi shartnomalar;

– o'tgan yillardagi mamlakatning qarz majburiyatlarini res-trukturizatsiya qilish va muddatini o'zgartirish to'g'risidagi mamlakat hukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitim-lar va shartnomalar va boshqalar.

Mamlakatning qarz majburiyatlari o'zining muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq va besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishi mumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq ravishda (zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlarining miqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlarini quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– hukumat davlat qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha qarzining asosiy nominal summasi;

– hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz-ning hajmi;

– mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlar hajmi va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlarini:

– xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidan taqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyat-lar hajmi;

– xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

11.3. Byudjet taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy kontseptsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati

Davlat byudjetining defitsitini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, byudjet defitsiti jahon amaliyoti uchun nisbatan yangi hisoblangan voqelik sanaladi. Xususan, XIX asrning o'rtalariga qadar rivojlangan ilg'or mamlakatlarning davlat byudjetlari uchun daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lishi odatiy hol hisoblanar edi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda urush holatlarida yoki kuchli tabiiy ofat yuz berganda paydo

bo'ladigan byudjet defitsiti favqulotda holat hisoblanadi. XX asrning 50-yillaridan boshlab byudjet defitsiti favqulotda holat xarakteriga ega bo'lmay qoldi. Ya'ni, mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnidan, geografik, geopolitik mavqeidan qat'iy nazar byudjet defitsitini yuzaga kelishi tabiiy hol bo'lib qoldi. Ushbu holat hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Byudjet defitsitini dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat moliyalarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi uning yuzaga kelish sabablarini, mo'tadil darajasini, makroiqtisodiy tartibga solish davlat tizimidagi o'rnini ilmiy asosda o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Davlat byudjeti defitsitini yuzaga kelish sabablarini chuqur tadqiq qilgan iqtisodchi olimlardan biri J.M.Keyns hisoblanadi. J.Keyns o'zining ilmiy izlanishlarida jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlarida davlat xarajatlarining davlat daromadlariga nisbatan ortiqcha bo'lishi mumkinligini va bu holat ob'ektiv iqtisodiy asosga ega ekanligini asoslab berdi. Keynsning byudjet-soliq siyosati xususidagi nazariy qarashlarida byudjet defitsiti iqtisodiyotni bir muvozanat holatidan ikkinchi bir muvozanat holatiga o'tkazish imkonini beruvchi instrument sifatida e'tirof etiladi. Agar biz J.Keynsni davlatning iqtisodiyotni samarali tarzda tartibga solish imkoniyatiga ega, degan nazariy xulosalariga tayanadigan bo'lsak, u holda Keynsni davlat byudjeti defitsitining darajasini davlat tomonidan to'liq nazorat qilish mumkinligiga ishonganligiga shubha qilmasa bo'ladi.

Nemis moliya fanining klassik namoyondasi A.Vagner o'zining «Moliya to'g'risidagi fan» nomli asarida davlat faolligining o'sib borishi qonunini shakllantirdi. Ushbu qonunga ko'ra, davlat faolligini kuchaytirishning zaruriy shartlaridan biri davlat xarajatlarini oshib borishi hisoblanadi. A.Vagner o'zining empirik izlanishlariga tayangan holda shunday xulosaga keldi: «ilmiy-texnika inqilobiga asoslangan tsivilizatsiyani taraqqiy etishi, ishlab chiqarish va muomala hajmlarining, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni oshishi bilan davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga aralashuvi kuchayadi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnikaviy faolligi o'sadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat xarajatlarini shunga muvofiq tarzda o'sib borishiga olib keladi».

Professor V.M.Rodionovanning fikriga ko'ra, davlat byudjeti defitsitini yuzaga kelishining uch asosiy sababi mavjud:

1. Byudjet defitsiti davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida yirik miqdordagi qo'yilmalarni amalga oshirishi natijasida yuzaga keladi.

2. Byudjet defitsiti favqulotda holatlar (urush, tabiiy ofatlar va h.k.) natijasida yuzaga keladi.

3. Byudjet defitsiti iqtisodiyotda inqiroz holatlarining yuzaga kelishi, hukumatni mamlakatdagi moliyaviy holatni nazorat ostida ushlab turish qobiliyatini yo'qotishi natijasida yuzaga keladi.¹

Demak, davlat byudjeti defitsitini yuzaga kelishining ikki asosiy sababi taniqli iqtisodchi-olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Bularning *birinchisi*, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bilan bog'liq xarajatlarining ko'payishi bo'lsa, *ikkinchisi*, davlatning noishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlari hajmining keskin oshib ketishi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, byudjet defitsitining yuzaga kelishini mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz holatlari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, iqtisodiy inqiroz paytida soliq tushumlari keskin kamayadi, hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotish darajasi pasayadi va h.k. Bu holatlar, pirovard natijada, davlat byudjeti daromadlarining rejalashtirilgan miqdorda tushmasligiga sabab bo'ladi. Natijada, byudjet defitsitining hajmi yanada oshadi va hukumat uchun bank tizimining kreditlaridan foydalanishdan ko'ra qulayroq va osonroq yo'l qolmaydi. Shuning uchun, fikrimizcha, iqtisodiy inqiroz holatlarining yuzaga kelishini alohida sabab sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Shunisi xususiyatliki, rivojlangan ilg'or mamlakatlar amaliyotida tarkibiy defitsit tushunchasi ham qo'llaniladi.

¹ Родионова В.М и др. Финансы. –М.: Финансы и статистика, 2013. –С. 29-38.

Tarkibiy defitsit deganda aholining to'liq bandligi sharoitida davlat byudjetining salbiy qoldig'i tushuniladi. Bunda byudjet defitsitining miqdori davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solinishning joriy tadbirlari bilan emas, balki tsiklik tebranishlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy inqirozlar paytida, odatda, ishsizlik ko'payadi, bu esa, tarkibiy defitsit miqdoriga bevosita ta'sir qiladi. Demak, iqtisodiy inqirozlarni nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun, balki rivojlangan mamlakatlar amaliyoti uchun ham xos bo'lgan omil sifatida qayd etish mumkin.

Davlat byudjeti defitsiti yuzaga kelishining ob'ektiv sabablarini tan olmaslik, defitsitsiz byudjet siyosatiga tayanish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga jiddiy ziyon etkazganlik holatlari xalqaro amaliyotda bir necha bor kuzatilgan.

Davlat byudjeti defitsitining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan asosiy masalalardan biri byudjet defitsiti hajmini aniqlash metodologiyasini tahlil qilish hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda byudjet defitsitining hajmini aniqlashda ikkita metodologiyadan keng foydalanilmoqda: sof defitsit va umumiy defitsit. Sof defitsit o'z tarkibiga byudjet investitsiyalaridan tashqari bo'lgan davlat byudjeti xarajatlarini oladi. Umumiy defitsit esa, o'z ichiga nafaqat to'g'ri byudjet investitsiyalarini, balki joriy byudjet yilida qaytariladigan va hukumat tomonidan kafolatlangan kredit hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalarni ham oladi.

Bizning fikrimizcha, umumiy defitsit byudjet defitsitining real hajmini to'laroq ifoda etadi. Chunki, bunda hukumat kafolatlangan kreditlardan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Ikkinchi metodologiyaning O'zbekiston Respublikasi hukumati uchun katta ahamiyatga ega ekanligining asosiy sababi shundaki, hozirgi kunga qadar mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan kreditlarning 80 foizdan ortiq qismi respublika hukumatining kafolati asosida olingan kreditlardan iboratdir. Demak, ulardan foydalanishni nazorat qilishni kuchaytirish davlat byudjeti defitsitini oshirishning oldini oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan qayta qurishning zarurligi yirik investitsion xarajatlarni talab qildi. Xususiyl sektorga mansub korxonalarning xorijiy investitsiyalarni va investitsion kreditlarni jalb qilish imkoniyati cheklangan sharoitda, davlat bosh islohotchi sifatida, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish muammosining chuqurlashuviga yo'l qo'ymadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz hukumatining xorijiy valyutadagi majburiyatlarining ko'payishiga olib keldi.

Davlat byudjeti defitsitining iqtisodiyotga ta'siri va uning mo'tadil darajasini baholash masalalari ham murakkab va ko'p qirrali masalalardan hisoblanadi.

J.M.Keynsning byudjet-soliq siyosatining iqtisodiyotni barqarorlashtirishda birlamchi ahamiyatga ega ekanligi xususidagi qoidasiga ko'ra defitsitning yoki profitsitning miqdori ijtimoiy talab, daromadlar va baholar darajasini aniqlashda markaziy o'rinni egallaydi. Bunda J.Keyns byudjet defitsitini hukumatning byudjet-soliq siyosatining natijasi sifatida iqtisodiyotni muvozanatlashtiruvchi asosiy omil deb baholadi. Ammo hozirgi vaqtda, ayrim rivojlangan davlatlarning amaliyotida shunday holatlar sodir bo'layaptiki, uni Keynsning byudjet-soliq siyosati xususidagi ta'limoti doirasida tushuntirib bo'lmaydi. Masalan, Yaponiyada 1999 yilda davlat byudjetining defitsiti yalpi ichki mahsulotning 11,4 foizini tashkil etgani holda, to'lov balansining ijobiy qoldig'i 130 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Holbuki, Keynsning qoidasi bo'yicha davlat xarajatlarining oshishi baholar darajasining o'sishiga olib kelishi lozim edi. Ammo Yaponiyada baholar darajasining o'sish sur'ati boshqa bir qator etakchi ilg'or mamlakatlardagiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi. 1990 yilda Yaponiyada byudjet profitsitining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 2,9 foizni tashkil qildi va 1990-1999 yillar mobaynida iqtisodiyotni barqaror o'sish sur'ati kuzatildi.

Demak, byudjet defitsitining iqtisodiyotni muvozanatlashtirishdagi rolga baho berishda har bir mamlakatning moliya-byudjet siyosatidan kelib chiqish lozim. Byudjet defitsitini o'sishi natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini aniqlash lozim. Masalan, davlat byudjeti defitsitining yuqori darajada o'sishi davlatning investitsiya

xarajatlarining o'sishi oqibati bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda byudjet defitsitining iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun iqtisodiy o'sish sur'atidagi, soliq tushumlaridagi o'zgarishlarni va ishsizlik darajasini baholash kerak. Chunki investitsion xarajatlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Ayni vaqtda, investitsiya xarajatlarini samarasiz tarzda amalga oshirish byudjet defitsitining iqtisodiyotga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Xususan, davlatning mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan investitsion loyihalarni o'zini oqlamasligi qilingan xarajatlarni «o'lik» kapitalga aylanishiga, hukumatning to'lovlarini oshib ketishiga olib keladi. Buning oqibatida byudjet defitsitini qoplash muammosi yanada chuqurlashadi va ko'pchilik hollarda, hukumat defitsitni qoplashning inflyatsion manbalaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Bunda byudjet defitsiti o'zining passiv shakliga kiradi. Byudjet defitsitining oshishi hisobiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga erishilsa, u holda byudjet defitsiti aktiv shaklga ega bo'ladi.

O'zbekistonda byudjet defitsitini boshqarishda quyidagi talablarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- milliy valyutaning barqarorligini saqlashning aniq dasturlari ishlab chiqilishi;
- byudjet defitsitini qoplashning samarali yo'llari qidirib topilishi;
- davlat byudjeti hisobidagi tarmoqlarni iqtisodiy moliyalashtirishni qisqartirish, harbiy xarajatlarga oqilona mablag' sarflash;
- sekvestr mexanizmini ishlab-chiqish (xarajatlarni proportsional ravishda qisqartirish) va ularning bajarilishiga bevosita erishish.

Umuman, byudjet defitsitini boshqarish byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bunda iloji boricha mablag'larni ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga yo'naltirish va aholini to'liq ish bilan bandligiga erishishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet defitsitini qoplashning noinflyatsion usullaridan foydalanishga ustuvorlik berish, byudjet defitsitining darajasini xalqaro byudjet amaliyotida qabul qilingan mo'tadil darajada saqlab turish, iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti defitsitining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga nisbatan yuzaga keladigan salbiy ta'sirining oldini oladi.

11.4. Xorijiy mamlakatlarda byudjet taqchilligi, taqchillikni boshqarish va tartibga solish tajribalari

Davlat moliyasini sog'lomlashtirish, uning daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda davlat byudjeti taqchilligi muammosi nafaqat iqtisodchi olimlarning, balki dunyodagi qashshoq yoki rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda, iqtisodiyoti taraqqiy topgan mamlakatlar hukumatlarining ham asosiy diqqat-e'tiboridagi umumiqtisodiy holat hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu muammo hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etishda jiddiy tus olmoqda. Ushbu holatga e'tiborini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Inqiroz yillarida ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi"¹. Har bir alohida olingan mamlakatda davlat byudjetini boshqarishda byudjet taqchilligi va uni boshqarish masalasi



¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston, 2011. B - 4.

muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti taqchilligi davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligi har doim ham salbiy holatni bildirmaydi.

J.M.Keynsning eng asosiy g'oyasi shundan iboratki, u davlat xarajatlarini oshirish va ushbu mablag'lar yetmagan taqdirda "qarz yordamida moliyalashtirishni" taklif etdi. Uning g'oyasining davomchilari ushbu nazariyani "taqchillik asosida moliyalashtirish" deb nomladilar. J.Keynsning fikricha, davlatning joriy xarajatlarini qarz hisobiga moliyalashtirish "iste'molga moyillikni" oshiradi va buning natijasida "investitsiyalarga moyillik" ham ortadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, J.M. Keynsgacha davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining mutanosib bo'lishi hamda byudjet taqchilligining faqat salbiy holat sifatida qabul qilinishiga asoslangan yondashuv mavjud edi. J.Keyns ushbu dunyoqarashlarga chek qo'ydi. Uning fikricha, ssuda kapitali bozorida Markaziy bank yordamida "samarali talab"ga erishish mumkin va shu asosda, davlat byudjeti taqchilligi milliy iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi vositalaridan biriga aylanadi. Yuqoridagi nazariyadan farqli ravishda, monetaristlarning fikricha, pul-kredit siyosati yalpi ichki mahsulot miqdorini o'zgartirishning g'oyatda qudratli vositasidir. Byudjetdagi taqchillikni o'ziga maqbul darajada saqlab turish uchun davlat o'z xarajatlarini kelib tushayotgan daromadlariga muvofiq holga keltirish maqsadida ularni davlat foydasiga jilovlab turadigan siyosatni muntazam ravishda olib boradi. Monetarizm tarafdorlari byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish xech qanday ijobiy samara bermaydi, deb hisoblashadi. Monetaristlarning fikricha, iqtisodiyotni rivojlantirishda eng asosiy e'tiborni muomaladagi pul miqdorini o'zgarishiga qaratish lozim, binobarin davlat byudjetidan makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun foydalanmaslik kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jahon amaliyotida davlat byudjeti taqchilligi mamlakat milliy iqtisodiyotiga jiddiy xavf tug'diradimi yoki buning aksi – taqchillik iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalimi, degan savol hozirda ham dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari o'rtasida baxs-munozaralarga sabab bo'ladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo rivojlangan mamlakatlar o'zlarining rivojlanish bosqichlarida davlat tashqi qarzi va davlat byudjeti taqchilligini boshqarishda o'ziga xos tajribaga egadirlar. Aynan, yevrohudud mamlakatlarida Maastrixt shartnomasida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar uchun "yevrohudud"da ishtirok etishlari uchun 1993 yil 2 maydan boshlab qat'iy mezonlar o'rnatilgan¹:

- davlat byudjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 foizdan ortmasligi lozim, agarda belgilangan ushbu normativ buzilsa, uni buzgan davlatga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llaniladi;

- davlat tashqi qarzi miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60,0 foizdan ortmasligi lozim (yoki ushbu ko'rsatkichga barqaror yaqinlashib borish mumkin).

Mamlakatimizda davlat byudjeti taqchilligi muammosini o'rganish bilan birga, iqtisodiy taraqqiy topgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat byudjeti taqchilligining yuzaga kelish sabablarini tahlil etish va ularda byudjet taqchilligini qisqartirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarni o'rganish, bizga, ushbu sohada kelajakda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Xalqaro amaliyotda yetakchi iqtisodchi olimlar o'rtasida byudjet taqchilligini moliyalashtirishning usullari to'g'risida turli qarashlar mavjud. I.A. Pogosovning fikricha, "davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning asosan ikki usuli mavjud²:

birinchidan, davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish. Davlat qarzi, o'z navbatida, ichki manbalar (bunda davlat byudjeti taqchilligi faqat mamlakat ichidagi manbalar hisobiga moliyalashtiriladi) va tashqi manbalar (bunda taqchillik mamlakat hukumati tomonidan xorijiy

¹ Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. /Под ред. д.э.н. академика В.К. Сенчагова. –М.: Проспект, 2007.

² Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. /Под ред. д.э.н. академика В.К. Сенчагова. –М.: Проспект, 2007.

mamlakatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya institutlaridan hamda yirik xalqaro banklardan olinadigan davlat qarzlarini) hisobiga moliyalashtiriladi;

ikkinchidan, muomalaga yangi pullarni emissiya qilish hisobiga.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning bu ikki guruhi “qarzli moliyalashtirish va emissiyali moliyalashtirish”¹ deb ham ataladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning bu ikki usuli bilan birga, davlat aktivlarini sotish orqali taqchillikning ma’lum qismini moliyalashtirish usulidan ham foydalaniladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning har qaysi usulini qo’llashning iqtisodiyotga ta’siri bir xil bo’lmaydi. Turli mamlakatlarda byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlariga ajratadigan bo’lsak, ularning bir guruhi emissiyali (pulli) moliyalashtirishga, boshqa bir guruhi qarzli moliyalashtirishga mansubligini ko’rish mumkin: (1) Markaziy bankdan qarz olish yoki taqchillikni emissiyali moliyalashtirish (pulli moliyalashtirish), (2) tijorat banklaridan qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (3) mamlakat ichkarisidagi bank bo’lmagan sohalardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (4) mamlakatning valyuta zaxiralarini byudjet taqchilligini qoplashga safarbar qilish yoki boshqa xorijiy davlatlardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (5) davlat mulkini sotish (davlat aktivlarini sotish orqali moliyalashtirish).

Byudjet taqchilligini boshqarishda mamlakat hukumati yuqorida ta’kidlab o’tilgan usullarning biridan yoki bir nechtasidan foydalanishi mumkin. Bunda foydalaniladigan usullarning har birining iqtisodiy tabiati turlicha, shu sababli ular mamlakatning moliyaviy holatiga turlicha, ayrim holatlarda bir-biriga teskari ta’sir ko’rsatishi mumkin. Byudjet taqchilligini qisqartirish borasida hukumat tomonidan noto’g’ri siyosatning tanlanishi mavjud taqchillikning ortishiga va buning natijasida iqtisodiy holatning mushkullashuviga hamda aholi o’rtasidagi noroziliklarga olib kelishi mumkin.

Davlat byudjeti taqchilligini tartibga solishning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

1. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun mamlakat markaziy bankidan kredit olish, ya’ni muomalaga qo’shimcha pul emissiyasini amalga oshirish.
2. Davlat byudjeti xarajatlarining hajmini qisqartirish.
3. Davlat byudjeti daromadlarini ko’paytirish, ya’ni amaliyotga yangi soliq turlarini kiritish yoki amaldagi soliq stavkalarini oshirish.
4. Davlat mulkini mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga sotish.
5. Mamlakat aholisidan, mahalliy xo’jalik yurituvchi subyektlardan, xorijiy mamlakatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik xorijiy tijorat banklaridan qarz olish.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning eng oson, lekin juda qaltis usuli bo’lib mamlakat Markaziy bankidan qarz olish hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, Markaziy bankdan kredit olish o’z mohiyatiga ko’ra muomalaga qo’shimcha pul emissiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu usul orqali mamlakatda davlat byudjeti taqchilligining rasman moliyalashtirilishiga erishiladi, lekin Markaziy bankdan xaddan tashqari ko’p kredit olish mamlakatda shiddatli yoki jilovlanmagan inflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro amaliyotda ko’plab rivojlanayotgan, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlarida 90-yillarning boshlarida davlat byudjet taqchilligini moliyalashtirishda ushbu usuldan keng foydalanilgan. O’zbekiston Respublikasida ham davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda 2003 yilgacha Markaziy bank kreditlaridan foydalanilgan². Bugungi kunda mamlakatimizda kuchga kirgan yangi Byudjet kodeksining 151-moddasiga asosan, O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlarini Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbasi sifatida jalb qilishga yo’l qo’yilmaydi³, deb belgilab qo’yilgan.

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda byudjet xarajatlarini kamaytirish usulidan foydalanishda mamlakat hukumati tomonidan juda ehtiyotkorlik bilan qat’iy siyosat olib borish

¹ Жумаев Н., Бурханов У. Молиянинг долзарб муаммолари. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.

² Жумаев Н., Бурханов У. Молиянинг долзарб муаммолари. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.

³ O’zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi (O’RQ-360-son. 26.12.2013). 151-modda.

talab etiladi. Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda davlat byudjeti tomonidan ijtimoiy-madaniy sohalarga yo'naltiriladigan xarajatlarni qisqartirish mamlakat aholisi o'rtasida norozilikni yuzaga chiqarishi mumkin. Ushbu xarajatlarni amalga oshirishda, asosan, ijtimoiy xarajatlarning maqsadlilikini ta'minlash, boshqaruv va mudofaa xarajatlarini qisqartirish hisobiga davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishga erishish mumkin. Ushbu usuldan, AQSh Prezidenti R.Reygan (1980-1988 yillar) mehnatkashlar va ishsizlarga to'langan nafaqalarni qisqartirgan hamda ish haqini kamaytirgan. Buning natijasida AQShda kambag'al fuqarolar soni 1979-yildagi 26,1 mln. kishidan 1982-yildagi 55,3 mln. kishiga yetdi. Ushbu holatni monetarizm g'oyasining asoschisi Milton Fridmen ijobiy baholagan, chunki uning fikricha, ijtimoiy xarajatlarning qisqartirilishi natijasida AQShda davlat byudjeti taqchilligining qisqarishiga erishilgan. Ishsizlarga beriladigan ijtimoiy nafaqalarni qisqartirish natijasida ishsizlar ishlashga majbur bo'lganlar va AQShda 1984-yildan boshlab, ishsizlar sonining malum darajada kamayishiga erishilgan¹. Mazkur holatni Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning byudjet siyosatida ham kuzatish mumkin. Yevrohududning 16 davlati moliya vazirlarining muzokaralaridan so'ng, 2010-yilda Gretsiyaga uch yil muddatga 110 mlrd.yevro miqdorida yordam paketi ajratiladigan bo'ldi. Albatta, Yevropa Ittifoqi tomonidan Gretsiyaga ko'rsatiladigan yordam oddiy kreditdan boshqa narsa emas. Ammo ajratiladigan kreditning foiz stavkasi bozordagi mavjud stavkadan pastroq bo'ladi (qariyb 5 foiz atrofida). Bunga javoban Gretsiya hukumatidan mehnat va pensiya qonunchiligini erkinlashtirish talab etildi. Ushbu yo'nalishda byudjet tashkilotlaridagi ishchi xodimlar sonini qisqartirish, ishlayotgan xodimlarning ish haqlarini "muzlatib qo'yish" kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu choralar yaqin ikki yil mobaynida byudjet defitsitini 30 mlrd. yevroga qisqartirish imkonini berishi kutilayotgan edi².



**Artur Laffer (1940
yil 14 avgustda
tug'ilgan) –
amerikalik iqtisod-
chi, iqtisodiyotda
taklif nazariyasining
asoschilaridan biri.
AQSh Prezidenti
R.Reygan
boshqaruvi davrida**

Davlat byudjeti taqchilligi darajasini kamaytirish usullaridan yana biri – byudjet daromadlarini ko'paytirish hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanishda asosan quyidagilar amalga oshiriladi: amaliyotga yangi soliq turlarini kiritish; mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning foiz stavkalarini ko'tarish; amal qilayotgan soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilarga berilgan imtiyozlarni cheklash yoki umuman bekor qilish. Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda faqatgina ushbu usuldan foydalanilganda iqtisodiyotda "Laffer samarasi" yuzaga chiqadi. A.Lafferning fikricha, soliq stavkalarini asossiz ravishda oshirib yuborish natijasida ma'lum muddat davomida davlat byudjetiga daromadlarning ortishi kuzatiladi. Lekin soliq stavkasi chegaradan ortib ketsa, soliq to'lovchilarning "soliqlardan qochishi" yuzaga chiqadi. Ushbu holat esa, davlat byudjetiga to'lovlarning kamayishiga olib keladi.³

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida ayrim soliq turlari stavkalarini (asosan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i) oshirish hamda boy fuqarolar uchun qo'shimcha daromad solig'ini joriy qilish amaliyoti olib borilmoqda. Fransiyada fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi 75 foizga ko'tarildi. Shuningdek, ayrim yevrohududdagi davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi oshirildi. Yana bir misol, Yaponiyada davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida 2013 yildan boshlab savdodan olinadigan soliq stavkasi 5 foizdan 8 foizgacha ko'tarilgan.

¹ Финансы капитализма. Учебное пособие. /Под ред. проф. Б.Г. Болдырева. –М.: Финансы и статистика, 1990.

² <http://korrespondent.net/business/economics/1072974-greciya-poluchit-110-mlrd-evro-ot-es-i-mfv>

³ Laffer, A., & Seymour, J. (Eds.). (1979). The economics of the tax revolt: a reader. New York, NY: Harcourt Brace Jovanovich.

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanish amaliyotga kiritilgan. "AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda keng miqyosda "reprivatizatsiya", ya'ni davlat mulkini sotish va davlat mulkiga asoslangan korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatiga aylantirish amalga oshirildi. AQSh Prezidenti R.Reygan va Buyuk Britaniya bosh vaziri M.Tetcher davlat mulkini xususiylashtirish va ular asosida aktsiyadorlik jamiyatlari hamda xususiy korxonalarni tashkil etishga juda katta e'tibor qaratganlar. Xalqaro amaliyotda ular olib borgan ushbu iqtisodiy siyosat "reyganomika" va "tetcherizm" deb ataladi. Ushbu siyosat natijasida davlat mulkchiligidagi korxonalarni xususiylashtirish asosida tashkil etilgan xususiy korxonalar raqobatbardosh ekanligi va davlat mulkidagi korxonalar yangi investitsiyalarni moliyalashtirishni amalga oshirishga qodirmasligi isbot qilindi. Eng asosiysi,

Reyganomika (ingl.: *Reaganomics*) — Ronald Reyganning 1981-1989-yillardagi prezidentlik davrida Amerika hukumatining iqtisodiy siyosati yo'nalishi. Reyganomikaning nazariy asosini taklifga asoslangan iqtisodiy nazariya tashkil qiladi. Uning amaliy xulosasi shu bo'ldiki, asosiy e'tiborni tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirishdan ularni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratish kerak. Investitsion va innovatsion jarayonlarga erkinlik berish, xarajatlarni kamaytirish, xususiy kapitalning jamg'armalarini ko'paytirish uchun yirik soliq islohotlarini amalga oshirish talab etildi.

xususiylashtirishdan kelgan juda katta miqdordagi mablag'lar davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishga sarflandi.

Davlat byudjeti defitsitini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, byudjet defitsiti jahon amaliyoti uchun nisbatan yangi hisoblangan voqelik sanaladi. Xususan, XIX asrning o'rtalariga qadar rivojlangan ilg'or mamlakatlarning davlat byudjetlari uchun daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lishi xarakterli xususiyat edi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda urushlar davrida yoki katta talofat keltiruvchi tabiiy ofatlar yuz berganda paydo bo'ladigan byudjet defitsiti favqulodda holat hisoblanar edi. XX asrning 50-yillaridan boshlab bu mamlakatlarda byudjetning defitsitlik holati, ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnidan, geografik, geopolitik mavqeidan qat'iy nazar, tabiiy hol bo'lib qoldi. Ushbu holat hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Masalan, AQShda 1974-yil uchun qabul qilingan Byudjet to'g'risidagi qonunning qabul qilinishida Kongress federal byudjetning hajmi yoki byudjet defitsiti borasida xavotirga tushadigan holatlarni bashorat qilmadi¹. Faqat 1980-yillarga kelib, Prezident Ronald Reygan ma'muriyati davrida byudjet jarayoniga bo'lgan e'tibor, yirik taqchilliklarning yuzaga kelish xavfi ta'sirida jiddiy o'zgardi.²

Reygan prezidentligining dastlabki yillarida, AQSHning Byudjetni boshqarish Departamenti muhim ahamiyatga ega bola boshladi.³ Reygan prezident etib saylangach, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari masalasi asosiy siyosiy vazifa darajasiga ko'tarildi va bu ishlarni bajarish AQSHning Byudjetni boshqarish Departamentiga yuklatildi.⁴

Davlat byudjetidagi taqchillik hajmi 1981-yildan boshlab o'sa boshladi.²² Regan ma'muriyati 1981-yili iqtisodiyotni rag'batlantirish va byudjet daromadlarini ko'paytirish

¹ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 308.

² Joyce, P. (1996). Congressional budget reform: the unanticipated implications for federal policy making. *PublicAdministration&view*, 56, 317-325.

³ Johnson, B. (1984). From analyst to negotiator: the OMB's new role. *Journal of Policy Analysis and Management*, 3, 501-515; Johnson, B. (1989). The OMB budget examiner and the congressional budget process. *Public Budgeting & Finance*, 9, Spring, 5-14; Tompkin, S. (1998). Inside OMB.

⁴ Stockman, D. (1986). *The triumph of politics: how the Reagan revolution failed*. New York, NY: Harper & Row.

maqsadida soliq stavkalarini pasaytirdi. Bu choraning nazariy jihatdan to'g'ri bo'lishiga qaramasdan, amaliyotda davlat qarzi qiymatining 1981-yilda 1,1 trillion \$ga, 1985-yilda esa 2,1 trillion \$ga ko'tarilib ketishiga olib keldi.¹ Natijada Reygan ma'muriyati Kongressga ko'plab ijtimoiy dasturlarni qisqartirishni taklif qildi. Lekin bu bilan ham taqchillik oshib boraverdi, bunga sabab – daromad va harajatlar o'rtasida yirik nomutanosiblik mavjud edi.

Ana shunday siyosiy jihatdan tarang vaziyatda 1985-yilda Kongress Muvozanatlashgan byudjet va Favqulodda yuzaga keladigan kamomadni nazorat qilishi to'g'risidagi qonunni qabul qiladi. Ushbu qonun loyihasining yuzaga kelishiga Senatorlar V. Filip Gramm, Uoren B. Rudman va Ernest F. Xollingslar hissa qo'shadilar.

Gramm-Rudman-Xollingslar sekvestr deb nomlangan yangi bir tizimni yaratadilar. Ushbu tizim byudjet kamomadiga erishib bo'lmagan hollarda, byudjetni kamaytirishga mo'ljallangan. Qisqartirilgan byudjetning yarmi ijtimoiy yordamga, qolganlari mahalliy dasturlarga ajratilgan. Lekin Gramm-Rudman-Xollingslar tomonidan taklif etilgan sekvestrlash usuli ham taqchillik muammosini bartaraf eta olmadi.²

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish usullaridan biri mamlakat hukumati tomonidan aholidan, milliy xo'jalik yurituvchi subyektlardan, xorijiy davlatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik tijorat banklaridan qarz olish hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishning ushbu usuli eng nozik, shuning bilan bir vaqtda, zamonaviy usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanadigan mamlakat hukumati o'z nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali milliy va xorijiy valyutadagi mablag'larni jalb etadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya va Italiyada markaziy hukumat tomonidan davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida muomalaga davlat obligatsiyalarini chiqarish va ularni xorijiy sarmoyadorlar o'rtasida joylashtirish ishlari faol olib borilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- 1.Byudjetning holatlariga xarakteristika bering.
- 2.Byudjet defitsiti deb nimaga aytiladi? Byudjet defitsitini keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?
- 3.Iqtisodiy rivojlanishning turli davrlarida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan byudjet defitsitining sabablarini aniqlang. Hukumatning qanday tadbirlari byudjet defitsiti muammosining hal qilinishiga qaratildi?
- 4.Byudjet defitsitining zamonaviy kontsepsiyalarining asosiy mazmuni nimadan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

- 1.Byudjet defitsiti muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar katalogini tuzing va ularga qisqacha annotatsiya yozing.
- 2.O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va byudjet defitsitining dinamikasini aks ettiruvchi ma'lumotlarni to'plang, ularni jadval (diagramma, grafik) tarzida rasmiylashtiring va qisqacha hulosa yozing.
- 3.Internet resurs manbalaridan foydalanib, horijiy davlatlar byudjetlarining holati to'g'risida taqdimot tayyorlang.

¹ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 309.

² Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 310.

12-MAVZU. BUDJET JARAYONI

REJA:

- 12.1. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish asoslari va byudjet jarayoni bosqichlari
- 12.2. Davlat byudjeti loyihasini tuzish
- 12.3. Byudjet loyihasini ko'rib chiqish va qabul qilish
- 12.4. Byudjetni ijro etish va nazorat qilish
- 12.5. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash
- 12.6. Xorijiy davlatlarda byudjet jarayoni

Tayanch so'z va iboralar: *byudjet jarayoni; davlat byudjeti loyihasini tuzish; byudjetni rejalashtirish; byudjet loyihasini byudjet buyurtmasi ; byudjet so'rovi ; ko'rib chiqish va qabul qilish; byudjetni ijro etish va nazorat qilish; byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi ; byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash*

12.1. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish asoslari va byudjet jarayoni bosqichlari

Ma'lumki, 2000-yil 14-dekabrda qabul qilinib, 2013-yilga qadar amalda bo'lgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda byudjet jarayonini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy-huquqiy hujjat sifatida xizmat qilib keldi. Keyingi yillar davomida byudjet tizimida amalga oshirilgan islohotlar doirasida byudjet amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi va ular byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.


Natijada amaldagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi hamda 2004-yil 26 avgustda qabul qilinib, 2006-yildan boshlab amal qilib kelgan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

2014-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, *Byudjet jarayoni* – byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan maqsadli faoliyat jarayonidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va byudjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi (1-rasmga qarang):

- byudjet loyihasini tuzish;
- byudjetni ko'rib chiqish va qabul qilish;
- byudjetni ijro etish va nazorat qilish;
- byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.




12.1-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to‘rt bosqichning barchasidan iborat bo‘lib, odatda, bir byudjet yilidan ancha avval boshlanib (6-8 oy), byudjet yili tugagandan keyingi bir necha oyni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet yili kalendar yilga mos keladi va 1-yanvarda boshlanib 31-dekabrda tugaydi. Lekin dunyoning turli davlatlarida byudjet yili kalendar yilining turli davrlariga to‘g‘ri keladi. Bu, odatda, parlament sessiyalarini o‘tkazish davri, shu mamlakatda qaror topgan tarixiy an‘analar, muhim sanalar bilan bog‘liq. Masalan, Fransiya, Germaniya, Italiyada byudjet yili 1-yanvardan, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanadada – 1-apreldan, Shvetsiya, Norvegiya, Pokistonda – 1-iyuldan boshlanadi.

12.2. Davlat byudjeti loyihasini tuzish

Byudjet jarayoni *byudjetni rejalashtirishdan* boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg‘armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash proporsiyalarini to‘g‘ri belgilashdan iboratdir.



12.2-rasm. Byudjetni rejalashtirishning asosiy tamoyillari

Byudjetni rejalashtirish turli darajadagi byudjetlarni tuzish va ijro etish tartibi, uning me'yoriy-huquqiy bazasi va tashkiliy asosi tarzida byudjet jarayonini, shuningdek, mamlakat byudjetini tuzishning nazariyasi va metodologiyasi masalalarini ham o'z ichiga oladi. Byudjetni rejalashtirish asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida tuziladi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek, byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi so'ragan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

Byudjet loyihasini tuzish quyidagilarni nazarda tutadi:

- byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;
- byudjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;
- byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
- byudjetnomani ishlab chiqishni.

Byudjet so'rovi – kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat bo'lib, kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini o'z ichiga oladi. Byudjet so'rovini tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Byudjet buyurtmasi byudjet tashkiloti, byudjetdan mablag' oluvchi yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi va tegishli moliya organiga byudjet so'rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi. Byudjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili *15 aprelga qadar* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun – respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga yuboradi.

Bu organlar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng *uch ish kuni ichida* tegishli byudjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash to'g'risida qarorlar qabul qiladi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari yuqorida nomi keltirilgan organlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinganidan so'ng *uch ish kuni ichida* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

- tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish uchun – tuman va shahar hokimlariga;
- byudjet so'rovlarini tuzish uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng *uch ish kuni ichida* tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari yuqoridagi qarorlar qabul qilinganidan so'ng *uch ish kuni ichida* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

Byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish tartibi va tegishli vakolatli organlarga taqdim etish muddatlari quyidagi chizmada ko'rgazmali ravishda aks ettirilgan (12.3-rasmga qarang):



12.3-rasm. Byudjet so'rovlarini taqdim qilish va ko'rib chiqish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarning davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalarini tayyorlash va taqdim etish muddatlari quyidagi rasmda aks ettirilgan (12.4-rasmga qarang):

Qaysi byudjet?	Kim tomonidan taqdim etiladi?	Qaysi organga taqdim etiladi?	Qaysi muddatda?
Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari byudjetlari	tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya bo‘limlari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligiga	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay
Viloyatlar tumanlari va shaharlari byudjetlari		Viloyatlar hokimliklari moliya boshqarmalariga	
Toshkent shahar tumanlari byudjetlari		Toshkent shahar hokimligi moliya boshqarmasiga	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga	joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay
Viloyatlar byudjetlari	Viloyatlar hokimliklari moliya boshqarmalari		
Toshkent shahar byudjeti	Toshkent shahar hokimligi moliya boshqarmasi		

12.4-rasm. Mahalliy byudjetlar loyihalarini tayyorlash va taqdim etish muddatlari

Davlat byudjetining loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ishlab chiqadi. Byudjet loyihasini ishlab chiqishga quyidagilar asos qilib olinadi:

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;
- davlat byudjeti daromadlari prognozi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari.

Davlat byudjeti loyihasi *byudjetnoma* – erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutadigan hujjat asosida shakllantiriladi.

Byudjetnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;
- davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosi;
- soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihasi;
- davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasi;

–davlat qarzining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
 –solliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xati.

Byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga – *joriy yilning 15 sentyabriga qadar* kiritiladi. Vazirlar Mahkamasi byudjetnomani O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun – *joriy yilning 20 sentyabriga qadar* kiritadi. Hisob palatasi Vazirlar Mahkamasiga solliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasi bo‘yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga – O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan *joriy yilning 15 oktyabridan* kechiktirmay kiritiladi.

12.3. Byudjet loyihasini ko‘rib chiqish va qabul qilish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan Byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Oliy Majlis palatalari Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini hamda navbatdagi yil uchun solliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qabul qiladi. Demak, *davlat byudjeti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qarorlarini ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, ushbu qaror bilan:

- asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari;
- davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori va uni qoplash manbalari;
- davlat maqsadli jamg‘armalarining asosiy parametrlari;
- solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari miqdorlari;
- mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmlari, respublika byudjetidan subventsiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlari;
- umumdavlat solliqlari tushumlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarining normativlari va Byudjet Kodeksining 98-moddasida belgilangan boshqa ko‘rsatkichlar tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qarori qabul qilingandan so‘ng byudjet tizimining tegishli byudjetlari qabul qilinadi. Bu byudjetlar qaysi organ tomonidan va qanday muddatlarda qabul qilinishi quyidagi rasmda aks ettirilgan (12.5-rasm):

Qaysi byudjet qabul qilinadi?	Kim tomonidan qabul qilinadi?	Qaysi muddatda qabul qilinadi?
Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilingandan so‘ng bir haftalik muddatda
viloyatlar mahalliy byudjetlari	Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari	

Qaysi byudjet qabul qilinadi?	Kim tomonidan qabul qilinadi?	Qaysi muddatda qabul qilinadi?
Toshkent shahar mahalliy byudjeti	Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi	
Tumanlar va shaharlar byudjetlari	Tumanlar va shaharlar hokimlari qarorlari bilan	Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddatda

12.5-rasm. Mahalliy byudjetlarning qabul qilinishi

Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan beriladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar hajmlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e‘tiboriga – *uch ish kuni ichida*, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e‘tiboriga – *o‘n ish kuni ichida* etkazadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari *bir haftalik muddatda* Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar e‘tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini etkazadi.

12.4. Byudjetni ijro etish va nazorat qilish

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g‘azna ijrosi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Byudjet ijrosini tashkil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar uchun shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi.


Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar o‘z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi
byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta‘minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri bo‘lib, bu davr mobaynida o‘tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo‘shimcha vaqt davridagi ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet Kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan (12.6-rasm):



12.6-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish¹

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.


Byudjet ijrosi jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda;

- turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;
- turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi;
- byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;
- o'z vakolatlari doirasida byudjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi.

Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi (12.7-rasm):

¹ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.



12.7-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish¹

12.5. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash

Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Respublika byudjetidan xarajatlari rejalashtirilgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan xarajatlari rejalashtirilgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga *hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreligacha* taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi audit o'tkazish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga *hisobot yilidan keyingi yilning 5 apreligacha* yuboradi. Hisob palatasi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning *10 mayidan kechiktirmay* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning *15 mayidan kechiktirmay* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlar va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqilgan yillik hisobot Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi, shundan keyingina davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 120-moddasi asosida keltirildi.

ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy web-saytiga joylashtiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet jarayoni nima, u qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
2. Byudjet so'rovi nima, uni taqdim etish muddatlari qanday?
3. Byudjetnoma o'z ichiga qanday hujjatlarni oladi?
4. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonining tadbirlarini aytib bering.
5. Byudjetni daromadlar va xarajatlar bo'yicha ijro etish tartiblari qanday?
6. Byudjetning g'azna ijrosini tashkil etish xususiyatlari nimalar?
7. Byudjet nazorati deb nimaga aytiladi? Byudjet nazoratini amalga oshiruvchi organlarning qanday vakolatlari bor?
8. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlarni to'plash, taqdim etish va tasdiqlash qanday muddatlarda amalga oshiriladi?
9. Xorijiy davlatlarda byudjet jarayonini tashkil etish xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet jarayoni bosqichlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izohlab bering.
2. Byudjetni tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatuvchi jadval ishlab chiqing va u asosida taqdimot tayyorlang.

“Public budgeting systems” (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet jarayonini tashkil etish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.

13-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

REJA:

13.1. Byudjet tashkilotlari haqida tushuncha, ular xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari

13.2. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari

13.3. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlari va moddalari, ularni hisoblash. Byudjet me‘yorlari

13.4. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro‘yxatga olish va moliyalashtirish tartibi

13.5. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, manbalari va ishlatish yo‘nalishlari

Tayanch so‘z va iboralar: *moddiy ishlab chiqarish; noishlab chiqarish; byudjet tashkiloti; xarajatlar smetasi; byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasi; byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta; vaqtinchalik smeta; doimiy smeta; jamlanma smeta; markazlashgan tadbirlar uchun smeta.*

13.1. Byudjet tashkilotlari haqida tushuncha, ular xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari

“Iqtisodiyot nazariyasi” va “Moliya” fanlaridan bizga ma‘lumki, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari ikki yirik sohadan iborat (14.1-rasm):

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi.

2. Nomoddiy ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish) sohasi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy qiymatliklar yaratiladi, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko‘rsatiladi, ishlar bajariladi.


Noishlab chiqarish sohasida turli xizmatlar (maishiy, kommunal, ijtimoiy, davlat boshqaruvi, mamlakat mudofaasi, milliy xavfsizlik, ichki ishlar xizmatlari) ko‘rsatiladi.

Noishlab chiqarish muassasa va tashkilotlarining bir qismi tijorat hisobi asosida ish yuritsalar, bir qismi notijorat faoliyatini olib boradilar. Bu faoliyatning pirovard maqsadi tijorat foydasiga ega bo‘lish bo‘lmaydi, lekin ularning qo‘shimcha daromadlarni jalb qilishga bo‘lgan intilishlarini ham inkor etmaydi. Bunday muassasalarning aksariyati “byudjet tashkiloti” maqomida faoliyat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-moddasida byudjet tashkilotlariga quyidagicha ta‘rif berilgan: “*Byudjet tashkiloti* – davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot”¹. Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo‘yicha xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun etarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo‘lishi, shaxsiy hisobraqamining mavjud bo‘lishi va sh.k.) javob berishi kerak. Lekin bugungi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan byudjet tashkilotlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo‘linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatiladi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. 4-modda.

(masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi, tegishli hokimiyatlar bo'linmalariga qarashli veterinariya uchastkalari va punktlari va sh.k.).



14.1-rasm. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari¹

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini *xarajatlar smetasi* shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

13.2. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining unga ajratilgan byudjet mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"²ga muvofiq, byudjet tashkilotlarida

¹ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. - T.: "VNESHINVESTPROM". 2013. 180-bet.

² "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2014 yil, 51-son, 612-modda.


smetalarning quyidagi *turlari* amalda qo'llaniladi (14.2-rasm):

- yakka (individual) smetalar;
- jamlanma smetalar;
- byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar;
- markazlashgan tadbirlar uchun smetalar.

Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida olingan muassasa bo'yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda (tuman yoki shaharda) joylashgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi davlat sog'liqni saqlash muassasasi (kasalxona, qishloq vrachlik punkti, ixtisoslashgan dispanser va sh.k.) mustaqil ravishda byudjetdan to'lanishi ko'zda tutilgan o'z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.

Jamlanma smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha tuziladi (masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida keltirilishicha, "jamlanma xarajatlar smetasi – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi" hisoblanadi.



14.2-rasm. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi¹

¹ "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida

“Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo‘linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha quyidagi alohida hollarda *jamlanma xarajatlar smetasi* tuzilishi mumkin:

- bir turdagi kichik tashkilotlar bo‘yicha - veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo‘yicha;
- bir turdagi yirik tashkilotlar bo‘yicha, qachonki ularga xo‘jalik xizmatlarini ko‘rsatish xo‘jalik xizmatlarni ko‘rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha;
- ozodlikdan mahrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari bo‘yicha.”*

**Izoh: 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”dan (II-bob, 1-§, 13-band).*

Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkil bo‘lish manbalari va ushbu mablag‘larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi. Masalan, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida talabalarni o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar va ularni ishlatish yo‘nalishlari byudjet qonunchiligi (xususan, 2157-sonli Nizom) bilan belgilangan tartibda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta asosida rejalashtiriladi.

“Tashkilotlar quyidagi byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni tuzadilar:

- Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi;
- Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi;
- ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushumlar;
- qonunchilikda belgilangan boshqa barcha byudjetdan tashqari mablag‘lar, jumladan, vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga yo‘naltirilayotgan davlat bojlari, yig‘imlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlardan, ma‘muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar.

Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha (Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bundan mustasno) smetalar tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.”*

**Izoh: 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”dan (IV-bob, 30-band).*

Markazlashgan tadbirlar uchun smetalar – vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo‘limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo‘yicha tuziladi va har bir markazlashgan tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qishki kiyim-bosh bilan ta‘minlash, birinchi sinf o‘quvchilariga o‘quv qurollari va anjomlari komplekti taqdim qilish bilan bog‘liq tadbirlar uchun tegishli vazirlik darajasida markazlashgan tadbirlar uchun smetalar ishlab chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bir yillik muddatga - 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo‘yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat

ko'rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Byudjet qonunchiligida kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan holatdagi xatti-harakatlar belgilab berilgan. Xususan, agar moliya yili boshlangunga qadar shu yilga mo'ljallangan davlat byudjeti mamlakat qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinmasa, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash ular tomonidan tuzilgan *vaqtinchalik xarajatlar smetasi* asosida amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining (yoki byudjet mablag'lari oluvchining) xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda har oylik xarajatlar o'tgan moliya yilining oxirgi choragida byudjet tashkiloti tomonidan sarflangan byudjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

“Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrighacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi”¹.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosiy smeta tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun ko'zda tutilgan xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida rejalashtirilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Byudjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda va smetalarni rejalashtirishda quyidagilarga amal qiladilar:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

- byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

- tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek, nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

- yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarni tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa,

- bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi tashkilotlarning ayrim turlari uchun qonun hujjatlari bilan tasdiqdangan ovqatlanish me'yorlari va ovqatlanish kunlari sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq jihozlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

13.4. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi

Yuqoridagi paragrafdagi O'zbekiston Respublikasida byudjetdan moliyalashtirish va byudjetdan mablag' oluvchilarning aksariyat qismini tashkil qiluvchi byudjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar sharhini keltirgan edik. Ushbu hujjatlar qatorida nomi keltirilgan “O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. 104-modda.

tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"¹ bugungi kunda byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish tartibini belgilab beradi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlariga bo'yicha, 4 guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo'yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Bir vaqtning o'zida o'zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

– byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

– tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Jumladan:

– xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

– pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o'quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifkatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

– tibbiyot xodimlari ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to'lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyot

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 19 noyabrda 2157-son bilan ro'yxatga olingan.

xodimlari tarifkatsiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda ta'lim oluvchilarni stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;

- mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- xo'jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

- telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so'zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo'yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o'zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib ko'zda tutiladi;

- davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o'rtacha yillik sonidan va natural me'yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab:

- statsionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda – har bir vrach qabuliga belgilanadi;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi;

- suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- inspeksiya va qo'riqlash faoliyati bilan bog'liq xizmatlar to'lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

- tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek boshqa davlat mulklari ijarasi bilan bog'liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

- xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar, shuningdek Davlat byudjeti xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha jamlanma xarajatlar smetasi tuziladi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari

(bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larni taqsim qiluvchilar bo'lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan hisob va hisobot, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha xarajatlarning guruhlari bo'yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- isitish, yoritish, suv ta'minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;
- sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;
- kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;
- o'rmon xo'jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;
- qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo'yicha ishlar hajmi va boshqa ko'rsatkichlar hisobi;

– bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

– byudjetdan mablag'lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ularning o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari, tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, idoralar hamda tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari tomonidan har bir tashkilotga alohida, mehnatga haq to'lash shartlari va faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarning o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunda, yangi tashkilotlarni saqlash xarajatlari ushbu tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'ljallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, smeta xarajatlari quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (stipendiyalar va boshqalar);

II guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari (Ish haqiga ustamalar);

III guruh – Kapital qo'yilmalar;

IV guruh – Boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan byudjet xarajatlarining choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga quyidagi xarajat turlari kiradi:

- “Ish haqi”;
- “Ta’lim muassasalarining o’rnak ko’rsatgan xodimlarini rag’batlantirish Direktor fondi mablag’lari” (umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda);
- Stipendiyalar.

Umuman olganda, byudjet tashkilotlari xodimlari ish xaqini hisoblashda ular mehnatiga haq to'lashning Yagona Tarif Setkasi (YaTS) qo'llaniladi. YaTS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi. U 22 ta razraddan va har bir razrad uchun o'rnatilgan tegishli tarif koeffitsientlaridan iborat. Yagona Tarif Setkasi qonunan o'rnatilgan eng kam ish haqi miqdoriga asoslanadi va byudjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to'lashning tarmoq setkasi qo'llaniladi. Masalan, oliy ta'lim muassasalari, xalq ta'limi muassasalari, sog'liqni saqlash davlat tashkilotlari uchun ular xodimlari mehnatining xususiyatidan kelib chiqqan holda haq to'lashning tarmoq setkalari ishlab chiqilgan.

II guruh – “*Ish haqiga ustamalar*” (Ish beruvchilarning ajratmalari):

Bu guruhda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov summasi aks ettiriladi. Xarajatlar hisoblab chiqilgan mehnat haqi fondi summasiga nisbatan o'rnatilgan foizlarda hisoblanadi.

III guruh – “*Kapital qo'yilmalar*” guruhi bo'yicha xarajatlar Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq alohida tarzda rejalashtiriladi. Bu xarajatlar alohida byudjet tashkilotining smetasida rejalashtirilmaydi.

IV guruh – “*Boshqa xarajatlar*” tarkibiga quyidagi xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

- “Xizmat safar xarajatlari”;
- “Kommunal xizmatlarni to'lash xarajatlari”;
- “Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari”;
- “Joriy ta'mirlash xarajatlari”;
- “Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari”;
- “Texnika, uskunalar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari”;
- “Boshqa joriy xarajalar”.

IV guruh moddalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning eng umumiy bo'lgan *o'ziga xos xususiyatlari* quyidagilardan iborat:

- amaldagi narxlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;
- natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;
- hisoblagichlarning ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;
- har bir birlik uchun o'rnatilgan xarajat me'yorlariga rioya etiladi;
- energo-yoqilg'i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda byudjet amaliyotidagi o'zgarishlar, “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi va byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmining o'zgarishi munosabati bilan amaldagi 414-son Qarorga 2007 yil 19 iyul 148-son Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan qator o'zgartirishlar kiritilishi, 2007-son “Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidolari”ning qabul qilinishi, 2157-son “O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom”ning kuchga kirishi, 2013 yilda O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining qabul

qilinishi bilan byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va to'lovlarini amalga oshirish tartiblari tubdan o'zgardi. Ushbu hujjatlarga muvofiq, g'azna ijrosiga o'tgan byudjet tashkilotlarining xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisob raqamidan, shuningdek smetada ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi. Bu tadbirlar byudjet tashkilotlari xarajatlarini to'g'ri va oqilona rejalashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, mablag'larni iqtisod qilish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga yangicha talablarni qo'yimoqdaki, ushbu talablar byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirish va xarajatlar smetasini tuzish va ijro etish jarayonlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

13.5. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, manbalari va ishlatish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda PQ-1275-sonli Qarorining 25-bandiga muvofiq, 2010 yildan boshlab vazirlik va idoralarning, byudjet tashkilotlarining barcha byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olish amalga oshirilmoqda. Bunda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha bank hisobvaraqlari yopilib, G'aznachilikda tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochildi.

Byudjet tashkilotlarining davlat byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan tashqari mablag'lari quyidagilardan iborat:

- Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari;
- Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- o'tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- maktabdan tashqari muassasalarda (musiq va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanish uchun bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar;
- maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- ta'lim muassasalarida o'qishdan tushadigan mablag'lar;
- vazirlik va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg'armalari;
- umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar;
- kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar;
- turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar;
- taqsimlanishi nazarda tutilgan tushumlar;
- boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi;
- boshqa mablag'lar bo'yicha depozitlar;
- byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagi 69-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda 2007-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari"ning "Byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish" deb nomlangan VIII-bo'limida "Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuridik va moliyaviy

majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘larning kassa xarajatlari kelib tushgan byudjetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag‘lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi”, deb belgilab qo‘yilgan.

14.1-jadval

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha g‘azna ijrosini tashkil qilish

№	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari va jamg‘armalari nomi	Hisobi yuritiladigan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari	Smetalarning tuzilishi va turi
1.	Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi	4001	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
2.	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy nafaqalarni to‘lash uchun mablag‘lari	4002	smeta tuzilmaydi
3.	Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi	4003	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
4.	O‘tgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi	4004	smeta tuzilmaydi
5.	Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar	4005	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
6.	Maktabdan tashqari muassasalarda (musiqi va san‘at maktablari) bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar	4006	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
7.	Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanish bo‘yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar	4007	smeta tuzilmaydi
8.	Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar	4008	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
9.	Ta‘lim muassasalarida o‘qishdan tushadigan mablag‘lar	4009	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
10.	Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari	4010	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
11.	Umumta‘lim muassasalarida darsliklar ijarasi to‘lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag‘lar	4011	smeta tuzilmaydi
12.	Kapital qo‘yilma mablag‘lari bo‘yicha depozitlar mablag‘lari	4012	xarajatlar smetasi tuziladi
13.	Turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to‘lovlar	4013	smeta tuzilmaydi

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo‘yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular bo‘yicha xarajatlarni

amalga oshirish davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo'lib, byudjet tashkilotiga tegishli mablag'larning (byudjet va nobyudjet) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag'larning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha jamg'armalar qanday guruhlanadi?
3. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari g'azna ijrosini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini aytib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
2. Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining guruhlanishi, ular bo'yicha shaxsiy hisobraqamlarning yuritilishi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlik kabilarni aks ettiruvchi umumlashma jadval tayyorlang.

14-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING TA'LIM TIZIMI XARAJATLARI

REJA:

- 14.1. Ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlash yangi usullarining mohiyati, afzalliklari va xususiyatlari
- 14.2. Ta'lim tizimida jon boshiga qarab moliyalashtirishni tadbqiq etishning ilk tajribalari
- 14.3. Umumta'lim muassasalarida bir o'quvchiga o'rnatilgan bazaviy me'yorlar asosida muassasa byudjetini rejalashtirish va moliyalashtirish
- 14.4. Xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan ta'lim tizimini moliyalashtirish modellari tavsifi

Tayanch so'z va iboralar: *ta'limning hammabopligi; ta'lim sifati va natijalari; umumta'lim maktablari; maktabgacha ta'lim muassasalari; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari; oliy ta'lim muassasalari; ta'lim tizimini moliyalashtirish usullari; o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish; alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish; xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish; formula asosida moliyalashtirish; jon boshiga (o'quvchi soniga ko'ra) moliyalashtirish; "pul o'quvchining ortidan boradi"gan tamoyil; maktab byudjeti; bazaviy xarajatlar me'yorlari; oshiruvchi koeffitsientlar.*

14.1. Ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlash yangi usullarining mohiyati, afzalliklari va xususiyatlari

Jahon amaliyotida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning mablag'lardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishni rag'batlantiruvchi yangi yo'llarini qidirib topish ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi xarakatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu harakatlar ta'lim sohasidagi birinchi darajali vazifalarni hisobga olgan holda quyidagi *tamoyillarni* ta'minlashga qaratilgan:

- ta'limning hammabopligi (ham jismoniy, ham moliyaviy jihatdan);
- ta'lim sifati va natijalari;
- tenglik – bir xil ehtiyojli o'quvchilar mablag'lar bilan bir xil darajada ta'minlanadilar; muhtojroq o'quvchilar ko'proq mablag' oladilar;
- samaradorlik: tashqi samaradorlik – ta'lim tizimi jamiyatga ishchi kuchini tayyorlaydi, shundan kelib chiqqan holda bu sohaga qilinayotgan xarajatlarning samaradorligini hisobga olib mablag'lar safarbar etiladi; ichki samaradorlik – eng kam xarajat qilib ko'proq natijalarga erishish.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish usullari haqida gap borar ekan, u yoki bu usulni qo'llashda har bir mamlakat o'z ijtimoiy siyosatining ustivorliklari, shuningdek, byudjet tizimining o'ziga xosligi va ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlariga asoslanadi. Shunga qaramay, o'tmishda mashhur bo'lgan va hozirgi kunda maktab ta'limining ko'plab tizimlarida amalda qo'llanilayotgan ta'lim muassasalariga moliyaviy mablag'larni ajratishning bir qancha yo'llari va usullarini ta'kidlash mumkin:

Ta'lim tizimini moliyalashtirish usullari

o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida
moliyalashtirish

aloqida shartnomalar asosida moliyalashtirish

xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish

formula asosida moliyalashtirish

15.1-rasm. Ta'lim tizimini moliyalashtirish usullari¹

- *o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish*, bunda muassasa byudjeti u moliyalashtiriladigan tegishli byudjet imkoniyatlaridan chiqib ketmagan holda o'tgan moliyaviy yil xarajatlari darajasida (inflyatsiyani hisobga oluvchi ayrim tuzatishlar bilan) aniqlanadi va uning hajmi doirasida mablag' ajratiladi;

- *alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish (kelishuv bo'yicha)* – bunda har bir maktab davlatga o'zining muayyan miqdordagi ajratmalarga ehtiyojini asoslab berishi lozim, agar maktabning mablag' ajratish bo'yicha so'rovi muayyan talablarga mos kelsa, davlatdan o'ziga kerakli mablag'larni olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- *xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish*, bunda mablag'lar maktablarga ular faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xarajatlar, ya'ni bino va inshootlarni saqlash, joriy remont, xodimlar mehnatiga haq to'lash kabilarga sarflangan resurslar hajmi doirasida ajratiladi ("xarajatli" deb ataluvchi bu usul bugungi kunga qadar mamlakatdagi davlatga qarashli ijtimoiy soha muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida ustuvor darajada qo'llanib kelinmoqda);

- *formula asosida moliyalashtirish*, bunda moliyaviy resurslar har bir maktab uchun belgilangan va to'g'ri qo'llaniladigan mezonlar tizimiga muvofiq ajratiladi. Moliyalashtirish formulasi:

– har bir maktabga ajratiladigan resurslar miqdorini;

– maktabga ajratiladigan resurslar miqdorini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu paragrafning mazmunini bayon qilish uchun avvalo ta'lim tizimida o'quvchi soniga (jon boshiga) qarab moliyalashtirish nima? degan savolga aniq va ravshan javob berish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalarini jon boshiga (o'quvchi soniga ko'ra) moliyalashtirish

bir o'quvchiga nisbatan o'rnatilgan xarajat me'yori, o'quvchilar soni hamda ta'lim muassasalarining xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsientlarga asoslangan ta'lim muassasalari xarajatlarini aniqlash va shunga ko'ra mablag' ajratish tizimidir.

Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa MDH mamlakatlarida (Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston) ta'lim muassasalariga moliyaviy mablag'lar bir o'quvchiga nisbatan (jon boshiga qarab) beriladi. Odatda, moliyalashtirish formulasining asosini *o'zgaruvchilar* tashkil qiladi, ular asosida quyidagilar uchun moliyaviy mablag'larning miqdori aniqlanadi va hisob-kitob qilinadi²:

(1) o'quvchilarning bazaviy ta'lim olishiga, bunda moliyalashtirish formulasi maktabning turli sinflari va turlarida o'qitishning turli qiymatlarini aks ettiruvchi mos koeffitsientlarni o'z ichiga olishi mumkin;

(2) alohida o'quvchilar tomonidan yoki alohida maktablarda fanlarni chuqurroq o'rganishga xarajatlarni qoplash uchun;

(3) ta'limda past ijtimoiy-iqtisodiy maqom, tilni yaxshi bilmaslik, nogironlik, rivojlanishda ortda qolish bilan bog'liq o'quvchilarning qo'shimcha ehtiyojlarini qoplash uchun;

(4) maktab joylashgan yeri va hajmining turli jihatlari - maktab va u xizmat ko'rsatadigan aholi punktining bir-biridan uzoqda joylashganligi, maktab xonalari va maktabga qarashli yer

¹ Nurmuxamedova B. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. BMTTD - T.: «InfoCapitalGroup». 2012. 24-b.

² "Umumta'lim maktab rahbarlari uchun moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha amaliy qo'llanma". T.: 2007. XTV/USAID. 22-bet.

uchastkasi maydonining holati va boshqa fizik jihatlar bilan bog'liq ehtiyojlarini qoplash uchun va boshq.

Moliyalashtirish formulasiga yuqorida sanab o'tilgan o'zgaruvchilarni kiritish resurslarni barcha o'quvchilar o'rtasida teng taqsimlashga imkon beradi, ya'ni tenglik talablariga javob beradi. Biroq resurslarni o'quvchilar soniga qarab taqsimlashning samaradorligini ta'minlash uchun muayyan ta'lim bosqichini (masalan, maktabgacha tarbiya, umumta'lim maktablari) tanlash, uning uchun zarur resurslar hajmi va bu resurslar qiymatini tahlil qilish natijalaridan kelib chiqish lozim, aks holda sarflanadigan resurslar miqdori va ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar o'rtasida bog'liqlik yo'qoladi.

Maktab ta'limida byudjet mablag'larini taqsimlashning *"pul o'quvchining ortidan boradi"*gan tamoyilga asoslangan jon boshiga qarab moliyalashtirishdan iborat muqobil mexanizmini tanlash quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan:

- ta'limga ajratilgan byudjetni taqsimlash jarayonining shaffofligi, ob'ektivligi va aniqligini oshirish, muassasa byudjetini tuzish va tasdiqlash jarayonlarida turli xil kelishuvlar, muvofiqlashtirishlarga ketadigan vaqtni kamaytirish;

- xarajatlar asosida moliyalashtirish tamoyilidan voz kechish;

- mahalliy darajada (masalan, tuman, shahar miqyosida) bu tizimning joriy etilishi maktab yoshidagi aholi sonining sekin-asta kamayib borishi natijasida maktablar tarmog'ini qayta tarkiblash (restrukturizatsiya qilish) dasturi doirasida moliyaviy mablag'larni maktablar o'rtasida taqsimlash tizimini yaxshilashi mumkin;

- maktab darajasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga (ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida), ota-onalar hamda Vasiylik kengashlari oldidagi hisob berish tizimini yaxshilashga xizmat qiladi.

Eng oddiy shaklda o'quvchi soniga ko'ra moliyalashtirish usulida byudjet mablag'larining har bir muassasaga taqsimlanadigan aniq summasi faqatgina shu muassasadagi mavjud o'quvchilar soniga bog'liq: har bir maktab har bir o'quvchisi uchun bir xil summadagi mablag'ni oladi. Amaliyotda bu formula, odatda, maktabning joylashgan o'rni, maktabning tipi kabi bir nechta omillarni hisobga oluvchi koeffitsientlar asosida korrektirovka qilinadi. Ta'lim tizimlarida moliyalashtirish formulasi qo'llanilayotgan mamlakatlarda formulani ishlatishda qaysi koeffitsientlarni qo'llash lozimligi va turli omillarni hisobga olish uchun ular soni nechta bo'lishi kerakligi to'g'risida yagona yondoshuv mavjud emas. Masalan, Rossiyada moliyalashtirish formulasini qo'llash amaliyotida quyidagi omillarni hisobga oluvchi koeffitsientlar ishlatiladi¹:

- maktablarning joylashgan o'rnidagi farqlar (shahar va qishloq maktablari);
- maktablarning hajmlaridagi farqlar;
- ta'lim turidagi farqlar (kasb-hunar, umumta'lim, boshlang'ich va sh.k.);
- aqliy rivolanishda ortda qolgan bolalarni o'qitish maxsus dasturlarini amalga oshirish;
- salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan bolalarni uyda o'qitish;
- alohida fanlarni chuqurlashtirib o'qitish dasturlarini amalga oshirish.

Garchi tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash natijasida alohida olingan maktab oladigan mablag'lar summasi o'quvchilar sonidan tashqari, boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'lsada, har xolda, maktablar, hajmlari ob'ektivlik va shaffoflik tamoyillari asosida aniqlangan pul mablag'lariga ega bo'ladilar. Lekin, formulani ishlab chiqishda shunga alohida e'tibor berish kerakki, formulada tuzatuvchi koeffitsientlar soni qancha ko'p bo'lsa, formula tushunish va qo'llash uchun shuncha murakkablashadi, bu esa jon boshiga moliyalashtirish tamoyillariga ziddir.

¹ Финансирование школьного образования в Российской Федерации: опыт и проблемы. Всемирный банк/НФПК. М.: Изд. «Алекс», 2010. 16-стр.

14.2. Ta'lim tizimida jon boshiga qarab moliyalashtirishni tadbqiq etishning ilk tajribalari

O'tish iqtisodiyotidagi ko'pchilik mamlakatlar kabi, O'zbekiston ta'lim tizimida mablag'larni jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdagi muammolar bu muassasalarda byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashning qaror topgan an'anaviy tartiblari bilan bog'liq, xususan:

- maktablar o'z byudjetini (xarajatlar smetasini) sinflar soni, o'quv soatlari soni, kvadrat-metrlarda hisoblanuvchi yer maydoni hajmi kabi natural va qiymat me'yorlari asosida, ish natijalariga bog'liq bo'lmagan tarzda o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqadi;
- maktab tomonidan hisoblab chiqarilgan byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj mahalliy moliya organlari tomonidan ko'rib chiqib tasdiqlash chog'ida mahalliy byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda korrektirovka qilinadi;
- natijada ta'lim muassasasiga ajratiladigan haqiqiy mablag'lar hajmi odatda maktab tomonidan hisoblangan ehtiyoj hajmidan ancha past bo'ladi;
- har bir maktab uchun tasdiqlangan byudjet smetaning xarajat moddalari bo'yicha qat'iy taqsimlangan holda beriladi;
- xarajatlarning G'aznachilik organlari orqali to'lash tartibi ham mablag'larning bir moddadan boshqasiga o'tkazilishini cheklaydi.

Bunday moliyalashtirish tizimining oqibati maktablarni boshqarish jarayonida mustaqillikning cheklanib qolishida namoyon bo'ldi – maktab tuzilishini va uning xodimlari tarkibini tartibga soluvchi me'yorlar, shuningdek, qat'iy moddalar bo'yicha mablag'larning ajratilishi maktablarga mablag'larni qayta taqsimlashda etarli qayishqoqlikni bermaydi, shuning uchun ular ta'lim samaradorligi, sifati va natijalarini oshirish maqsadida o'z resurslarini boshqarishni yaxshilashda cheklangan imkoniyatlar va juda kichik rag'batlantirish dastaklariga ega. Hattoki mablag'larni tejashga erishilsa ham, bu sinflarni birlashtirish yoki o'qituvchilar yuklamasini ko'paytirish tufayli bo'lib, keyingi yillarda esa maktab kamroq mablag' oladi.

Bu va shu kabi byudjet mablag'larini shakllantirish va taqsimlash tartiblari maktab ma'muriyatining "harakat erkinligi"ni cheklaydi, uzoq muddatli strategik vazifalarning bajarilishini ta'minlamaydi. Mazkur vaziyat O'zbekiston hukumatini ham ta'limga ajratilayotgan byudjet mablag'larini taqsimlashning jon boshiga moliyalashtirish tamoyiliga asoslangan "pul o'quvchining ortidan boradi"gan muqobil va shaffof mexanizmini ishlab chiqish va tadbqiq etishga undadi.

Maktab ta'limini boshqarish va moliyalashtirish tizimidagi islohotlarning muhimligi va zarurligini chuqur angab etgan holda, 2005 yilda Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida tajribaviy loyihani boshlash haqidagi qaror qabul qilingan edi. Tajribaviy loyihaning maqsadi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi ta'lim muassasalari darajasida ta'lim byudjetini shakllantirish hamda resurslarni boshqarishning muqobil mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba o'tkazish hisoblanadi.

Tajriba natijalari va olingan saboqlar ta'limni moliyalashtirish sohasida milliy siyosatni ishlab chiqishda qo'llanilishi ko'zda tutildi. Ushbu tajribaviy loyiha xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSh Agentligining texnik va moliyaviy ko'magida O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan amalga oshirildi.

Tajribaviy loyihani haqiqatda amalga oshirish 2005 yilning 1 yanvaridan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining 2005 yil 20 yanvardagi "2005 yilda Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida umumta'lim muassasalarini jon boshiga qarab moliyalashtirish usulini takomillashtirish bo'yicha tajriba o'tkazish to'g'risida"gi 18/1 sonli Qarori bilan boshlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrda 251-son Qarorining qabul qilinishi (bu Qaror bilan "Maktab ta'limini rivojlantirish" loyihasining texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari (TER) ishlab chiqildi), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qaroriga o'zgartirishlar kiritilishi,

bosqichma-bosqich davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrdaqi "O'zbekiston Respublikasining 2008 yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-744-son Qarorining, 2009 yil 12 dekabrdaqi "O'zbekiston Respublikasining 2010 yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1245-son Qarorining qabul qilinishi bilan umumta'lim maktablarining moliyaviy masalalarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar ta'lim muassasalarining maqomi, xarajatlarini rejalashtirish va to'lovlarini amalga oshirish, xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash, hisob va hisobotni yuritish, o'quvchi soniga ko'ra o'rnatilgan bazaviy normativlar asosida muassasa byudjetini rejalashtirish masalalariga taalluqli bo'lib, ta'lim tizimini bosqichma-bosqich jon boshiga moliyalashtirish tizimini joriy etishga shart-sharoit yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Jahon banki yordamida amalga oshirilayotgan Investitsion loyihaning komponentlaridan biri "Ta'lim sohasida moliyalashtirish, byudjetni tuzish, boshqarish tizimlarini va buxgalteriya hisobini takomillashtirish" deb ataladi. Ushbu komponentning umumiy vazifasi "dasturning ikkinchi bosqichi davomida Buxoro viloyatida jon boshiga (o'quvchi soniga) moliyalashtirishni tadbiq etishda tayanch bo'lib hisoblangan jon boshiga (o'quvchi soniga) moliyalashtirish formulasini ishlab chiqish, tadbiq etish rejasini ishlab chiqish, o'quv kurslari uchun materiallar tayyorlash va boshqa zarur huquqiy va institutsional shart-sharoitlarni yaratishdan"¹dan iboratdir.

Mazkur Loyihani amalga oshirish doirasida Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 14 martdaqi 24/8-son Qo'shma Qarori ishlab chiqildi va qabul qilindi, ushbu qarorga muvofiq, Buxoro va Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahri umumta'lim muassasalari o'z byudjetlarini xarajatlarning bazaviy me'yorlari asosida rejalashtirish tartibiga o'tdilar.

O'zbekistonda ta'lim sektorida jon boshiga moliyalashtirish usulini bosqichma-bosqich va barcha hududlarda joriy etish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Barcha umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga, talabaga) mo'ljallangan xarajatlarning bazaviy normativlarini joriy etish shartlarini qat'iy belgilovchi hukumat qarorlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdaqi muhim qadam hisoblanadi. 1-jadvalda mamlakatimizda jon boshiga qarab xarajatlarni rejalashtirish tadbirlari xronologiyasi keltirilgan.

2010-2011 yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy o'quv yurtlari o'z xarajatlarini bir nafar talabani (o'quvchini) o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqib normativ rejalashtirish tizimiga o'tdilar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 22.03.2011 y. № 25/№ 08-son Qo'shma Qarorining qabul qilinishi va 2011 yil uchun bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqib o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xarajatlarni normativ rejalashtirish to'g'risidaqi Nizomning tasdiqlanishi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari byudjeti mablag'lari miqdorini jon boshiga moliyalashtirish asosida aniqlash borasida navbatdaqi qadam bo'ldi.

¹ "Maktab ta'limini rivojlantirish" loyihasining texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari materiallaridan.

Xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqib ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishga asoslangan jon boshiga moliyalashtirishni joriy etish bosqichlari¹

№	Joriy etilgan yil	Asos	Mintaqa (viloyat/shahar)	Muassasa turi
1	2008	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining "2008 yil uchun Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim muassasalarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 14.03.2008 y. №24/8-son Qo'shma Qarori	Buxoro, Farg'ona, Toshkent sh.	Umumta'lim maktablari
2	2009	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining "2009 yil uchun Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlari tasdiqlash to'g'risida"gi 16.04.2009 y. №24/8-son Qarori	Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent sh.	Umumta'lim maktablari
3	2010	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining 28.04.2010 y. № 34/№ 16, № 35/№ 15-son Qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining 14.04.2011 g. № 24/№ 8-son Qarori	Barcha mintaqalar	Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari
4	2010	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 20.08.2010 y. № 67/№ 329-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 26.08.2012 y. № 2136-son bilan ro'yxatga olingan	Barcha mintaqalar	Oliy ta'lim muassasalari
5	2011	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 22.03.2011 y. № 25/№ 08-son Qo'shma Qarori	Barcha mintaqalar	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari

Hozirgi vaqtda jon boshiga moliyalashtirish sharoitida ishlash uchun zarur tayyorgarlikdan o'tgan xodimlarga bo'lgan ehtiyoj Moliya vazirligi O'quv markazi, oliy ta'lim tizimidagi iqtisodchi xodimlar malakasini oshirish markazlari hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turli xalqaro loyihalar liniyalari bo'yicha qondirilmoqda. Shunga qaramasdan, o'zgarishlarga nisbatan tayyorgarlikni rag'batlantirish uchun hamkorlikdagi aniq faoliyat zarur.

¹ Nurmuxamedova B. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. BMTTD - T.: «InfoCapitalGroup». 2013. 31-b.

Xalkaro tajribaning ko'rsatishicha, yangi tizimning joriy etilishidan ko'riladigan ijobiy natijalar sezilarli bo'lishi uchun muayyan vaqt talab kilinadi.

14.3. Umumta'lim muassasalarida bir o'quvchiga o'rnatilgan bazaviy me'yorlar asosida muassasa byudjetini rejalashtirish va moliyalashtirish amaliyoti

Ta'limni boshqarish va moliyalashtirish tizimida islohotlarning zarurligi va muhimligini tushungan holda, shuningdek, ta'lim sohasidagi resurslarni boshqarish va taqsimlash mexanizmidagi asosiy kamchiliklarni (tartibga solishning qattiq me'yorlari, maktab resurslarini boshqarishdagi avtonomlikning mavjud emasligi, maktabga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishga bo'lgan qiziqishning sustligi va sh.k.) anglab etgan holda, hukumatimiz tomonidan ta'limni moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish sari muhim qadam qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilga makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-744-son Qarorining qabul qilinishi va unda "...Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1 o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, umumta'lim maktablari va kasb-xunar kollejarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish"¹ bo'yicha vazifalarning belgilanishi mamlakatning ayrim hududlaridagi umumta'lim muassasalari byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartiblarini joriy etish jarayonining boshlanishiga turtki bo'ldi.

744-qarorning 17-bandida belgilangan vazifalarni bajarish doirasida 2008 yil 14 martda Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2008 yilda Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 24/8-son Qo'shma Qarori imzolandi, ushbu qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari;
- Bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida umumta'lim maktablari byudjetini hisoblash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini hisoblab chiqish uchun keng ko'lamli tahliliy ish olib borildi. Bunda hududlardagi:

- umumta'lim maktablari;
- ta'lim pog'onalari (1-4, 5-9, 10-11-sinflar);
- ta'lim xizmatlarining turlari (uyda ta'lim berish, kuni uzaytirilgan guruhlar, maktab qoshidagi internatlar) kesimida byudjet xarajatlari tahlil qilib chiqildi.

Olib borilgan hisob-kitoblar asosida, shuningdek, tegishli byudjetlarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, 2008 yil uchun Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarining quyidagi miqdorlari (2-jadval) belgilandi (bu me'yorlar viloyatlar bo'yicha, har bir viloyatda - ta'lim pog'onalari bo'yicha, uyda ta'lim oluvchilar bo'yicha va maktab qoshidagi internatlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi):

"Bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida umumta'lim maktablari byudjetini hisoblash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar"ga muvofiq, umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari tarkibiga quyidagi xarajat turlari kiritilgan:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabr PQ-744-son Qarori, 17-band, 1-xatboshi

**Buxoro, Farg‘ona viloyati va Toshkent shahri umumta’lim maktablarida 2008 yil uchun
bir o‘quvchiga bazaviy xarajatlar me‘yorlari¹**

№	Ko‘rsatkichlar		shartli belgilar	summasi, so‘mda		
				Buxoro viloyati	Farg‘ona viloyati	Toshkent shahri
1.	Umumta’lim maktablari bo‘yicha	1-pog‘ona (1-4-sinflar)	BNZ1	172040	163187	163992
		2-pog‘ona (5-9-sinflar)	BNZ2	206 484	195973	196467
		3-pog‘ona (10-11-sinflar)	BNZ3	218 906	207761	208015
2.	Kuni uzaytirilgan guruhlar bo‘yicha		BNZ4	62302		
3.	Uyda ta’lim oluvchilar bo‘yicha		BNZ5	1117782	1117782	1239734
4.	Maktab qoshidagi internatlar bo‘yicha		BNZ6	431433	470307	

– O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me‘yoriy xujjatlariga muvofiq pedagogik xodimlar, ma‘muriy, o‘quv-yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish Direktor jamg‘armasi, yagona ijtimoiy to‘lov;

– umumta’lim muassasalarini saqlash bilan bog‘liq boshqa xarajatlar (kommunal xizmatlarni to‘lash, joriy remont, materiallar solib olish va bshq.).

Shuningdek, bazaviy xarajatlar me‘yorlariga 2008 yil byudjeti parametrlarida ko‘zda tutilgan hajmlarda alohida xarajat turlari bo‘yicha indeksatsiya summalari kiritilgan.

Bir o‘quvchiga bazaviy xarajatlar me‘yorlari tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritilmagan:

- ko‘mir sotib olish va tashib keltirish;
- “Ziyo-net” ta’lim tarmog‘iga ulanish va undan foydalanganlik uchun oylik abonentlik to‘lovi, shuningdek, umumta’lim maktablarini telefonlashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvardagi 33-sonli “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarga mo‘ljallangan Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq davriy nashrlarga obuna;

- kompyuter sinflarga servis xizmat ko‘rsatish;
- o‘quv-laboratoriya sinflari uchun materiallar sotib olish;
- barcha turdagi kommunal xizmatlar iste‘moli hisoblagichlarini sotib olish va o‘rnatish;
- asosiy vositalarni solib olish;
- kapital ta‘mirlash.

Yuqorida sanab o‘tilgan xarajatlar muassasalarga manzilli ro‘yxatlar asosida har bir ta’lim muassasasining ehtiyojiga ko‘ra, xalq ta’limi hududiy organlari va moliya organlari tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat asosida ajratiladi.

Bundan tashqari, qonun tomonidan alohida iqlim sharoitlari uchun ish haqiga hududiy koeffitsientlar o‘rnatilgan hududlarda joylashgan umumta’lim maktablari smetalarida bazaviy

¹ Moliya vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining 2008 yil 14 mart “Buxoro, Farg‘ona viloyati va Toshkent shahri umumta’lim maktablarida 2008 yil uchun bir o‘quvchiga bazaviy xarajatlar me‘yorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 24-son va 8-son qo‘shma Qarori 1-ilovasidan olingan

xarajatlar me'yorlari bo'yicha aniqlangan mablag'larga qo'shimcha ravishda bu to'lovlarni o'rnatilgan tartibda to'lash uchun mablag'lar ko'zda tutiladi.

Bir o'quvchiga moliyalashtirish me'yorini hisoblashda viloyatlar bo'yicha, har bir viloyatda – maktablarning masshtabi (ulardagi o'quvchilar soniga ko'ra) va maktabni isitish tizimiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan quyidagi tuzatuvchi koeffitsientlar ishlatiladi:

- maktab masshtabi koeffitsienti;
- markaziy yoki gazli isitish tizimiga ega maktablar uchun koeffitsient.

2008 yil uchun bir o'quvchiga moliyalashtirish me'yorini hisoblashda qo'llanilgan tuzatuvchi koeffitsientlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan (15.3-jadval):

15.3-jadval

Umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorini oshiruvchi koeffitsientlar¹

№	Ko'rsatkichlar		koeffitsientlar		
			Buxoro viloyati	Farg'ona viloyati	Toshkent shahri
1.	Maktabning masshtabiga ko'ra (Kmsh), o'quvchi soni	160 dan 400 gacha	1,307	1,417	1,346
		401 dan 880 gacha	1,093	1,100	1,107
		880 dan yuqori	1,0	1,0	1,0
2.	Isitish tipiga ko'ra (Kto)	Gaz bilan isitish	1,006	1,012	1,008
		Markaziy isitish	1,056	1,040	1,039

Shunday qilib, har bir umumta'lim maktabi uchun 2008 yilda byudjet ajratmalarining umumiy summasi quyidagi formula asosida hisob-kitob qilindi²:

$$BSh = (BNZ1 \cdot N1 + BNZ2 \cdot N2 + BNZ3 \cdot N3) \cdot Kmsh \cdot Kto + BNZ4 \cdot N4 + BNZ5 \cdot N5 + BNZ6 \cdot N6 \quad (15.1)$$

bunda,

BSh – maktab byudjeti;

BNZ1, BNZ2, BNZ3 – ta'lim pog'onalari bo'yicha bazaviy me'yori;

N1, N2, N3 – ta'lim pog'onalari bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

Kmsh – maktab masshtabi koeffitsienti;

Kto - markaziy yoki gazli isitish tizimiga ega maktablar uchun koeffitsient;

BNZ4 – kuni uzaytirilgan guruhdagi bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yori;

N4 – kuni uzaytirilgan guruhga qatnaydigan o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

BNZ5 – uyda ta'lim berish bo'yicha bazaviy me'yori;

N5 – uyda ta'lim oluvchi o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

BNZ6 – maktab qoshidagi internatda yashaydigan har bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yori;

N6 – maktab qoshidagi internatda yashaydigan o'quvchilarning o'rtacha yillik soni.

Kuni uzaytirilgan guruhlar(KUG)ni saqlash xarajatlari bunday guruhlar (bunda KUGdagi o'quvchilar soni 25 tadan kam bo'lmasligi kerak) mavjud bo'lgandagina hisob-kitob qilinadi.

¹ Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 14 mart "Buxoro, Farg'ona viloyati va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida 2008 yil uchun bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 24-son va 8-son qo'shma Qarori 2-ilovasidan olingan

² Chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun formula simvollarini rus tilidagi matndan o'zgarishsiz keltirildi.

KUGdagi bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yoriga KUGga qatnaydigan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan o'quvchilarni ovqatlantirish xarajatlari kiritilgan bo'lib, ularning soni KUGga qatnovchi o'quvchilar sonining 15 foizidan oshmasligi kerak.

Nogiron bolalarga uyda dars beruvchi o'qituvchilarga ish haqi to'lash (yagona ijtimoiy to'lovni ham hisobga olgan holda) va yo'l haqi qiymatiga oylik kompensatsiya to'lash xarajatlari ushbu maktabda bu toifadagi o'quvchilar bo'lgan taqdirda ularning o'rtacha yillik sonini uyda o'qitish bazaviy xarajat me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Maktab qoshidagi internatda yashaydigan bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yori umumta'lim maktabi qoshida uzoq joylarda yashovchi bolalarning yashashi uchun mo'ljallangan internat mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Bunda maktab qoshidagi internatda yashovchi bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yori maktab-internatdagi bolalarni saqlash uchun qonun bilan o'rnatilgan to'lov miqdorini va maktab-internatda yashovchi o'quvchilar kontingentining 15 foizdan ko'p bo'lmagan qismini ushbu to'lovdan ozod qilishni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Umumta'lim maktablarining ayrim xarajatlari bo'yicha tasdiqlangan kreditor (debitor) qarzdorligi mavjud bo'lsa va uni qoplash uchun ularda byudjetdan tashqari manbalar bo'lmagan taqdirda, bazaviy xarajat me'yorlari asosida hisoblab chiqarilgan xarajatlar hajmi tuman (shahar, viloyat) mahalliy byudjetning tasdiqlangan parametrlari doirasida ana shu qarzdorlik summasiga oshirilishi (kamaytirilishi) mumkin.

Yangi sharoitlarga, ya'ni 2008 yildan boshlab joriy qilingan tartiblarga moslashish (adaptatsiya) davrida amaldagi moliyalashtirish tizimidagi umumta'lim maktablari moliyalashtirish hajmlari bilan jiddiy tafovut bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ayrim hollarda, hududiy moliya organlariga alohida olingan maktablarning bazaviy me'yorlar asosida hisoblangan byudjetini mablag'lar hajmining 10 foizi doirasida korrektyrovka qilishga ruxsat etildi.

Bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida byudjet mablag'larini rejalashtirish va moliyalashtirish tartibiga o'tgan umumta'lim maktablari rahbarlari quyidagi huquqlarga egadirlar:

- maktabning samarali faoliyat qilishini ta'minlash maqsadida mehnat haqi fondi hamda namunaviy shtatlar asosida aniqlangan xodimlar soni doirasida mustaqil ravishda zarur lavozimlarni o'rnatish;

- bazaviy xarajatlar me'yorlari doirasida maktabning aniq ehtiyojidan kelib chiqib xarajatlarni rejalashtirish.

Xarajatlar smetasini, shtatlar jadvalini tuzish va pedagogik xodimlarni tarifikatsiyalash umumta'lim maktabining rahbari va bosh buxgalteri (buxgalteri) bilan birga qat'iy o'rnatilgan tartibda va hajmlari bazaviy xarajat me'yorlari asosida aniqlangan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mablag'larni taqsimlash qat'iy ravishda quyidagi ketma-ketlikda o'rnatiladi:

- ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov;
- kommunal xarajatlar;
- boshqa joriy xarajatlar va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 2009-2013 yillarda respublikaning barcha umumta'lim maktablari byudjetlari bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida aniqlandi va ular smetalarini rejalashtirishda asos qilib olindi. Xususan, Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qo'shma Qarori (2014 yil 26 fevral №14/5-sonli) bilan 2014 yil uchun barcha umumta'lim maktablari uchun 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari tasdiqlandi (15.4-jadval).

2014 yil uchun umumta'lim maktablarining bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari¹

№	Mintaqalar	Umumta'lim sinflar bo'yicha		4-guruh bo'yicha	KUGlar bo'yicha	Uyda ta'lim oluvchilar bo'yicha	Maktab qoshidagi internat bo'yicha
		1-pog'ona (1-4 s.)	2-pog'ona (5-9 s.)				
		BNZ ₁	BNZ ₂	BNZ ₄	BNZ ₅	BNZ ₆	BNZ ₇
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	532 647	681 091	32 031	301 526	4 868 306	-
2.	Andijon viloyati			32 962			-
3.	Buxoro viloyati			32 380			-
4.	Jizzax viloyati			32 869			-
5.	Qashqadaryo viloyati			32 066			1 757 423
6.	Navoiy viloyati			35 459			-
7.	Namangan viloyati			33 097			-
8.	Samarqand viloyati			32 118			2 021 545
.	Surxondaryo viloyati			31 991			-
0.	Sirdaryo viloyati			33 510			-
1.	Toshkent viloyati			35 333			-
2.	Farg'ona viloyati			32 681			-
3.	Xorazm viloyati			32 135			-
4.	Toshkent shahri			35 539			-

Bu me'yorlar respublikaning barcha hududlaridagi umumta'lim maktablarining 2014 yil uchun maktab byudjetini aniqlash va xarajatlar smetasini tuzishda asos qilib olindi.

2014 yil uchun maktab byudjetini hisoblashda viloyatlar bo'yicha, har bir viloyatda – maktablarning masshtabi (ulardagi o'quvchilar soniga ko'ra), maktabni ititish tizimi va sinf pog'onalariga ko'ra bir-biridan farq qiladigan quyidagi tuzatuvchi koeffitsientlar ishlab chiqildi (15.5-jadval).

¹ Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qo'shma Qarori, 2014 yil 26 fevral №14/5-sonli. 1-ilova

2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorini oshiruvchi koeffitsientlar¹

№	Mintaqalar	Isitish turiga ko'ra (K _{to})			Sinf pog'onalari bo'yicha	
		gaz	markaziy	ko'mir yoki b.	K ₁	K ₂
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,263	2,292	1,0	1,006	1,019
2.	Andijon viloyati	1,065	1,218			
3.	Buxoro viloyati	1,11	1,945			
4.	Jizzax viloyati	1,164	1,595			
5.	Qashqadaryo viloyati	1,081	1,085			
6.	Navoiy viloyati	1,196	1,878			
7.	Namangan viloyati	1,099	1,143			
8.	Samarqand viloyati	1,082	1,289			
9.	Surxondaryo viloyati	1,078	1,194			
10.	Sirdaryo viloyati	1,222	1,252			
11.	Toshkent viloyati	1,263	1,336			
12.	Farg'ona viloyati	1,139	1,399			
13.	Xorazm viloyati	1,139	1,963			
14.	Toshkent shahri	1,337	1,582			

Shunday qilib, respublikadagi har bir umumta'lim maktabi uchun 2014 yilda byudjet ajratmalarining umumiy summasi quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi²:

$$BSh = (BNZ_1 * N_1 * K_1 + BNZ_2 * N_2 * K_2) * K_{msh} + BNZ_3 + BNZ_4 * N * K_{to} + BNZ_5 * N_3 + BNZ_6 * N_4 + BNZ_7 * N_5 \quad (15.2.)$$

bunda,

BSh – maktab byudjeti;

BNZ₁, BNZ₂ – ta'lim pog'onalari bo'yicha bazaviy xarajatlar me'yori;

N₁, N₂ – ta'lim pog'onalari bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

K₁, K₂ – ta'lim pog'onalari bo'yicha qishloq hududlarida joylashgan umumta'lim maktablarida horijiy tillar o'qituvchilariga oylik ustama haqlari o'rnatilishi bilan bog'liq tuzatuvchi koeffitsient;

N – o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

K_{msh} – maktab masshtabi koeffitsienti;

K_{to} – markaziy yoki gazli isitish tizimiga ega maktablar uchun koeffitsient;

BNZ₃ – ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi va xo'jalik xodimlarini saqlash bo'yicha bazaviy me'yor;

BNZ₄ – 4-guruh xarajatlari bo'yicha bazaviy me'yor;

BNZ₅ – kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar bo'yicha kuni uzaytirilgan guruhdagi bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yori;

N₃ – kuni uzaytirilgan guruhga qatnaydigan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

BNZ₆ – uyda ta'lim berish bo'yicha bazaviy me'yor;

¹ Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qo'shma Qarori, 2014 yil 26 fevral №14/5-sonli. 3-ilova

² Chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun formula simvollarini rus tilidagi matndan o'zgarishsiz keltirildi.

N_4 – uyda ta’lim oluvchi o’quvchilarning o’rtacha yillik soni;

BNZ_7 – maktab qoshidagi internatda yashaydigan har bir o’quvchiga bazaviy xarajat me’yori;

N_5 – maktab qoshidagi internatda yashaydigan o’quvchilarning o’rtacha yillik soni.

2014 yil uchun o’rnatilgan tartib bo’yicha kuni uzaytirilgan guruhlar(KUG)ni saqlash xarajatlari bunday guruhlar mavjud bo’lganda va ularda o’quvchilar soni (2008 yil uchun yuqorida bayon qilganimizdan farqli ravishda) 30 tadan kam bo’lmaganda hisob-kitob qilinadi. KUGdagi bir o’quvchiga bazaviy xarajat me’yoriga KUGga qatnaydigan kam ta’minlangan oilalardan chiqqan o’quvchilarni ovqatlantirish xarajatlari kiritilgan bo’lib, ularning soni KUGga qatnovchi o’quvchilar sonining 15 foizidan oshmasligi kerak.

2.2-formulada keltirilgan K_{msh} – maktab masshtabi koeffitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{msh} = K * S_n / S_{sh} \quad (15.3.)$$

bunda,

K_{msh} – maktab masshtabi koeffitsienti;

S_n – sinflarning to’liqlilik me’yori - “35”;

S_{sh} – maktabdagi sinflarning o’rtacha to’liqliligi;

K – sinflarning o’rtacha to’liqliligi qishloq hududlarida 20 ta o’quvchidan, boshqa hududlarda 25 ta o’quvchidan kam bo’lganda qo’llaniladigan “0,90” ga teng bo’lgan hisoblangan koeffitsient.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olib, Toshkent shahrida joylashgan, markaziy isitish tizimiga ega bo’lgan 121-son umumta’lim maktabining umumiy byudjetini hisoblaymiz. Ushbu maktab bo’yicha bizga quyidagi ma’lumotlar ma’lum:

15.6-jadval

121-son umumta’lim maktabining asosiy ko’rsatkichlari

№	Ko’rsatkichlar	01.01.2014 holatiga	01.09.2014 holatiga
1.	Sinflar soni, sh.j.	36	34
	1-4 sinflar	16	15
	5-9 sinflar	20	19
2.	O’quvchilar soni, sh.j.	1160	1045
	1-4 sinflarda	560	480
	5-9 sinflarda	600	565
3.	Kuni uzaytirilgan guruhlar soni	4	4
	undagi o’quvchilar soni	124	136
4.	Uyda ta’lim oladiganlar soni	2	4

1.Dastlab o’quvchilar (N_1 , N_2), sinflar (maktabda sinflarning o’rtacha to’liqliligini aniqlash uchun), uyda ta’lim oluvchilar(N_5)ning o’rtacha yillik sonini, shuningdek, kuni uzaytirilgan guruhlariga qatnovchi kam ta’minlangan oilalardan chiqqan bolalar (N_4) sonini (kontingentning 15 foizi) hisoblab chiqaramiz. Hisobkitob natijalarini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Maktab kontingentini hisoblashning hisob-kitob natijalari

№	Ko'rsatkichlar	simvol	soni
1	2	3	4
1.	Sinflarning o'rtacha yillik soni		35
2.	O'quvchilarning o'rtacha yillik soni, sh.j.	N	1122
	1-4 sinflarda	N ₁	533
	5-9 sinflarda	N ₂	588
3.	Kuni uzaytirilgan guruhlardagi o'quvchilarning o'rtacha yillik soni		128
	Undan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan o'quvchilar soni (str3*15/100)	N ₃	19
4.	Uyda ta'lim oluvchilarning o'rtacha yillik soni	N ₄	3

2.Endi maktab masshtabiga ko'ra koeffitsientni topish uchun maktab bo'yicha sinflarning o'rtacha to'liqliligini aniqlaymiz. Buning uchun maktab bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik sonini sinflarning o'rtacha yillik soniga bo'lamiz, bizning misolimizda bu ko'rsatkich (1122/35) 32 ga teng bo'ldi. Endi 2.3-formula yordamida K_{msh} ni aniqlaymiz (formuladagi K hisoblangan ko'rsatkich, sinflarning to'liqliligi 25 ta o'quvchidan ko'p bo'lganligi uchun qo'llanilmaydi), bizning misolimizda u 1,09 ga teng bo'ldi:

$$K_{msh} = 35 / 32 = 1,09$$

3.Maktab byudjeti (BSh) summasini hisoblab chiqarish uchun bizga "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizom"da keltirilgan quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash kifoya:

BNZ₁ – 532 647 so'm; BNZ₂ – 681 091 so'm; K_{to} – 1,582; BNZ₃ – 186 576 390 so'm; BNZ₄ – 35 539 so'm; BNZ₅ – 301 526 so'm; BNZ₆ – 4 868 306 so'm.

Shuningdek, "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizom"da 2.1-formuladagi BNZ₃ – ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi va xo'jalik xodimlarini saqlash bo'yicha bazaviy me'yorlar keltirilgan bo'lib, ular sinflarning soniga ko'ra tabaqalashtirilgan (15.8-jadval):

Ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi va xo'jalik xodimlarini saqlash bo'yicha bazaviy me'yorlar¹

№	Sinflar soni	BNZ₃
1.	7 dan 10 gacha	80 321 254
2.	11 dan 13 gacha	110 875 488
3.	14 dan 16 gacha	120 531 668
4.	17 dan 22 gacha	136 674 957
5.	23 dan 29 gacha	169 894 874
6.	30 dan 39 gacha	186 576 390
7.	40 dan yuqori	214 149 434

¹ Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2014 yil uchun umumta'lim maktablarida 1 o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini aniqlash va tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qo'shma Qarori, 2014 yil 26 fevral №14/5-sonli. 2-ilova

4. Maktab qoshidagi internatning yo'qligi tufayli 2.1-formulani quyidagi darajada soddalashtirish mumkin:

$$BSh = (BNZ_1 * N_1 * K_1 + BNZ_2 * N_2 * K_2) * K_{msh} + BNZ_3 + BNZ_4 * N * K_{to} + BNZ_5 * N_3 + BNZ_6 * N_4 \quad (15.4.)$$

Endi shu formula asosida bazaviy me'yorlar, tuzatuvchi koeffitsientlar va yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga ko'ra 2014 yilga mo'ljallangan №189-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi byudjetini hisoblab chiqaramiz:

$$BSh = (532\,647 * 533 * 1,006 + 681\,091 * 588 * 1,019) * 0,09 + 186\,576\,390 + 35\,539 * 1122 * 1,582 + 301\,526 * 19 + 4\,868\,306 * 3 = 332\,424,8 \text{ ming so'm.}$$

Shunday qilib, Toshkent shahrida joylashgan, markaziy isitish tizimiga ega bo'lgan, o'quvchilarining o'rtacha yillik soni 1122 tani tashkil qiluvchi umumta'lim maktabining 2014 yilga mo'ljallangan byudjetining umumiy summasi 332 424,8 ming so'mni tashkil qiladi. Xuddi mana shu summa maktab smetasining umumiy hajmini belgilab beradi va o'rnatilgan tartibda smetaning xarajat guruhlarini bo'yicha taqsimlanadi.

14.4. Xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan ta'lim tizimini moliyalashtirish modellari tavsifi

O'zbekiston Respublikasida moliyalashtirishning jon boshiga nisbatan qo'llaniladigan yangi usullarini tadbiq etish masalalarini o'rganishdan avval ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha xalqaro tajribani ta'lim muassasalariga ajratiladigan moliyaviy resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirish va ularni boshqarishdagi avtonomlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

1999 yildayoq YUNESKO tashkiloti Avstraliya, Angliya va Uels, AQSH va Kanada, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar misolida maktablarda me'yoriy moliyalashtirish tajribasining kompleks tahlili natijalarini e'lon qilgan edi (Rossalind Levacic, 1999)¹. Bu misollar ta'limni boshqarishda "to'liq nomarkazlashgan" yondoshuvning shakllanganligidan dalolat beradi va aynan shu yondoshuvlar ko'pchilik sobiq sotsialistik mamlakatlarda ta'lim muassasalarida jon boshiga qarab moliyalashtirish modellari ishlab chiqilishiga va tadbiq etilishiga asos soldi.

Ta'lim xizmatlari, boshqa bir qator ijtimoiy xizmatlar (masalan, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot) kabi, ancha qimmat turuvchi ijtimoiy ne'matlar qatoriga kiradi va yuqori malakali mehnat resurslarini, ma'lum moddiy-texnik bazani hamda tegishli moliyaviy resurslarni talab etadi. Dunyo mamlakatlarida ta'lim tizimi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 3 foizdan (AQSH da – 3,3%, Buyuk Britaniya da - 4,3%, Tojikistonda – 2,1 %, Ruminiya da – 3%) 6-7 foizgachasini (Ukraina da - 6%) tashkil qiladi. Ma'lumot uchun shuni aytib o'tish kerakki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan davlat xarajatlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismini tashkil qilmoqda. Ta'lim jarayoni va odamlar tafakkurining yuksalishi o'rtasidagi uzviylik haqida Prezident I.Karimov BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan Sammitidagi nutqida: "O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi"², - deb ta'kidlaydi.

Ko'pchilik (ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan) mamlakatlar ta'lim tizimlari davlatdan moliyalashtirish manbalarining ustunligi va bu sektordagi davlat muassasalarining ko'pligi bilan xarakterlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni moliyalash manbalari tarkibida 73 foizdan (Germaniya da) 99 foizgacha (Daniya da) qismini davlatga tegishli manbalar tashkil qiladi. Bu mamlakatlarda boshlang'ich va o'rta ta'lim asosan davlat mablag'lari

¹ Финансирование школьного образования в Российской Федерации: опыт и проблемы. Всемирный банк/НФПК. М.: Изд. «Алекс», 2010. 24-стр.

² Prezident I.Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi Xalq so'zi / 21.09.2010.

hisobidan moliyalashtiriladi, o'rta ta'limdan keyingi va oliy ta'limda esa nodavlat manbalari ustundir.

Aksariyat sobiq sovet respublikalarida va sobiq sotsialistik mamlakatlarda ta'lim tizimini nomarkazlashtirish sari harakatlar amalga oshirilmoqda. Ta'limni nomarkazlashtirish masalasiga ikki xil yondoshuv mavjud:

- mahalliy boshqaruv darajasida nomarkazlashuv;
- ta'lim muassasasi darajasida nomarkazlashuv.

Mahalliy boshqaruv darajasidagi nomarkazlashuv sharoitida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hududida joylashgan ta'lim muassasalari, mahalliy ta'lim tizimining bir qismi sifatida, mahalliy hamjamiyatga xizmat qiladi va mahalliy aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'z navbatida, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari mahalliy aholining ehtiyojlarini aniqlaydi va maktab tarmog'ini maqsadga muvofiq shakllantiradi, bunda ta'lim xizmatlarining hammabopligi va aholining o'quv muassasasini tanlashdagi adolatni ta'minlashga alohida ahamiyat beriladi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish darajasidagi nomarkazlashuv Polsha, Litva, Makedoniya, Serbiya, Slovakiya, Rossiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan model bo'lib, ta'lim muassasalarini boshqarishning bu mamlakatlarda tarixan qaror topgan shakllariga ayniqsa muvofiq keladi.

Ta'lim muassasasi darajasida nomarkazlashuv boshqarish nuqtai nazaridan kuchli, ma'lum avtonomlikka ega bo'lgan ta'lim muassasalarining faoliyat qilishini nazarda tutadi, odatda bu tashkilotlar moliyaviy, dasturiy va institutsional avtonomlik(mustaqillik)ka ega bo'lib, ularni zamonaviy menejment bo'yicha etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan professional direktorlar boshqaradilar. Ko'p hollarda bu muassasalar ota-onalarning, o'quvchilarning hamda o'qituvchi xodimlarning manfaatlariga javob beradilar, ularda mavjud pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy va ijtimoiy sharoitlar esa hamjamiyatdagi boshqa ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat bo'lishiga shart-sharoit yaratadi. Sobiq sovet respublikalardan Gruziya va Armanistonda ta'lim muassasasi darajasidagi nomarkazlashuvga erishilgan.

Qator mamlakatlarda (Polsha, Makedoniya, Gruziya, Armaniston kabi) ta'lim tizimlarining nomarkazlashuv jarayonlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, nomarkazlashuvning qaysi modelini tanlash mamlakatdagi siyosiy holatga, ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ustuvorliklarga bevosita bog'liqdir.

Nomarkazlashgan ta'lim amal qilishining moliyaviy jihatlariga kelsak, shuni ta'kidlash zarurki, asosan davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi butun ta'lim tizimini moliyalashtirish davlat moliyasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ham bu tizimda butun davlat moliyasiga xos bo'lgan tartib va qoidalar amal qiladi. Har qaysi davlatda ta'limni moliyalashtirish tizimi uni boshqarish tizimi bilan muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

Nomarkazlashuv sharoitidagi ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalalarini maktab darajasida nomarkazlashuvi hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish darajasida nomarkazlashuvi misolida ko'rib chiqamiz.

Maktab darajasida nomarkazlashgan ta'limni moliyalashtirishda maktab byudjeti maktabdagi bir o'quvchiga nisbatan hisoblangan ko'rsatkichlar asosidagi *formula* bo'yicha aniqlanadi. Maktab byudjetini aniqlab berishga xizmat qiluvchi va milliy (mamlakat bo'yicha yagona) yoki hududiy darajada ishlatiladigan bu formula bir qator omillarni, jumladan, maktabning xususiyati, joylashishi, xizmat ko'rsatilayotgan kontingentning o'ziga xosligini, boshqa ustuvorliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish darajasida nomarkazlashish sharoitida ham maktab byudjeti formula asosida aniqlanadi, shu bilan birga, ta'lim muassasalari uchun markaziy byudjetdan byudjet transfertlari ko'zda tutiladi, bunda hudud bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni qo'llash natijasida formula birmuncha sodda bo'lishi mumkin. Ta'lim tizimini to'liq moliyalashtirish maqsadida ular boshqa manbalardan ham foydalanishlari mumkin.

Formula asosida aniqlangan maktab byudjetining umumiy ta'limga ajratilgan mablag'lar tarkibidagi ulushi mamlakatlar bo'yicha ham, mamlakat ichidagi hududlar bo'yicha ham turlicha

bo'lishi mumkin, lekin hamma holatda ham maktab o'ziga formula asosida ajratilgan byudjetga o'zi egalik qiladi.

Ayrim mamlakatlarda jon boshiga moliyalashtirish formulalarini tadbiq etishning bir qator xususiyatlarini ko'rib o'tamiz.

Rossiya. Rossiya Federatsiyasida jon boshiga qarab me'yoriy moliyalashtirishni joriy qilish ta'lim tizimini modernizatsiyalash dasturi bilan belgilangan uni isloh qilishning asosiy moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Byudjetdan jon boshiga qarab moliyalashtirishga o'tish har bir o'quvchining qaerda yashashidan, u yashaydigan munitsipalitet¹ byudjetining imkoniyatlaridan va boshqa sharoitlardan qat'iy nazar, standart sifatdagi va hajmdagi ta'lim xizmatlarini olishni kafolatlaydi.

2003 yil 4 iyulda "О внесении изменений и дополнений в Федеральный закон "Об общих принципах организации законодательных (представительных) и исполнительных органов государственной власти субъектов Российской Федерации" №95-ФЗ-sonli Federal qonunning qabul qilinishi bilan federal, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayoni boshlandi. Ta'lim sohasiga bu Qonun umumiy ta'lim bo'yicha davlat kafolatlarini ta'minlash vakolatlarini munitsipal darajadan hududiy darajaga subventsiya² mexanizmi orqali ko'chirish natijasida o'zgartirish kiritdi. Eng oddiy shaklda subventsiya hajmi bir o'quvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar asosida aniqlanadi, o'z navbatida, o'rtacha xarajatlar o'tgan moliyaviy yildagi ta'lim muassasasining tipi bo'yicha qilingan haqiqiy xarajatlarni o'quvchilar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda munitsipalitetlar bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash orqali tekislanadi. Har bir munitsipal tuzilmada o'zining tuzatuvchi koeffitsienti qo'llaniladi, u esa munitsipalitet bo'yicha qilingan haqiqiy xarajatlarni o'rtacha (me'yoriy) xarajatlar asosida hisoblangan xarajat hajmiga bo'lish orqali hisoblab topiladi.

Mahalliy va maktab darajasida normativ printsipni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, normativ bo'yicha aniqlangan byudjet mablag'larini har bir maktabga etkazish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya *umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirish xarajatlari me'yorini hisoblash tartibini* o'z ichiga oladi³. Har bir munitsipal tuzilma uchun umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirish xarajatlari me'yori quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$H = 3\Pi + P(\text{учебн})$$

bunda: 3Π – munitsipal tuzilmada bir o'quvchiga nisbatan hisoblangan umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirish bo'yicha sinflarning turlari va ta'lim pog'onalari bo'yicha ish haqi xarajatlari;

$P(\text{учебн})$ – bir o'quvchiga nisbatan hisoblangan ta'lim jarayonini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar.

Bu formulada ZP quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$3\Pi = (a / d * 6 * 1,262 * 1,02 * 1,33 * 12) / m * 1,43 * w * c * p$$

bunda: a – bazaviy o'quv reja bo'yicha soatlar soni;

d – bir stavka ish haqi uchun soatlar soni, bunda umumiy ta'limning birinchi pog'onasi (1-4 sinflar) uchun – 20 soat, ikkinchi (5-9 sinflar) va uchinchi (10-11 sinflar) pog'onasi uchun – 18 soat belgilangan;

¹ Rossiyada ma'muriy-hududiy tuzilma (oblast, shahar, rayon)

² Yuqori budjetdan quyi budjetga aniq maqsadlar uchun beriladigan moliyaviy yordam shakli

³ Xarajat me'yorlarini hisoblash tartibi quyidagi qo'llanmada batafsil yoritilgan - «Использование нормативов при планировании и финансировании основных общеобразовательных программ: опыт практической реализации, методические рекомендации, комментарии», под редакцией Н.Г.Типенко. Центр фискальной политики. 2006 год.

д – munitsipal tuzilma bo'yicha YaTS bo'yicha o'rtacha tortilgan razryadga to'g'ri keluvchi ish haqi stavkasi (regionlarda regional tarif stavkasi qo'llanishi mumkin);

1,262 – yagona ijtimoiy soliq bo'yicha ajratmalar koeffitsienti;

1,02 – ish stajining (umumiy va pedagogik) ortishi, malaka toifasining o'zgarishi va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan mehnat haqining ortish koeffitsienti;

1,33 – ustama va qo'shimchalar hisobiga mehnat haqi fondining ortish koeffitsienti;

12 – yildagi oylar soni;

м – sinflarning me'yoriy to'liqligi;

1,33 – ma'muriy boshqaruv xodimlar, o'quv yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnat haqi fondining ortish koeffitsienti (adaptatsiya davrida 1,43 koeffitsient qo'llaniladi);

w – pedagogik xizmat qiymatining turli omillarga (sinflarni guruhlariga bo'lish, kuni uzaytirilgan guruhlarining mavjudligi, qo'shimcha ta'lim dasturlarining amal qilishi kabi) ko'ra qimmatlashuvi koeffitsienti;

c – pedagogik xizmat qiymatining sinflarning turlariga (umumta'lim, gimnaziya/litsey, maxsus) ko'ra qimmatlashuvi koeffitsienti;

p – region tomonidan joriy qilingan qo'shimcha ish haqi va regional ustama/qo'shimchalarni aks ettiruvchi regional qimmatlashuv koeffitsienti.

Ta'lim jarayonini ta'minlash xarajatlari (Ruchebn) ta'lim pog'onalari bo'yicha har bir o'quvchiga xarajatlar me'yori miqdoriga nisbatan foizlarda, avvalgi davr haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarga ko'rgazmali qurollarni, o'qitishning texnik vositalarini, o'qitish bilan bog'liq materiallarni, kantselyariya tovarlarini sotib olish xarajatlari kiradi.

Shunday qilib, bir o'quvchiga nisbatan umumiy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirish xarajatlari me'yori quyidagilar asosida aniqlanadi:

- pedagogik xizmatning standart (bazaviy) qiymati;
- pedagogik stavkalar va ma'muriy-boshqaruv hamda yordamchi xodimlar stavkalarining me'yoriy nisbati;
- ish haqi fondining va ustama/qo'shimchalar fondining me'yoriy nisbati;
- ta'lim jarayonini ta'minlash xarajatlari (ko'rgazmali qurollarni, o'qitishning texnik vositalarini, o'qitish bilan bog'liq materiallarni, kantselyariya tovarlarini sotib olish xarajatlari);
- pedagogik xizmatning qimmatlashuv koeffitsienti;
- regional qonunchilik asosida o'rnatiladigan me'yorlar (federal me'yorlarga qo'shimcha ravishda).

Armaniston. Jon boshiga moliyalashtirish yangi mexanizmini tadbiq etish Armaniston Respublikasi umumta'lim tizimida 1998 yildan boshlab amalga oshirib kelinayotgan tarkibiy islohotlarning muhim komponentlaridan biridir. Bu mexanizmga ko'ra, umumta'lim maktablarida o'quvchilar soniga nisbatan qo'llaniladigan yagona summa asosida moliyalashtirish amalga oshiriladi. Moliyalashtirishning yangi tizimini joriy etish 1998 yilda tajribaviy loyihani amalga oshirish bilan boshlandi. Mazkur dasturga Armanistonning turli marzlaridagi (hududiy bo'linmalari) 154 ta (mamlakatdagi jami maktablarning 10 foizi) maktab jalb qilindi. Maktablarning yangi moliyalashtirish tizimiga o'tishi bosqichma-bosqich kechdi va Armaniston hukumati tomonidan o'rnatilgan grafikka muvofiq 2004 yilda yakunlandi. Maktablarning jon boshiga moliyalashtirish mexanizmiga o'tishi ular yuridik maqomlarining o'zgarishi bilan birga amalga oshdi, ya'ni ular byudjet tashkiloti maqomidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan davlat notijorat tashkiloti sifatida qayta tashkil etildilar. Bu maqom maktablarga banklarda o'z hisobraqamini ochish, alohida mulkka ega bo'lish imkonini berdi, shuningdek, ular o'z byudjetlarini tuzish, u bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'larini tasarruf etishda mustaqillikka ega bo'ldilar.

Maktablar mustaqilligining oshishi bilan bir qatorda, yangi moliyalashtirish mexanizmining joriy etilishi yangi boshqaruv organlarini – maktab Kengashlarini shakllantirish bilan birga kechdi, bu organ maktabning yillik byudjetini tuzish va uning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasiga oldi.

Armanistonda jon boshiga moliyalashtirishga quyidagi bazaviy tamoyillar asos qilib olindi:

- maktab yagona summa bo'yicha – xarajatlarni iqtisodiy tasnif moddalarini bo'yicha guruhlamasdan moliyalashtirilishi kerak, bu summa aniq o'rnatilgan formula asosida hisoblab topilishi lozim;

- formula asosida hisoblab topilgan va maktabga ajratiladigan yillik mablag'lar summasi maktabdagi o'quvchilar soniga to'g'ri proporsional bo'lishi kerak;

- davlat har bir o'quvchiga ajratiladigan mablag' summasini (me'yorni) aniqlab berishi va bu summa "o'quvchining ortidan borishi" lozim;

- maktab, o'zining real ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zining yillik smetasini (byudjetini) tuzishi va bu smeta maktab Kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak;

- maktab unga ajratilgan yillik mablag'ni tasdiqlangan byudjet doirasida xarajat qiladi, unga esa faqat maktab Kengashining roziligi bilan o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'ladi;

- maktab o'zining barcha xarajatlari bo'yicha hisobdor bo'ladi.

Armanistonda jon boshiga qarab moliyalashtirish amaliyotida maktablarga ajratiladigan byudjet mablag'lari quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$B = A * N + C$$

bunda: B – maktabga ajratiladigan yillik byudjet;

A – bir o'quvchiga ajratiladigan yillik summa;

N – o'quvchilar soni;

C – maktabni saqlash xarajatlari summasi deb rasman nomlanuvchi doimiy koeffitsient.

Formuladan foydalanishning dastlabki yillarida moliyalashtirish hajmlari hisoblab chiqarilgan o'rtacha kattalikdan kam bo'lgan maktablarga qo'shimcha ravishda mablag'lar ajratildi, hisoblab chiqarilgan o'rtacha kattalikdan ko'p bo'lgan maktablarning moliyalashtirish hajmlari esa, o'tish davrida maktablarning moliyaviy holatini yomonlashtirmaslik uchun, o'zgartirilmadi. Shuningdek, tog'lik va yuqori tog'lik hududlarda joylashgan maktablarning isitish xarajatlariga ko'p mablag' sarflashlari hamda bu hududlardagi muassasalar uchun ish haqiga 20 foizlik ustamalar o'rnatilganligi bilan bog'liq qo'shimcha moliyaviy ehtiyojlarni qondirish maqsadida bu maktablar xarajatlarini hisoblashda muayyan koeffitsientlar qo'llanildi.

2000 yildan boshlab formulada ko'rsatilgan A va S ko'rsatkichlar davlat tomonidan har bir moliyaviy yil uchun qayta ko'rib chiqilgan va yildan yilga, ta'lim tizimiga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'larning oshishi bilan bir qatorda oshirib borilgan. 2007 yilning yanvar oyidan boshlab respublikaning barcha maktablarini moliyalashtirish bir o'quvchiga nisbatan me'yorlar bo'yicha formula asosida moliyalashtirilmoqda. Mazkur formula juda oddiy bo'lib, unda moliyalashtirish hajmi faqat o'quvchilar soniga va maktabning joylashgan joyiga bog'liq. Dastlabki bosqichdagi bir qator qiyinchiliklarga qaramay, maktablar yangi, egiluvchan uslubni ancha muvaffaqiyatli qo'llab kelmoqdalar.

Mazkur paragrafga xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, oxirgi o'n yillarda formula asosida moliyalashtirish usuli borgan sari ko'proq e'tiborni jalb etmoqda. Moliyalashtirish formulalari 1960 yillarning oxirlari va 1970 yillarda AQSh, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Avstraliyada ishlab chiqila boshladi va dastlab maktab va o'quvchilarning maxsus toifalariga qaratilgan dasturlar uchun qo'llanildi (masalan, aholining iqtisodiy zaif qatlamlariga xizmat ko'rsatuvchi maktablar). Hozirgi vaqtda bu usul ko'plab mamlakatlarda resurslarni adolatliroq taqsimlash maqsadida maktablarning kengroq doirasi uchun u yoki bu darajada qo'llanilmoqda. Maktablarni moliyalashtirish formulasini davlat (uning vakolatli tashkilotlari) bilan maktab o'rtasidagi o'ziga xos kelishuv deb qarash mumkinki, ushbu kelishuv bo'yicha maktablar o'quvchilarga ta'lim berish va o'qitishning zarur natijalarini ta'minlash evaziga kelishilgan miqdordagi moliyaviy resurslarni oladilar.

Maktablarni jon boshiga moliyalashtirish formulasi bugungi kunda AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek,

o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan Chili, Armaniston, Rossiya kabi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimida byudjet mablag'larini taqsimlash uchun jon boshiga moliyalashtirish formulasini qo'llash bir qator afzalliklarga ega bo'lib, birtokislik, oqilonalik, samaradorlik, shaffoflik va aniqlik kabi tamoyillarning bajarilishini ta'minlaydi.

Barcha boshqa mamlakatlardagi kabi, bir o'quvchi hisobidan moliyalashtirish natijalarini baholashda ob'ektiv qiyinchiliklar mavjud – formula maktab ta'limi samaradorligini oshirishga ko'maklashishi uchun moliyalashtiruvchi tashkilot mablag'larni ta'lim natijalari asosida taqsimlashi lozim, biroq bunday natijalarni o'lchash etarli darajada murakkabdir: ular turli-tuman bo'lishi mumkin, aniqlash juda qiyin va doim ham miqdoriy ifodaga ega emas. Miqdoriy hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan ta'lim natijalari esa, masalan, imtihon va nazorat ishi natijalari, sezilarli darajada o'quvchilar, ularning ijtimoiy kelib chiqishi va qobiliyatlariga, shuningdek boshqa sub'ektiv omillarga ham bog'liq, shuning uchun bunday natijalarni solishtirish uchun murakkab statistik tadbirlar va maxsus tadqiqotlar zarur bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Umumta'lim maktablarini moliyalashtirish xarajatlari davlat byudjetining qaysi xarajat guruhiga kiradi?
2. Umumta'lim maktablarida barcha sinflar uchun pedagogik stavkalar soni qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi?
3. Umumta'lim maktablari pedagogik xodimlariga to'lanadigan qo'shimcha ish haqlari tarkibi?
4. Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali kim tomonidan tuziladi?
5. Boshlang'ich sinflarda dars beruvchi maktab o'qituvchisining haftalik o'quv yuklamasi qancha miqdorda o'rnatilgan?
6. Yuqori sinflarda dars beruvchi maktab o'qituvchisining haftalik o'quv yuklamasi qancha miqdorda o'rnatilgan?
7. Umumta'lim maktablarida bir o'qituvchining yillik umumiy yuklamasi necha soat qilib belgilangan?
8. Umumta'lim maktablari hodimlarini moddiy rahbatlantirish Direktor jamg'armasining manbai?
9. Umumta'lim maktablari rahbar xodimlarning ish haqi miqdorlari qaysi ko'rsatkichga bog'liq?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
2. Amaldagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida o'zingiz ta'lim olgan umumta'lim maktabining yillik byudjetini hisoblang, uning hajmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini aks ettiradigan taqdimot materiali tayyorlang.

15-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARI

REJA:

- 15.1. Sog'liqni saqlash tizimining ahamiyati va uning ijtimoiy sohalar tizimidagi o'rni
- 15.2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy modellari va manbalari
- 15.3. Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining tutgan o'rni
- 15.4. Sog'liqni saqlash sohasini moliyaviy ta'minotida byudjetdan tashqari manbalardan foydalanish amaliyoti

Tayanch so'z va iboralar: *sog'liqni saqlash tizimi; aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar; davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari; tibbiyot va farmatsevtika xodimlari; sud-tibbiy ekspertiza muassasalari; tibbiy dori-darmonlar va tibbiyot texnikasi; xususiy tibbiyot.*

15.1. Sog'liqni saqlash tizimining ahamiyati va uning ijtimoiy sohalar tizimidagi o'rni

Sog'liqni saqlash sohasi aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohaga ta'luqli bo'lib, aholi sog'ligini tiklashga qaratilgan. Bundan tashqari aholi kasallanishi va o'lim darajasini pasaytirish, odamlarning psixik va jismoniy sog'ligini yaxshilash, umr ko'rish davomiyligini hamda iqtisodiy faol uzoq umr ko'rishni o'sishiga erishish natijasida sog'liqni saqlash tizimi mehnat resurslarining tiklanishiga ko'mak beradi, bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligini o'sishiga hamda milliy daromadning o'sishiga shart-sharoit yaratib beradi. Sog'liqni saqlash tarmog'i bevosita ishlab chiqarish sur'atlariga, mehnat unumdorligiga hamda ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi tarmoq hisoblanadi. Aytish mumkinki, sog'liqni saqlash tarmog'ini nafaqat tibbiy-ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichi sifatida, balkim milliy iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlik tarmog'i sifatida baholash lozim.

Ijtimoiy soha tarmoqlari ichida sog'liqni saqlash tizimi alohida o'rin egallaydi. Mamlakat sog'liqni saqlash tizimining aholi salomatligini ta'minlashdagi ta'siri 8-14 foiz darajasida baholansada, bu tizimning faoliyati boshqa barcha ijtimoiy sohalarga qaraganda aholi manfaatlari bilan eng ko'p to'qnash keladi. Jamiyatning sog'ligi, aholi salomatligi, onalarning reproduktiv salomatligi, yosh avlodning sog'lom va baquvvat o'sishi, ko'p jihatdan, mamlakat sog'liqni saqlash tizimining ahvoliga bog'liq.

Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillarning ulushini quyida keltirilgan 16.1-jadvalda tahlilini keltirishimiz mumkin. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi bosh omil bo'lib, bu aholini turmush sharoiti va shart sharoitidir, ushbu oilning aholi salomatligiga ta'sirini olimlarimiz 48-50 % ga teng deb hisoblashgan, atrof muhit holatining ta'siri 20-22 % ni tashkil etadi, inson biologiyasining ta'sirini 18-20 % ga teng deb hisoblanadi boshqa holatlar, masalan yuqumli kasalliklarini boshqa insonlardan yuqushi 8-14 % deb hisoblanadi.

16.1-jadval

Alohida omillarning aholi salomatligiga ta'sirini baxolash¹

Ta'sir etuvchi omillar	Ta'sir etish ko'rsatkichi
Turmush tarzi va shart sharoitlari	48-50%
Atrof-muxitning xolati	20-22%

¹ "Sog'liqni saqlash sohasi va BTSYOKni moliyalashtirish hamda boshqaruv tizimini isloh qilish" ZdravPlyus loyihasi ma'lumotlaridan 16- bet

Ta'sir etuvchi omillar	Ta'sir etish ko'rsatkichi
Inson (genetikasi)biologiyasi	18-20%
Sog'liqni saqlash	8-14%

Biron bir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish xususida gap borar ekan, korxona rahbari uchun kam xarajat qilib eng yaxshi natijaga ega bo'lishi va to'g'ri tanlov qilishi mumkin bo'lgan eng samarali mexanizmi bu bozor hisoblanadi. Ko'pgina mustaqil ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar bo'lgan bozorga o'z mahsuloti yoki xizmatini sotish uchun tayyorlar ekan, u iloji boricha resurslarini tejamlil ishlatib, ko'proq foyda olishga intiladi. Bozor ishlab chiqaruvchiga moddiy resurslarini tejash uchun texnologik jarayonlarini qanday takomillashtirishi, kadrlardan samarali foydalanish uchun-xodimlar boshqaruvini qay tariqa yaxshilashi, shuningdek, pul mablag'larini yaxshiroq ishlatishi lozimligini o'rnatadi. Bu borada sog'liqni saqlash sohasida batamom o'zgachadir: tibbiy xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari borki, ular tufayli har qanday boshqa mahsulotlar kabi erkin bozorda sotish va sotib olish mumkin emasdir.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish – bugungi kunda jahonning juda ko'p davlatlari kun tartibidagi masala. Jahon Sog'liqni saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 67 ta (ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan) mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonlari kechmoqda. Bu islohotlar quyidagi maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilmoqda:

- sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish;
- tarmoqqa qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb qilish imkoniyatlarini topish;
- tarmoqning mehnat, moddiy va moliyaviy resurslaridan ratsional foydalanish asosida sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni kafolatlash;
- aholining qarib borishi, kasallanish tarkibi va tuzilishining o'zgarishi, yangi tibbiy texnologiyalarning paydo bo'lishi, sog'liqni saqlashga xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish va boshqalar.

Aholi salomatligi holatini aniqlashtiruvchi asosiy omillardan biri sog'liqni saqlashni tashkil etish tizimi va uning moddiy-texnik ta'minoti hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy printsiplari sifatida quyidagilar belgilab berildi.¹:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning *davlat, xususiy va boshqa tizimlari* yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi amal qiladi².

Davlat sog'liqni saqlash tizimiga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog'liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo'linmalari kiradi. Davlat sog'liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo'lgan va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo'ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, tibbiy dori-darmonlar va tibbiyot texnikasi ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar kiradi. Ilmiy-tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi Qonuni. 1996 y. 29 avgust 3 modda

² O'sha erda

davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika va dorixona muassasalari davlat sog'liqni saqlash tizimiga kiradi.

Davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatadi. Bepul tibbiy yordam ko'rsatish hajmi va tartibi qonun hujjatlar bilan belgilanadi. Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmining belgilangandan ortiqcha tibbiy va boshqa xil xizmatlar ko'rsatish qo'shimcha xizmatlar bo'lib, aholi tomonidan belgilangan tartibda haq to'lanadi.

Sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlarning yuqoriligi va samarasizligining davom etishi bilan bog'liq muammolarni hal etish maqsadida 1998 yil 10 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-2107-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risidagi Davlat dasturi to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi, unga ko'ra "1998-2005 yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Kontseptsiyasi" qabul qilindi.

Davlat dasturida qo'yilgan maqsadga muvofiq ravishda *sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy vazifalari* belgilandi:

- aholiga birlamchi tibbiy-sanitar yordamning kafolatli darajasi va sifatini davlat tomonidan ta'minlash;
- aholiga shoshilinch tibbiy yordam tizimini mustahkamlash;
- davolash-profilaktik muassasalarini tashkil etish va joylashtirish tizimini mukammallashtirish, umumiy amaliyot vrachi tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;
- tibbiy xizmat bozorini va tibbiyot sug'urtasini tashkil etish;
- sog'liqni saqlash boshqaruv tizimini soddalashtirish evaziga samaradorlikni oshirish, davolash-profilaktik muassasalariga erkinlik berish, sog'liqni saqlashda nodavlat bo'g'in va xususiy davolash amaliyotini rivojlantirish;
- byudjet sarf-xarajatlari samaradorligini oshirish va qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish orqali sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy asosini takomillashtirish;
- tarmoqni isloh qilishning huquqiy-me'yoriy bazasini yaratish;
- tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish jarayonini mukammallashtirish;
- jismoniy tarbiya va aholi salomatligi profilaktikasining turli shakllarini rivojlantirish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish va sohaga chet el investitsiyalari va texnologiyalarini jalb etish.

Sog'liqni saqlashni isloh qilish bosqichlari:

1. 1990-1998 yillar – sog'liqni saqlashning milliy modelini rivojlantirishga asoslarini shakllantirish bosqichi;
2. 1998-2003 yillar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi PF-2107-sonli Farmoni – sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha ilk Davlat dasturini amalga oshirish bosqichi;
3. 2003-2007 yillar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 26 fevraldagi PF-3214-sonli Farmoni - sog'liqni saqlash tizimida ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyatini tashkil etish bosqichi;
4. 2007-2011 yillar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 sentyabrdagi PF-3923-sonli Farmoni va 2 oktyabrdagi PQ-700 sonli Qarori - sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirish bosqichi.
5. 2011 va keyingi yillar davomida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish, uning moddiy-tehnika ta'minotini yaxshilash.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi doirasida Jahon banki investitsiyalari jalb qilingan holda, 1998-2011 yillarda "Salomatlik-1" va "Salomatlik-2" loyihalari doirasida yurtimizdagi 3192 ta QVP umumiy qiymati 76 million dollar bo'lgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari bilan to'liq ta'minlandi.

"Salomatlik-2" loyihasi doirasida 570 ta stomatologik asbob-uskuna QVP va ko'p tarmoqli poliklinikalarga etkazildi. Qishloq aholisini arzon va sifatli dori-darmon bilan ta'minotini yaxshilash maqsadida 811 ta QVPda ijtimoiy dorixonalar tashkil qilindi, 1056 ta

QVPga GSM standartidagi statsionar telefon o'rnatildi va QVPlarining aloqa tizimi bilan ta'minoti 97,7 foizga etdi.

15.2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy modellari va manbalari

Aholi salomatligi holatini aniqlashtiruvchi asosiy omillardan biri sog'liqni saqlashni tashkil etish tizimi va uning moddiy-texnik ta'minoti hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy ta'minoti turli manbalar hisobidan amalga oshiriladi, xususan, davlat byudjeti mablag'laridan, sug'urta badallari hisobidan, xokimiylik mablag'laridan, aholining shahsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash xarajatlari o'rtacha YaIM ga nisbatan 8-13% ni tashkil etadi (AQSH da esa 17 % gacha).

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni asosan uchta bazaviy modelga ajratish mumkin:

- *Davlatdan moliyalashtirish modeli*, bunda davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtirish asosiy o'rin egallaydi (ushbu model Buyuk britaniya, Italiya, Kuba, Rossiya, O'zbekiston Respublikasi ko'proq ulushga ega);

- *Tibbiy sug'urtalash modeli*, bunda tadbirkorlar, mehnat qiluvchi fuqarolarning maqsadli badallari orqali moliyalashtirish asosiy o'rin egallaydi (ushbu model Frantsiya, Germaniya, Kanada, Yaponiya ko'proq ulushga ega);

- *Xususiy moliyalashtirish modeli*, bunda ixtiyoriy tibbiy sug'urta badallari hisobiga hamda pulli tibbiy xizmatlarni amalga oshirish orqali keladigan tushumlar orqali moliyalashtirish asosiy o'rin egallaydi (ushbu model AQSh, Janubiy Koreya mamlakatlarida ko'proq ulushga ega).

Yuqorida keltirilgan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning modellarining afzalliklari va kamchiliklari bizning nazarimizda quyidagilardan iborat¹:

Davlatdan moliyalashtirish modeli. Ushbu modelning afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: aholiga bepul tibbiy yordamni kafolatlash yo'li orqali ijtimoiy himoyalashning yuqori darajasini ta'minlaydi, o'ta havfli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi, tibbiy yordamni ko'rsatish sharoitlari ustidan qat'iy davlat nazorati olib boriladi, favquloddagi holatlarda yuqori samaradorlikga erishiladi va boshqalar. Ushbu modelning kamchiliklari: moddiy va mahsus resurslarning samarsiz taqsimlanishi va iqtisodiy inqiroz davrida sog'liqni saqlashning moliyaviy resurslarining defitsiti, tibbiyot xodimlari va muassasalarning faoliyatida moddiy rag'batlantirishning chegaralanganligi, tibbiyot xodimlari mehnat haqining umumiy past darajasi, bajariladigan ish xajmi va sifatining muassasani moliyalashtirish va tibbiyot xodimlarining mehnat haqi o'rtasida bog'liqlilikning sustligi, bemorning muassasa va shifokorning tanlamasligi, ba'zi tibbiy xizmatlarning defitsitligi sababli navbatlarning mavjudligi, tashhis quyish, davolash, kasalliklar profilaktikasi yangi usullari va texnologiyalarini joriy etilishining sustligi, tibbiy yordam ko'rsatish sifati va darajasida ba'zi ijtimoiy, geografik, sifat guruhlari o'rtasida farqlarning mavjudligi va boshqalar.

Tibbiy sug'urtalash modeli. Ushbu modelning afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: asosan tibbiy xizmatlarda navbatlarning yo'qligi, tibbiy muassasalar va shifokorlarning tanlanishi, tibbiyot xodimlarining yuqori daromadga ega bo'lishi, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish xususiyatiga ega bo'lgan keng tibbiy muassasalar diapazonining mavjudligi, tibbiy xizmatlar sifatiga e'tiborning yuqoriligi va boshqalar. Kamchiliklari: tibbiy xizmatlarning yuqori narxlari, aholining kam daromadli qatlamlari uchun tibbiy xizmatlarning ta'minlanmasligi, profilaktika va uy sharoitida yordam ko'rsatishga etarli e'tibor berilmasligi, asosan "engil" kasalliklarni davolanishi, etarli miqdordagi tibbiy ko'rsatmalarga ega bo'lmasdan qimmatbaho jarayonlar va aralashuvlarni bajarilishi, resurslarni samarasiz ishlatilishi, xarajatli xo'jalik mexanizmlarning

¹ Sh. Hamdamov 'Xorijiy mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning xususiyatlari' T. "Moliya"jurnali №4 2014 y. Toshkent

yuqoriligi, tibbiy jarayonlar sifati ustidan davlat nazoratining va boshqaruvining mavjud emasligi, bemorlar sog'lig'i uchun har dom ham xavfsiz bo'lmagan tibbiy texnologiyalarning ishlatilishi va boshqalar.

Xususiy moliyalashtirish modeli. Ushbu modelning afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: aholini tibbiy sug'urta bilan qamrab olishning yuqori darajasini mavjudligi, shuningdek, bepul tibbiy yordam kafolatining mavjudligi, aholi va ish beruvchilar tomonidan tibbiy sug'urta fondlari (sug'urta tashkilotlari) ni erkin tanlanishi, tibbiy xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirish funktsiyalarining taqsimlanishi, sifatli va davlat tomonidan kafolatlangan darajadagi tibbiy xizmatlarning ko'rsatilishi va boshqalar. Kamchiliklari: majburiy tibbiy sug'urta dasturlari bilan butun aholini qamrab olinmaganligi, tibbiy xizmatlar narxining yuqoriligi, narxlarni qat'iyligi ustidan choralarning samarasizligi, milliy darajada uzoq muddatli strategik rejalashtirishning etarli darajada qo'llanilmasligi, yuqori boshqaruv xarajatlarning mavjudligi va boshqalar

Turli mamlakatlarning sog'liqni saqlash tizimlari o'zining milliy xususiyati va turli hilligi bilan xarakterlanadi. Ammo islohotlar sharoitida ularni moliyalashtirishning usullari o'zgarib, bir-birlarini tajribalarini o'rganishadi. Jahondagi biror-bir mamlakat yaqqol faqat bitta modelga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modelini qabul qilmagan. Ularda aralash model amal qilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning batafsil keltirilgan tasnifi ham mavjud:

“Universallashtirish modeli” (Buyuk Britaniya, Irlandiya, qisman Daniya) - Milliy sog'liqni saqlash tizimining asosiy qismi umum soliqlar evaziga moliyalashtiriladi. tibbiyot xizmatlari asosan davlat sog'liqni saqlash muassasalarida amalga oshiriladi. Bunda vrachlar, mutaxassislar chetdan kontrakt asosida yollanadi.

“Kontinental modeli” (Germaniya, Avstriya, Frantsiya, Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg) – sog'liqni saqlash muassasalari asosan ish haqi fondidan ajratiladigan ajratmalar, shuningdek, davlatning maxsus jamg'armalari evaziga moliyalashtiriladi. Ularning ulushi umum sog'liqni saqlash xarajatlarning $\frac{3}{4}$ ulushiga tengdir.

“Janubiy modeli” (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya va qisman Italiya) – sog'liqni saqlash xarajatlarning aksariyat qismi ish haqi fondi va bandlikka ko'maklashish fondiga to'g'ri keladi. tibbiyot xizmati aholiga ham davlat, ham xususiy klinikalar tomonidan ko'rsatiladi.

“Skandinaviya modeli” (Shvetsiya, Finlyandiya va Daniya) – sog'liqni saqlash xarajatlari asosan daromad soliqlari evaziga qoplanadi (respublika va mahalliy darajadagi byudjetlar darajasida). Bunda tibbiyot to'lovi fuqaro oladigan ish haqiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. tibbiyot xizmati aholiga ham davlat, ham xususiy shifoxonalar tomonidan ko'rsatiladi.

“Xususiy modeli” (AQSH) – Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari asosan fuqarolarning hisobidan, qisman esa, davlat mablag'lari evaziga moliyalashtiriladi. tibbiyot xizmatlari taklif etuvchilar asosan xususiy sektor vakillariga to'g'ri keladi.

“Iqtisodiyoti o'tish sharoitidagi davlatlar modeli” (Sharqiy Evropa, MDHning bir qator mamlakatlari, Rossiya) - ushbu davlatlarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimi asosan davlat byudjeti mablag'lari asoslanadi, shuningdek qisman tibbiyot sug'urtasi mablag'lari ham qo'llaniladi. Mazkur davlatlarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimi sekin asta pullik xizmat ko'rsatish institutlariga o'tqazilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida jahonda quyidagilar tan olingan¹:

1. Sog'liqni saqlash tizimiga etarli miqdordagi mablag'larni jalb etish;
2. Mavjud resurslardan samarali foydalanish;
3. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan iste'molning ochiqililigi va kasallanish bilan bog'liq moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish.

¹ “Финансирование систем здравоохранения: путь к всеобщему охвату населения медико-санитарной помощью” Всемирная организация здравоохранения, 2010 г. 3 с.



16.2-rasm. Sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash manbalari¹

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan me'zonga asosan bugungi kunda mamlakatlarning sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish xarajatlari ular aholisini eng zaruriy tibbiy-sanitar yordam bilan ta'minlashi uchun YaIM ga nisbatan 5% dan kam bo'lmashligi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xarajat normasi 35 AQSh dollaridan kam bo'lmashligi lozim.

Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni tashkil etish ushbu tarmoqqa mablag'lar qo'yishning ob'ektiv shartlilikidan kelib chiqiladi. Sog'liqni saqlashga yo'naltirilayotgan mablag'ning eng kam miqdori takror ishlab chiqarishning iqtisodiy shartlari bilan belgilanadi. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga davlat tomonidan mablag' jalb etishning zarurati shu bilan bog'liqki, jamoat salomatligi jamiyat hayotiy faoliyati va taraqqiyotining muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmi takomillashtirish va mazkur sohaga yo'naltirilgan byudjet mablag'larini ishlatilish xususiyatlari o'rganiladi. Ushbu sohani mablag' bilan ta'minlash manbalari quyidagi 1.2-rasmida ko'rsatilgan.

Bundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy sohalar rivojlanishi uchun uning moliyaviy ta'minlanish darajasi yuqori o'rin tutmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sohani moliyalashtirishni hamda mablag'lardan samarali foydalanishni yanada takomillashtirish bugungi kun tartibidagi muhim masalalardan bo'lib qolmoqda. Sog'liqni saqlashni rivojlantirishda davlatga muhim ahamiyat berilishi quyidagi uch asosiy sharoit bilan asoslanadi: birinchidan, kambag'allikni qisqartirish va xizmat uchun esa o'zi haq to'lay olmaydiganlarni tibbiy yordam bilan ta'minlashning zarurati; ikkinchidan, tibbiy xizmatlarning ba'zi ko'rinishlari ijtimoiy ne'mat hisoblanadi va u tashqi samaraga ega. Masalan, kasallik tarqatuvchilar bilan kurashgan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiy bilimlarni tarqatish va nihoyat, uchinchi, sog'liqni saqlashga hamda tibbiy sug'urta bozori mexanizmi kamchiliklarni bartaraf etish. Shu sababdan ham barcha mamlakatlarda davlat sog'liqni saqlash tizimiga aralashadi.

15.3. Sog'liqni saqlash sohasi harajatlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining tutgan o'rni

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida davlat byudjeti mablag'larini keltirib o'tishimiz mumkin.

¹ Vahobov A.V, Qasimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2008. 231-b.

Ma'lumki, tibbiy xizmatlar ancha qimmat turadigan ne'mat bo'lib, har bir kishi o'z hayoti davomida iste'mol qilishi mumkin bo'lgan tibbiy xizmatga haq to'lash uchun qancha mablag' yig'ib qo'yish lozimligini avvaldan bilmaydi. Lekin bir guruh fuqarolar birlashib, yoki butun bir jamiyat bu maqsadga mo'ljallangan mablag'ni jamg'arishi mumkin. Shu munosabat bilan sog'liqni saqlash tizimini aralash moliyalashtirish shakliga o'tish masalasi islohotlarning markazida turgan masala sifatida qaralishi mumkin.

Moliyalashtirishning har bir manbasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan:

1. Davlat byudjeti:

- Byudjetdan moliyalashtirish tibbiyot muassasalarining ishlab chiqarish quvvatlari asosida amalga oshiriladi;
- Ijtimoiy adolat ta'minlanadi;
- Barcha aholi uchun bir xil hajmdagi xizmatlar kafolatlanadi;
- Boshqarish va nazorat qilish uchun nisbatan oddiy va arzon;
- Moliyalashtirish tizimi maqbul va qulay.

2. Majburiy ijtimoiy (tibbiy) sug'urta:

- Ijtimoiy adolatning ta'minlanishi;
- Barcha aholi uchun bir xil hajmdagi xizmatlarning kafolatlanishi;
- Mablag'larni to'plash va mijozlarni himoya qilish uchun xarajatlarning ortib borishi;
- Ish beruvchilar tomonidan norozilik kelib chiqishining mumkinligi.

3. Xususiy tibbiy sug'urta:

- ajratmalarning aksariyat hollarda iste'molchilarning to'lash qobiliyatiga emas, ularning ehtiyojiga bog'liqligi;
- tabaqalashgan tibbiy yordam dasturlarining amal qilishi;
- xarajatlar hajmining oshib borishi;
- butun sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larning etarli emasligi;

4. To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar:

- adolatli emasligi;
- risklarni umumlashtirmasligi va keng taqsimlash imkoniyatiga ega emasligi;
- butun tizimni etarli resurslar bilan ta'minlay olmasligi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash xarajatlari hozirgi kunga qadar asosan davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilib kelinmoqda. Bu mablag'larning ham qariyb 65-70 foizi xodimlarning ish haqiga sarf etilmoqda. Shunga qaramasdan, soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish uchun asosan byudjet mablag'larining o'zi, davlat resurslarining chegaralanganligi bois, etarli emasligini amaliyot isbotlab turibdi. Shuning uchun ham sog'liqni saqlashni isloh qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biri – tarmoqni moliyalashning ko'p kanalli tizimini joriy etish ekanligi e'tirof etildi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish va ularga ajratiladigan mablag'larni rejalashtirish xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan smetali moliyalashtirish (moddalar bo'yicha moliyalashtirish)ning afzalliklari bilan birgalikda qator kamchiliklari ham mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizda sog'liqni saqlashga qilinayotgan xarajatlar YaIM ga nisbatan 4% dan oshyapti (17.4-rasm). Agar 2004 yilda mamlakatimiz YaIM dagi sog'liqni saqlashga ketayotgan davlat byudjeti xarajatlari 2,3% ni tashkil etgan bo'lsa 2014 yilga kelib uning ulushi 4,6% ni tashkil etmoqda. 2015 yilda esa 5,1% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan asosan davlat kafolati ostidagi tibbiy-sanitariya xizmatlari doirasida bepul ko'rsatiladigan yordamni moliyalashtirishni amalga oshiriladi ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shoshilinch kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish;
- ambulatoriya-poliklinika yordamini ko'rsatish;
- aholini qator yuqumli kasalliklarga qarshi immunitsizatsiyalash va emlash;

– ijtimoiy ahamiyatga ega va atrofdegilar uchun xavf tug‘diradigan kasalliklar (sil, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrinologik va kasb kasalliklari) bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam;

– 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirish va davolash (pulli xizmat ko‘rsatadigan muassasalardan tashqari);

– 15-17 yoshdagi o‘smirlar va harbiy chaqiruv komissiyasi yo‘llanmasi bo‘yicha chaqiruv yoshidagi (18-27 yosh) shaxslarni tekshirish va davolash;

– Tug‘ishda yordam beriladigan xizmat ko‘rsatish (pulli xizmat ko‘rsatadigan muassasalardan tashqari);

– davlat davolash-profilaktik muassasalarida imtiyozga ega toifadagi bemorlarni davolash (nogironlar, urush faxriylari, etimlar).

Ijtimoiy sohalar faoliyatini rejalashtirishning bir necha o‘n yilliklar davomida shakllangan tartiblarga muvofiq, sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini rejalashtirish odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Aholi soni va aholining tibbiyot muassasasidagi o‘rinlarga ehtiyoj me‘yorlari asosida tibbiy muassasaning ishlab chiqarish quvvatlari (u yoki bu profil yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rinlar - koykalar soni) ni aniqlash;

2. Mazkur muassasa uchun o‘rnatilgan namunaviy shtat normativlari bo‘yicha zarur shtat normativlari sonini hisoblab topish;

3. Koykalar soni va tuzilishi (terapevtik, xirurgik, nevrologik)ga ko‘ra ish hajmini rejalashtirish;

4. Shtatlar jadvali, ishlab chiqarish quvvatlari va koykalar ishining ko‘rsatkichlari (koyka-kunlar soni) ga asoslanib tibbiyot muassasasini saqlash uchun moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash.

Demak, sog‘liqni saqlash sohasidagi har bir muassasaning ishi operativ tarmoq ko‘rsatkichlari, masalan:

- kasalxonalaridagi o‘rtacha yillik o‘rinlar soni (jami va o‘rinlar profillari bo‘yicha),
- bir yilda o‘rinlarning ishlash kunlari soni,
- o‘rin-kunlar miqdori,
- barcha toifadagi xodimlar bo‘yicha o‘rtacha yillik shtatlar birligi soni,
- ambulatoriya-poliklinikalarda vrach qabullari (kasalni ko‘rish) soni bilan tavsiflanadi.

Xarajatlarni rejalashtirishda shu narsa muhimki, davolash-profilaktika muassasasi aholiga tibbiy yordamni asosan ikki shaklda ko‘rsatadi. Kasalxonaga muqim yotqizib «statsionar» (turg‘un) davolash va ambulatoriya-poliklinikada yordam ko‘rsatish. Turg‘un davolash muassasalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri - o‘rin-kunlar soni bo‘lsa, ambulatoriya-poliklinika muassasasining asosiy ko‘rsatkichini vrach lavozimlari soni va vrach qabullari soni tashkil qiladi. Shunga qarab xarajatlarni hisoblash usuli tanlanadi.

Tibbiyot muassasalarining soni aholining jinsi, yoshi va tibbiyot xodimlarining har 10 000 kishiga to‘g‘ri kelishi me‘yorlarini hisobga olib belgilanadi.

Koyka fondi statsionar-davolash muassasalarining joriy xarajatlarini rejalashtirishda qo‘llaniladi va quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K_f = K_n \pm ((K_o - K_b) \times S_{m.f}) / 12$$

bu erda :

K_f – koyka fondi;

K_o, K_b – oy boshiga va oxiriga soni;

S_{m.f} – faoliyat yuritish oylari soni.

Koykalar oboroti quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$O_k = F_k / S_{r.p.},$$

bu erda

O_k - koyka oboroti;

F_k - faoliyat yuritish kunlari soni;

Srp.p - kasalxonada bo'lish vaqtining davomiyligi.

Bunda bir kasalga xizmat ko'rsatgandan so'ng keyingi kasalni qabul qilishga tayyorlanish hisobga olinadi. Yuqumli kasalliklar bilan bog'liq holda koykaning bo'sh turishi vaqti – 3 kun, sil kasalliklarida – 2 kun, boshqalarda – 1 kun. Ovqatga va dori-darmonlarga xarajatlarni rejalashtirishda bitta koykaning yil davomida faoliyat yuritish kunlari aniqlanib, kasalxonadagi koyka-kunlarning umumiy soni hisoblab chiqiladi:

$Ok.k = Srk \times Chd.f,$

bu erda

Ok.k – kasalxonadagi koyko-kunlarning umumiy soni;

Srk - koykalarining yillik o'rtacha soni;

Chd.f – bir koyka yil mobaynida faoliyat ko'rsatuvchi kunlar soni.

Ambulator-poliklinika muassasalari xarajatlarini hisoblash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- aholi soni va vrachlarning borib ko'rishi soniga bog'liq bo'lgan o'rtacha yillik vrach lavozimlari;

- soatiga bemorlarni qabul qilish soni, bir bemorni qabul qilish me'yori o'rtacha 20 minutni tashkil etadi;

- ish rejimi, ikkita komponentdan tashkil topadi:

- 1) poliklinikada qabul qilish;

- 2) uyda xizmat ko'rsatish;

Albatta, barcha davlat tibbiyot muassasalari xarajatlari byudjet tashkiloti sifatida byudjetdan moliyalashtirishning o'rnatilgan tartiblariga rioya qilgan xolda mablag' bilan ta'minlanadilar.

Barcha byudjet tashkilotlari, shu jumladan soglikni saklash tizimi muassasalari xam smetani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 setyabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida» gi karori asosida tuzadilar va tasdiklaydilar, agar bu muassasalar mustakil faoliyat yurituvchi yuridik shaxs makomiga ega bulmagan muassasa bo'lib, markazlashgan buxgalteriya orkali moliyalanadigan bulsa, u holda ularning smetalari tegishli ravishda viloyat, shaxar yoki tuman soglikni saklash boshkarmalari (bo'limlari) tomonidan tasdiklanadi.

Aloxida olingan byudjet tashkiloti smetasida xarajatlar kuyidagi xarajat guruxlari buyicha rejalashtiriladi:

I. *haqi va unga tenglashtirilgan tulovlar*

II. *Ish haqiga ustamalar*

III. *Kapital quyilmalar*

IV. *Boshqa xarajatlar*

Shtatlar jadvalini tuzish soglikni saklash muassasasi xodimlari sonini aniklashdan boshlanadi. Xodimlar soni muassasaning turi va quvvatiga ko'ra tibbiyot muassasalari namunaviy shtatlari asosida aniqlanadi. Xodimlar soni aniklangandan keyin, xar bir ishlovchining mexnatiga hak to'lash yillik miqdoridan tashkil topgan muassasaning mexnat haki fondi aniqlanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalarini bir yashovchi kishi hisobiga xarajatlar normatividan kelib chiqib moliyalashtirish usulini qo'llanilishi “Salomatlik-2” va “Ayollar va bolalar sog'ligini mustahkamlash” dasturlari doirasida boshlang'ich tibbiy-sanitariya yordami (BTSYo) muassasalarini boshqarishni takomillashtirish maqsadida qishloq va shahar muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 2005 yil 28 sentyabrdagi 217-sonli Qarorni asosida eksperiment sifatida joriy etildi va o'z samarasini bergandan so'ng bosqichma-bosqich keng joriy qilinmoqda.

Ushbu qarorga asosan BTSYo Shahar eksperiment (ShE) muassasalari byudjetini rejalashtirish bir kishi hisobiga xarajatlarning bazaviy normativi asosida amalga oshiriladi. Bir

kishi hisobiga xarajatlarning bazaviy normativi har yili eksperimentda ishtirok etuvchi viloyatlarning har bir tumani (Toshkent shahar tumani) uchun alohida belgilanadi.

Xarajatlarning bazaviy normativi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi¹:

$$XBNy = VSB_y \times O'Uy / ASy,$$

bunda:

XBNy - rejalashtirilayotgan yil uchun bir kishi hisobiga xarajatlarning normativ bazasi;

VSBy - sanitariya-epidemiologiya shoxobchalari, kapital qo'yilmalar va rejalashtirilayotgan yil uchun markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlaridan tashqari, viloyatlar, Toshkent shahar sog'liqni saqlash umumiy byudjeti;

ASy - rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvardagi holatiga ko'ra BTSYo ShE muassasalariga biriktirilgan viloyat shaharlari/Toshkent shahri aholisi soni;

O'Uy - hisobot davrida tegishli viloyat/Toshkent shahar sog'liqni saqlash byudjetida BTSYo ShE muassasalari byudjetining o'rtacha ulushi (koeffitsientlarda). BTSYo ShE muassasalari byudjetini hisobot davridagi sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatlari, kapital qo'yilmalar va markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlarini istisno etgan holda viloyatlar/Toshkent shahar sog'liqni saqlash umumiy byudjetiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabdagi "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi to'g'risida"gi 276-sonli qaroriga asosan tibbiyot xodimlariga ish haqi to'lanadi. Mazkur qarorda sog'liqni saqlash muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha tarif setkasi va tarif razryadlarini ko'rsatilgan.

Sog'liqni saqlash muassasalariga ish haqi, ish haqiga ajratma, boshqa (kanselariya va xo'jalik xarajatlari, xizmat safari xarajatlari, o'quv xarajatlari, oziq-ovqat xarajatlari, dori-darmon xarajatlari, yumshoq va qattiq, jihozlar xarajatlari, kapital va joriy ta'mirlash) xarajatlari rejalashtiladi. Aytish mumkinki, bu xarajatlar ichida ish haqi xarajatlari eng yuqori o'rinni egallaydi. Ish haqi xarajatlari umumiy xarajatlarning 75-80 foizni tashkil etadi. Ish haqi fondi tibbiyot xodimlari ish faoliyatiga ko'ra, quyidagi ish haqlarini o'z ichiga oladi:

- asosiy faoliyati bo'yicha ish haqi;
- tungi navbatchilik uchun haq;
- bayram kunlari uchun haq;
- maslahatlar uchun haq.

Vazirlar Mahkamasining №276-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizomi"ga muvofiq Mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mehnatga haq to'lash bo'yicha 4 guruhleri belgilab berilgan. Ushbu guruhlardan kelib chiqqan holda bevosita barcha tibbiyot xodimlariga haqni hisoblashda qo'llaniladi. Jumladan ushbu guruhlariga tayangan holda, "Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi"ni shakllantirish va uning mablag'larini sarflash yo'nalishlarini belgilashda ham foydalanilgan.

Ya'ni, tizim xarajatlarida tibbiyot xodimlari ish haqlari mablag'laridan tashqari dori-darmon vositalari, oziq-ovqat uchun xarajatlar hamda moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan xarajatlar miqdorini oshirish ham muhimdir. Davlat tibbiyot va farmatsevtika muassasalari guruxlarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- I. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar;
 - II. Umumiy profilitsiye statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar;
 - III. Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar;
- Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stantsiyalari.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2005-yil 28-sentyabrdagi 217-sonli Qarorining 6-bandini.

Tibbiyot muassasalarida xodimlarning ish xaqi xarajatlarini xisoblash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Tibbiyot xodimlari mexnatiga hak to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 21.12.2005 y. 276-son Karoriga va mazkur Karor bilan tasdiklangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mexnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom"ga muvofik amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga muvofiq, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tarif stavkalari tarif setkasi asosida ish xaqining belgilangan eng kam oylik mikdori "Mexnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mexnatiga haq to'lash bo'yicha guruxlariga muvofik tegishli sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari uchun belgilangan tarif setkasining tegishli razryadi tarif koeffitsientiga va tuzatish koeffitsientiga ko'paytirish yuli bilan belgilanadi. Tarif setkasi buyicha razryadlar tibbiyot, farmatsevtika va raxbar xodimlar lavozimlari bo'yicha belgilanadi.

Tibbiyot xodimlari bo'yicha ish haqlari xodimlarning lavozimlari bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'lib,

- Kichik tibbiyot xodimlari buyicha;
- Urta tibbiyot xodimlari buyicha;
- Vrachlar buyicha alohida xisoblanadi.

Tibbiyot sohasida asosiy bazaviy ish haqisini hisoblash uchun razryadlar o'ziga hos hususiyatga ega. Unda boshqa sohalaridan farqli ularoq 22 ta razryad emas, balkim 11 razryadli tariff koeffitsientlari qullaniladi va undagi tarif koeffitsientlari nisbatan yuqori ulushga ega.

Masalan, 22 razryadli tariff koeffitsientlarda 1 razryad koeffitsienti 2,476 tashkil etsa, sog'liqni saqlash sohasida bu koeffitsient 3,148 ni tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash sohasida xodimlar ish haqisi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- bazaviy ish haqi
- tungi navbatchilik uchun ish haqi
- ustama haq
- qushimcha haq va boshqalar.

Yuqoridagi razryadlarni qullagan xolda tegishli xodimlar ish xaklarini hisoblashda sog'liqni saqlash muassasalari guruxlari buyicha kuyidagi tuzatish koeffitsientlari belgilanadi:

- muassasalarning 1-guruxi uchun - tegishli razryad tarif stavkasiga 1,0 tuzatish koeffitsienta;
- muassasalarning 2-guruxi uchun - tegishli razryad tarif stavkasiga 1,03 tuzatish koeffitsienta;
- muassasalarning 3-guruxi uchun - tegishli razryad tarif stavkasiga 1,05 tuzatish koeffitsienta;

Sog'liqni saqlash muassasalarining raxbarlari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek bosh tibbiyot xdamshiralari uchun mexnatga xaq to'lash buyicha tarif setkasi buyicha razryad sog'liqni saqlash muassasasining tipiga qarab tabakalashtiriladi.

Raxbar xodimlarga haq to'lash buyicha tibbiyot muassasalarining tiplari kuyidagi jadval ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlangan (7-jadval). Xodimlarning ushbu toifalari mehnatiga haq to'lash razryadlari va tarif koeffitsientlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan holda tibbiyot muassasasi quvvatini, ambulatoriya-poliklinika tarmog'i uchun - xizmat kursatiladigan axoli sonini hamda kasalxona muassasalari uchun - davolanib chiqqan bemorlar sonini xisobga olib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi xamda Moliya vazirligining kushma qarori bilan tasdiqlanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari, rahbar muovnlari-vrachlar va bosh xamshiralari mexnat xaki buyicha razryadlar va tarif koeffitsientlari¹

Muassasa tipi	razryad	Tarif koeffitsienta
<i>Sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari</i>		
IV	8	5,453
III	9	6,053
II	10	6,719
I	11	7,390
<i>Sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari muovnlari-vrachlar</i>		
IV	7	4,913
III	8	5,453
II	9	6,053
I	10	6,719
<i>Sog'liqni saqlash muassasalari bosh xamshiralari</i>		
IV	5	4,060
III	6	4,466
II	7	4,913
I	8	5,453

Sog'liqni saqlash muassasalarining asosiy ixtisoslikka tegishli bo'lmagan va davolash, diagnostika yoki profilaktika faoliyatini amalga oshirmaydigan yordamchi bo'linmalari (bulimlari)ning (buxgalteriya, ik;tisodiy bulimlar, kadrlar bulimi, muxdndislik inshootlari, asbob-uskunalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish, avtomobil parki va boshqalar) raxbarlari mexnatiga hak to'lash, mexnatga haq; to'lash buyicha yagona tarif setkasi asosida amalga oshiriladi. Tibbiyot muassasalarida vrachlikdan boshqa faoliyatni bajarayotgan oliy ma'lumotli mutaxassislar, ya'ni psixolog, biolog, zoolog, parazitolog, entomolog,ionlashtiruvchi va noionlashtiruvchi nurlanish manbalari ustidan nazorat kilish buyicha ekspert-fizik; davolovchi jismoniy tarbiya buyicha yurikchi; davolovchi jismoniy tarbiya buyicha metodist uchun tarif setkasi buyicha 6 razryad belgilangan.Tibbiy-mexnat ekspert komissiyalari (TMEK), nogironlar va keksalar internat- uylari, nogironlar uchun pansionatlar, ukuv yurtlari, nogironlar uchun reabilitatsiya markazlari, shuningdek bolalar maktabgacha muassasalari, barcha tipdagi maktab- internatlar, "Mexribonlik uyi" bolalar uylari, sanatoriy-urmon maktablari tibbiyot xodimlarining tarif stavkalari muassasalarning birinchi guruxi buyicha belgilanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari ish xaqclarini xisoblashning uziga x,os xususiyatlari shundaki, ular asosiy ish xaqclariga qo'shimcha mexnat xaqclari tizimi amal kiladi. Bu qo'shimcha va ustamalar:

- mexnatning Sog'liq uchun xavfliligi va uta ogir sharoitlari uchun;
- sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibiy bulinmalariga mudirlik qilganlik uchun;
- ilmiy darajaga ega bo'lganligi uchun;

¹ "Sog'likni saqlash muassasalarini raxbar xodimlarga hak tulash buyicha tibbiy muassasalarni tiilarga ajratish tartibi tugrisidagi Nizom" (31.12.2005.) ning ilovasidan olindi

• "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'likni saqlash xodimi" faxriy unvoni uchun;

- turg'un tipdagi muassasalar xodimlariga tungi vaktida ishlaganligi uchun;
- aloxida muassasalar, bulinmalar va lavozimlarda uzluksiz ish staji uchun;
- maslaxatlar berganligi uchun va boshqa "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom" bilan belgilangan xolatlarda o'rnatiladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tarif stavkalariga qo'shimcha to'lovlar quyidagilardan iboratdir:

Sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibiy bo'linmalariga mudirlik qilganlik uchun vrachlarga:

- shtatida vrachlar lavozimi 6 tagacha bo'lganda - oyiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- shtatida vrachlar lavozimi 6 tadan ortiq bo'lganda - oyiga eng kam oylik ish haqining 70 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Kabinetlarga mudirlik qilganlik uchun vrachlarga oyiga eng kam oylik ish haqining 30 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Tuman, tumanlararo va shahar TMEKlarining raislari bo'lgan vrachlarga komissiyaga rahbarlik qilganlik uchun oyiga eng kam oylik ish haqining 70 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Qishloq vrachlik punktlari filial (bo'lim)lariga mudirlik qilganlik uchun vrachlar, feldsherlar, akusher-kadrlar, tibbiyot hamshiralari oyiga eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Vrachlik mutaxassisligi bo'yicha tegishli toifaga ega bo'lgan tibbiyot muassasalari rahbarlariga, ularning o'rinbosarlari - vrachlarga:

- oliy malaka toifasi mavjudligi uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;
- birinchi malaka toifasi mavjudligi uchun - eng kam oylik ish haqining 30 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Tibbiyot muassasalarining mutaxassisligi bo'yicha tegishli toifaga ega bo'lgan bosh tibbiyot hamshiralari:

- oliy malaka toifasi mavjudligi uchun - eng kam oylik ish haqining 40 foizi miqdorida;
- birinchi malaka toifasi mavjudligi uchun - eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Muassasalar rahbarlariga va ularning o'rinbosarlari - vrachlarga, shuningdek tegishli ravishda vrachlik va provizorlik lavozimlarini egallab turgan vrachlar va provizorlarga, nomlaridan qat'i nazar, hamda ilmiy darajaga ega bo'lgan:

- tibbiyot va farmatsevtika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'lganligi uchun - eng kam oylik ish haqining 70 foizi miqdorida;

- tibbiyot va farmatsevtika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lganligi uchun - eng kam oylik ish haqining 45 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi" faxriy unvoni uchun - eng kam oylik ish haqining 1,6 baravari miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Turg'un tipdagi muassasalar xodimlariga tungi vaqtda ishlaganligi uchun egallab turgan lavozimi bo'yicha lavozim maoshi tarif stavkasi hisob-kitobidan kelib chiqib tungi vaqtda ishlangan har bir soat uchun soatbay tarif stavkasining 50 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari tarif stavkasining 10 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Bosh tibbiyot hamshiralari tarif stavkasining 5 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

Alohida muassasalar, bo'linmalar va lavozimlarda uzluksiz ish staji uchun ustamalar:

- shoshilinch tibbiy yordam xizmatining vrachlariga, oʻrta va kichik tibbiyot xodimlariga: uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun hamda har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 30 foiz;

- shoshilinch tibbiy yordam xizmatining oliy maʼlumotga ega boʻlgan tibbiyot hamshiralariga: uzluksiz ishlangan stajning birinchi uch yili uchun hamda har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 40 foiz;

- qishloq vrachlik punktlari vrachlariga, qishloq joylardagi ambulatoriyalar va uchastka kasalxonalar vrachlariga uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun va har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 50 foiz;

- poliklinikalarning hududiy uchastkalari uchastka terapevtlariga, oʻsmirlar vrachlariga, uchastka pediatrikalariga va uchastka tibbiyot hamshiralariga, poliklinikalardagi terapiya va pediatriya boʻlimlari mudirlariga: uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun va har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 40 foiz;

- tez yordam xizmati va sanitariya aviatsiyasining koʻchma brigadalari katta vrachlari, vrachlari va oʻrta tibbiyot xodimlariga: uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun va har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 30 foiz;

- oʻlatga qarshi muassasalarning va alohida xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib borish muassasalarining tarkibiy boʻlinmalari xodimlariga: uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun va har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foizdan miqdorda belgilanadi, ustamaning eng koʻp miqdori - 80 foiz;

- leprozoriya muassasalari va tarkibiy boʻlinmalarining xodimlariga uzluksiz ish staji uchun: 3 yildan 5 yilgacha boʻlganda tarif stavkasining 15 foizi; 5 yildan 10 yilgacha boʻlganda - tarif stavkasining 25 foizi; 10 yildan ortiq boʻlganda - tarif stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

Vrachlarga, oʻrta va kichik tibbiyot xodimlariga, shuningdek sogʻliqni saqlash barcha muassasalari farmatsevtika xodimlariga quyidagi ustamalar:

- uzluksiz ish staji 5 yildan 10 yilgacha boʻlganda - tarif stavkasining 5 foizi miqdorida;
- uzluksiz ish staji 10 yildan 15 yilgacha boʻlganda - tarif stavkasining 10 foizi miqdorida;

- uzluksiz ish staji 15 yildan 20 yilgacha boʻlganda - tarif stavkasining 15 foizi miqdorida, oliy maʼlumotga ega boʻlgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 20 foizi miqdorida;

- uzluksiz ish staji 20 yildan ortiq boʻlganda - tarif stavkasining 20 foizi miqdorida, oliy maʼlumotga ega boʻlgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 30 foizi miqdorida belgilanadi.

Maslahatlar berganligi uchun vrachlar mehnatiga soatbay haq toʻlash:

professor, tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga ega boʻlganda - tarif stavkasining 3 foizi miqdorida;

dotsent, tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega boʻlganda - tarif stavkasining 2 foizi miqdorida;

ilmiy darajaga ega boʻlmagan vrachga - tarif stavkasining 1 foizi miqdorida belgilanadi.

Xodimlarning tarif stavkalariga ustamalar va qoʻshimcha toʻlovlar miqdori tarif stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini mehnatga vijdonan munosabati va koʻrsatilayotgan tibbiy yordamning yuqori sifati uchun tarif stavkasiga har oylik ustamalar belgilash yoʻli bilan moddiy ragʻbatlantirish va taqdirlash, ularga mukofotlar berish va bir martalik moddiy yordam koʻrsatish .

15.4. Sog'liqni saqlash sohasini moliyaviy ta'minotida byudjetdan tashqari manbalardan foydalanish amaliyoti

Sog'liqni saqlash tizimida byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirishni me'yoriy - huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qonun va qarorlar ishlab chiqilib hayotga tadbqiq etilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-dekabrdaqi "Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 532-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2008- yil 23-apreldaqi "Pullik tibbiy xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tayotgan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalashtirish tartibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida" 35-son qarorlari pullik tibbiy xizmat ko'rsatish hajmining kengayishiga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-noyabrdaqi "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1652 sonli qarorining qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentyabrdaqi PF-3923-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" Farmonida berilgan soliq va bojxona imtiyozlari 2018-yilning 1-yanvarigacha uzaytirildi, bojxona imtiyozlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan olib kelinadigan tibbiyot uskunalariga, butlovchi buyumlarga, tibbiyot uskunalarining ehtiyot qismlari va sarflanadigan materiallariga nisbatan joriy etildi. Sog'liqni saqlash muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni ko'paytirish hukumat tomonidan o'ziga xos tarzda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi salmoqli qismni tashkil etmoqda.

Xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini oshirish lozim deb hisoblanadi. Sanab o'tilgan xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari mablag'lar hajmi ancha yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Sog'liqni saqlash muassasalarini o'z-o'zini moliyalashtirish tizimini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar hamda tashkil etilgan shart-sharoitlar natijasida tizimda byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sohada byudjetdan tashqari mablag'lar izlab topish, ularning manbalari ko'lamini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bir muncha sezilarsiz bo'lib qolmoqda. Byudjetdan mablag' oluvchi tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar bilan nodavlat tibbiyot muassasalari sektorining bir turdaqi tibbiy xizmatlari sifati va narxi o'rtasida mavjud bo'lgan sezilarli farqning vujudga kelishi natijasida byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini ma'lum tendensiyasi bilan oshib borishi sezilarli emas.

Aholi jon boshiga YaIM hajmi qanchalik ortib borsa, aholining pullik tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi ham shunga proporsionallik o'zgarib boradi. Aholi sog'lig'ini saqlashda hamda mablag'lardan maqsadli foydalanish uchun nafaqat byudjet mablag'larini tasarruf etishda balki byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishda ham tibbiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish lozim.

Ma'lumotlarni tahlil qilib, o'z-o'zini moliyalashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar hamda tashkil etilgan shart-sharoitlar byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini oshirish va ular dinamikasini bir maromda olib borish ishlarini yanada jadallashtirishni talab etadi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, yurtboshimiz aytib o'tgan "...aholiga tibbiy va kommunal-maishiy xizmatlar ko'rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish uchun hali-beri foydalanilmayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8 iyundaqi "Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 264-son qaroriga ko'ra respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lar manbaini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi. Ushbu qarordan

keilb chiqqan holda tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lar manbaini shakllantirish yo'nalishlari belgilab berilgandir, albatta tibbiyot muassasalarini byudjetdan tashqari mablag'lari ularning ish faoliyatini ko'rsatishda samaradorligini oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish yo'llarini ko'lamini kengaytirish, ushbu muassasalar kelajakdagi ish unumdorligini va ko'ratilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda o'rni kattadir. Shulardan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining "Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi bu o'Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8 iyundagi "Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 264-son qaroridagi islohotlarning naqadar o'rinli ekanligidan dalolat beradi.

Jahon mamlakatlarida bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida qo'llanilayotgan moliyalashtirish mexanizmlaridan biri bu tibbiy sug'urta tizimidir. Bizga ma'lumki tibbiy sug'urta tizimining ikki asosiy turi mavjud, ya'ni ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urtadir. Bizning mamlakatimizda bugungi kunda ixtiyoriy tibbiy sug'urta amal qilmoqda va shu bilan birgalikda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda istiqbolda majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar va izlanishlar olib borilmoqda. Cheklangan davlat byudjeti xarajatlari sharoitida tibbiy sug'urtaning o'rni katta bo'lib, avvalo davlat xarajatlarining bir qism yuki kamayishiga, shuningdek, tarmoqda raqobat muhitini shakllanishiga yordam beradi. Mamlakatimizda tibbiy sug'urtani joriy etishda kutilayotgan samarani olishda tibbiyot muassasalarini boshqarish va ularni moliyalashtirishni markazlashtirish, tibbiyot muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasining ixtiyoriy tibbiy sug'urta bozori o'ziga xos xususiyatga egadir, ya'ni:

- korporativ sug'urta yuqori salmoqqa egadir, chunki individual tibbiy sug'urta kamroq uchraydi;
- asosan surunkali kasalliklarni davolash sug'urtalanmasdan shoshilinch tibbiy xizmat sug'urtalanadi;
- mamlakatimizda sug'urta tashkilotlarini ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish boshqa xizmatlarni ko'rsatishdan ko'ra kam foydali bo'lsa ham, lekin sug'urta tashkilotlari ko'rsatilayotgan xizmatlar turini ko'paytirish maqsadida ushbu turdagi sug'urta xizmatlarini joriy qiladi va rivojlantirib boradi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda ixtiyoriy tibbiy sug'urta bozorini rivojlanishida bir necha muammolar mavjud, ya'ni:

- ixtiyoriy tibbiy sug'urta tizimini boshqarib turuvchi yagona me'yoriy-huquqiy bazaning mavjud emasligi;
- tibbiy sug'urta to'lovini soliqqa tortiluvchi bazaga kiritilishi, bu esa sug'urtaning rag'batlantiruvchanligi pasaytiradi;
- bepul tibbiy xizmatlarni ko'rsatish tizimida sog'liqni saqlash tizimidagi byudjet tashkilotlarida norasmiy to'lovlar tizimining mavjudligi. Binobarin, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning ko'rsatish doirasi aynan rasmiy ravishda pullik xizmat ko'rsatish doirasidagi tibbiy xizmatlarga mo'ljallangan;
- aholining ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga bo'lgan talabining pastligi;
- sug'urta tashkilotlari tomonidan shartnomalar rasmiylashtirishda qiyinchiliklar mavjud bo'lmoqda, ya'ni, tibbiyot muassasalari qo'shimcha nazoratni xoxlamasligi yoki ular naqd to'lov usulini ko'proq lozim topishadi, byudjet tashkilotlari esa tibbiy xizmatlarni bepul ko'rsatishi asosiy vazifasi hisoblanadi;
- tibbiy xizmatlarni ko'rsatilishining umumiy standartlarining yo'qligi tufayli sug'urta tashkilotlari shifokorlar tashxisining asosiligi, tibbiy xizmatlarning sifati hamda xizmatlar uchun to'lovlar ustidan nazorat qilishi murakkablashadi.

Bizning mamlakatimizda bugungi kunda faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta amal qilmoqda va shu bilan birgalikda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda istiqbolda majburiy tibbiy

sug'urta tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar va izlanishlar olib borilmoqda. Cheklangan davlat byudjeti xarajatlari sharoitida tibbiy sug'urtaning o'rne katta bo'lib, avvalo davlat xarajatlarning bir qism yuki kamayishiga, shuningdek, tarmoqda raqobat muhitini shakllanishiga yordam beradi. Mamlakatimizda tibbiy sug'urtani joriy etishda kutilayotgan samarani olishda tibbiyot muassasalarini boshqarish va ularni moliyalashtirishni markazlashtirish, tibbiyot muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish lozim.

Mamlakatimizda tibbiy sug'urta tizimini barqaror rivojlanishida bir qancha muammolar mavjudki, ularni hal etish tibbiy sug'urta tizimini rivojlanishiga va uni faol amal qilishiga ko'mak beradi. Ushbu muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ixtiyoriy tibbiy sug'urta tizimida surunkali kechadigan kasalliklarni o'rniga asosan tez shoshilinch tibbiy yordamning sug'urtalanishi;
- aholining ixtiyoriy sug'urtalashdagi faolligining sustligi;
- tibbiy sug'urta tizimini tartibga soluvchi yagona qonuniy-huquqiy asosning mavjud emasligi;
- tibbiy xizmatlar tizimida norasmiy to'lovlarning mavjudligi;
- tibbiyot muassasalari va sug'urtalovchi tashkilotlar o'rtasida shartnoma-kelishuvlarining rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar;
- kasalliklarni davolash va tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda aniq standartlarning mavjud emasligi;
- tibbiyot muassasalari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida samarali raqobat muhitini etishmasligi;
- mamlakatimizda norasmiy bandlikning mavjudligi, rasmiy ravishda ishsizlik maqomini olmaganlarga nisbatan tibbiy sug'urta tizimini joriy etish masalalaridagi mavjud qiyinchiliklar;
- bemor va davolovchi shifokor o'rtasida axborot assimetriasining mavjudligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Sog'liqni saqlash tizimining ahamiyati va uning ijtimoiy sohalar tizimidagi o'rne nimada namoyon bo'ladi?
2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy modellari va manbalari qaysilar?
3. Sog'liqni saqlash sohasi harajatlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining tutgan o'rne?
4. Sog'liqni saqlash sohasini moliyaviy ta'minotida byudjetdan tashqari manbalardan foydalanish amaliyoti qanday?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

3. Sog'liqni saqlash muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
4. Amaldagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida sog'liqni saqlash muassasasining yillik byudjetini hisoblang, uning hajmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini aks ettiradigan taqdimot materiali tayyorlang.

16-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING MADANIYAT VA SPORT XARAJATLARI

REJA:

- 16.1. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida madaniyat xarajatlarining tutgan o'zni va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishidagi ahamiyati
- 16.2. Davlat madaniyat muassasalarining guruhlanishi, ular xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish tartibi
- 16.3. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida sport xarajatlarining tutgan o'zni va ahamiyati
- 16.4. Sport xarajatlarini moliyalashtirishda respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning ishtiroki

Tayanch so'z va iboralar: *madaniyat xarajatlari; sport xarajatlari; ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar; madaniy-ma'rifiy sohalar.*

16.1. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida madaniyat xarajatlarining tutgan o'zni va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishidagi ahamiyati

Islahotlarning yangi davriga qadam qo'yar ekanmiz, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarimiz, ma'naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini ham belgilab olishimiz kerak.

Milliy istiqlol mafkurasini, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini, jamiyat va xalq xayotida tutgan o'zni beqiyos ekanini hammamiz bilamiz. Xalqimiz azaldan o'z ma'naviy qadriyatlarini, diniy e'tiqodini, madaniyatini yuksak qadrlab kelgan. Shuning uchun eng mushkul damlarda am o'zligini yuqotmadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, byudjetlashtirish xarajatlarni boshqarishga, resurslardan foydalanishga va kelajakdagi taqsimlash qarorlarini rejalashtirishga diqqatni qaratish kerak.² Biz rejalashtirish orqali kelajakda o'zimizning maqsadimizga erishishimizda bajarishimiz kerak bo'ladigan vazifalarni aniqlab olamiz. Vaqt davomida yuqoridagi uch ta'kidning rivojlanishi ketma-ket bo'lgan paytda bo'lsada, ular ma'lum bir vaqt uchun qat'iy doimiy bo'lmagan rejalashtirish va boshqarish bosqichlari dastur axborotidan ko'proq foydalanishni talab qilar edi. Bu bosqichlarning mashhurlik davrida vujudga kelgan noaniq farqlar bo'lishiga qaramasdan, rejalashtirish bilan dastur axborotidan foydalanish birlashishi XX asr boshlarida allaqachon himoyalangan edi.¹

Arabcha madina ya'ni shahar keng so'zidan kelib chiqqan bo'lib, umuminsoniy xodisa. Madaniyat atamasi keng ma'noda qullanilib, jamiyatning ishlab chikarish, ijtimoiy va ma'naviy xayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar ma'lumki, har bir xalqning davrlarda erishgan yutuqlari darajasini, ziyolilik, ma'rifatlikni hamda turmushning ma'rifatli yangi extiyojlarga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Taraqqiy taqdirini ma'naviy jihatidan etuk odamlar xal qiladi. Texnikaviy bilim murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga berishi kerak. Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishining ma'naviy yuksalish harakatlar bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz.


Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat yaratgan bo'lsada, unda jaxon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Har bir xalq qaysi xalqlar bilan aloqa qilsa, unga madaniy ta'sir ko'rsatadi va o'zi ham ulardan madaniy ta'sirlanadi.

¹ Lee, Robert D. *Public budgeting systems* (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) 7-chapter. 187p

Qonunchilik qanday bo'lishidan qat'iy nazar, standart mahsulotlarni deyarli barcha byudjet qo'llanmalarida topish mumkin. Tegishli hollarda, idoralar daromad to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishadi (qaytish fondi va kredit dasturi bilan faoliyat olib boruvchi agentlik). Garchi ko'rsatmalarning ko'p qismi xarajatlarga bog'liq. Xarajatlar buxgalteriya tizimi bilan bog'lanilgan. Bunda, xodimlar va etkazib berish kabi xarajatlar obektlaridan foydalaniladi. (moliyaviy menejment bobini ko'ring). Shuningdek, shaxslarni soni bo'yicha batafsil yutuqlari, ularning ish unvonlari va ularning joriy ish haqi bo'yicha ma'lumotlar bo'lishi mumkin Ko'rsatmalar, odatda agentliklarning talablarini oqlash uchun bayonot berishi uchun zarur bo'ladi.

Davlat tomonidan ko'rsatilganidek, ko'rsatmalar alohida to'plam bo'ladi, operatsion va kapital jamg'armalar, byudjetlar, shuningdek, boshqa fondlar uchun Jadval 7 – 2 Nyu-York shtatidek taqdim etilishi kerak. Keyinchalik ko'rsatmalar, davlat va mahalliy darajada ko'p ishlatiladiganlari, davlat umumiy fondidan ko'ra turli fondlarda hisobga olinishi kerak bo'lgan xarajatlar talabnomalarni farqlash uchun ishlatiladi. Misol uchun birinchi navbatda yirik bo'lgan fondlar uchun mo'ljallangan aktivlarni o'z ichiga oladi. Bu fondlarga bino va inshootlar, federal daromadni shtat daromadlaridan ajratuvchi maxsus fondlar va boshqalar kiradi. Federal agentliklar o'zining mablag'larini asosiy vositalarga investitsiya qilishlari shart, lekin Kongress agentliklarga mablag' ajratganda aktivlar yoki asosiy vositalarga investitsiyalarni ajratmaydi (kapital aktivlar va kapitalni moliyalashtirish bobiga qarang).¹

Har bir jamiyat va davr o'z madaniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati ham o'zgaradi, lekin madaniyat taraqqiy eta boradi. Har bir yangi avlod o'z madaniyatini rivojlantirishga xissa ko'shadi; O'zbekistonda ham san'atning turli sohalarida madaniyat rivojlandi va rivojlanmoqda. Asrdan asrga davom etib kelayotgan san'at turlari, halq an'analari shu xalq madaniyatini yanada boyitib bormoqda, ularni butun dunyo xalqlariga ko'satib kelmoqda. Bu bilan har bir xalqning o'ziga xos madaniyati rivojlanib kelmoqda. Xalq me'morchiligi, amaliy san'at turlari, kino, teatr, xalq ijodiyot o'ynlari madaniyatni o'sishiga o'z hissalarini qo'shmoqda.



Aholi o'rtasida ta'lim-tarbiya va mafkurani targ'ib qilishda aholi saviyasini oshirishda xalq ta'limi tizimi bilan bir qatorda madaniyat tashkilotlarining ahamiyati katta. Madaniyat tashkilotlarga kutubxonalar, madaniyat uylari, klublar, xalq ijodiyot uylari, istrohat va xayvonot bog'lari, kinoteatrlar, teatrlar, nashriyotlar, taxririya, radio va televideniya kiradi.

¹ Lee, Robert D. *Public budgeting systems* (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) 7-chapter. 204p

Bu tashkilotlar aholi turmush darajasini yuksaltirishda, xalq madaniy saviyasini o'zlashtirishda, o'zlashtirish va tariximizni o'rganishimizda va dunyo voqealaridan xabardor etishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topayotgan iqtisodiy siyosat pirovard natijada demokratik o'zgarishlar qilish, mustaxkam moddiy negizini yaratishga yunalishdir.

O'zbekiston xalq xo'jaligi ko'rgazmasi Uzekspomarkaz – aholini xalq xo'jaligidagi yangiliklar, dunyo mamlakatlarining madaniyati, tibbiyot, farmatsevtika, kibernetika va boshqa sohada yangiliklari bilan tanishtirib turibdi.

Islohotlarni amalga oshirish, tub o'zgarishlarni qilish quruq maqsad emasligini bir necha bor ta'kidlab qtdik. Kishilar xayotida yaxshilik tomon qanday o'zgarishlar bo'lishi, inson o'zini naqadar chinakam erkin xis etishi, ularning xayoti qanchalik to'q, boy, go'zal bo'lishi, o'z mohiyatining o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishi muhimdir. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon eta olishi kerak. Bu xalq o'zining erk baxt-saodati, farovonlik to'g'risidagi orzularini ijtimoiy xayotning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohotlar bilan bog'laydi. Bu ishonchni oqlashimiz kerak. Islohotlarni amalga oshirish, tub tizim o'zgartirishlarni qilish quruq maqsad emasligini bir necha bor ta'kidlab o'tdik. Bu islohotlar xalqqa nima berishi muhimdir. Kishilar xayotida yaxshilik tomon qanday o'zgarishlar bo'lishi, inson o'zini naqadar chinakam erkin xis etishi, ularning xayoti qanchalik to'q, boy, go'zal bo'lishi, o'z mohiyatining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishi muhimdir. Shuning uchun jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shahs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy xayotdagi barcha o'zgarishlar ayni mana shu oliy maqsadga erishishiga har bir kishining xayotini yaxshiroq, munosibroq ma'naviy jihatdan boyiroq qilishga bo'ysundirilgan. Shu bois biz e'tirof etilgan demokratik qoidalar bilan uyg'un tarzda qovushtira oladigan davlatni bunyod etishga intilamiz. Biz barpo etayotgan davlat xalkimizning ma'naviy ruhiy dunyosiga imkoni boricha to'la xisobga olishi lozim. yuksak ma'naviylik va ijtimoiy adolatni nozik xis etish, ma'rifatli va ma'lumotli bo'lishga intilish kerak. Boshqa tomondan qaraganda, isloh qilish jarayonlarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi, olg'a bosishi hamda natijadorligi muayyan shahslar, mustaqil odamlarga butunlay bog'liqdir. Islohotimiz muvaffakiyati, mamlakatimizning yaqin kelajakdagi istiqboli shu shahslar qanday bo'lishiga, qanaqa ma'naviy-madaniy va axloqiy qadriyatlarni shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi. Shu bois biz umum e'tirof etilgan demokratik qoidalar hamda tajribalarni xalqimizning tub axloqiy qoidalari bilan uyg'un tarzda qovushtira oladigan davlatni bunyod etishga intilyapmiz etadi. Biz barpo etayotgan demokratik davlat xalqimizning ma'naviy ruhiy dunyosiga imkoni boricha tula hisobga olib ish yuritmog'i lozim. Yuksak ma'naviylik va ijtimoiy adolatni nozik xis etish, ma'rifatli va ma'lumotli bo'lishga intilish xalqimizga xos xususiyatdir. Bu xususiyatlar ko'p jihatdan Sharq falsafasi, Islom falsafasi ta'sirida shakllangan bo'lib, ularni rivojlantirishga o'zbek xalqi bebaho hissa qo'shganligini hamma e'tirof etadi.

Markaziy Byudjet idorasi yolg'iz o'zi kichik tashkilotlarsiz byudjetni tashkil eta olmaydi. Yuqoridagi bobda aytilganidek, Byudjetni tayyorlash operatsion agentligida va Federal hukumatining Byudjet va Menejment idorasidan byudjet yo'riqnomalarini berish idorasida bir vaqtning o'zida ajoyib yordam vazifasini o'taydigan axborotlarni berishdan boshlanadi.

Bu bosqichda axborotni rivojlanishi qisman har bir agentlikning tanlovlari maqsadga erishish uchun qilingan qarorlaridan kutiladigan usulga bog'liq. Agar faqat dollar talablari tayyorlangan bo'lsa, umumiy olganda dastur muvaffaqiyati haqida hech qanday xulosa yuritib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy Byudjet idorasi muhokama jarayonida, xattoki unga talab bo'lsada, dastur axborotidan foydalanmasligi ham mumkin. Shunday bo'lsada, agar aniqlangan axborot boshqa byudjet ishtirokchilari, ayniqsa, qonunchilik organlari talab qilsa, boshqa bir omil qanday axborot kerakligini aniqlaydi. Agentlik yoki bosh ijrochi o'zining

*maqsadida qarorlarni qabul qilishda ularni ishlatishda maqsadi katta bo'lmasa-da, juda ham ko'p axborot yig'ishni talab etilishi mumkin. Chunki, har yili qonunchilik organi bu axborotlarni talab qiladi. Dastur axboroti muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qonunchilik organi, qonunchilik idoralariga yuborgan mablag'lar talablari haqidagi qarorlarida ishlatilishi mumkin, lekin bu axborotlar qonunchilik organlari tomonidan aniq bir mablag'lar bilan bog'liq jarayonda inobatga olinmasligi ham mumkin.*¹

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, o'z davlatchiligimizni shakllantirishda madaniyatimiz ham chuqur o'rganishni taqozo etuvchi ulkan ma'naviy merosimizga murojaat qilish, baxoyat boy tarixiy o'tmishimizda mavjud bo'lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish borasida tarixiy imkoniyatlar ochildi. Sharq sivilizatsiyasi yutuqlarini, o'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor. Bu qadimiy xalqimizning madaniyatini, turmush-tarzini, urf-odatlarini hamda an'analarni yaxshiroq bilib olishimizga imkon yaratadi. Buyuk ajdodlarimiz bo'lmish mutafakkirlar, omillar, go'zallik ijodkorlarining biz uchun yangi bo'lgan nomlari va asarlarini milliy ma'naviyatimiz xazinasiga qaytarish muqaddas vazifamizdir.

Ma'naviyatni mafkuraviy aqidalardan xolos qilib, milliy o'zligini anglashni tiklash, xur fikr, milliy mafkurani shakllantirish hamda rivojlantirish uchun keng yo'l ochib oldik.

Davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma'naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan to'la uyg'un bo'lmog'i kerak. Biz o'z siyosatimizni shunga moslab ko'ramiz va uni izchillik bilan ro'yobga chiqaramiz.

Ishonch e'tiqod bulmagan joyda tashabbuskorlik ham bunyodkorlik faoliyati ham bo'lmaydi. Sharq sivilizatsiyasi yutuqlarini o'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligini chuqur o'rganishimiz darkor.

Endigi asosiy vazifa odamlarimizning ana shu bilimlar bilan boyib, ma'naviy jihatdan yuksalishga, o'zlari o'z xayotlarini yaxshi tomonga o'zgartira olishlariga bo'lgan ishonchli mustaxkamlashdan iborat.

Millatimizning ma'naviy – ahloqiy va madaniy yutuqlarini tiklash, saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish to'g'risida yaqindan juda ham tinmay g'amxo'rlik qilganmiz.

Davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma'naviy kamolot, yuksak ahloqiylik bilan to'la uyg'un bo'lmog'i kerak. Biz o'z siyosatimizni shunga moslab ko'ramiz va uni izchillik bilan ro'yobga chiqaramiz. Ishonch – e'tiqod bo'lmagan joyda tashabbuskorlik ham, bunyodkorlik faoliyati ham bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

✓ maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-uslubiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassasalarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimi tadbirlarining xarajatlari;

✓ respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari hamda yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston

¹ Lee, Robert D. *Public budgeting systems* (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) 7-chapter. 200-201p

Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;

- ✓ qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o'rnini qoplash (subsidiyalar);

- ✓ qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- ✓ respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta'minoti va ularga haq to'lash, hukumatning alohida qarorlariga ko'ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy meros ob'ektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- ✓ fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy ob'ektlarni va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertizasini o'tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;

- ✓ davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;

- ✓ respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- ✓ davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xarajatlari;

- ✓ bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

- ✓ Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- ✓ qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to'lash va ularni saqlab turish xarajatlari;

- ✓ hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- ✓ qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona er solig'i bo'yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining har yili tasdiqlanadigan asosiy parametrlari doirasida byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag'lar;

- ✓ qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik

kadastrini yuritish xarajatlari, chegaradosh davlatlarga haq evaziga erdan foydalanish to'lovi, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- 1 • O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini
- 2 • O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonini
- 3 • O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini
- 4 • O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini
- 5 • O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini
- 6 • O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) kotibiyatini
- 7 • qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'laridan saqlab turilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarini
- 8 • O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muassasalarini saqlab turish xarajatlari

✓ atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar;

4) respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari, shu jumladan:

6) sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini shakllantirish xarajatlari;

8) boshqa xarajatlar:

siyosiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash;

O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;

davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga haq to'lash;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;

xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to'lash;

davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish, saqlab va yangilab turish bilan bog'liq xarajatlar;

mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag'lar, shu jumladan harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o'tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiyalar va nafaqalar uchun xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar;
davlat maqsadli jamg'armalariga byudjet ssudalari va dotatsiyalar;
yuridik shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni rehabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek erlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

aholi punktlarini obodonlashtirish;

shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko'chalarini va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesini;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash xarajatlari;

7) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

✚ tumanlar (shaharlar) xalq ta‘limi muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta‘minlash va tashkil etish bo‘limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta‘lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

✚ tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

✚ qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

✚ tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo‘limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

✚ fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan kam ta‘minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob‘ektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stantsiyalarini saqlab turish;

shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash;

uy-joy-kommunal xo‘jaligi ob‘ektlarida ta‘mirlash ishlarini olib borish;

aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridagi qo‘shimcha, ko‘zda tutilmagan xarajatlar o‘z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta‘minlash uchun tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'lari tegishincha O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga tushadigan daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari miqdori asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi hamda Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'larining taqsimlovchilari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlaridir.

Har qanday byudjet tizimi oldida turgan asosiy o'zgarishlar turli ko'rinishdagi ma'lumotlardan qanday foydalanish haqida qaror qabul qiladi. Qanday turdagi ma'lumotlar ishlatilishi mumkin, qanday kombinatsiyada va qay darajada? Boshlang'ich qadam – bu hukumatning moliyaviy operatsiyalarinini har bir zarur o'lchamlaridan foydalanishdir. Bunday yondoshuv muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Haqiqatdan ham, bunday ma'lumotlar “shovqin” deb ataladi.

O'n yillar ichidagi islohotlar davomida hukumat tomonidan komissiyalar o'z diqqat markazida byudjetga e'tibor qaratishdi, byudjetning maqsadi va tarkibiy tuzilishi bilan mashg'ul bo'ldilar. Osborne va Gaeblerning mashhur ishi “Hukumat qiyinchiliklarini qayta kashf qilish”, hukumatda qaror qilinayotganda birinchi navbatda missiyani yodda saqlash.⁴³ Davlat dasturi nima uchun zarurligining asosiy sabablarini mission ko'rsatadi.¹

Agar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'lar ajratilishi taklif etilayotgan maqsadlar uchun Davlat byudjetida ham mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, u holda tegishli zaxira jamg'armalarining mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi takliflar faqat ilgari tegishli byudjetda nazarda tutilgan mablag'lar sarflab bo'linganidan keyingina kiritiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalaridan mablag'lar ajratilgan tadbirlar muayyan muddatga ega bo'lsa, u holda foydalanilmay qolgan mablag'lar tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin o'n ish kuni ichida tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armasidan ajratilib, moliya yili davomida foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratilgan mablag'lar moliya yili tugagach tegishli byudjetga tiklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armasidan mablag'lar oluvchilar har chorakda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlariga tegishli zaxira jamg'armasidan ajratilgan mablag'lardan foydalanilishi to'g'risida hisobot taqdim etadi.

¹ Lee, Robert D. *Public budgeting systems* (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) 7-chapter. 208-209p

17-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING IJTIMOIIY HIMOYA XARAJATLARI

REJA:

- 17.1. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati, vazifalari va ahamiyati
- 17.2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari
- 17.3. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash
- 17.4. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va moliyaviy asoslari
- 17.5. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi, shakllari va moliyaviy manbalari
- 17.6. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *ijtimoiy yordam; ijtimoiy sug'urta; ijtimoiy siyosat; ijtimoiy ta'minot; keksalar; jamiyatning ko'magiga ehtiyojmandlar; imtiyozlar; kompensatsiyalar; pensionerlar; nogironlar; voyaga etmagan bolalar; mehnatga layoqatsiz aholi; maqsadli dasturlar*

17.1. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati, vazifalari va ahamiyati

Ijtimoiy ta'minot doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o'rinni egallab kelgan. Mamlakatda yashaydigan fuqarolarda o'z hayot faoliyatining ma'lum bosqichlarida va alohida holatlarda ijtimoiy ta'minot tizimi xizmatlariga ehtiyojlari yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, shuningdek, mehnatkashlarning hamda ma'lum sabablarga ko'ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoriga bog'liq.

“Ijtimoiy ta'minot” tushunchasining mazmuni, uning holatini belgilab beruvchi omillar bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanishi bilan shakllanib bordi. Iqtisodiy ta'limotlar va fanda “ijtimoiy ta'minot” tushunchasining turlicha talqin etilganligini ko'rish mumkin. Masalan, tarixan ancha ilgari yaratilgan rus izohli lug'atida¹ ijtimoiy ta'minotga “jamiyat tomonidan u yoki bu shaxsga hayot uchun etarli bo'lgan moddiy mablag'larni taqdim etish” deb ta'rif berilgan, ushbu ta'rifda jamiyat a'zolariga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan yordamning turli shakllari ijtimoiy ta'minot hisoblanadi, degan fikr ilgari surilgan. Lekin bunday yordamning shakllari va turlari turli-tuman bo'lishi, turli toifadagi aholi qatlamlarini qamrab olishi, turli manbalardan mablag' bilan ta'minlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o'zgarib turishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, fanda ijtimoiy ta'minot tushunchasi mazmunini yoritish bo'yicha ikkita konsepsiya shakllanganligini ko'rish mumkin: iqtisodiy va huquqiy.

Iqtisodiy konsepsiya tarafdorlari ijtimoiy ta'minotga jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy iste'mol fondlaridan taqdim etiladigan yordamning barcha turlarini (shu jumladan, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash, madaniyat muassasalarini saqlash, pensiya va nafaqalarning barcha turlari, ayrim fuqarolarga ijtimoiy, tibbiy yordam ko'rsatish va turli imtiyozlar berish) kiritadilar. Bu konsepsiyaning asosini moddiy va moliyaviy ne'matliklarni ijtimoiy iste'mol fondlari orqali taqsimlash usuli tashkil etgan.

Huquqiy konsepsiya vakillari ijtimoiy ta'minot jamiyatning barcha a'zolariga emas, balki uning faqat alohida qatlamlariga – davlat tomonidan muhofaza qilinishi lozim bo'lgan guruhlariga qaratilishi kerakligini e'tirof etganlar. Aholining bunday guruhlariga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida turli toifadagi fuqarolar kiritilgan. Xususan, sovet hukumati davrida ijtimoiy ta'minot bilan avval yollanib ishlovchi ishchi-xizmatchilar, keyinroq kolxoz a'zolari, bolalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar qamrab olingan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini o'rgangan olimlarning izlanishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ayrimlar ijtimoiy ta'minot faqat ayrim aholi qatlamlariga qaratilishi kerak, deb

¹ Qaralsin: Ожегов С. И. Словарь русского языка. М: Русский язык, 1984. С. 374, 670.

da'vo qilsalar, boshqalar ijtimoiy ta'minot barcha aholiga qaratilgan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydilar va bepul ta'lim hamda bepul tibbiy xizmat va davolash xizmatlarini ham ijtimoiy ta'minot tizimiga kiritadilar. Shuningdek, bir qator olimlar ijtimoiy ta'minot faqat davlat byudjetidan moliyalashtirilishi zarurligini ta'kidlasalar, boshqalari ijtimoiy ta'minotning ko'pkanalli moliyalash manbalari shakllanganligini va ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanadigan bir nechta mahkama mavjudligini e'tirof etadilar.

Bu borada A.Vahobov va T.Malikovlarning "Moliya" nomli darsliklarida berilgan ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak, ularning fikricha, "iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ... fuqarolarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag'larining ijtimoiy fondlarini shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimlash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Mana shunday keng ko'lamda, ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirish manbalari va ta'minotni tashkil etishga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning barcha a'zolarini tegishli tarzda ta'minlanishini o'z ichiga qamrab oladi"¹. Albatta, ushbu ta'rif ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va huquqiy jihatdan mazmunini to'liq yoritib bermaganligi bilan birga, mantiqan noaniq bayon qilinganligini ta'kidlash kerak. Lekin ushbu mualliflar ijtimoiy ta'minotning mazmuni borasida iqtisodchilar o'rtasida yagona fikr mavjud emasligini haqli ravishda e'tirof etadilar.

Internet resurs manbalaridagi ma'lumotlarda, masalan jamoat ensiklopediyasida "ijtimoiy ta'minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi"², deb ta'riflangan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasining talqiniga bo'lgan qarashlarni inobatga olgan holda, uning u yoki bu yordam turini ijtimoiy ta'minotga tegishli ekanligini belgilab beruvchi asosiy zamonaviy mezonlarini (belgilarini) aniqlab olish lozim. Fikrimizcha, bunday belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *moliyalashtirish manbalari*: barcha olimlar va tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda, ijtimoiy ta'minot davlat tomonidan shakllantiriladigan maxsus jamg'armalar hisobidan amalga oshirilishi lozim. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotni mablag' bilan ta'minlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda: byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar), kasaba uyushmalarining mablag'lari (Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti).

2) *ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olingan fuqarolar guruhlari*: huquqiy jihatdan "har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"³. Fuqarolarning bu huquqlari davlatimiz Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning ushbu huquqlarni belgilab bergan 39-moddasining mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, ijtimoiy ta'minot fuqarolarning alohida toifalariga: qariyalar, nogironlar, bolalikdan nogironlar, boquvchisini yo'qotgan fuqarolar, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar, homilador ayollar, vaqtincha ishsiz maqomi berilgan fuqarolar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg'iz fuqarolarga qaratiladi.

Ijtimoiy ta'minotning mazmunini shakllantirishda yana shuni inobatga olish kerakki, ijtimoiy ta'minot rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi davlatning ijtimoiy siyosati yo'nalishlarini aks ettiradi. Ijtimoiy siyosatdagi ustuvorliklarning o'zgarishi ijtimoiy ta'minotning ham usullari va shakllarining o'zgarishiga olib keladi. Xususan, taraqqiyotning ma'lum davrlarida (70-80-yillarda) ijtimoiy siyosat aholining son jihatdan ko'payishini rag'batlantirishga qaratilgan edi, shu sababli bu davrda ijtimoiy ta'minot orqali ko'p bolali

¹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: "NOSHIR", 2011. 449-bet

² Manba: <https://uz.wikipedia.org/>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda.

Ijtimoiy ta'minot turlarining ko'pligini e'tirof etgan holda, har bir turining *asosiy maqsadi* – fuqarolarning alohida toifalarining ijtimoiy ahvolini jamiyatning boshqa a'zolarining holatiga yaqinlashtirish, ular orasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirish, yuqori moddiy xarajatlarni yohud qo'shimcha jismoniy, ruhiy va ma'naviy harakatlarni talab qiluvchi turli hayotiy hodisalar tufayli yordamga muhtoj bo'lib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.


onalarga nafaqalar joriy etilgan. Mustaqillik davrida esa bu boradagi ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, "sog'lom ona – sog'lom bola" tamoyilini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va fuqarolarga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ta'minotning shakl va usullari ham shu maqsadga bo'ysundirilgan. Bu maqsadlar yo'lida insonlarning mehnati va sog'lig'i muhofaza qilinadi, oilalar, onalar va bolalar, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimi rivojlantiriladi, davlat pensiyalari, nafaqalar va ijtimoiy himoyaning boshqa kafolatlari o'rnatiladi.

Shunday qilib, *ijtimoiy ta'minot* - davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat byudjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy ta'minot tizimiga quyidagilar kiradi (18.1-rasm):

- barcha turdagi pensiyalar;
- ijtimoiy nafaqalar;
- turli kompensatsion to'lovlar;
- fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari;
- fuqarolarning alohida toifalariga imtiyozlar;
- uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;
- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy rehabilitatsiya qilish;
- aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish;
- imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan, boshqa birlari (masalan, aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish) kasaba uyushmalari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.



18.1-rasm. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari¹

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini yoritishga bag'ishlangan fikrlarimizni nihoyasiga etkazib shuni ta'kidlaymizki, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash kabi ijtimoiy yordam turlari, garchi aholining ijtimoiy ahvolini engillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sirasiga kirsada, ijtimoiy ta'minot tarkibiga kirmaydi, balki davlatning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash chora-tadbirlari qatorida davlat byudjeti va boshqa davlat mablag'laridan moliyalashtiriladi.

Ijtimoiy ta'minot tizimining zarurligi va ahamiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda ijtimoiy ta'minotning quyidagi funksiyalarni bajarishi ko'rsatilgan: *iqtisodiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy-reabilitatsion funksiyalar*.

Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy funksiyasi fuqarolarning qiyin hayotiy holatlarda moddiy qo'llab-quvvatlanishida, fuqarolarga mehnat qobiliyatini qayta tiklab olish uchun moddiy yordam berilishi natijasida mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki berishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotning siyosiy funksiyasi aholining turli ijtimoiy qatlamlari ijtimoiy holati darajasini bir-biriga yaqinlashtirish, har bir insonga munosib hayot kechirish uchun sharoit yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan.

Demografik funksiyasi mamlakat aholisining son jihatdan o'sishini rag'batlantirish, sog'lom avlodni etishtirish, fuqarolarning umr ko'rish davomiyligini oshirish kabilarga qaratilgan.

Ijtimoiy ta'minotning ijtimoiy-reabilitatsion funksiyasi keksa va mehnat qobiliyati bo'lmagan fuqarolarning o'ziga xos spetsifik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, ularning huquqiy maqomini saqlash va sog'lig'ini muhofaza qilish uchun qulay sharoitlarni

¹ Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. B.185.

yaratishda namoyon bo'ladi. Amalda bu funktsiyaning namoyon bo'lishini fuqarolarning ayrim toifalarini qariyalar uylarida saqlash, boshqa bir toifadagilarni ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uchinchilariga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'rish mumkin.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ta'minot yana bir, bizning nazarimizda juda muhim funktsiya – *ijtimoiy himoyalash funktsiyasini* bajaradi. Jamiyat, o'z fuqarolariga ijtimoiy ta'minotni taqdim etar ekan, birinchi navbatda o'z oldiga ularni ijtimoiy himoya qilishdek o'ta muhim vazifani qo'yadi, zero qiyin hayotiy holatlarda ularni himoyalash, turli (moddiy, jismoniy, ruhiy, yosh bilan, oilaviy vaziyat bilan bog'liq) muammolarni hal qilishda yordam berish ijtimoiy ta'minotning zarurligi va ahamiyatini belgilab beradi.

17.2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari

Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot o'zining shakllari va turlari xilma-xil bo'lishi bilan birga, moliyalashtirish manbalarining ham bir nechta ekanligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ta'minot maqsadlaridagi xizmatlar va to'lovlar uchun moliyaviy resurslar turli ijtimoiy yo'nalishdagi jamg'armalarda mujassamlanadi va davlat boshqaruvining turli idoralari orqali tasarruf etiladi. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlari quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:



18.2-rasm. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlarini moliyalashtirish manbalari

- davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar);
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;
- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'lari.

Davlat byudjetidan an'anaviy ravishda ijtimoiy ta'minotning quyidagi shakllari va turlari moliyalashtiriladi:

a) respublika byudjetidan:

- respublika tasarrufidagi bolalar uylarini saqlab turish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari va b.

b) mahalliy byudjetlardan:

- mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish xarajatlari;

- mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari;

- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari va b.

Ma'lumki, ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti turadi. Ko'pchilik davlatlarda pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash maqsadida markazlashgan tartibda maxsus fondlar – Pensiya fondlari tuziladi. Ularning asosiy maqsadi shu mamlakat pensiya qonunchiligi bilan belgilangan pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishdan iborat.

Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot vazifalarini davlat byudjeti bilan birga, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bajaradi.

Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lanadi, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan boshqa sarfiyotlar amalga oshiriladi:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish;

- dafn marosimlari uchun nafaqalar;

- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Fuqarolar ijtimoiy ta'minotining ayrim shakllari va turlari *Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi* tomonidan moliyalashtiriladi, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ishsiz deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;

- ishsiz deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarning o'rnini qoplash;

- nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

- ish bilan band bo'lmagan aholiga yordam ko'rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko'maklashish va maslahat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar;

- aholi bandligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

- chet elga ishga yuborilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning ijtimoiy muhofaza qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar va b.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;

- belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;

- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag'lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan tasdiqlanadigan byudjet va smetalarida belgilangan maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun quyidagilarga sarflanadi:

- sanatoriy-kurortlarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalar olishga;

- korxonalar va o'quv muassasalaridagi sanatoriy-profilaktoriylarda, sanatoriy-profilaktoriylarning ijtimoiy sug'urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog'lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

- bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta'minotida, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, hissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

- kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) xodimlarining mehnatiga haq to'lash va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o'quv-sport tadbirlarini o'tkazish uchun qisman mablag' ajratishga;

- o'z sport bazalari bo'lmagan taqdirda, hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO'SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;

- ijtimoiy sug'urta bo'yicha tashkiliy-ma'muriy xarajatlarni moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o'qitish, sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta'minotiga;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi, qurilish va rekonstruktsiya qilinadigan ob'ektlarning manzilli ro'yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog'lomlashtirish muassasalari va BO'SM sport inshootlarini rekonstruktsiya qilinishiga;

- ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga.

17.3. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'i nazar – o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz fuqarolar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollari og'irlashganlar kiradi. Bunday toifadagi fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jamiyat miqyosida muayyan moliyaviy resurslarni jamlash va ijtimoiy ta'minot maqsadlariga safarbar qilishni talab etadi. Bu maqsadlardagi moliyaviy resurslar bir qancha manbalardan moliyalashtirilishini oldingi bobda ta'kidlagan edik. Quyidagi keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlari tarkibiga

qanday xarajatlar kiritilganligi va ularni mablagʻ bilan taʼminlash manbalari keltirilgan (18.1-jadval).

18.1-jadval

Davlatning ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi va moliyalash manbalari¹

Byudjet tasnifi bo'yicha xarajat kodi			Xarajat turi	Mablagʻ bilan taʼminlash manbai
7	100	000	Ijtimoiy himoya	
7	101	000	Kasallik, mehnatga layoqatsizlik va kam taʼminlanganlik	
7	101	100	Kasallik	
7	101	200	Mehnatga layoqatsizlik	
7	101	201	Bolalikdan nogironlarga nafaqa	Respublika byudjeti mablagʻlari
7	101	202	Nogironlarni oʻqitish va ish bilan taʼminlash	Bandlik jamgʻarmasi mablagʻlari
7	101	203	Qariyalar va nogironlar uchun sanatoriyalar	Davlat byudjeti mablagʻlari, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-ehsonlari va boshqa manbalar
7	101	204	Qariyalar va nogironlar uchun internat-uylari	
7	101	205	Kichik yoshdagi nogiron bolalar uchun internat-uylari	
7	102	000	Qarilik	
7	102	100	Uyda ijtimoiy yordam xizmati boʻlimlari	Qoraqalpogʻiston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablagʻlari (ijtimoiy taʼminotga ajratilgan mablagʻlar doirasida)
7	102	400	Pensiya bilan taʼminlanganlik	Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari
7	102	401	Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	402	Ishlaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	403	Pensiya, nafaqa va kompensatsiya toʻlovlarini etkazib berish boʻyicha pochta xizmatlari xarajatlari	
7	102	404	Blanka mahsulotlari, pensiya ruxsatnomalarini tayyorlash, pensiya toʻlash vedomostlari uchun qogʻoz sotib olish, mamlakat tashqarisiga pensiya ishlarini oʻtkazish, tashkilotlarda pensiya va nafaqalarni toʻgʻri tayinlanishi tekshirish uchun safar xarajatlari	
7	103	000	Oila va bolalar	Qoraqalpogʻiston Respublikasi va mahalliy byudjetlar
7	103	100	Bolasi 18 yoshgacha boʻlgan oilalarga har oylik nafaqalar	

¹ Oʻzbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qoʻllash boʻyicha Yoʻriqnomaning (16.09.2010. 2146-son) 4-ilovasi asosida

Byudjet tasnifi bo'yicha xarajat kodi			Xarajat turi	Mablag' bilan ta'minlash manbai
7	103	200	2 yoshgacha bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga har oylik nafaqalar	mablag'lari (aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'lar doirasida)
7	103	300	Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordamlar	
7	103	400	Tabiiy ofatlar natijasida zarar ko'rgan oilalarga moddiy yordamlar	
7	104	000	Ishsizlik	O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari
7	104	100	Ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish	
7	104	101	Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish uchun kompensatsiyalar to'lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish	
7	104	102	Haq to'lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlash	
7	104	103	Ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash	
7	106	300	Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlar	
7	106	310	Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa	Davlat byudjeti mablag'lari
7	106	320	Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
7	109	300	Ijtimoiy ta'minotning boshqa tadbirlari	Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag'lari (ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida)
7	109	400	Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya markazlarini saqlash	
7	109	401	Ijtimoiy moslashuv markazlarini saqlash	
7	109	402	Muayyan yashash joyiga va mashg'ulot turiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari	
7	109	403	Voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish markazlari	
7	109	404	Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi	
7	109	405	Nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari	

Yuqoridagi jadvalda biz byudjet tasnifining “Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi” bo'yicha xarajatlarning guruhlanishini va imkon darajasida ularni mablag' bilan ta'minlash manbalarini ko'rib o'tdik va shuni guvohi bo'ldikki, ijtimoiy ta'minot turlariga kiruvchi bir qator

xizmatlar: ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni saqlash bo'yicha xarajatlar bir necha manbalardan amalga oshirilgan ekan. Bular: davlat byudjeti (respublika va mahalliy byudjetlar), Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari va boshqa nobyudjet va nodavlat manbalar.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat tashkilotlariga bir qator ijtimoiy ta'minot muassasalari kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- "Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari;
- Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar;
- Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.

"Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'lmagan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogiron bolalar uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylarini (dam oluvchilar) sog'lomlashtirish va ularning dam olishi uchun mo'ljallangan davlat davolash-profilaktika muassasalari hisoblanadi.

Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan I va II guruhlar nogironlari hisoblangan hamda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan qarindoshlar yoki boshqa shaxslarga ega bo'lmagan yolg'iz urush va mehnat faxriylari (vasiylikka olinganlar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha turdagi ijtimoiy muassasalar faoliyati davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Muassasalarning shtatlar jadvallari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibiga yuqorida ko'rib o'tilgan xarajatlar va muassasalar bilan birgalikda, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish xarajatlari ham kiradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish "Yolg'iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati" tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu xizmat tuman va shahar Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari bilan birgalikda uyda o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz fuqarolarni aniqlash va hisobini yuritish;

- yolg'iz fuqarolarga homiylik yordamlarini ko'rsatish maqsadida ularning ilgari ishlagan mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan aloqalarini olib borish;

- yolg'iz fuqarolarni internat-uylariga joylashtirish uchun ko'maklashish.

Tuman yoki shahar bo'yicha Uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatida qayd etilgan yolg'iz fuqarolarga ushbu bo'linmaning ijtimoiy xodimlari tomonidan bevosita quyidagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- zarur oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va dori-darmonlarni uyga etkazib berish;

- uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarni yuvish, kimyoviy tozalashga topshirish, ta'mirlash va ularni etkazib berish;

- zarur tibbiy yordam ko'rsatish ishlarida, uy-joyni tozalashda, xonadon ichidagi santexnik jihozlarni ta'mirlashda ko'maklashish;

- qarindosh va do'stlar bilan yozishmalar olib borish bilan bog'liq iltimoslar va boshqa turdagi bir martalik topshiriqlarni bajarish.

Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari o'zlarida ro'yxatda turuvchi yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish ishlari bo'yicha har haftalik monitoring olib boradi va ijtimoiy xodimlarning xizmat ko'rsatish faoliyatiga baho beradi. Shuningdek, Markazlar yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha har chorak yakunida tegishliligiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga, ular esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ma'lumot taqdim etib boradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi Nizom¹ bilan Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar toifalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra yolg'iz fuqarolarning quyidagi toifalari uyda xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinadi:

- sog'lig'iga ko'ra o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari bilan birga yashamaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- o'zgalar parvarishiga muhtoj, voyaga etmagan yoxud I va II-guruh nogiron farzandlari bilan birga yashaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari jazo muddatini o'tayotgan yoki uzoq muddatli davolanishda bo'lgan (ruhiy, sil va boshqa kasalliklar) davri mobaynida pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari hamda homiylari yoki vasiylari bo'lmagan va qonunchilikka asosan bepul eng zarur mollarni olish imtiyozidan foydalanayotgan o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, front ortida xizmat qilgan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishga birinchi navbatda qabul qilinadi.

Yuqumli hamda ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinmaydi.

Yolg'iz fuqarolarning shaxsiy ro'yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish

¹ O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 1 iyuldagi 38-B-son buyrug'iga ilova

organlari ishtirokida aniqlanib ro'yxatga olinadi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati ijtimoiy xodimlari lavozimi ushbu bo'linmaning shtat jadvalida:

- qishloq joylarida - 6-8 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim;
- shahar joylarida - 8-10 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim hisobida belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlarning shtatdagi soni ushbu me'yorlarga muvofiq tuman(shahar)da ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan ro'yxatga olingan va xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlar maxsus xo'jalik sumkalari (bir yilga bitta sumka), xalat (bir yilga bitta xalat) hamda xonalarni tozalash uchun inventar bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy xodimlarning lavozim-maoshlari ijtimoiy ta'minot xodimlari uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan mehnatga haq to'lash tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Ijtimoiy xodimlarga yo'l haqi uchun kompensatsiya to'lovlari qonunchilikda belgilangan miqdorlarda joriy qilinadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining ta'minot xarajatlari o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Smeta xarajatlarida ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati faoliyatini amalga oshirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, kantselyariya jihozlari va boshqa inventarlarga bo'lgan ish beruvchilarning ajratmalari hamda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorlarda eng zarur mollarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar ko'zda tutiladi.

17.4. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va moliyaviy asoslari

Adolat va davlatning iqtisodiy siyosati. Rasman qaraganda Qo'shma Shtatlarda davlat iqtisodiy siyosatining qonun bilan belgilab qo'yilgan vazifalari to'liq bandlikni, narxlarning barqarorligini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat¹.

Bandlik borasidagi siyosatning bilvosita natijalarini istisno qilganda, iqtisodiy foydani taqsimlash Amerika Qo'shma Shtatlari uchun iqtisodiy siyosatning rasmiy o'rnatilgan vazifalari qatoriga kirmaydi. Lekin ko'pgina boshqa mamlakatlarda aynan iqtisodiy o'sish va adolat davlatning to'g'ridan-to'g'ri vazifalari qatoriga kiradi². Boylikni taqsimlashni yaxshilashga qaratilgan aniq va maqsadli harakatlar qilish davlat rasmiy siyosati masalasi hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy siyosati resurslarning qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ammo bu taqsimot siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilishi ham, unday bo'lmasligi ham mumkin. Jahon bankining 2006 yilgi Inson taraqqiyoti to'g'risidagi "Adolat va taraqqiyot" (Equity and Development) nomli ma'ruzasida adolat atamasiga "teng imkoniyatlar ... va ... natijalarga egalik qilishdan mahrum bo'lmaslik" deb ta'rif berilgan³. Inson hayotiy maqsadlarga erishish borasida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak, va davlat va jamiyat tomonidan yaratilgan ne'matlardan foydalanishda u yoki bu guruh jamiyat a'zolariga ustunlik berilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Qayta taqsimotning ko'zda tutilmagan natijalari. Shu vaqtgacha biz iqtisodiyotning umumiy samaradiligiga bog'liq edik. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi alohida tarmoqlar va alohida shaxslar uchun ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy iqtisodiy o'sish va narxlarni barqarorlashtirish masalalarini boshqarish maqsadidagi davlatning fiskal va monetar choratadbirlari insonlarga va ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etmay qolmaydi. Agar hukumat biznesga investitsiya qilishni rag'batlantirish maqsadida korporativ soliq stavkalarini pasaytirs, lekin byudjetning balansliligiga putur etkazmaslik uchun boshqa soliqlarni ko'paytirs, yuqori

¹ Lee, Robert D. Public budgeting systems (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) Chapter 3. P. 105-109.

² The World Bank (2005). World development report 2006: equity and development. New York, NY : Oxford.

³ World Bank (2005). World development report 2006 (p.vii). New York, NY : Oxford.

darajadagi soliqlarni to'lovchilar, bundan biror darajada manfaatdor bo'lmisalar ham, iqtisodiy samara uchun pul to'lagan bo'ladilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlari shaharlarda kambag'allik muammosini yumshatish maqsadida qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarini nazorat qilish tadbirlarini joriy qilishga harakat qiladilar. Bu choralar qisqa muddat ichida shahardagi qishloq xo'jalik mahsulotlari chakana narxlarini pasaytirsada, uzoq istiqbolda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga putur etkazadi. Qisqa davr mobaynida bir guruh - shaharlardagi iste'molchilar foyda ko'rsa, jamiyatning boshqa bir guruhi - qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari iqtisodiy zarar ko'radilar. Pirovardida umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayadi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat ham qayta taqsimotning ko'zda tutilmagan natijalariga olib kelishi mumkin. Inflyatsiya sharoitida qat'iy o'rnatilgan yoki nisbatan qat'iy daromadga ega bo'lgan shaxslarning sotib olish qobiliyati pasayadi. Bu shaxslarga ayniqsa pensiya to'lovlari hisobidan hayot kechiradigan pensionerlar, shuningdek, o'z ish haqlarini oshirishga ta'sir ko'rsata olmaydigan ishchi-xizmatchilar kiradi. Agar davlat inflyatsiyaning sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan hech qanday chora ko'rmasa, uning bunday loqaydligi daromadlarning qat'iy ish haqi oluvchilardan daromatlari inflyatsiya bilan birga o'sib boradigan shaxslar hisobiga "qayta taqsimlanishiga" olib keladi.

Yuqori foiz stavkalari, odatda daromadlilik darajasi yuqori bo'lgan oilalarga ular tomonidan qilingan investitsiyalar bo'yicha daromadlarning oshishiga olib keladi. Federal byudjetning yuqori darajadagi defitsitini qoplash uchun olingan qarz, kelgusi avlod zimmasiga yuk bo'lib tushadi va oxir-oqibatda avlodlarning o'rtasidagi tengsizlikka olib keladi (moliyaviy boshqarish bobiga qarang).

Tengsizlik muammosini hal qilish. Adolatni "teng imkoniyatlar" ma'nosidagi mazmunini tushuntirib berish oson, lekin bevosita o'lchash qiyin. Absolyut miqdorlardagi adolatsizlikni o'lchash birmuncha osonroq, shu sababli ko'pincha daromadlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik masalasi adolat va adolatsizlik to'g'risidagi munozaralarning diqqat markazida bo'ladi.

1960-yillardan beri Amerika Qo'shma Shtatlarida daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlik darajasi ahamiyatli darajada o'sdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development - OECD) ning tahlillariga ko'ra, 1980-yillarning o'rtalaridan 2000-yillarning so'ngigacha Qo'shma Shtatlarda tengsizlik ko'rsatkichi yiliga bir yarim foizga ko'tarildi. Ammo G'arbning sanoati rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarida ham bu ko'rsatkich taxminan shunday bo'lgan¹. 1980-yillardagi daromadlarning qayta taqsimlanishidagi tengsizlikning keskin oshib ketishiga, korporativ va shaxsiy federal soliqlarning asosan boy odamlar foydasiga kamaytirilishi va kam ta'minlangan shaxslarga qaratilgan ijtimoiy yordam dasturlarining qisqartirilishi sabab bo'ldi². So'nggi o'n yilliklar mobaynida fond bozorlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, keyingi davrlarda pastga qulash holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, yuqori va quyi qatlamlar o'rtasidagi farqni ahamiyatli darajada kattalashtirib yubordi. Shunga qaramasdan, ipoteka krediti bo'yicha haddan tashqari shishirib yuborilgan ko'pikning 2007 yilda yorilishi o'rtacha daromadli soliq to'lovchilarga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, uy-joylarning narxi keskin tushib ketdi, o'rtacha daromadli oilalar uchun esa ularning uy-joylari asosiy kapital aktiv bo'lib hisoblanar edi. Ikkinchidan, xuddi shu guruh o'rtacha daromadli soliq to'lovchilarning farovonligi ularning pensiya jamg'armalariga bog'liq bo'lib, bu jamg'armalarni ular, ko'p hollarda pensiyaga chiqqach, moliya bozorlarida investitsiya qiladilar. Bu bilan o'rtacha daromadli oilalar, albatta uy-joy narxlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatadilar va moliya borzori kasodga uchraydi. Lekin ular, odatda, ancha diversifikatsiyalangan daromad manbalariga ega bo'ladilar.

¹ Society at a glance 2011: OECD social indicators. (2011). Paris: OECD. Retrieved November 20, 2011, from http://www.oecd.org/document/24/0,3746,en_2649_34637_2671576_1_1_1_1,00.html#data.

² Niggle, C. (1989). Monetary policy and changes in income distribution. Journal of Economic Issues, 23, 809-822.

Ayrim iqtisodchilar hukumatlar qayta taqsimotning faqat o'rta va yuqori daromadli qatlamlar uchungina yaxshi bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishlari zarur, deb hisoblaydilar.¹ Ularning fikricha, davlat bandlikni ta'minlashga va shu yo'l bilan ishsizlik darajasini kamaytirish uchun davlat subsidiyalarini ajratishga qaratilgan siyosatni olib borishi lozim.² Demokratlar esa avvalgi soliqlarni kamaytirish barcha boy qatlamlarga proportsional tarzda qulaylik tug'dirmaganligini e'tirof etadilar. Respublika partiyasidan nomzodlar va prezident Obamaning soliqlarni ko'paytirmasdan turib xarajatlarni kamaytirish to'g'risidagi qarashlari har kim jamiyatga o'zining adolatli ulushini qo'shishi kerakligi to'g'risidagi da'volarga zid keldi³.

Yuqorida so'z borgan OECDning tahliliga ko'ra, tengsizlikni o'lchash me'yorlar bilan solishtirish, tenglikni ta'minlashda bu me'yorlardan og'ish darajasini aniqlashdan iboratdir. 3-4-ildavada adolat va uning o'lchovi kontseptsiyasi namoyish qilingan bo'lib, bir necha mamlakatda daromadlar bo'yicha tengsizlik darajasi solishtirilgan. Uning mohiyati tengsizlikning darajasini aniqlab olish, so'ngra davlatning tengsizlikni bartaraf etishga yo'naltirilgan maqsadga muvofiq siyosatini ishlab chiqishdan iborat.

Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati. Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati iqtisodiy tengsizlik muammosini, salbiy daromad solig'iga har tomonlama o'ylab yondoshgan holda, bartaraf qilish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Bu daromadni kafolatlash, stavkalarni pasaytirish va zarar ko'rmaydigan daromad darajasini belgilashni nazarda tutadi. Kafolatlangan daromadda oilaga keladigan transfer summasi nolga teng bo'ladi, stavkalarni pasaytirish – oilaning daromadlari oshib borishi bilan stavkaning pasayib borishi, zarar ko'rmaydigan daromadlilik darajasi esa oila daromadining boshqa hech qanday transfer olish huquqi bo'lmagan nuqtasidir. AQShda manfiy daromad solig'i mavjud emas, lekin uning tamoyillari u yoki bu darajada daromadlar transferi bilan bog'liq bo'lgan bir nechta dasturlarga kiritilgan.

Transfer dasturlari. Bir qancha transfer dasturlari (oziq-ovqat talonlari; ayollar, chaqaloqlar va bolalar uchun qo'shimcha ozuqa dasturlari; Medicaid dasturi) kafolatlangan daromadga tenglashtirilgan eng kam nafaqa miqdorini ta'minlaydi.

Ammo ijtimoiy ta'minot tizimidagi asosiy islohotlar doirasida insonlarning yashash davomiyligi ortib borishi bilan ularga beriladigan imtiyozlarga jiddiy cheklovlar o'rnatildi va mehnat sharoitlariga qat'iy talablar qo'yildi.

17.5. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi, shakllari va moliyaviy manbalari

O'zbekiston Respublikasida aynan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- ijtimoiy nafaqalarni aynan kam ta'minlangan oilalarga qaratish;
- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillilikni ta'minlash;
- shu maqsadlarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali etkazilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish;
- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalb etish.

Bola tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya va ko'makka muhtoj oilalar moddiy ta'minotini kuchaytirish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarni va avtomatlashgan shaffof elektron baholash mexanizmlarini joriy etish orqali nafaqalarni to'lash tizimini bolalar salohiyatini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratish maqsadida 2021-yil 1-sentabrdan boshlab :

¹ Classlessness in America: the uses and abuses of an enduring myth. (2011). The Economist, 401, September 24, 44.

² Up the NAIRU without a paddle. (1997). The Economist, 344, March 8, 92.

³ Hunting the rich. (2011). The Economist, 401, September 24, 13.

14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o'rniga kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi joriy etilgan. Unga ko'ra:

Bolalar nafaqasi 18 yoshgacha bolalar uchun 12 oygacha to'lanadi.

Bolalar nafaqasining har oylik miqdori quyidagicha:

3 yoshdan 18 yoshgacha 1 nafar farzand uchun – 250 ming so'm;

3 yoshgacha bo'lgan bitta kichik farzand uchun – 325 ming so'm;

oilaning ikkinchi farzandi uchun qo'shimcha – 150 ming so'm;

oilaning uchinchi va undan keyingi har bir farzandi uchun – 100 ming so'mdan.

Yolg'iz fuqarolarga, farzandi bo'lmagan yoki barcha farzandlari 18 yoshdan katta bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik 380 ming so'm moddiy yordam tayinlanadi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga quyidagi yordam turlari ko'rsatiladi :

moddiy ahvoli og'ir yoshlarga bir martalik moddiy yordam (BHMning 4 baravarigacha – 1,2 mln so'mgacha) beriladi;

yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismi (bir oygacha BHMning 4, bir oydan ikki oygacha BHMning 8, ikki oydan ortiq muddatli o'quv kurslari uchun BHMning 12 baravaridan ko'p bo'lmagan qismi) qoplab beriladi;

tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan yoshlarga faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarining bir yilda 30 foizi, biroq BHMning 25 baravarigacha (7,5 mln so'mgacha) bo'lgan qismi qoplab beriladi;

Respublikadagi professional ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan, shuningdek, O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriatning kunduzgi, sirtqi va kechki shaklida, magistraturaning kunduzgi yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarga to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarinnig bir qismi qoplab beriladi;

Yoshlarga ta'lim, madaniyat va san'at, sport, axborot texnologiyalar sohasiga va fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta'lim tashkilotining 3 oy muddatgacha noturar joy ijara xarajatlari uchun BHMning 50 baravarigacha (15 mln so'mgacha) miqdorda qoplab beriladi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi :

Qaror bilan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, “Yoshlar daftari” jamg'armasi mablag'lari, jumladan, quyidagilarga yo'naltiriladi:

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga BHMning 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ko'rsatishga;

yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflanadigan xarajatlarning 75 foizigacha qismini qoplashga;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarini ko'pi bilan bir yilda BHMning 25 baravarigacha miqdorda qoplashga;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratishga;

mamlakatimizdagi OTMda o'qiyotgan “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar farzandlari to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha, ammo BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda to'lab berishga;

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlariga mamlakatda yoki xorijiy davlatda davolanish bilan bog'liq xarajatlarni BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda qoplashga.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi.

Bu yo‘nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalar bo‘yicha mutlaqo yangi - “Temir daftar”, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan xotin-qizlar va yoshlar bo‘yicha tegishli “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari hayotga tatbiq etildi. Unga ko‘ra:

1. “Temir daftar”ga kiritilgan oila a‘zolari ishga joylashtiriladi
“Temir daftar”dagi oilalarning ishsiz a‘zolari bandligini ta‘minlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

yangi ish o‘rinlariga ishga joylashtirish;
mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o‘rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

qishloq xo‘jaligi bo‘limlari bilan birgalikda kooperativlarga jalb etish, g‘alladan bo‘shagan yerlarda takroriy ekin ekish va oborotdan chiqib ketgan yerlarni o‘zlashtirish hisobiga bandlikni ta‘minlash;

kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitishni tashkil etish, tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, o‘zini o‘zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish orqali bandlikka ko‘maklashish;

qurilish obyektlariga ishga joylashtirish.

2. Tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko‘maklashiladi

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarda quyidagi yo‘nalishlarda ko‘maklashiladi:

yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish;

parranda, asalari, quyon, baliq va bedana boqishni yo‘lga qo‘yish;

“Tomorqa xizmati” tashkilotlari va “Dala do‘konlari”ni tashkil etish.

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer uchastkalarini ochiq elektron tanlov asosida ijaraga berish, ajratilgan yer maydonlarini sug‘orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug‘orish tizimi va boshqalar) va elektr energiyasi bilan ta‘minlash, berilgan yerlarni o‘zlashtirish uchun (yer haydash, urug‘, ko‘chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratish ishlari amalga oshiriladi.

3. Tadbirkorlikka jalb qilinadi

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari orqali quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

biznes loyihalarni hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishni o‘rgatish;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit olishga ko‘maklashish;

kredit ajratilgandan so‘ng kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar tadbirkorligini rivojlantirishni doimiy qo‘llab-quvvatlash.

Kreditlar “Temir daftar”ga kiritilgan va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

4. Moddiy yordam ko‘rsatiladi

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatlar asosida bir martalik moddiy yordam berilishi mumkin.

Bir martalik moddiy yordamni to‘lash uchun oilalarning ehtiyojmandlik darajasidan kelib chiqib (har bir fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami ko‘rsatilgan holda) bir martalik moddiy yordam berish miqdorlari ko‘rsatilgan ro‘yxat tuman (shahar) hokimligiga taqdim etiladi.

Tasdiqlangan bir martalik moddiy yordam to‘lovlari har oyning 5 - 27-kunlarida amalga oshiriladi.

Bir martalik moddiy yordam ajratish kalendar yil davomida bir marta amalga oshiriladi.

5. Tibbiy xizmat ko‘rsatiladi

Kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

tibbiy yordamga muhtoj oilalar boshqaruv ofisi tomonidan tegishli tibbiyot xodimini jalb qilingan holda o'rganiladi;

o'rganish natijasi bo'yicha kasalligi aniqlangan va tibbiy yordamga muhtoj oila a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga yuboriladi;

tibbiy ko'rik natijasi yuzasidan ko'rsatma bo'yicha oila a'zolari tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida statsionar yoki ambulatoriya sharoitda davolanadi;

nogironlik belgilari aniq namoyon bo'lgan bemorlar belgilangan tartibda ko'rikdan o'tish uchun Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga yuboriladi.

“Temir daftar”ga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

kam ta'minlangan oila, deb e'tirof etilgan oilalar;

ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud oilalar;

kam ta'minlangan yakka-yolg'izlar va keksalar;

boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;

ko'p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;

mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;

tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar (surunkali yoki og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar);

noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar.

Un va qolipli non xarid qilish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplash uchun quyidagilarga pul kompensatsiyasi beriladi :

2 yoshgacha bolalar parvarishi uchun nafaqa yoki moddiy yordam oluvchi oilaga 50 ming so'm;

14 yoshgacha bo'lgan bolalari uchun tayinlangan nafaqani oluvchi oilalarga ham 50 ming so'm.

Kompensatsiya nafaqalar bilan bir vaqtda to'lanadi.

Qonunchilikka ko'ra har yili hokim yordamchilari yozma tavsiyanomasiga asosan :

boquvchisi xorijga mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan va “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan oilalarga BHMning 2 baravari (540 ming so'm) miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;

mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”dan biriga kiritilgan, nogironligi bo'lgan oila a'zolariga dori-darmon, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar xarid qilish uchun BHMning 5 baravari (1 mln 350 ming so'm) miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;

mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning O'zbekistonda ular bilan birga yashovchi pensiya yoshiga yetgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan oila a'zolariga kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriy va profilaktik davolanish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanma beriladi.

Shuningdek, mahallalardagi yoshlar yetakchilarining yozma tavsiyanomasiga asosan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki “daftarlar”dan biriga kiritilgan hamda mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning bolalariga mavsumiy faoliyat yuritadigan oromgohlarga bepul yo'llanmalar beriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim fuqarolarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi .

Qarorga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining quyidagi qatlamlariga bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi:

yoshga doir, nogironlik pensiyasi va nafaqasini oluvchilarga, bolalikdan nogironlik nafaqasini hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini va nafaqasini oluvchi har bir oila a'zosiga hamda o'zgarlar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishlash nafaqasini oluvchilarga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda – 300 ming so‘mdan;


Toshkent shahrida – 400 ming so‘mdan.

“Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan sifatida moddiy yordam oluvchi oilalarga hamda kam ta‘minlangan sifatida bolalar nafaqasini oluvchi oilalarning har bir 18 yoshga to‘lmagan bolasiga – 200 ming so‘mdan.

Bir nechta toifa bo‘yicha bir martalik moddiy yordam olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga bir martalik moddiy yordam har bir toifa bo‘yicha to‘lab beriladi.

Uyida vaqtincha bo‘lmaganligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra bir martalik moddiy yordam pullarini o‘z vaqtida ololmagan fuqarolar to‘lanmagan moddiy yordam pullarini 2022-yil 1-sentyabrgacha olish huquqiga ega.

Qarorga ko‘ra, “Temir daftar”ga kiritilgan hamda bir martalik moddiy yordam pullarini olmagan ehtiyojmand oilalar ro‘yxati shakllantirilib, ushbu oilalarning har bir a‘zosiga 20 kilogrammdan bepul un tarqatiladi. Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirishning ko‘pkanalli tizimi shakllangan bo‘lib, ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjud (19.1-rasm):



19.1-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan boshqa mamlakatlar kabi, O‘zbekistonda ham davlat tomonidan boshqarish lozim bo‘lgan bir qator muammolar guruhiga aholini ijtimoiy jihatdan muhofazalash muammosini samarali yechish masalasi kiradi. Shuning uchun respublikamizda islohotlar davrida aholining moddiy ahvolini keskin yomonlashtiradigan, axloqiy qadriyatlar, ma‘naviy tayanchlarni barbod qiladigan, o‘tish davrining barcha qiyinchiliklarini aholi elkasiga tashlaydigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish andozasi bizning modelimizga to‘g‘ri kelmasligi ayon bo‘ldi.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, bozor munosabatlariga o‘tishda o‘z tamoyillari va andozalarini ishlab chiqish, o‘tish davrining salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish, boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda barqarorlikning saqlanib qolinishiga xizmat qildi.

Ijtimoiy muhofaza jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy iqtisodiy holatiga muvofiq takomillasha boradi. Ijtimoiy muhofazaning mablag‘ miqdori va sifati mamlakatda joriy etilayotgan davlat dasturlariga va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun nafaqat ularga turli miqdorlarda va davomiylikda nafaqalar, moliyaviy yordamlar berish, balki ularning olgan daromadlarini imtiyozli tartibda soliqqa tortish: soliq yengilliklarini berish, soliq to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilish, ma’lum davrgacha soliqqa tortmaslik, shuningdek, aholi bandligini oshirish, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishini ta’minlash, hududlarda yangi ish o‘rinlarni ta’minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish, nogironlarga ishlash uchun sharoitlar yaratish va shu kabi boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining turmush farovonligini yanada mustahkamlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Aholini ijtimoiy himoyalashni tushuntiring. Davlatning aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha qanday kafolatlari mavjud?
2. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlik mezonlari qaysilar?
3. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy sug‘urta tushunchalarini alohida tavsiflang.
4. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya xarajatlari qanday tarkibda?
5. Kam ta’minlangan oilalarga nafaqalarni belgilash va to‘lash tartibini tushuntiring.
6. Bolali oilalarga nafaqalar belgilash va ularni to‘lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
1. Aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmining qanday boshqa moliyaviy manbalarini bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qanday holatlarda ijtimoiy ta’minlanish huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanganini va ijtimoiy ta’minot shakllarini tavsiflang.
2. Ijtimoiy ta’minot to‘lovlarini moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasining ahamiyati nimadan iboratligi to‘g‘risida qisqacha xulosa yozing

18-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI

REJA:

18.1. Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlari

18.2. Markazlashtirilgan investitsiyalarga xarajatlar

Tayanch soʻz va iboralar: davlat hokimiyati organlari; boshqaruv xarajatlari; qonun chiqaruvchi hokimiyat; ijro etuvchi hokimiyat; sud hokimiyati; oliy davlat vakillik organi; Qonunchilik palatasi; Senat; Boshqaruv samaradorigi; Boshqaruv apparati; maʼmuriy islohotlar; mahalliy hokimlik organlari; sud-huquq tizimi.

18.1. Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlari

Hozirgi bosqichda amaldagi qonun hujjatlariga va har yili tasdiqlanadigan Oʻzbekiston Davlat byudjeti parametrlariga muvofiq byudjetdan quyidagi tadbirlar moliyalashtiriladi: suv xoʻjaligi (birinchi navbatda qishloq xoʻjaligini suv bilan uzluksiz taʼminlash maqsadida);

veterinariya xizmati, oʻsimliklarni himoya qilish;
shahar, tuman va boshqa aholi yashash punktlarini obodonlashtirish;
geodeziya va kartografiyaga oid faoliyat;
tabiatni muhofaza qilish;
iqtisodiyot sohasidagi boshqa tadbirlar.

Oʻzbekiston Respublikasining **suv xoʻjaligi** murakkab kompleks tizimi boʻlib, u 4280 ming ga sugʻoriladigan yerlarni, shuningdek milliy iqtisodiyot tarmoqlarini, shaharlar va qishloq aholi yashash punktlarini suv bilan taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida:

Kanallar uzunligi 28703 km

Kollektor-drenaj tizimining uzunligi 98934 km

shu jumladan:

xoʻjaliklararo tarmoq 31093 km

Yopiq gorizontall drenaj uzunligi 39196 km

shu jumladan:

xoʻjaliklar balansida 8954 km

Gidrotexnika inshootlari soni 21030

Gidropostlar soni 20721

Suv omborlari soni 53

Inspektorlik ekspluatatsion yoʻllarning uzunligi 7131 km

Aloqa vositalarining uzunligi 23480 km

Quduq (skvajina)lar soni 14395

Chegaralovchi dambalarning uzunligi 1480 km

Sugʻoriladigan yerlar maydoni 4280 ming ga

Sugʻoriladigan tizimlar ilmiy-texnika taraqqiyoti taʼsirida tinimsiz murakkablashib borayotir. Oʻzbekistonda ularni Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi boshqaradi.¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv xoʻjaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish toʻgʻrisida” 2003 yil 21 iyuldagi 320-son Qarori bilan respublika irrigatsiya tizimini boshqarishning yangi tarkibiy tuzilmasi yaratildi.

Irrigatsiya-melioratsiya tizimining texnik ekspluatatsiyasi – sugʻoriladigan yerlarda maksimal xalq xoʻjalik samarasiga erishishga yoʻnaltirilgan tashkiliy-xoʻjalik va injener-

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi 290-son Qarori.

texnik tadbirlarning murakkab kompleksidir.

Respublika suv xo'jaligi tizimining ekspluatatsiyasi xususiyatlarga ega bo'lib, ular tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq, masalan bahor-yoz mavsumida inshootlarning va sug'orish tizimining normal faoliyati buziladi. Suv taqchilligi vaqtida suv hajmlarini tejab, rejalashtirib ishlatish muammosi paydo bo'lsa, suv sathining oshishi sharoitida kanallar va inshootlarni cho'kindilar va avariyalardan saqlash talab etiladi. Xo'jaliklarga jala va sellar katta zarar keltiradi. Suv xo'jaligi tizimidan foydalanishdagi muammolar eskicha sug'orish tizimidagi yer kanallari, ochiq kollektorlar, eskirgan inshoot va uskunalaridan foydalanish natijasidir.

Xo'jaliklararo kanallar, gidrotexnika inshootlari va sug'orish tizimi yordamchi inshootlarining, ya'ni davlat tashkilotlari balansidagi va byudjet hisobiga ta'minlanadigan ob'ektlarning ishga yaroqligi, butunligi va to'g'ri ishlatilishiga suv xo'jaligidan foydalanish tashkilotlari javobgardirlar.

Ichki xo'jalik kanallari, sug'orish inshootlarining yaroqliligiga, saqlanishiga va ulardan to'g'ri foydalanilishiga suv iste'molchilari javobgar bo'lib, ularga melioratsiyalashtirilgan yerlar va yangidan tuzilgan suv iste'molchilari assotsiatsiyasi ham birlashtiriladi.

Ekspluatatsion xarajatlarga quyidagilar kiradi: sug'orish tizimi va tarmoqlari boshqarmasining shtatlarini saqlash, gidropost, gidroinshoot, dambalar, nasos stantsiyalari, kanallar va boshqa gidrotexnika inshootlarini saqlash va joriy ta'mirlash. Bundan tashqari bu xarajatlarga himoyalash va boshqaruv ishlariga sarflar, davlat sug'orish tizimini tozalashga xarajatlar, toshqinga qarshi ishlar, transportni saqlashga, aloqa vositalari va yo'llarni joriy va kapital ta'mirlashga hamda boshqa ekspluatatsion tadbirlarga xara-jatlar kiradi.

Suv xo'jaligidan foydalanish xarajatlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son Qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasi tashkilotlar tomonidan yillik tadbirlar rejalari va suv xo'jaliklarining ekspluatatsion xarajatlari asosida tuzilib, unda tadbirlarning nomi va ular bo'yicha ishlar hajmi, ish birligining qiymati, moliyalashtirish manbasi va choraklar bo'yicha taqsimlangan ish haqi fondi aks ettiriladi. Smetalar Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi va so'ng O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy **veterinariyalar** amal qiladi va hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish hamda ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonga ham, insonga ham xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etishga doir veterinariya tadbirlari majmuidan iborat. Davlat veterinariya xizmatini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ularning qaramog'idagi hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stantsiyalari (tuman veterinariya stantsiyalari), diagnostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, laboratoriyalari, ekspeditsiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash otryadlari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa tashkilot va muassasalari amalga oshiradilar.¹

Davlat veterinariya xizmati:

epizootik vaziyatni baholaydi va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hayvonlarning egalari yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni yo'qotish tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi hududini chetdan hayvonlarning yuqumli ka- salliklari kirib

¹ «Veterinariya to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi 935-XII-son Qonuni; 1997 yil 25 apreldagi 421-I-son Qonun.

kelishidan qo'riqlash, mollar, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyo, yem-xashak, ozuqabop qo'shimchalar va chorvachilikda qo'llaniladigan boshqa vositalarni tayyorlash, tashish, xorijga chiqarish va xorijdan keltirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

kasalliklarning kelib chiqishi va hayvonlar nobud bo'lishining sabablarini tahlil qiladi, bunday hollarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, hayvonlarni davolash ishini tashkil etadi;

hayvonlarning kasalliklarini aniqlash, shuningdek yem-xashak va ichimlik suv sifatini baholash maqsadida laboratoriya-klinik hamda boshqa tadqiqotlar o'tkazadi;

hayvonlarning yuqumli, invazion kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshiradi;

sog'liqni saqlash organlari va boshqa xizmatlar bilan birgalikda odamlar va hayvonlar uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarning manbaiga barham beradi, shuningdek o'zaro axborotlar ayirboshlaydi;

veterinariya-sanitariya jihatdan yuqori sifatli chorva mahsulotlari va xom ashyosi ishlab chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

barcha chorvachilik ob'ektlari, kushxonalar, go'sht-sut va boshqa chorva mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, bozorlar va xom ashyo omborlarining veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu ob'ektlarning qurilishi va qayta qurilishini, shuningdek yer qazish ishlarini veterinariya ekspertizasidan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslaridan yuqumli kasalliklar yoyilib ketishining oldi olinishi va bartaraf etilishini ta'minlash tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishni talab qiladi;

yuqumli kasallik aniqlanganda yoki hayvonlarning o'ta xavfli kasalligi mavjudligi haqida shubha paydo bo'lganida yuridik va jismoniy shaxslarga mollarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash, chorvachilik mahsulotlari va hayvonotga mansub xom ashyoni zararsizlantirish, ularni ishlovdan o'tkazish yoki ulardan foydalanishga doir bajarilishi majburiy talablarni belgilab qo'yadi;

Qonunga muvofiq davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi.

Davlat veterinariya xizmati:

respublika va mahalliy byudjet mablag'lari;

davlatning mollarni sug'urta qilish mablag'laridan ajratmalar;

pulli xizmatlar ko'rsatganlik uchun veterinariya korxonalari, muassasalari va tashkilotlari oladigan mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

"Veterinariya to'g'risida"gi Qonun talablarini buzganlik uchun undiriladigan ma'muriy jarima pullari viloyatlar va Toshkent shahrining epizootik fondlariga tushadi.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi- ning taqdimiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomoni- dan belgilab qo'yiladigan hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari byudjet hisobidan amalga oshiriladi.¹

Idoraviy veterinariya xizmati tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xo'jaliklar hisobidan ta'minlanadi.

O'simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus vakolat bergan organ, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya- epidemiologiya xizmati, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi 421-I-son Qonuni.

Maxsus vakolatli organning vakolatlari:¹ o'simliklarni himoya qilishning samarali, ekologik jihatdan havfsiz va kam zaharli vositalarini qo'llash hisobiga qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish va ularning hosilini saqlab qolishga qaratilgan o'simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanishning yagona siyosatini amalga oshirish; o'simliklarni himoya qilish vositalarini ro'yxatga olish sinovlari natijalari yuzasidan xulosa berish; o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash reglamentlari va qoidalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklarning o'sishini boshqaruvchi vositalar ro'yxatini yuritadi hamda vaqti-vaqti bilan e'lon qilib borish; o'simliklarni himoya qilishda qo'llanilishi taqiqlangan hamda cheklangan faol va nafaol ingredientlar reestrini yuritish; o'simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish, ularni qo'llash reglamentlariga rioya etish, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'i va atrof-muhitga ta'sirini aniqlash bilan bog'liq davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish; O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqariladigan va import bo'yicha olib kelinayotgan o'simliklarni himoya qilish vositalarining sifati ustidan nazoratni uyushtirish, ulardan foydalanishga doir xulosalar berish, agar inson sog'lig'i va atrof-muhitga nomaqbul ta'sir ko'rsatayotgani aniqlansa, ulardan foydalanishni to'xtatib qo'yish; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

O'simliklar karantinining asosiy vazifalari o'simliklarning tashqi va ichki karantini bo'yicha davlat tadbirlari tizimini amalga oshirishdan iborat bo'lib, bu tadbirlar quyidagilarga qaratiladi:²

respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelib, xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan karantindagi va boshqa havfli zararkunandalardan, o'simlik kasalliklari va begona o'tlardan muhofaza etish;

karantindagi va boshqa havfli zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni vaqtida aniqlash, ularning yoyilishiga yo'l qo'ymaslik va ularni yo'q qilish, shuningdek respublikaning bu zararkunandalar, kasallik va begona o'tlardan xoli mintaqalariga ular kirib borgan;

mahsulotlari va boshqa o'simlik mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, realizatsiya qilish va ulardan foydalanishda o'simliklar karantiniga oid qoidalar va tadbirlarga rioya etilishi hamda ularning amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratini olib borish O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati, ixtisoslashgan fumigatsiya otryadlarini istisno etganda, respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatining respublikaga olib kirilayotgan, respublikadan olib chiqilayotgan va tranzit bo'lib o'tayotgan karantindagi materiallarni tekshirish va ko'zdan kechirish, shuningdek hujjatlar berish bilan bog'liq xarajatlari yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan qoplanadi.

Ixtisoslashgan fumigatsiya otryadlari o'z xarajatini batamom o'zi qoplash asosida faoliyat ko'rsatadi va karantindagi materiallarni zararsizlantirish ishlarini bajarganligi uchun kelgan tushumlardan hosil bo'ladigan maxsus mablag'lar hisobidan ta'minlanadi.

Obodonlashtirish bo'yicha xarajatlar byudjetning iqtisodiyotga qilinayotgan xarajatlarning muhim qismi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining aholi punktlarini obodonlashtirish sohasidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanib, quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

obodonlashtirish ishlari arxitektura-qurilish me'yorlari va qoidalariga, shuningdek shahar va aholi punktlarining tashqi qiyofasiga nisbatan qo'yilgan zamonaviy talablarga qat'iy muvofiq ravishda o'tkazilishini ta'minlash;

¹ O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida" 2000 yil 31 avgustdagi 116-II-son Qonuni.

² «O'simliklar karantini to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 31 avgustdagi 113-I-son Qonuni.

obodonlashtirish ob'ektlaridan sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq foydalanish hamda ularni saqlash ishlarini tashkil etish;

obodonlashtirish sohasida qo'shimcha ish o'rinlarini hamda aholi bandligini oshirish, samarali ishlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

obodonlashtirish boshqarmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Respublika shahar va aholi punktlarining zamonaviy qiyofasini yanada shakllantirish, ularni obodonlashtirishni tubdan yaxshilash, obodonlashtirish boshqarmalarini zamonaviy maxsus transport va mexanizatsiya vositalari bilan jihozlash, shuningdek band bo'lmagan aholini obodonlashtirish ishlariga jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarini obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2009 yil 22 yanvardagi PQ-1045-son Qaroriga 3-ilovaga binoan qo'shimcha xarajatlar va ularni moliyalashtirish manbalari belgilandi (50- jadval). Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, "O'zkomxizmat" agentligi Moliya vazirligi bilan birgalikda obodonlashtirish xodimlarini, ularni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlarini va xizmat ko'rsatish hududi hamda bajariladigan ishlarning sifatiga qarab ish haqi miqdori belgilanishini hisobga olgan holda mehnatga haq to'lashning tarmoq tarif setkasiga o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish yuklatilgan.

Nizomga¹ binoan **shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini saqlash va ta'mirlash** tegishli shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari yoki avtoyo'llar balansida bo'lgan boshqa tashkilotlar (Buyurtmachi yoki Byudjet mablag'larini oluvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni ta'mirlash mukammal, o'rta va joriy ta'mirlashlarga bo'linadi.

Avtoyo'llarni mukammal ta'mirlash ishlab chiqilgan, davlat ekspertizasidan o'tkazilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni o'rta ta'mirlash texnik tekshirish va texnik ko'rikdan o'tkazish natijasi asosida ishlab chiqilgan, davlat ekspertizasidan o'tkazilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan amaldagi ta'mirlash ishlari oralig'i muddatlariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni joriy ta'mirlash vaqti-vaqti bilan olib boriladigan texnik ko'rikdan o'tkazish (bahorgi va kuzgi) natijasi asosida smetalarda joriy ta'mirlash ishlari uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Avtoyo'l qoplamasi va yo'l qurilmalari holatini texnik ko'rikdan o'tkazish natijasida aniqlangan ahamiyatsiz va oson bartaraf etilishi mumkin bo'lgan shikastlanish holatlari shu avtoyo'lni joriy ta'mirlash uchun mezon hisoblanadi.

Buyurtmachi tomonidan har yili avtoyo'llarning holatini texnik ko'rikdan o'tkazish va baholash amalga oshiriladi. Buning natijasida nuqson dalolatnomalari va mukammal, o'rta hamda joriy ta'mirlash manzilli ro'yxatlari tuziladi.

Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan avtoyo'llarni ta'mirlash manzilli ro'yxatlari buyurtmachi tomonidan, moliya idoralarida ro'yxatga olingan xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida, har yili shakllantiriladi.

Mukammal va o'rta ta'mirlanadigan avtoyo'llar bo'yicha loyiha hujjatlari, resurs smetasini inobatga olgan holda, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Joriy ta'mirlanadigan avtoyo'llar bo'yicha bajariladigan ishlar ro'yxati nuqson dalolatnomalari asosida tuziladi.

Mukammal va o'rta ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish)

¹ Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlari mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha Nizom. Adliya vazirligida 2008 yil 16 mayda 1808-son bilan ro'yxatga olingan. Moliya vazirining 2008 yil 7 maydagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish) manbalari mahalliy byudjet mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisoblanadi.

Avtoyo'llarni ta'mirlash xarajatlarini moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish), qat'iy ravishda tasdiqlangan byudjet (Buyurtmachi xarajatlar smetasining 4-guruhida shu maqsadlar uchun ko'zda tutilgan) mablag'lari doirasida, Davlat byudjeti xarajatlari iqtisodiy tasnifining 100-bo'lim, 110-bobi quyidagi paragraflari orqali amalga oshiriladi:

Tasdiqlangan va kelishilgan avtoyo'llarni ta'mirlash manzilli ro'yxatlari, shuningdek oyma-oy taqsimlangan xarajatlar smetalari Buyurtmachilar tomonidan G'aznachilikning tegishli hududiy bo'limlariga va xizmat ko'rsatuvchi banklarga taqdim qilinadi.

Pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan mukammal va o'rta ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish) Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi:

bo'nak to'lovlar – birinchi ikki oy davomida joriy yilda bajariladigan ishlar qiymatining 30 foiz miqdorini teng ulushlarga bo'lgan holda;

joriy moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) – ajratilgan bo'nak to'lovlarini oyma-oy mutanosib ravishda chegirib qolishni hisobga olgan holda, haqiqatda bajarilgan ish hajmining 95 foizidan kam bo'lmagan qismi. Qolgan 5 foiz miqdordagi qismi shartnomada ko'rsatilgan kafolat muddati tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni joriy ta'mirlash bo'yicha moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) joriy yil ish hajmining 15% miqdorida bo'nak berish yo'li bilan keyinchalik, ajratilgan bo'nak to'lovlarini mutanosib ravishda hisobga olgan holda, oyma-oy moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) amalga oshiriladi.

Avtoyo'llarni ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ish uchun Buyurtmachining pudrat tashkilotlari bilan hisob-kitoblari, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan bir oyda bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari asosida, bajarilgan ish miqdori (qilingan xarajatlar) to'g'risidagi o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hisob varaq-fakturalar (ma'lumotnomalar) bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Buyurtmachilar har chorakda avtoyo'llarni ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini kelishgan tegishli hududiy moliya idoralariga shartnomaviy narxlarda mablag'larni o'zlashtirishning borishi, shuningdek manzilli ro'yxatga muvofiq ob'ektlar kesimida moliyalashtirish to'g'risida hisobot topshiradi.

Davlat byudjetini iqtisodiyotga sarflash doirasida davlat ahamiyatidagi geodeziya va kartografiyaga oid faoliyat moliyalashtiriladi.¹

Geodeziya va kartografiya mahsuloti, shu jumladan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan faoliyat natijasida olingan to'pografiya, gidroografiya, aerokosmik surat, geodeziya va gravimetriya materiallari (ma'lumotlari) davlat mulki hisoblanadi.

Davlat geodeziya nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: geodeziya va kartografiyaga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha sub'ektlar normativ-texnikaviy hujjatlar talablariga rioya etishi ustidan nazorat qilish; O'zbekiston Respublikasining davlat chegaralari va hududi kartografiya xaritalari va boshqa hujjatlarda to'g'ri aks ettirilishi ustidan nazorat qilish; geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ro'yxatga olish; geodeziya punktlarini hisobga olish; davlat kartografiya-geodeziya fondining ishlashini ta'minlash; O'zbekiston Respublikasining o'zgartishlar kiritib boriladigan ma'lumotnoma tariqasidagi xaritasini yuritish.

Davlat kadastri – Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastri yuritiladigan tabiiy, xo'jalik ob'ekti yoki boshqa ob'ekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Davlat kadastrlarining yagona tizimi O'zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari

¹ «Geodeziya va kartografiya to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi 417-I-son Qonuni.

tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob- kitobi yuritilishini, baholanishini ta'minlashga mo'ljallangan ko'p maqsadli axborot tizimi tarzida yaratiladi.¹

Davlat kadastrlari yagona tizimiga quyidagilar kiradi:

davlat yer kadastrini;
foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastrini;
davlat suv kadastrini;
davlat o'rmon kadastrini;
o'simliklar dunyosi ob'ektlari davlat kadastrini;
hayvonot dunyosi davlat kadastrini;
alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini;
binolar va inshootlar davlat kadastrini;
davlat shaharsozlik kadastrini;
gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini;
tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastrini;
avtomobil yo'llari davlat kadastrini;
temir yo'llar davlat kadastrini;
transport quvurlari davlat kadastrini;
aloqa ob'ektlari davlat kadastrini;
energetika ob'ektlari davlat kadastrini;
chiqindilarni ko'mib tashlash va zararsizlantirish joylari davlat kadastrini;
tabiiy xavfi yuqori bo'lgan tegrallar davlat kadastrini;
texnogen xavfi yuqori bo'lgan tegrallar davlat kadastrini;
kartografiya-geodeziya davlat kadastrini;
hududlar davlat kadastrini.

Yer, foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar, suvlar, o'rmonlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo'lgan tegrallar, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini ko'mib tashlash va utillashtirish joylari, binolar va inshootlar, geodeziya punktlari, avtomobil yo'llari va temir yo'llar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari davlat kadastrlarining ob'ektlari hisoblanadi.

Davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli organ va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlariga davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlarini mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtirish kiradi.

Davlat kadastrlarini yuritish tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

kadastr ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

kadastr ob'ektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;
kadastr ob'ektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;
kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;
kadastr ob'ektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;
foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash.

Byudjetdan **atrof muhitni himoyalash va saqlash** tadbirlari, yer, suv va o'rmon

¹ «Davlat kadastrlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan Qonuni.

resurslari, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlashga yo'naltirilgan tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish¹, qo'riqxonalar va milliy parklarni saqlash ham moliyalashtirish. Qo'riqlanadigan tabiiy hududlar va ob'ektlarga davlat qo'riqxonalari, milliy, tarixiy-tabiiy va memorial parklar, zakazniklar (ov qilish vaqtincha taqiqlangan yoki o'simliklar alohida qo'riq ostida bo'lgan qo'riqxonalar), tabiat yodgorliklari, botanika va zoologiya bog'lari, dendrariylar, shuningdek xalqaro Qizil kitobga va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar kiradi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini va undan oqilona foydalanilishini ta'minlash uchun hayvonlarning davlat tomonidan hisobga olinishi va ulardan foydalanish hajmlarining hisobga olinishi amalga oshiriladi, hayvon turlarining jo'g'rofiy tarqalishi, ularning miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini, ular yashaydigan muhitning tavsifini, hayvonlardan foydalanish tavsifini va boshqa zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan davlat kadastri yuritiladi.

Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi kadastrini yuritish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atmosfera havosini muhofaza qilish davlat boshqarmasi, Tabiatni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari ta'minlaydi.

Ushbu tadbirlarni moliyalashtirish iqtisodiy tasnifga binoan amalga oshiriladi. Ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar hisob-kitobi yagona tarif setkasiga binoan amalga oshiriladi. To'rtinchi guruh xarajatlari – "Boshqa xarajatlar" alohida xususiyatlarga ega bo'lib, ular atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlari doirasida amalga oshiriladi. Masalan, atmosfera havosini kuzatish, to'plash, umumlashtirish, tahlil qilish bilan bog'liq axborot va prognozlar yoki o'rmonda joriy ko'chat ekishlar, sanitar daraxt kesish (shoxlash), o'rmon yong'inlariga qarshi kurash tadbirlari va boshqalar.

18.2. Markazlashtirilgan investitsiyalarga xarajatlar

Davlat byudjetidan moliyalashtirishdan tashqari milliy iqtisodiyotning turli sohalarini investitsiyalash ham amalga oshiriladi.

Davlat investitsiyalarining maqsadlari:

iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish;

korxonalarning investitsion faoliyatini faollashtirish;

xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirish maqsadida keng jalb qilish va samarali ishlatish;

ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

yangi ish o'rinlarini tashkil etish;

¹ «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda 353-I-son Qonuni.

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvorliklariga binoan loyihalarga amalga oshirilayotgan investitsiyalar Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo'jalik sub'ektlari bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlatning **Investitsiya dasturida** o'z aksini topadi.

Investitsiya dasturi mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik taraqqiyotiga, tabiat, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish orqali respublikaning alohida tarmoqlari va hududlarining tarkibiy o'zgarishlari ustuvorliklari va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq choralar dasturi

respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha istiqbollarning tarkibiy qismi bo'lib, u davlat investitsiya dasturining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi;

investitsion loyihalar va moliyalashtirish manbalarini hisobga olgan holda, shuningdek har yili dasturning ko'rsatkichlarini aniqlashtirish bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish umumdavlat dasturi ijrosini ta'minlash orqali ob'ektni loyiha-izlanish ishlaridan boshlab to foydalanishga tushirishgacha bo'lgan siklni hisobga olib uch yil muddatga shakllantiriladi.

Investitsiya Dasturini shakllantirishning asosiy **printsipalari** quyidagilardir:

investitsion jarayonlarni boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, zarur hajmda va qulay shartlarda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish, shuningdek, loyihalarni tanlash va monitoringi mexanizmini shakllantirish asosida ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yaratish;

davlat tomonidan belgilangan ustuvorliklar asosida muhim tarmoqlar, ishlab chiqarishlar va faoliyat sohalarini tanlov asosida qo'llab-quvvatlash;

ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi) aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, iste'mol talabini faollashtirishga olib keladigan darajada birinchi navbatda investitsiyalash;

ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga, mineral-xom ashyo resurslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan, tayyor mahsulotlar sifatining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshiradigan investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

transkontinental transport koridorlariga integratsiyalashuvni o'zida mujassamlashtiruvchi transport infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvi;

tarkibiy islohotlar va olib borilayotgan investitsiya siyosatining vazifalariga mos holda o'zaro manfaatlarni hisobga olib xorijiy kapitalni jalb etish, shartnomalarni tomonlarning investitsion majburiyatlari bilan birga tuzish amaliyotini joriy etish;

oldindan belgilangan mezonlar asosida investitsion loyihalarni Dasturning manzilli qismiga kiritish;

oldin boshlangan ob'ektlarni tugatishga markazlashtirilgan investitsiyalarning birinchi navbatda ajratilishi.

Loyihalarni tanlashda asosiy **mezonlar** ularning samaradorligi, iqtisodiyotning alohida sektorlari va respublika hududlari rivojining ustuvorliklari, mahsulotning sotish ko'rsatkichlari, shu jumladan eksportga yo'naltirilganlik, jamlovchi mahsulotlarni va komponentlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda qatnashish va boshqalardir.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsion loyihalarni amalga oshiruvchilarga soliq va boshqa imtiyozlar beriladi. Har bir investitsiya loyihasi bo'yicha yoki butun O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi bo'yicha imtiyozlarning aniq ro'yxati qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

Dasturda loyihani baholash qiymati, tugallanmagan qurilish va ob'ektlarni tugatish va ishga tushirish uchun yillar bo'yicha moliyalashtirish ehtiyojlari (moliyalashtirish manbalari qayd etilgan holda) bo'yicha ma'lumotlar mujassamlashtirish bo'ladi.

Investitsiya manbalari markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan investitsiyalarga

bo'linadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarga byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, Rekonstruktsiya va taraqqiyot jamg'armasi, xorijiy investitsiyalar va Davlat kafolati ostidagi kreditlar va boshqalar kiradi.

Markazlashtirilmagan investitsiyalarga aholi, korxonalar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar va boshqalar kiradi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqatgina quyidagilarga ajratiladi:

respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha investitsion loyihalarni, davlatning maqsadli dasturlari va davlatlararo kelishuvlarni amalga oshirishga;

yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan yerlarni tiklashga, suv xo'jaligi qurilishiga va kichik gidroenergetikani rivojlantirishga;

aholi punktlari va birinchi navbatda individual qurilishlar massivlarida muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'ektlari qurilishiga;

davlat boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga;

umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga va tabiiy ofatlardan himoyalash inshootlari qurilishiga.

Dasturga kiritish uchun investitsion takliflarni tanlashga asosiy mezonlar quyidagilardir:

ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha:

mahalliy xom ashyo va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash miqyoslarini kengaytirish, ularni raqobatbardosh tayyor mahsulot darajasiga yetkazish;

yuksak texnologiyali rentabelli va resurslarni tejaydigan, eksport salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish;

kommunikatsiyalar, irrigatsiyalar, ishlab chiqarish infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

iste'mol bozorini birinchi zaruratdagi tovar va xizmatlar bilan to'ldirish;

noishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha:

aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridagi birlamgi ehtiyojlarini qondirish;

noishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari sifatini oshirish va qamrovini kengaytirish.

Dasturga kiritilishda texnologik jihatdan o'zaro bog'liq yoki tarmoqlararo ahamiyatga ega bo'lgan; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar; qishloq joylarda va mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlarda kichik biznes ishtirokida amalga oshiriladigan; respublikaning eksport potentsialini oshirishni ta'minlaydigan takliflar imtiyozga ega bo'ladilar.

Investitsion dasturga kiritilgan investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirishda yordam qilish, soliq va boshqa imtiyozlarni berish, davlat monitoringini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Moliyalashtirishda yordam byudjet ajratmalarini qaytarish va qaytarmaslik asosida taqdim etish yo'li bilan ustuvor investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun ko'rsatiladi, shu jumladan xorijiy kreditlar bo'yicha avans va boshqa majburiy to'lovlar amalga oshiriladi, shuningdek xorijiy kreditlar uchun hukumat kafolatlari beriladi. Ustuvor investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan zarur bo'lgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo'yicha jamlanma axborot-tahliliy departamenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tayyorlangan takliflar asosida tayinlanadi.

Soliq va boshqa imtiyozlarga vaqtinchalik soliqlardan ozod etish, imtiyozli soliq solish va jadallashtirilgan amortizatsiya rejimini belgilash, bojxona preferentsiyalari va boshqalar kiradi. Har bir loyiha yoki dastur bo'yicha imtiyozlar ro'yxati amaldagi qonun

hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha **axborot** buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi va o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

1. Belgilangan shaklda loyiha pasporti, loyihani amalga oshirish rejagrafigi, manzilli dastur shakllantirilayotgan muddatda loyihani amalga oshirish holati to'g'risida batafsil axborot.

2. Loyiha pasporti quyidagilarning bo'lishini taqozo etadi:

texnik tavsif;

atrof muhitga ta'sirini baholash;

ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib tashkiliy tadbirlarning samaraliligini va amalga oshiriluvchanligini baholash;

mahsulotga bo'lgan talabning hajmi va xarakteri;

muammolarni hal etishning muqobil variantlari, shu jumladan faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruktsiya qilish orqali;

moddiy va inson resurslari;

investitsion loyihaning kattaligi to'g'risida axborot.

Aniq **loyihaning tanlab olinishi** ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Aniq tarmoq yoki hududdan kelib chiqib loyihaning dastlabki baholanishi amalga oshiriladi;

Iqtisodiyotning alohida tarmoqlari va hududlari ustuvorligi asosida ajratish amalga oshiriladi.

Vazirlik va idoralar – xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarning mablag'larini jalb qilish asosida amalga oshiriladigan investitsion loyihalarning buyurtmachilari, Moliya vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, shuningdek vakolatli banklar bilan birga- likda belgilangan muddatlarda (dekabrning o'rtasiga qadar) qarz kelishuvlari kuchga kirishi bo'yicha tadbirlar (protseduralar)ni tugallashlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi:

har chorakning yakuniga ko'ra Investitsion dasturning ijrosi borasida axborot-tahlilni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisida muhokama qilish uchun taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda buyurtmachilarning qurilishlari manzilli ro'yxatiga konkurs savdolari va alohida qurilishlar va ob'ektlar bo'yicha o'zlashtirish natijalari bo'yicha tasdiqlangan limitlar chegarasida tuzatishlar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura-qurilish qo'mitasi loyiha va qurilish-montaj ishlarining sifatini nazorat qilishni ta'minlaydi, shuningdek shartnoma majburiyatlari bajarilishi va markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlar bo'yicha qurilish muddatlariga investitsion loyihalarni amalga oshirish davri davomida rioya qilinishini ta'minlaydi va olib borilayotgan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har chorakda hisobot beriladi.

Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasi Davlat arxitektura-qurilish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan kapital qurilishda narxlarning shakllanishi ustidan muntazam nazorat olib boradi.

Investitsiya dasturi o'zida tahliliy qism bilan ishlab chiqilishi zarur bo'lgan istiqbolli investitsion loyihalarning jamlanma ro'yxatini mujassamlashtiradi.

Tahliliy qismda kapital qo'yilmalar hajmlarining va ularni moliyalashtirish manbalarining respublika iqtisodiyoti rivojining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, Dastur samaradorligining baholanishi, loyihalarni tanlash mezonlari bilan bog'liqlikdagi asosnomalari kiritilgan bo'ladi. Barcha hisob-kitoblar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida uch yillik muddatga va investitsion loyihalarning manzilli dasturiga binoan hisoblab chiqiladi. Manzilli qismga markazlashgan manbalar, Hukumat kafolati ostida taqdim etiladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar evaziga amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar kiradi.

19-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, PROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI


REJA:

- 19.1. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarini saqlash xarajatlari
- 19.2. Dunyo mamlakatlarida davlat byudjetining boshqaruv xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari
- 19.3. AQSHda boshqaruv xarajatlarining byudjetdan moliyalashtirilishi

1. **Tayanch so'z va iboralar:** *suv xo'jaligi (birinchi navbatda qishloq xo'jaligini suv bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida); veterinariya xizmati, o'simliklarni himoya qilish; shahar, tuman va boshqa aholi yashash punktlarini obodonlashtirish; geodeziya va kartografiyaga oid faoliyat; tabiatni muhofaza qilish; iqtisodiyot sohasidagi boshqa tadbirlar xarajatlari*

20.1. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarini saqlash xarajatlari

O'zbekiston Respublikasi boshqaruv orgalari tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi barcha organlarning hamda barcha darajadagi sud, prokuratura organlarining yig'indisidan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati tizimidan iborat.




20.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida hokimiyat bo'linishi

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi va u ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i bo'lib O'zbekiston Respublikasining Prezidenti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.


Boshqaruv xarajatlari - davlat o'z funksiyalari bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan sarflarni aks ettirishi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, respublika va mahalliy byudjetlar doirasida amalga oshiriladi.

Boshqarish xarajatlarining iqtisodiy mohiyati turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, ya'ni har bir xarajat o'zining sifat va miqdoriy ifodasiga egadir.



20.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv xarajatlarining sifat va miqdor ifodasi

Jamiyatning iqtisodiy hayotida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning roli oshishi byudjetda boshqarish xarajatlarining turli ko'rinishlarida bo'lishini asoslaydi.



20.3-rasm. Byudjetning boshqaruv xarajatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillar

Ushbu omillarni muvofiqlashtirish davlat rivojining har bir bosqichida iqtisodiy ehtiyojlari, mamlakatning boshqarish darajasi va ko'rinishlariga mos kelishi boshqarish xarajatlari tizimini keltirib chiqaradi.

Boshqaruv samaradorigi boshqaruv organlarida qancha odam ishlayotgani yoki boshqaruvni amalga oshirish uchun qancha mablag' ajratgan bilangina xarakterlanmay balki uning qanchalik samarali faoliyat ko'rsatayotganligi, oldiga qo'ygan vazifalarni qanchalik darajada bajarilishi bilan xarakterlidir.

Boshqaruv apparati soni va uning ta'minotini xarajatlari qisqarishi ma'muriy islohotlarning amaliy natijasi bo'ldi. Bu ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri edi. Bu xarajatlarni takomillashtirish va qisqartirishda, o'z navbatida korxonalar va aholining soliq yukini kamaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Davlatning iqtisodiyotini boshqarishdagi rolini qisqartirishga qaratilgan chora - tadbirlar majmuini ko'zda tutuvchi ma'muriy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha keng miqyosli ishlar qilindi. Asosiy vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari bo'yicha hukumatning 49 ta qarori qabul qilindi. Ma'muriy islohotlar jarayonida byudjet mablag'lari 42 mlrd. so'mdan ortiq miqdorda tejaldi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlarining qisqartirilishi natijasida ularning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etadi yoki aholi mehnat bilan band qismining 1,6 % idan oshmaydi. Bu MDHning boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun qo'yidaga jadvalni keltirishimiz mumkin.

20.1-jadval

Mehnatga layoqatli yoshdagi va ish bilan band aholi tarkibida boshqaruv xodimlarining solishtirma salmog'i¹

Mamlakatlar	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlari soni, ming kishi	Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan boshqaruv xodimlari soni	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonida boshqaruv xodimlari solishtirma salmog'i, % hisobida	Band aholining sonida boshqaruv xodimlar solishtirma salmog'i, % hisobida
O'zbekiston	265,3	32,3	6,0	7,1
Armaniston	25,8	8,1	1,2	2,3
Belarus	147,6	14,9	2,7	3,4
Gruziya	76,7	16,3	2,3	4,2
Qozog'iston	280,4	19,2	3,4	4,0
Qirg'iziston	66,3	13,3	2,6	3,6
Moldova	66,0	15,3	3,4	4,4
Rossiya	3223,3	22,1	3,9	4,9
Ukraina	956,8	20,0	3,5	4,5
O'zbekiston	155,8	6,1	1,3	1,6

Jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Qozog'istonda – har ming kishiga 19,2 kishi va aholi mehnat bilan band qismining 3,4 % i, Ukrainada – 20 va 4,5, Rossiyada –22,1 va 3,9.

Mahalliy byudjetdan mahalliy hokimlik organlari boshqarish xarajatlari (o'z-o'zini boshqaruv organlari), ya'ni qishloq fuqarolari yig'inlari boshqaruvi, mahalla komitetlarini saqlash kabi xarajatlar amalga oshiriladi.

Huquqni himoya qiluvchi, sud va adliya organlarini moliyalashtirish

Boshqaruv xarajatlari tarkibining guruhlanishi				
Markaziy hokimiyat organlari va boshqaruv tarkibiga qilinadigan xarajatlar.	Ishlab chiqarish faoliyati sohasini boshqaruvchi organlar xarajati	Boshqaruv apparatining ijtimoiy soha bilan shug'ullanuvchi organi xarajati	Sud, prokuratura va adliya organi xarajatlari	Huquq tartibot organlari xarajati

20.4-rasm. Boshqaruv xarajatlari tarkibining guruhlanishi

Boshqarish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari ancha salmoqqa ega bo'lib, bu xarajatlar Moliya Vazirligi boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirish deportamentida byudjet hisobining 209-bo'limida alohida xarajat moddalari bo'yicha xarajatlar ko'rsatilgan bo'lib, shunga asosan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va prokuratura, huquqni himoya qilish organlarini saqlash xarajatlari, mazkur sohadagi quyidagi tarmoq tarkibiy tuzilishlari bo'yicha amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik Sudi;
- Qaroqalpog'iston Respublikasi Oliy Sudi;
- viloyat, tuman va shahar sudlari;

¹ "Ma'muriy islohot- iqtisodiy taraqqiyot omili". Soliq va bojxona xabarlar, 2004. 16 mart 11(503) – son, 3 - b.

- davlat notarial idoralari;
- respublika prokuratura organlari.

Mazkur soha boshqaruvi organlarini xarajatlari to'lig'icha respublika byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi organlari, Respublika Prezidenti Apparati va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari asosiy qismi respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladi, qisman qismi mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi va respublika byudjeti xarajat qismida alohida bobda aks ettirilib boriladi.

Boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari uchunchi tarkibiy qismda Respublikamiz boshqaruv organlari asosiy qismi o'z aksini topadi. Bunda Respublika Vazirlar Mahkamasi barcha Vazirliklar, Davlat qo'mitalari, Respublika Saylov uchastkasi, Respublika Vazirlar Mahkamasi avtoxo'jaligi, Respublika Prezidenti Devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi ma'muriy binolaridan foydalanish boshqaruvi xarajatlari, shuningdek, Respublika byudjetdan moliyalashtiriladigan Qo'mita va Markazlar hamda boshqa shu kabi davlat boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari tashkil qiladi, bu xarajatlar Respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

Prokuratura organlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti respublika byudjeti mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat notarial idoralari vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir. Davlat notarial idoralari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning notarial harakatlarni amalga oshirganlik hamda huquqiy va texnik tushuntirish xizmatlar ko'rsatganlik uchun olgan pul mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa moliyaviy tushumlari uning faolatini mablag' bilan ta'minlash manbai hisoblanadi.

Notarial idoralar qo'shimcha o'zlarining byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalariga ham ega. Notarial harakatlar sodir etilganligi uchun notarial idoralar tomonidan undiriladigan davlat bojining 15 % i miqdoridagi ajratma to'g'ridan - to'g'ri byudjetdan mablag' bilan ta'minlash o'rniga davlat notarial idoralari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbai etib belgilangan. Bunda undiriladigan davlat bojlari: 70 % i - mahalliy byudjetlarga; 15 % i - Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini shakllantirishga; 15 % i - mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining maxsus hisob raqamlariga to'plash yo'li bilan davlat notarial idoralari faoliyatini mablag' bilan ta'minlashga taqsimlanadi.

Sudlar va adliya organlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ular faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 18 - martdagi Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi qaroriga muvofiq yagona Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Jamg'arma daromadlari:

- davlat byudjetiga umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha jarimalar va davlat bojlari to'lashdan tushayotgan summalarining 20 % i;

- davlat byudjetiga xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha davlat bojlari va jarima sanksiyalarini to'lashdan tushayotgan summalarining 15 % i;

adliya organlari, shu jumladan Fuqarorlik holatini dalolatnomalarni yozish (FHDYo) organlari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 20 %, davlat notariuslari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 15 % ;

- adliya organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni, advokatlik byurolarini, firmalarni, hay'atlarni, xususiy notarial idoralarni ro'yxatdan o'tkazganlik, notarial va advokatlik faoliyatini litsenziyalaganlik, yuridik kadrlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazganlik uchun undiriladigan mablag'lar, shuningdek adliya organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida undiriladigan jarimalar;

- ijro ishi bo'yicha byudjetga undirilgan summadan 30 % miqdoridagi ajratmalar, soliqlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlar undirilishi bunga kiritilmaydi;

- davlat daromadiga o'tkazilgan mol - mulkni sotishdan tushadigan mablag'larning 10 % i va boshqa daromadlar.

Jamg'armaning mablag'lari birinchi galda umumiy yurisdiksiya sudlari binolarini qurish va ta'mirlash, ularni zarur anjomlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy - texnika vositalari bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Shuningdek qo'shimcha:

1) xo'jalik sudlarini va adliya organlarini, shu jumladan notariatni, FHDYoni va sud ijrochilarini moddiy-texnik ta'minlashga;

2) sudlar va adliya organlari xodimlariga malaka klasslari, darajalari va muayyan vaqt davomida ishlaganligi uchun ustama va qo'shimcha haq to'lashga, ularning malakasini oshirishga, kadrlarni o'qitishga;

3) sudlar va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishga;

4) sudlar va adliya organlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlarga yo'naltiriladi.

Ichki ishlar vazirligi va uning quyi organlari, bo'linmalari, muassasalari va tashkilotlari respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlari tomonidan avtomototransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazganlik uchun undiriladigan summaning 85 % i mahalliy byudjetlarga, qolgan 15 % i O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hisob raqamiga o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va ichki ishlar organlarini saqlashga ajratiladigan mablag'lar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik markaziy apparatining tarkibi, shtatlari, xodimlarining moddiy - texnik va ijtimoiy - maishiy ta'minoti, shuningdek ichki ishlar organlarining tarkibi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ularning soni va ularni saqlashga ajratilgan mablag'lar doirasida belgilanadi.

Adliya organlari va muassasalarini moddiy - texnik ta'minlash, shuningdek adliya tizimining xodimlari mehnatiga haq to'lash Vazirlikka ajratiladigan mablag' doirasida davlat byudjeti hamda Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Sudyalarning ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat. Sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda respublika byudjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urta qilinadi.

Quyidagi ko'rilgan zarami qoplash bo'yicha to'lovlar respublika byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilib, keyinchalik ular aybdor shaxslardan qonunda belgilangan tartibda undirib olinadi:

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolsa, yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilganida sudyaning yigirma besh oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatining doimiy yo'qolishiga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilganida sudyaning besh oylik ish haqi miqdorida;

sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilganida majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda unga ish haqi va tayin etilgan pensiya o'rtasidagi farq har oyda to'lab boriladi;

sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilishi oqibatida halok bo'lsa (vafot etsa), uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga sudya ish haqining ularning hissasiga to'g'ri keladigan qismi va boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan ularga tayinlangan pensiya o'rtasidagi farq har oyda, majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda to'lanadi;

sudyaning o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan unga tegishli mol - mulkni yo'q qilish yoki shikastlash oqibatida etkazilgan zarar sudyaga yoki uning oila a'zolariga to'laligicha qoplanadi.

Sudlarni moliyalash, ularning moddiy - texnika va o'zga xil ta'minoti, binolarini qo'riqlash va saqlab turish respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Ajratilgan mablag'lar: Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi maxsus vakolatli organ tomonidan, harbiy sudlar uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari uchun tegishlincha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi tomonidan taqsimlanadi.

Xo'jalik sudlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tomonidan tashkiliy va moddiy-texnika jihatidan ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy sudning ishi respublika byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'ladi.

20.2. Dunyo mamlakatlarida davlat byudjetining boshqaruv xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Boshqa mamlakatlarda byudjetlashtirishda byudjet ijrosi hisob-kitoblaridan foydalanish odatiy hol. Yangi Zelandiyada, 1990-yil o'rtalarida, byudjet ijrosi ma'lumotlarining katta miqdoriga tayanib, resurslarni taqsimlash tizimini takomillashtirish zarurligi aytiladi. AQSh va ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy va fiskal inqiroz 2007-yildagi iqtisodiy inqiroz sababli boshlangan, mazkur bobning boshida aytilganidek, ular davlat byudjet ijrosi samaradorligiga e'tiborini qaratdilar. Buyuk Britaniyada mahalliy hukumatlar 1990-yilda ijro menejmenti tashabbuslarini boshdan kechirdi. Hukumat tomonidan «Ijroning eng yuqori indikatorlari» (the Best Value Performance Indicators) deb nomlangan ma'lumotlar majmui ishlab chiqildi. 2008-yilda «Milliy indikatorlar majmui» nomli yagona majmua tayyorlandi. 2011-yilda mahalliy hukumatlar uchun Yagona ma'lumotlar ro'yxati ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Viktoriya, Avstraliyaning shtatida mahalliy hukumat boshqaruvchilarining 50,0%i byudjet islohotlari orqali rejalashtirish ishlarini yaxshi tomonga o'zgartirdilar va 47,0%i resurslarning taqsimlanishiga ta'sir qildi¹. Singapurda byudjet ijrosi ma'lumotlaridan keng foydalanildi va natijaviy ko'rsatkichlarning ahamiyati oshdi. Shunga qaramasdan, Singapur byudjet to'g'risida qaror qabul qilishda byudjetlashtirish uslubini ishlatayotganda dastur ma'lumotidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga va unga byudjet ma'lumotlarini bog'lashga harakat qilmadi. Kanada, Angliya, va Amerika Qo'shma Shtatlarda hukumatlar tadqiqotlarga ko'ra, byudjet ijrosi hisobotlaridan strategik rejalashtirish va qaror qabul qilishda foydalanilganligi aniqlandi. «The OECD Journal on Budgeting» jurnali mundarijasini o'rganib chiqib aytish mumkinki, byudjet ijrosini baholashni amalga oshirish, byudjetlashtirish, byudjet ijrosi yoki shunga o'xshash mavzular Polsha (2011), Turkiya (2010), Litva (2010), Moldava (2010), Xitoy (2010) va Fillipin (2010) da ikki yil ichida nashr etilgan maqolalarda mavjud.²

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va Kanadadagi boshqaruv sohasidagi islohotlar, jumladan, byudjet islohotlari «Yangi davlat boshqaruvi» (the New Public Management) deb nomlandi. Vaqt o'tgan sari, bu harakat Evropaga tarqaldi, ayniqsa Avstraliya, Germaniya va Shvetsariyada rivojlantirildi. «Yangi byudjet boshqaruvi» Amerika Qo'shma Shtatlariga etib keldi, hatto boshqa davlatlarda hech qanday ma'no-mazmun bermasa ham,

¹ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, LLC, An Ascend Learning Company. P: 219

² Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, LLC, An Ascend Learning Company. P: 219

«Yangi byudjet boshqaruvi» dan foydalanish ko‘paygan yoki kamaygan bo‘lsa ham, Amerika Qo‘shma Shtatlari olimlari tomonidan «Yangi byudjet boshqaruvi» nimani o‘zgartirishini tushunishga harakat qilindi. Masalan, bahslarga ko‘ra ba‘zi olimlar tomonidan «Yangi byudjet boshqaruvi» keraksiz deb e‘lon qilindi. Shu o‘rinda aytish kerakki, «Yangi byudjet boshqaruvi» byudjet islohotlaridan kengroq tushunchadir. Odatda «Yangi byudjet boshqaruvi» juda ko‘p boshqa o‘zgarishlar va yangiliklarni o‘z ichiga oladi, jumladan xususiy lashtirishda rahbarlar uchun moslashuvchanlikni oshiradi.¹

20.3. AQSHda boshqaruv xarajatlarining byudjetdan moliyalashtirilishi

Amerika Qo‘shma Shtatlarning Qishloq Xo‘jaligi Departamenti 1960 yillarning boshida «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi, tadqiqotning natijalari qoniqarli bo‘lmadi. «Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi mavjud bo‘lgan muammolarni boshidan ko‘rib chiqishni talab qiladi va shu bilan ma‘muriyatning vaqtini oladi. Tizim haqiqatdan ham murakkab edi, chunki siyosiy sohaga taaluqli ko‘p dasturlarni tahlil qilishga vakolat bo‘lishi kerak, ma‘lumot va tahlillar aniq bo‘lishiga qaramay unga ruxsat berib bo‘lmaydi. Agentliklardan tashqarida ko‘p tayyorlangan ish hujjatlarini qaror qabul qiluvchilar ko‘rib chiqa olishmadi.²

Nol-bazali byudjetlashtirishning salbiy tomonlaridan biri bu – uning ochib-tugatiladigan byudjetning analoglaridan biri ekanligidir. Ikkala uslub (yondoshuv)da haqiqatdan uzoq bo‘lgan prognozlar tayyorlanadi. Ochib-tugatiladigan byudjet tugamaydigan resurslarni prognoz qiladi. «Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi shunday pronoz qiladiki, qaror qabul qiluvchilar uchun dasturlar aniqligi etarlicha bo‘ladi, ularga sarflangan vaqtni oqlaydi. Haqiqatdan ham, har qanday qonuniy vakolatga ega organ xodimlar har bir moliya yilida berilgan bir nechta dasturlarni o‘chirish huquqiga ega. Shu sababli, hukumat dasturlarni har yili ishlatganidan ko‘ra, «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi bir yilda dasturlarni tanlash huquqiga ega bo‘lgani foydali bo‘ladi, Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubidan foydalanib, ba‘zi bir dasturlarni yaxshilab ko‘rib chiqish mumkin, barcha qayta ko‘rib chiqilgan dasturlar besh yillik davrda ishlatiladi.

1970 yillarda «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi yangi mashhurlikka ega bo‘ldi.³ Georgia shtati va uning hukumatiga katta e‘tibor berildi, 1977 yilda Federal hukumatga Jimmi Karter Prezident bo‘layotganida «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubining yangi ko‘rinishini olib keldi. Jimmi Karter ma‘muriyati versiyasining uchta muhim xususiyati mavjud:

«Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubidan foydalanish federal darajada bir nechta sabablarga ko‘ra tanqid qilindi. Eng ko‘p eshtilgan shikoyatlar byudjet talabnomasini tayyorlashga ko‘p vaqt sarflanishi va byurokratik to‘siqlar mavjudligi to‘g‘risida bo‘ldi.⁴ Prezident Jimmi Karter so‘zlariga qaraganda, «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi turli agentliklardan har bir soliqdan tushgan mablag‘larni tasdiqlashni talab qilmadi. Ma‘muriyatdagilar qanday qilib agentliklar maksimum darajada daromadlar tushayotgan bir paytda minimum darajada ijtimoiy himoyalangan operatsiyalarga mablag‘lar o‘tkazilishidan hayron qolishdi.

«Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubida kamdan-kam hollarda zarur bo‘lmagan dasturlar moliyalashtirildi, ularning hajmini o‘sishi qisqartirildi yoki dasturlar ichidan ustuvor yo‘nalishlar qayta belgilandi.⁵ Ba‘zi sohalaridagi tejashlar minimum darajadagi dasturiy

¹ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, Llc, An Ascend Learning Company. P: 220

² Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, Llc, An Ascend Learning Company. P: 205

³ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, Llc, An Ascend Learning Company. P: 206

⁴ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, Llc, An Ascend Learning Company. P: 206

⁵ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, Llc, An Ascend Learning Company. P: 206

moliyalashtirish evaziga bo'ldi, lekin bu agentliklarni g'azablantirdi. Mazkur dasturlarning ma'murlari o'zlarini jazolangandek his qilishdi, chunki ular hozirgi byudjetdan kam bo'lgan mablag' olish bilan, dasturlarni qanday qilib to'liq moliyalashtirishni bilishdi. Mazkur tizim o'ziga byurokrtiyani jalb qilayotgandek tuyuldi va bu narsa siyosiy qaror qabul qilishda kam foyda berdi. Reygan Prezident bo'lgandan so'ng, 1981 yil yanvar oyida «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubidan boshqa foydalanmaslik to'g'risida qaror qabul qilindi.

Shtatlarda va mahalliy darajalardagi tajribani, federal hukumatning tajribasi bilan solishtirsa bo'ladi. «Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubining natijalari bo'yicha katta va'dalar qilinishiga qaramasdan, mazkur uslubdan foydalanilmadi, lekin boshqa davlatlar byudjet tizimida «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubdan foydalanishni davom ettirishdi.

«Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubi 1970 yillardan amaliyotda ishlatilmadi, chunki juda ham ko'p ma'lumotlar talab qildi, bu ma'lumotlar hozirgi texnologiyalarga solishtirganda, juda ham eski texnologiyalar bilan o'rganilishi kerak. Bunday xulosa berishning sababi shunday tushuntiriladiki, hozirgi texnologiyalar oldindan byudjet islohotlarida «Nol-bazali byudjetlashtirish» uslubini salbiy tomonlarini ko'rsata oldi. Bu tadqiqotning ijobiy bo'lib ko'rinishi, byudjet to'g'risida qaror qabul qilishda dasturiy ma'lumotlardan foydalanishning o'sishi bo'ldi, lekin byudjetlashtirish jarayonida ishlamagan boshqa uslublarning ishlashini sinab ko'rishga urinish emas. Lekin, «nol-bazali byudjetlashtirish» uslubidan foydalanilmaslikning asosiy sababi bu – o'zining muhim funktsiyasining asosida nol borligidir, siyosiy xizmatlar bunday ma'noga ega emas.

Obama ma'muriyati boshqaruvi va byudjet tashabbuslari¹. Oldingi ma'muriyatga o'xshab, Obama mamuriyati umumiy hukumat bosh qaruidagi yangiliklar va maxsus byudjet islohotlari bilan tanishtirib chiqdi. Bular asosida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlarini kamaytirish va natijalarni yaxshilashga ahamiyat berildi. Yangi ma'muriyatning birinchi byudjetni qabul qilishdagi oltita boshqaruv tashabbuslari tasvirlangan:

- PART ni yangi mehnat unumdorligini oshirish va tahlil ishlarini «Ijroga asoslangan byudjetlashtirish» va «Rejali-dasturli byudjetlashtirish» bilan almashtirish;
- Qonunlarni tiklashni tegishli mablag'lar bilan ta'minlash;
- Federal tizim xodimlarini o'zgartirish;
- Sohalarni boshqarish;
- Federal shartnomalar tuzish va sotib olishni qayta isloh qilish; va
- Yangi texnologiyalarni amalga oshirish, oshkoralikni ta'minlash va tiniqlikni oshirish.

Federal agentliklar tomonidan (PART) da yaxshilangan byudjet ijrosini baholashni ko'rish mumkindek tasvirlangan, lekin aslida byudjet ijrosini baholashdan foydalangan holda, ijroni amalga oshirish uncha omadli bo'lmadi. Obama ma'muriyati tomonidan yaxshi ishlaydigan va ishlamaydiganlarni baholashga urg'u berilgan va rasmiy baholashlar www.performance.gov web sahifada joylashtirilgan. Yangi www.performance.gov web sahifasida yillik va ko'p yillik strategik rejalar, agentlik dasturini yaxshilash hisobotlari va yillik agentlik hisobotlari xulosa bilan joylashtirilgan. Ilk baholash sahifasini «ijro ostida» deb tanqid qilindi. Garchi, mehnat unumdorligini oshirishni yaxshilash va tahlil chegarasida ijro yaxshilangan va prognoz taxminlarining tahlili bo'lsa-da, aslida qat'iy dasturlar bo'yicha baholashlar o'tkazish va natijalarini nashr qilishni rivojlantirish kabi muayyan tashabbuslar zarur edi.

2011-moliyaviy yilda Obama mamuriyatiga hukumatdan byudjet ijrosi bo'yicha to'liq hisobotlarni xulosa bilan qabul qilishni, har bir agentlikdan kamida o'ntadan kam bo'lmagan va to'liq ijro maqsadlari haqida savollar berishga va aniqlashga urg'u berish ta'kidlandi. Ustuvor yo'nalishlar nafaqat muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida faqatgina jarayonning samaradorlik darajasinigina emas, ta'sir ko'rsatish kuchini o'lchashga qaratilishini kerak. Federal dasturlarga haqiqiy ta'sir etuvchi baholash tadqiqotlarini hujjatlashtirishda eng munosib

¹ Robert D. Lee, Jr. Public Budgeting Systems. Ninth Edition. Copyright© 2013 By Jones & Bartlett Learning, LLC, An Ascend Learning Company. P: 216

baholash usullaridan foydalanish kerak. Islohot yo'nalishlarining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o'zlari tanlagan maqsadlarga erishishda agentliklarga katta ma'suliyat yuklash va erishgan yangiliklarni hukumat, Kongress va xalq orasida oshkora etishdir.

2007-yilda boshlangan va chuqurlashayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga javoban rasmiy byudjet jarayonidagi bosqichlar muddatidan uzoqlasha boshladi va federal byudjet taqchilligi oshdi. Byudjet taqchilligini kamaytirish uchun byudjet islohotlari o'tkazilishi va muayyan vazifalarni bajarish uchun individual tashabbuslar haqida o'ylash kerak bo'ldi. Misol uchun, Qayta ta'mirlash ishlariga zarur bo'lgan mablag' xarajatlarini ta'minlash uchun, (davlat va iqtisodiyot bobiga qarang) agentliklar qayta ta'mirlash ishlariga jami byudjet loyihasida ko'zda tutilgan mablag'lardan ajratilishi so'raldi. Barcha agentliklar orasida «of no-bid» yoki «sole-source» nomli kontraktlar kontrakt va kelishuvlar sonini kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ish bajarilishi aniq bo'lmagan miqdordagi kontraktlar kamaytirildi, bu Federal byudjet mablag'larini noto'g'ri ishlatish harakatlarini kamaytirishga qaratildi.

Yuqorida muhokama qilganimizdek, dastlabki yillarda asosiy tasdiqlangan byudjet islohotlarini amalga oshirish Obama ma'muriyati zimmasida bo'lmagan, balki GPRMA (2010) o'z ichiga olgan edi. Albatta, bu Kongress va ma'muriyatning tashabbusi emas. Bundan ko'rinadiki, GPRMA ning ko'p xususiyatlari qonunda aniq aytilmagan va byudjetni ijro etish tartibini amalga oshirish rasmiylashtirilmagan. Barcha muammolarni hal qilishmagan va to'g'ri qarorlar qabul qila olishmagan bo'lsa ham, shunga qaramasdan, byudjet ijrosidan, jumladan, byudjet ma'lumotlaridan amaliyotda foydalanish ishlari davom ettirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarining faoliyati xususiyatlari?
2. Davlatning davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash tizimining zarurligi va ahamiyati qanday?
3. Davlat byudjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlarining tarkibi va tuzilishi qanday?
4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari qanday rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi?
5. Sud, prokuratura organlari xarajatlar smetasini moliyalashtirish tartibi qanaqa?
6. Boshqaruv xarajatlarining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi xususiyatlari qanday?
7. Boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlar ishtiroki qanday?
8. Davlat byudjetining boshqaruv xarajatlaridan samarali foydalanishning qanday yo'llari mavjud?
9. Boshqaruv xarajatlarini qisqartirish muammolari?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi ma'ruzalari va qarorlarida boshqaruv va sud-huquq tizimini isloh qilish kontseptsiyasi bayon etilgan?

20-MAVZU. BUDJET NAZORATINI TASHKIL QILISH

REJA:

- 20.1. Byudjet nazoratining mazmuni, prinsiplari va ahamiyati
- 20.2. Byudjet nazoratining turlari, shakllari va usillari
- 20.3. Byudjet nazorati organlari, ularning guruhlanishi, ularning vazifalari, huquq va majburiyatlari

Tayanch soʻz va iboralar: *davlat moliyaviy nazorati; byudjet-moliya nazorati; soliq nazorati; bojxona nazorati; valyuta nazorati; pul muomalasi nazorati; taftish; tekshirish; dastlabki nazorat; joriy nazorat; yakuniy nazorat; yoppasiga nazorat; tanlov asosidagi nazorat; kompleks nazorat; mavzuli nazorat; muqobil nazorat.*

22.1. Byudjet nazoratining mazmuni, prinsiplari va ahamiyati

Har bir mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy asosini davlat byudjeti tashkil etadi. Uning holatiga qarab nafaqat davlatning iqtisodiy qudratiga, balki ijtimoiy rivojlanishiga ketadigan sarf-xarajatlari ham baho berish mumkin. Davlat byudjeti iqtisodiy siyosatning muhim vositasi hamda har qanday davlat moliya tizimining markaziy bo'g'inidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti nazoratini takomillashtirish muhim ahamiyatga molik masaladir. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasini o'z domiga tortgan moliyaviy-iqtisodiy tanglikni keltirib chiqargan sabablardan biri davlat mablag'ini haddan tashqari ko'p, nazoratsiz sarflash ekani ayon bo'lgan bir sharoitda bu muammo g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etib, inqirozning salbiy oqibatlarini engillashtirish maqsadida byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilishning qat'iy choralari qo'llanildi. Shuningdek, moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda — soliqlar, tushumlar, bojlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat tizimini joriy etishda davlatning rolini oshirishga qaratilgan choralar ko'rilayotgani o'zini to'liq oqlamoqda.

Mamlakat iqtisodiyoti va uning ajralmas qismi bo'lgan byudjet tizimi samarali amal qilishining zaruriy sharti bo'lib byudjet nazorati xizmat qiladi.

Byudjet nazorati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustidan davlat moliyaviy nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati ijtimoiy faoliyatning alohida bir sohasiga aylanib bormoqda. Davlat moliyaviy nazoratining ob'ekti bo'lib boshqarishning barcha darajalarida moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishidagi taqsimlanish jarayonlari maydonga chiqadi. Bu boradagi davlat moliyaviy nazorati avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishni, davlat mulkidan oqilona foydalanishni ta'minlashga hizmat qilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat byudjeti va davlatning maqsadli jamg'armalari mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazorat;

- pul muomalasini tashkil etish ustidan nazorat;

davlat kredit resurslaridan foydalanish ustidan nazorat;

- davlatning ichki va tashqi qarzlari holati ustidan nazorat;

- davlatning mulkidan foydalanish ustidan nazorat;


- davlat zahiralarini ustidan nazorat.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati tegishli davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi,

maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy asosda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan ob'ektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir

Xozirgi kunda moliyaviy nazoratning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin (22.1-rasm):



22.1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining muhim vazifalari¹

Rasmda ko'rsatilgan ro'yxat bilan davlat moliyaviy nazoratining vazifalarini chegaralash mushkul. Chunki moliyaviy qonunchilikning o'zgarishi bilan moliyaviy nazoratning vazifalari ham o'zgaradi va aniqlashtiriladi.

Masalan, byudjet islohotlarining dastlabki bosqichlarida davlat moliyaviy resurslarini maksimal darajada iqtisod qilish asosida byudjet taqchilligining o'rnatilgan darajasini ta'minlash ustidan qattiq nazorat olib borish davlat moliyaviy nazoratining muhim vazifalaridan biri bo'lgan bo'lsa, islohotlarning bugungi bosqichidagi davlat moliyaviy nazoratining vazifalaridan biri – ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq samarali foydalanish, ularning iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi tarmoqlariga safarbar etilishi ustidan qat'iy nazoratni olib borishdan iborat bo'lmoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizda oxirgi 10 yillar davomida byudjet nazorati "Byudjet tizimi to'g'risida"gi, "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunlar asosida amalga oshirib kelindi. Ushbu qonunlar yurtimizda byudjet qonunchiligining umumiy huquqiy asoslarini, davlat byudjetining shakllanish va tuzilish printsiplari, uni ko'rib chiqish, qabul qilish va bajarish tartibini belgilab berdi, shuningdek, unda davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi hamda sarflanishi, davlat byudjeti mablag'lari operatsiyalarini amalga oshirishda hisobga olish va hisobot, shuningdek, nazorat printsiplari mustahkamlab qo'yildi. "Davlat byudjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonun esa davlat byudjetini g'aznachilik asosida ijro etish tartib-qoidalarini belgilab berdi. 2014 yilga kelib bu qonunlarni takomillashtirish talabidan kelib chiqqan holda "Byudjet Kodeksi" qabul qilinib, 2014 yil 1 yanvardan boshlab amalga kiritildi.

¹ Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2010. 68-bet


Ushbu Kodeksning IX bo‘limi “Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosini nazorat qilish” deb nomlangan bo‘lib, unda belgilab qo‘yilishicha, “Davlat moliyaviy nazorati byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob‘ektlari tomonidan buzilishini aniqlash, bartaraf etish va ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi”¹.

Umumdavlat moliyaviy nazorati butun mamlakat miqyosida tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan ixtisoslashgan davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat moliyaviy nazorati quyidagi nazorat turlarini qamrab oladi:

- byudjet-moliya nazorati;
- soliq nazorati;
- bojxona nazorati;
- valyuta nazorati;
- pul muomalasi nazorati.

Nazoratning bu turlari ichida alohida o‘rin egallaydigan byudjet-moliya nazorati hisoblanadi. Byudjet-moliya nazorati barcha darajadagi byudjetlarning, davlatning byudjetdan tashqari fondlarining shakllanishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazoratni ta‘minlaydi. Nazoratning bu turini O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning qoshidagi nazorat-taftish boshqarmasi, Moliya vazirligi G‘aznachiligi kabi ixtisoslashgan operativ boshqarish va nazorat organlari amalga oshiradilar.

Davlat moliyaviy nazorati (22.2-rasm):



22.2-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining amalga oshirilishi ²


respublika darajasida – O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda ma‘lum tamoyillarga – printsiplarga amal qilish alohida ahamiyatga ega. Byudjet Kodeksining 172-moddasi bilan davlat moliyaviy nazoratining quyidagi printsiplari belgilab berilgan (22.3-rasmga qarang):

¹ “O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-360-son (26.12.2013) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan Budjet Kodeksi. 26-bob, 170-modda. g‘

² O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 170-moddasi asosida tayyorlandi.




22.3-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining printsiplari ¹

- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi;
- davlat moliyaviy nazoratining mustaqilligi;
- davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi;
- davlat moliyaviy nazoratining xolisligi.

22.2. Byudjet nazoratining turlari, shakllari va usullari

Byudjet Kodeksining 173-moddasida davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari belgilab berilgan. Unga ko'ra, davlat moliyaviy nazorati quyidagi *shakllarda* amalga oshiriladi:



22.4-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari ²

- taftish;
- tekshirish (shu jumladan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish);
- o'rganish.

Davlat moliyaviy nazoratining *turlari* quyidagilardir:

- dastlabki nazorat – moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- joriy nazorat – moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 172-moddasi asosida tayyorlandi.

² O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 173-moddasi asosida.

- yakuniy nazorat – moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so‘ng maxsus vakolatli davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining *usullari* quyidagilardir:

1) tekshirish hujjatlarining hajmiga qarab:

- yoppasiga nazorat – tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni tekshirish;

- tanlov asosidagi nazorat – muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini tekshirish;

2) nazoratning maqsadga yo‘naltirilganligi va predmetiga qarab:

- kompleks nazorat – moliyaviy nazorat ob‘ektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining barcha yo‘nalishlarini tekshirish;

- mavzuli nazorat – moliyaviy nazorat ob‘ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini tekshirish;

- muqobil nazorat – operatsiyalar yagonaligi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va turli moliyaviy nazorat ob‘ektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o‘z ichiga olgan tekshirish.

Ma‘lumki, davlat moliyaviy nazoratining nazariyasi va amaliyotida uning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan byudjet nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi (6-rasm):

Dastlabki moliyaviy nazorat turli darajadagi byudjetlar loyihalarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlar smetasi, qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shaklidir. U moddiy va moliyaviy resurslarni noratsional ishlatilishining oldini olishga xizmat qiladi. Dastlabki moliyaviy nazorat chog‘ida qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari, ko‘zda tutilgan xarajatlarning asoslanmaganligi aniqlanishi mumkin.

Dastlabki moliyaviy nazorat	• Smetalarni, turli darajadagi budjetlarni tuzish, ko‘rib chiqish va qabul qilishdagi nazorat
Joriy moliyaviy nazorat	• Moliyaviy operatsiyalar, to‘lovlar amalga oshirilayotganda, ajratilayotgan mablag‘larning rejaviy ko‘rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashdagi nazorat
So‘nggi moliyaviy nazorat	• hisobot davri va moliyaviy yil tugagandan so‘ng moliyaviy va buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladigan nazorat

22.5-rasm. Byudjet -moliya nazorati turlari¹

Nazoratning bu shakli xo‘jalik operatsiyalarining byudjet yilining boshlanishidan oldinoq qonunlar va me‘yoriy xujjatlar talablari buzilishining oldini oladi. Masalan, moliya organlari har byudjet yilining birinchi choragida barcha byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazilishi ustidan dastlabki nazoratni o‘tkazadilar. Umuman, amaldagi qonunchilikka asosan, byudjet mablag‘larini ishlatish yuzasidan olib boriladigan operatsiyalar ustidan dastlabki va joriy nazorat bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning joylardagi hududiy bo‘linmalari, Moliya vazirligi G‘aznachiligi (davlat byudjetining g‘azna ijrosini amalga oshirish chog‘ida) organlariga yuklatilgan.

Joriy moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish chog‘ida, byudjet ssudalari va subsidiyalarini ajratish paytida, ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larning rejaviy ko‘rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladi. Nazoratning bu shakli

¹ Malikov T., Vahobov D., Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010. 85-bet

moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ajratilgan va sarflanayotgan mablagʻlarning oʻzlashtirib olinish, suʻisteʻmol qilish holatlarining oldini oladi, moliyaviy intizomga rioya qilishni, pullik hisob-kitoblarning oʻz vaqtida amalga oshirilishini taʼminlaydi. Bunda buxgalteriya xizmatlari faoliyati alohida ahamiyatga ega. Yaxshi yoʻlga qoʻyilgan joriy nazorat moliyaviy resurslarni iqtisod qilish imkonini beradi.


Soʻnggi moliyaviy nazorat hisobot davri va moliyaviy yil tugagandan soʻng amalga oshiriladi. Soʻnggi nazorat hisobot yilida mablagʻlarning ishlatilishi, rejaviy koʻrsatkichlarning bajarilishi, daromad va harajatlar smetasining bajarilishi, byudjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarni va yakuniy moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida oʻtkaziladi. Koʻp hollarda soʻnggi nazorat natijalari keyingi moliyaviy yil yoki davr uchun dastlabki nazoratga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini oʻzida jamlaydigan byudjet tizimi byudjetlari ijrosini nazorat qilish jarayonlari sifat va samaradorlik nuqtai nazaridan doimiy takomillashuvga muhtojdir. Bu jarayonlarning ham nazariy, ham tashkiliy-huquqiy asoslarini oʻrganishning zarurligi oʻz dolzarbligini hali-beri yoʻqotmaydi.

22.3. Byudjet nazorati organlari, ularning guruhlanishi, ularning vazifalari, huquq va majburiyatlari

Davlat moliyaviy nazoratining asosini byudjet nazorati tashkil qilishini yuqorida taʼkidlagan edik. Byudjet nazoratini amalga oshirish maʼlum huquqiy asosga tayanishi lozim. Byudjet nazoratini tashkil etish jarayonlari oxirgi 13-14 yil davomida 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinib kelindi. Ushbu Qonunda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpogʻiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda (6-,7-,8-moddalar) belgilab berilgan.

2014 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Byudjet Kodeksi byudjet nazoratini tashkil etishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Byudjet Kodeksida belgilab qoʻyilishicha, Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlari hisoblanadi. Shuningdek, davlat byudjetining va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlarining daromadlari qismi boʻyicha davlat moliyaviy nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi (22.6-rasm).



22.6-rasm. Davlat moliyaviy nazorati organlarining guruhlanishi¹


Kodeksning 179-moddasi bilan davlat moliyaviy nazorat organlarining oʻzaro hamkorlik munosabatlari taʼminlanadi. Xususan, byudjet tashkilotlarini nazorat qilish rejalari davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Davlat moliyaviy nazorat organlari

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 171-moddasi asosida tayyorlandi.

tekshirilayotgan nazorat ob'ektida mansabdor shaxslarning harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlasa, nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi. Shuningdek, nazorat ob'ekti mansabdor shaxslarining harakatlaridagi ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallar sudlarga yoki tegishli vakolatli davlat organlariga topshiriladi.

Davlatning moliya-byudjet nazorati organlari tarkibida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi alohida o'rin egallaydi. Hisob palatasi "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning maqsadli va samarali ijro etilishi, davlat aktivlari va passivlarining holati va harakati, oltin valyuta zaxiralari hamda tashqaridan qarz olishlarni amalga oshirish, boshqarish va tasarruf etish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan moliya nazoratining yuqori organi hisoblanadi"¹.

Hisob palatasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda qator vakolatlar yuklatilgan. Ana shu vakolatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3592-son Farmoni bilan tasdiqlangan va 2006 yil 21 noyabr PF-3820-son Prezident Qarori bilan tegishli o'zgartirishlar kiritilgan "Hisob palatasi to'g'risidagi Nizom" asosida bajaradi.



22.7-rasm. Davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summasi undiriladigan tegishli davlat organlari²

2006 yil 7 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-460-son Qarori bilan Hisob palatasining faoliyat doirasi yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3592-son Farmoni (04.04.2005)

² "Hisob palatasi to'g'risidagi Nizom" (PF-3820-son (21.11.2006) asosida tayyorlandi.

kengaytirildi. O'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan tadbirlari quyidagi rasmda ko'rsatilgan (8-rasm).

Byudjet Kodeksining 174-moddasida, avvalgi byudjet qonunchi-li-gi-dan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o'rganish;

- byudjet tizimi byudjetlarining daromadlarini shakllantirish va mablag'larining sarflanishini umumiy, moddalar bo'yicha, tarmoqlar hamda hududlar kesimida nazorat qilish va tekshirish;

- davlat maqsadli dasturlari amalga oshirilishining to'liqligi va samaradorligini baholash;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag'larining qonuniy shakllantirilganligini, maqsadli hamda samarali sarflanganligini nazorat qilish va tekshirish;

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o'rtasida maqbul nisbatga erishishga doir takliflarni tahlil qilish hamda baholash;

- davlat aktivlari shakllantirilishini, ulardan samarali va maqsadli foydalanilishini tekshirish;

- daromad keltiruvchi tarmoqlar korxonalari faoliyatini byudjet tizimi byudjetlariga qo'shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo'naltirilgan tahlil va nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitoblar jamg'armasi, Qishloqlarni qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlashni davlat tomonidan rag'batlantirish jamg'armasi va boshqa belgilangan tartibda tashkil etilgan jamg'armalarning mablag'lari tushumi va daromadlarining shakllantirilishi, ularning mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan tahlil va nazorat qilish;

- valyuta, eksport va import operatsiyalari o'tkazishning qonuniyligini, shuningdek byudjet tizimi byudjetlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti va importidan majburiy to'lovlar bo'yicha mablag'lar tushumini nazorat qilish;

- mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining o'rni qayta to'ldirilishi va ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan nazorat qilish;

- ichki va tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha hisobotlar va balans hisob-kitoblarini tahlil qilish, mablag'lar va oltin-valyuta zaxiralarini chet el banklariga va boshqa banklarga joylashtirish hamda qayta joylashtirishning asosli va samarali ekanligini nazorat qilish;

- davlat qarzini boshqarish samaradorligini tahlil qilish, unga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan chet el kreditlari mablag'laridan samarali foydalanish masalalari bo'yicha predmetli tekshiruvlar tashkil etish;

- davlat mulki realizatsiya qilinishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish va ular bo'yicha nazoratni ta'minlash;

- byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilishga doir vazifalar moliya organlari, shu jumladan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bajarilishi samaradorligini tahlil qilish;

- davlat mulki ulushi bo'lgan korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini dividendlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan tekshirish.


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradilar:

- quyi turuvchi moliya organlari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi;
- ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi;
- aktsiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi;
- aktsiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aktsiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aktsiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi;
- byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan byudjet hisobotini tuzish to'g'riligi.

O'z navbatida Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish bo'yicha vakolatlari, asosiy vazifalari va funktsiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi. Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi hukumatining vazifalari va funktsiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. Moliya vazirligining tashkiliy tuzilishi quyidagi rasmda aks ettirilgan (22.8-rasmga qarang).



22.8-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tashkiliy tuzilishi¹

Moliya vazirligi G'aznachiligining byudjet ijrosini nazorat qilishdagi faoliyati. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotida sodir bo'lgan va asoratlari hali-xanuz davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi har bir mamlakat hukumati oldiga makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan izchil iqtisodiy siyosatni yuritish vazifasini qo'ymoqda. Bunda samarali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat yuritish masalasi markaziy o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga "umumiy iqtisodiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom" (o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan) asosida tuzildi.

munozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan yahlit davlat siyosati bilan bog'liq muammolar ham aynan davlatning fiskal siyosati instrumentlariga bog'liq bo'lmoqda"¹. Bu instrumentlar ichida byudjet siyosati instrumentlari, xususan, byudjet ijrosi ustidan davlat nazoratini o'rnatish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida byudjet ijrosini nazorat qilish mexanizmlari haqida so'z borar ekan, avvalo, mamlakatimiz byudjet qonunchiligiga tayangan holda, "Byudjet ijrosi nima?" degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi².

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikning muhim begilaridan biri davlat byudjetining profitsit bilan bajarilayotgani hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat byudjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ortig'i bilan bajarilishi hamda davlat byudjeti xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishining ta'minlanishi natijasida byudjet profitsit bilan ijro etilmoqda. Buni quyidagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Byudjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Byudjet qonunchiligiga muvofiq, mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Byudjet Kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan bo'lib, byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritish;
- tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlash;
- ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olish;
- hisob va hisobot.

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

¹ Prezident I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. NMIU. 2013. 39-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi, VII bo'lim, 19-bob, 109-modda.

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish;
- kassa xarajatlarini amalga oshirish, shu jumladan byudjetlararo transfertlarni o'tkazish;
- hisob va hisobot.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet ijrosi jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi jarayonida byudjetdan ajratiladigan mablag'lar quyidagi holatlarda kamaytiriladi:

1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning:

- byudjet tashkilotlarining tarmog'i, shtatlari va kontingentlari bo'yicha reja bajarilmaganligi;
- byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi;
- kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar moliya yili yakuni bo'yicha to'liq o'zlashtirilmaganligi;
- byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyati to'xtatib turilganligi, to'xtatib turilgan davr uchun;

2) davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tadbirlar davomida aniqlangan, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan ortiqcha va qonunga xilof ravishda byudjetdan ajratiladigan mablag'larning;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarining qisqartirilishi;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralarining;

5) dotatsiyalar va subsidiyalarni to'lash uchun mo'ljallanib, zarurat qolmagan summalariga kamaytiriladi.

Moliya, byudjet, soliq intizomiga rioya qilishda va byudjet mablag'larining maqsadga muvofiq ishlatilishida ko'psonli salbiy holatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda byudjet ijrosi ustidan davlat nazoratini kuchaytirishning zarurligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakat yo'qki, moliya sohasida davlatning nazorat organlari mavjud bo'lmasin.

Respublikamizda davlat moliyasini isloh qilish davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Bu dastur davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining samarali ishlatilishini nazorat qilish, byudjet ijrosining shaffofligini ta'minlash, mablag'larning aniq manbalar bo'yicha shakllanishi va aniq maqsadlar bo'yicha ishlatilishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyaviy ta'minlash va davlat mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat o'rnatish ishida g'aznachilik tizimi juda muhim o'rin egallaydi. G'aznachilik davlat mablag'larini boshqarish tizimining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Chunki G'aznachilik organlarining asosiy vazifalaridan biri byudjet mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishini nazorat qilish hisoblanadi.

G'aznachilik o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda G'aznachilikka ko'maklashishlari shart.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobraqamlarning yagona rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobraqamlarining yagona rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalari, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

Shuningdek, byudjet ijrosining so'nggi nazoratini Moliya vazirligi Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari o'zlariga yuklatilgan vakolatlar doirasida amalga oshiradilar. NTB tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlari belgilangan reja asosida mustaqil ravishda, yoki xuquq tartibot organlarining topshiriqlariga asosan olib boriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyaviy nazorati tizimida byudjet nazoratining tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntiring.
2. Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi hozirgi zamon o'zgarishlarni izohlang?
3. Byudjet intizomi va byudjet nazorati tushunchalarining mohiyati qanday?
4. Byudjet nazorati ko'rsatkichlari va ularni qo'llash mezonlari qanday?
5. Byudjet nazorati shakllari va usullarini izohlang, ularning xususiyatlarini tavsiflang.
6. G'aznachilik sharoitida byudjet nazorati tizimidagi o'zgarishlarni izohlang.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliyaviy nazorati tadbirlari ijrosida byudjet nazoratining maqsadi va vazifalarini asoslab esse yozing.
2. Byudjet nazorati shakllari va usullaridan foydalanish samaradorligini baholash mezonlarini aks ettiruvchi jadval ishlab chiqing.
3. G'aznachilik tizimi sharoitida byudjet nazorati tizimidagi o'zgarishlarni qig'isiy tahlil qiling.


1.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-MAVZU. "DAVLAT BUDJETI" FANIGA KIRISH


REJA:

1. "Davlat byudjeti" fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'ri va ahamiyati.
2. Fanning predmeti, asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, vazifalari.
3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq: "Davlat byudjeti" fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tahlil qiling va o'z xulosalaringizni quyidagi chizmada aks ettiring:



Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq: "Davlat byudjeti" fanining tadqiqot usullarini bo'sh kataklarga yozing.



Nazorat uchun savollar:


1. Davlat byudjeti fanining predmeti “Moliya” fanining predmetidan nimasi bilan farq qiladi?
 2. Davlat byudjetiga ta’rif bering va uning o’rganish predmeti va ob’ektlarini tushuntirib bering.
 3. Byudjet munosabatlarida davlatning va “tashqi dunyoning” roli qanday?
 4. Agregat ko’rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Agregat ko’rsatkichlardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini sanab bering.
- Fanning boshqa fanlar bilan aloqasini qanday holatlar bilan izohlash mumkin?

2-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

REJA:

1. Davlat byudjeti - iqtisodiy kategoriya sifatida.
2. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari.
3. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.
4. Moddiy ma’noda davlat byudjetining mohiyati.
5. Davlat byudjetining davlat ixtiyorida markazlashgan pul fondi ekanligi.
6. Davlat byudjeti – huquqiy kategoriya sifatida.
7. Davlat byudjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o’rni va ahamiyati.
8. Byudjetning mamlakat moliya tizimining boshqa bo’g’inlari bilan o’zaro munosabatlari.


Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq: Davlat byudjetining xarakterli xususiyatlarini bo’sh kataklarga yozing



Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

1. Turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan “Davlat byudjeti” tushunchasiga berilgan ta’riflarni aniqlang, ularning byudjetning kelib chiqishi bilan bog’liq ma’lumotlarini solishtiring.
2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash proportsiyalarini xarakterlovchi ma’lumotlarni to’plang, solishtiring va taqsimlash proportsiyalarining turlicha bo’lish sabablarini tushuntirib bering.

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq: Davlat byudjetining asosiy vazifalarini yozing.



**Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun vazifa
(Ha, yo'q texnikasi).**

1. Davlat byudjetining zaruriyati davlatning funksiyalari bilan bog'liqmi?
2. Vaqt o'tishi hamda jamiyat taraqqiyoti bilan davlat byudjetida tarkibiy o'zgarishlar yuz beradimi?
3. Davlat byudjetini davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida e'tirof etsa bo'ladimi?
4. Bugungi kunda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini olib borishda davlat byudjeti zarurmi?

Nazorat uchun savollar

9. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimada?
10. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida, moddiy tushuncha sifatida, huquqiy kategoriya sifatida amal qilishini tushuntirib bering.
11. Davlat byudjeti funksiyalarining amal qilishini misollar asosida ta'riflab bering.
Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimida qanday o'rin egallaydi, uning boshqa bo'g'inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?

3-MAVZU. BUDJET TUZILISHI VA BUDJET TIZIMI

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasi byudjet qurilishi asoslari.
2. Byudjet tizimining asosiy tamoyillari.
3. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, uning bo'g'inlari.
4. Turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari.
5. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari.
6. Byudjet qurilishi va byudjet tizimi amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslari.
7. Byudjet huquqi, uning ob'ekti, sub'ektlari, byudjet huquqi me'yorlari.
8. Respublika (markaziy) va mahalliy hukumat organlarining byudjet huquqlari.


9. Mahalliy hukumat organlari byudjet huquqlarining kengayishi.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Unitar va federativ davlatlarda byudjet qurilishini tavsiflovchi chizma tayyorlang va xulosa yozing. Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi bo'yicha taqdimot tayyorlang.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

“Byudjet qurilishi va byudjet tizimi” mavzusi bo'yicha bo'sh kataklarni to'ldiring




Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

Quyidagi so'z va tayanch iboralar bo'yicha izohli glossariy tuzing va amaliy mashg'ulot daftaringizda aks ettiring:

davlat byudjeti, byudjet tizimi, byudjet tizi, byudjet qurilishi, byudjet ob'ekti, byudjet sub'ekt, mahalliy byudjet, mahalliy hukumat.

Misol: *davlat byudjeti* - davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi

**Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:
Davlat qurilishi shakllarini izohlang.**




4-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING HUQUQIY ASOSLARI

REJA:

1. Byudjet qonunchiligi. Byudjet huquqi.
2. Byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - byudjet munosabatlarining huquqiy asosi sifatida.
4. Byudjet kodeksini qabul qilinishi, uning mazmuni, tarkibi, byudjet munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati.
5. Soliq kodeksi, uning byudjetni shakllantirishdagi ahamiyati.
6. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari.
7. Byudjet qonunchiligidagi so'nggi o'zgarishlar.

**Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:
Kataklar ichidagi jumlani to'ldiring.**



Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining byudjet sohasidagi vakolatlari yozing.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining budjet sohasidagi vakolatlari	1 2 3 4
---	--

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:
Davlat byudjeti amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslarini yozib chiqing.

Davlat byudjeti amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslari	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
---	---

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

5. Byudjet qonunchiligini ko‘rsatuvchi klaster tuzing va izohlab bering.
6. Byudjet qonunchiligini tashkil qiluvchi hujjatlar ro‘yxatini tuzing va har biriga qisqacha izoh yozing.
7. Yangi tahrirdagi Byudjet kodeksi haqida ma’lumot tayyorlang, uni sharhlab bering.

5-MAVZU. DAVLATNING BUDJET SOLIQ-SIYOSATI

REJA:

1. Davlat byudjeti - davlat iqtisodiy siyosatining quroli sifatida.
2. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari.
4. Mamlakatni moliyaviy sog‘lomashtirish, iqtisodiyotning rivojlanishini rag‘batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
5. Davlatning byudjet daromadlari, xarajatlari, byudjet taqchilligini boshqarish va tartibga solishdagi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

1. Byudjet siyosatining ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Byudjet siyosatini olib borishda xorij tajribasidan nimalarni bilasiz?
3. Byudjet siyosatini olib borishda qanday takliflar bera olasiz?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Quyidagi so‘z va tayanch iboralar bo‘yicha izohli glossariy tuzing va amaliyot daftaringizda aks ettiring: *Siyosat, davlat byudjeti, davlat iqtisodiy siyosati, byudjet siyosati, moliyaviy sog‘lomashtirish, ijtimoiy barqarorlik, byudjet taqchilligi.*

6-MAVZU. DAVLAT BUDJETINI BOSHQARISH

REJA:

1. Byudjet tizimini boshqarish to‘g‘risida tushuncha.
2. Boshqarish sub‘ektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari.
3. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari.
4. Ijroiya hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi ishtiroki.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

1-guruh uchun topshiriq

Byudjet tizimini boshqarish to‘g‘risida tushuncha. Boshqarish sub‘ektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari.

1. Byudjet tizimini boshqarish zarurligi nimada?
2. Byudjet tizimini boshqarishda davlatning roli qanday?
3. Byudjet tizimini boshqarish sub‘ektlariga qaysi organlar kiradi?
4. Byudjet tizimini boshqarishga ma’sul organlarning asosiy vazifalari?

2-guruh uchun topshiriq

Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari. Ijroiya hokimiyat organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi ishtiroki.

1. Byudjet tizimini boshqarishda davlat hokimiyati organlarining ishtiroki, ma'sulligi va vakolatlarining xuquqiy asoslari?

2. Joylarda ijroiya hokimiyat organlarining byudjet vakolati va mustaqilligi shartlari va mezonlari qanday?

3. Byudjet istiqbolini belgilash, byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud va ularni hal etish yo'llari qanday?

3-guruh uchun topshiriq

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarishdagi belgilovchi ahamiyatdagi rolini nimalarda izohlash mumkin?

2. Moliya vazirligining hozirgi kunda byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari qanday?

3. Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish jarayonida boshqa organlar bilan hamkorliklari?

4. Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazoratiga oid funktsiyalari tavsifi?

4-guruh uchun topshiriq

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati.

1. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligining byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati va vazifalari qanday?

2. G'aznachilik xizmatining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari qanday?

3. G'aznachilik xizmatining byudjet tizimini boshqarish jarayonida boshqa organlar bilan hamkorliklari?

4. G'aznachilik xizmatining davlat moliyaviy nazoratiga oid funktsiyalari tavsifi?

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar (F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5):</i>				
<i>mavzuga mos kelishi (1,5);</i>				
<i>- mantiqiylik, aniqlik (0,5);</i>				
<i>xulosalarni qisqaligi (0,5);</i>				
<i>Informatsion texnologiyalardan foydalanqanligi (ko'rqazmalilik) - (0,9).</i>				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<i>Jami (4,0)</i>				
	Taqrizchilar (F.I.Sh.)			
<i>Ma'ruzaning tavsifi (3,0)</i>				

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar (F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
Reglament (0,6)				
Jami (3,0)				
	Opponentlar, ishtirokchilar			
Savollar:				
har biri uchun (0,3)				
Qo'shimcha				
har biri uchun (0,3)				
mohiyati bo'yicha (0,3)				
Jami (3,0)				

7-MAVZU. BUDJETLARARO MUNOSABATLAR

REJA:

1. Byudjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha.
2. Byudjetlararo munosabatlarning shakllari.
3. Byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlilikini tartibga solishda byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati.
4. Byudjetlararo munosabatlarning jahon tajribalari.
5. Byudjetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

1. Byudjetlararo munosabatlarning zarurligi va mohiyati nimada?
2. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning xuquqiy-me'yoriy asoslariga nimalar kiradi?
3. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning zarurligi nimada?
4. O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli qachondan shakllana boshladi?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

1. Byudjetlararo munosabatning qanday shakllarini bilasiz?
2. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud va ularni hal etish yo'llari qanday?

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

1-guruh

1-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabat shakllarini izohlang.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

2-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov byudjetlararo munosabat samaradorligini oshirishga oid fikrlari to'g'risida.
3-topshiriq.

Qisqacha xulosa qiling..

Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning zarurligi nimadan iborat?

2-guruh

1-topshiriq.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishdagi dolzarb muammolar

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

2-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring. I.A.Karimov mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashga oid tadbirlar to'g'risida.

3-topshiriq.

Qisqacha xulosa qiling. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish istiqbollari

3-guruh

1-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida mahalliy byudjetlarni dotatsiyadan chiqarilganligi Davlat Dasturi va ularning ijrosi yakunlari.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

2-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli qachondan shakllana boshladi.

3-topshiriq.

Qisqacha xulosa qiling. Joylarda mahalliy byudjetlar bo'g'inlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ball)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Guruhlar		
	1	2	3
1-topshiriq (0,3)			
2-topshiriq:			
mavzuga mos kelishi, ko'rgazmalilik (0,8);			
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);			
3-topshiriq:			
xulosalarni aniq shakllantirilganligi (0,5);			
Reglament (0,2)			
Nazorat savollariga to'g'ri javob uchun (0,1)			
Boshqalar tomonidan to'ldirilganligi uchun (0,1)			
Jami (3,0)			

8-MAVZU. BUDJET TASNIFI

REJA:

1. Byudjet tasnifining zarurligi, mohiyati va ahamiyati.
2. Byudjet tasnifining turlari: byudjet daromadlari tasnifi, ularning turlari.
3. Byudjet xarajatlari tasnifi, uning guruhlanishi.
4. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.
5. Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida byudjet tasnifining takomillashuvi.


6. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslash.

Auditoriyada bajarish uchun 1 topshiriq:
Byudjet tasnifining tamoyillarini izohlang.



Auditoriyada bajarish uchun 1 topshiriq:

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari



Auditoriyada bajarish uchun 2 topshiriq:
Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari

6. Byudjet tasnifining mazmuni, zarurligi va ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Byudjet tasnifining turlari qanday?
8. Byudjet daromadlarini turli belgilariga ko'ra guruhlash sabablarini tushuntirib bering?
9. Byudjet xarajatlarini tasniflash turlarini tushuntirib bering?
10. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalariga ko'ra qanday guruhlarini bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

4. Byudjet tasnifi turlarini aks ettiruvchi klaster tuzing va tushuntirib bering.
5. Byudjet tasnifini takomillashtirish zarurligini ifodalovchi omillar ro'yxatini tuzing va izohlab bering.

6. Axborot ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini xorijiy davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslang va qisqacha xulosa yozing.

9-MAVZU. DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TIZIMI

REJA:

1. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari.
2. Byudjetga daromadlarni jalb qilishning ichki va tashqi manbalari.
3. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi.
4. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati.
5. Byudjet daromadlarining shakllanishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan va aholidan undiriladigan daromadlarning tutgan o'rni.
6. Daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash asoslari.
7. Davlat byudjetining daromad bazalarini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

6. Davlat byudjeti daromadlarining guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing

7. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlang va himoya qiling.

“Soliq kodeksi”ning tegishli moddalarini o'rganish asosida soliqlarning turli belgilariga ko'ra guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

2014-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida to'ldiring.

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil reja	
	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan (%)	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan (%)
I. Davlat maqsadli jamg'rmalar daromadlarisiz – jami						
1. To'g'ri soliqlar						
2. Egri soliqlar						
3. Mol-mulk va resurs to'lovlari						
4. Ustama foyda solig'i						
5. Boshqa daromadlar						

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

10. Byudjet daromadlari qanday mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi?
11. Byudjet daromadlari manbalariga ko'ra qanday guruhlanadi?
12. Byudjetning solikli daromadlari tarkibi nimalardan iborat?
13. To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibi nimalardan iborat?

Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:

- 1.Davlat byudjeti daromadlariga “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasiga muvofiq qanday daromadlar kiritilgan?
- 2.Soliqlar deb nimaga aytiladi?
- 3.Soliqlar qanday xarakterli belgilarga ega?
- 4.Soliqlar qanday funktsiyalarni bajaradi?

Auditoriyada bajarish uchun 5-topshiriq:

- 1.Soliq tizimi deb nimaga aytiladi?
- 2.Sizningcha, hozirgi sharoitda soliq tizimi qanday nuqsonlarga ega?
- 3.Soliq islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Auditoriyada bajarish uchun 6-topshiriq:

- 1.Davlat byudjeti daromadlarining guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing
- 2.O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlang va himoya qiling.
- 3.“Soliq kodeksi”ning tegishli moddalarini o‘rganish asosida soliqlarning turli belgilariga ko‘ra guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.

10- DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI TIZIMI

REJA:

1. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funktsiyalari bilan bog‘liqligi.
2. Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.
3. Byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari.
4. Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida iqtisodiyot xarajatlari tarkibining o‘zgarishi.
5. Byudjetning ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari.
6. Byudjetning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari, ularni qisqartirish masalalari.
7. Davlat byudjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash va rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlari, bu sohadagi islohotlar va byudjet.

Auditoriyada bajarish uchun 1 topshiriq:

8. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funktsiyalari bilan bog‘liqligini aniqlang.
9. Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishini tushuntiring.
10. Byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari 3-yillik ma’lumotlari tahlilini keltiring.

Auditoriyada bajarish uchun 2 topshiriq:

11. Byudjetning ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlarini tahlil qiling.

12. Byudjetning boshqa xarajatlari tarkibini tushuntiring.

13. Byudjetning markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, ularning byudjet xarajatlari tarkibidagi o'rnini va ahamiyati yuzasidan ko'rgazmali ma'lumot tayyorlang.

Auditoriyada bajarish uchun 3 topshiriq:

14. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari tarkibining o'zgarishi tahlilini keltiring.

15. Ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimini shakllantirishning zarurligi, afzalliklari va shart-sharoitlarini ma'lumotlar asosida tushuntiring.

11-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING HOLATI REJA:

1. Davlat byudjetining holati.
2. Davlat byudjetining balansiligi, profitsit va taqchillik holatlari.
3. Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasi.
4. Byudjet taqchilligining shakllari.
5. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar.
6. Taqchillikni tartibga solish va boshqarish.
7. Taqchillikni moliyalashtirish manbalari, ularning guruhlanishi.
8. Taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi, inflyatsion va noinflyatsion manbalari, ularning xususiyatlari.
9. Byudjet taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy kontseptsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

5. Byudjetning holatlariga xarakteristika bering.
6. Byudjet defitsiti deb nimaga aytiladi?
7. Byudjet defitsitini keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?
8. Iqtisodiy rivojlanishning turli davrlarida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan byudjet defitsitining sabablarini aniqlang. Hukumatning qanday tadbirlari byudjet defitsiti muammosining hal qilinishiga qaratildi?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

4. Byudjet defitsiti muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar katalogini tuzing va ularga qisqacha annotatsiya yozing.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va byudjet defitsitining dinamikasini aks ettiruvchi ma'lumotlarni to'plang, ularni jadval (diagramma, grafik) tarzida rasmiylashtiring va qisqacha hulosaga yozing.
6. Internet resurs manbalaridan foydalanib, horijiy davlatlar byudjetlarining holati to'g'risida taqdimot tayyorlang.

12-MAVZU. BUDJET JARAYONI

REJA:


1. Byudjet jarayoni to'g'risida tushuncha.
2. Byudjet jarayoni bosqichlari: byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, byudjetni ijro etish, byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlarni tuzish va tasdiqlash, byudjet jarayonining barcha bosqichlarini nazorat qilish.
3. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash, uni amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari va vazifalari.
4. Tasdiqlangan byudjetning byudjet mablag'larini oluvchilarga etkazilishi.
5. Byudjetni ijro etish, uning vazifalari, byudjet ijrosini ta'minlovchi organlar.
6. Byudjetning g'azna ijrosi to'g'risida tushuncha, uni ta'minlovchi organlar, ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash.
8. Byudjet jarayoni bosqichlarini nazorat qilish, nazoratning asosiy vazifalari.
9. Byudjet nazorati organlari, ularning huquq va majburiyatlari, byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanishda byudjet nazoratining ahamiyati.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

7. Byudjet jarayoni bosqichlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izohlab bering.
8. Byudjetni tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatuvchi jadval ishlab chiqing va u asosida taqdimot tayyorlang.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

1. Xorijiy davlatlar byudjet jarayonlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izohlab bering.
2. Davlatbyudjeti ijrosini ta'minlash yuzasidan bo'sh kataklarni to'ldiring.



13-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

REJA:

1. Byudjet tashkilotlarini smeta asosida moliyalashtirishning mazmuni, umumiy tamoyillari.
2. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida.
3. Smeta, uning elementlari. Smetalarning turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlar va moddalari, ularni hisoblash.
5. Byudjet me‘yorlari, ulardan smetalarni tuzishda foydalanish.
6. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini aniqlashda xarajatlarni me‘yorlashtirish amaliyotiga o‘tish masalalari.
7. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazish va moliyalashtirish tartibi.
8. Smeta asosida moliyalashtirish yuzasidan hisobot.
9. Byudjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish masalalari.
10. Byudjetning g‘azna ijrosi sharoitida byudjet mablag‘lari harakatining o‘zgarishi.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

1. Byudjet tashkiloti xarajatlar smetasini ko'rib chiqish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va moliyalashtirish uchun qabul qilish tartibini aks ettiruvchi chizma ishlab chiqing va uning asosida amaliy ish o'yini o'tkazing.

2. Amaliyot mashg'ulotida alohida tanlab olingan byudjet tashkiloti misolida (masalan, maktab, oliy o'quv yurti, kasalxona, akademik litsey) byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va ishlatish dasturini ishlab chiqing va o'z dasturingiz taqdimotini amalga oshiring.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

3. Byudjet tashkilotlarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy xujjatlar ro'yxatini tuzing va ularning mazmuni bilan tanishib chiqing.

4. Biror byudjet tashkilotining hisobot materiallari asosida smeta xarajatlarining tarkibi va tuzilishini tahlil qiling va xulosa yozing.

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

1. Byudjet tashkiloti tushunchasiga ta'rif bering, qanday holatlarda ularga yuridik shaxs maqomi beriladi?

2. Byudjet tashkilotining moliyaviy rejasi qanday nomlanadi? Uning qanday turlari mavjud?

3. Smeta xarajatlari qanday guruhlanadi? Asosiy xarajatlar turlarini aytib bering.

Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:

4. Byudjet tashkilotining shtatlar ro'yxati nima va u qanday maqsadlarda tuziladi?

5. Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlarini aytib bering.

6. Byudjet tashkiloti xarajatlar smetasini ko'rib chiqish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va moliyalashtirish uchun qabul qilish tartibini tushuntirib bering.

14-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING TA'LIM TIZIMI XARAJATLARI

REJA:

1. Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, uning asosiy bosqichlari. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishda davlat byudjetining ahamiyati.

2. Ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilishi.

3. Maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.

4. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Maktab xodimlari ish haqini hisoblash, rejalashtirish va moliyalashtirishdagi o'zgarishlar. Maktab-internatlar, maxsus maktablar, maktablararo va maktabdan tashqari maorif tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish. Ta'limni rivojlantirish Davlat dasturlarini moliyaviy ta'minlashda davlat byudjeti va boshqa manbalarning ahamiyati.

6. O'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning xususiyatlari, ular moliyaviy ta'minlanishini yaxshilash masalalari.

7. Oliy ta'lim tizimi muassasalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Oliy ta'lim muassasalari daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi. Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish tartibi.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq: Ta'lim tizimi moliyaviy resurslarini bo'sh kataklarga to'ldiring

Ta'lim tizimi moliyaviy resurslarini bo'sh kataklarga to'ldiring	
Davlatdan moliyalash manbalari	
Nodavlat moliyalash manbalari	

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Ta'lim tizimiga ajratiladigan xarajatlarni makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanib jadvalni to'ldiring

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Davlat byudjetining ta'lim xarajatlari					
Davlat byudjetidan ta'lim xarajatlarining YaIM dagi ulushi					

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

3-masala

Tumanning barcha umumta'lim maktablari bo'yicha 2013 yil yakuniga quyidagi ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, 2014 moliyaviy yil uchun tuman bo'yicha o'quvchilarning (jami va sinf guruhlari bo'yicha alohida) o'rtacha yillik sonini hisoblang:

№		1 yanvarga	1sentyabrga	O'rtacha yillik
1.	Yil boshiga jami o'quvchilar soni			
	shu jumladan:			
2.	1-4-sinflardagi o'quvchilar soni	16330		
3.	1 sentyabrda 1-sinfga qabul soni	3500		
4.	Joriy o'quv yilida 4-sinfni bitiruvchilar soni	2500		
5.	Yil boshiga 5-9-sinflardagi o'quvchilar soni	19250		
6.	Joriy o'quv yilida 9-sinfni bitiruvchilar soni	2300		

Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:

1-masala

Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisiga 1,25 stavka o'quv yuklamasi ajratilgan bo'lsa, uning o'quv va pedagogik yuklamalari yig'indisidan iborat bo'lgan umumiy yuklamasi hajmini aniqlang

Auditoriyada bajarish uchun 5-topshiriq:

2-masala

Umumta'lim maktabida 60 ta sinf bor. Ulardan 20 foizi to'liq komplektlanmagan (o'quvchilar soni sinflar to'liqlilik me'yorining 50 foizidan kam bo'lgan) sinflar bo'lsa, maktab bo'yicha sinf rahbarligi uchun yillik xarajat summasini aniqlang.

15- DAVLAT BUDJETINING SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARI

REJA:

1. Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish manbalari.
2. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlatning majburiyatlari.
3. Sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati.
4. Davlat sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibi, ular xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari.
5. Xarajatlarni rejalashtirishdagi asosiy ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
6. Turg'un davolash muassasasi xarajatlar smetasini tuzish. Tibbiy xodimlar ish xaqini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Ambulatoriya-poliklinika, boshqa birlamchi tibbiyot muassasalari xarajatlar smetasini hisoblash.

8. Sog'liqni saqlash xarajatlarining yig'ma smetasini tuzishning xususiyatlari. Tibbiyot sohasidagi islohotlarni moliyaviy ta'minlash masalalari.

9. Tibbiyot sug'urtasini joriy qilishning tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy masalalari.

Guruhlarda ishlash ushun topshiriqlar:

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

I-guruh uchun topshiriq: Sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash manbalarini yoritib bering, Davlat va fuqaro uchun sog'liqni saqlash tizimini moliqlashtirishning ahamiyati nimada deb uylaysiz? (*savolga har bir talabaning fikrini o'rganib chiqish*);

II-guruh uchun topshiriq: Sog'liqni saqlash tizimining jaxon mamlakatlari tendentsiyalari va talablari nimadan iborat deb uylaysiz (*talabalar bilan debat usulida suhbat*), O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetiining sog'liqni saqlash xarajatlarini rejalashtirish amaliyoti (*talabalar bilan debat usulida suhbat*).

III-guruh uchun topshiriq: O'zbekiston Respublikasida birlamchi tibbiyot muassasalarini jon boshiga qarab moliyalashtirishning amaliyotini so'zlab bering (*talabalar bilan debat usulida suhbat*).

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

1-masala

Agar tibbiyot muassasasi xodimiga Yagona Tarif Setkasining 10 razryadi bo'yicha 6,719 koeffitsient bilan oylik maosh hisoblansa, xodimning oylik lavozim okladini hisoblang.

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

3-masala

Quyidagi ma'lumotlar asosida kasalxonaning yillik oziq-ovqat xarajatlari summasini hisoblang.

Koykalarning o'rtacha yillik soni – 800 ta;

Bir koykaning ishlash kunlari soni 305


Imtiyozli koykalar soni - umumiy koykalar soniga nisbatan 35 foiz;

Bir kunlik oziq-ovqat me'yori – 1200 so'm;

Oziq ovqat me'yorida nonushtaning ulushi -30foiz

Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:

Davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi majburiyatlarini bo'sh kataklarga yozib chiqing.



16-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING MADANIYAT VA SPORT XARAJATLARI

REJA:

1. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida madaniyat xarajatlarining tutgan o'ri va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishidagi ahamiyati.
2. Davlat madaniyat muassasalarining guruhlanishi, ular xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish tartibi.
3. Madaniyat uylari, klublar, kutubxonalar va boshqa madaniyat muassasalari xarajatlarini hisoblash tartibi.
4. Madaniyat sohasidagi markazlashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish.
5. San'at, televidenie, radio, matbuot xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Madaniyat xarajatlarini moliyalashtirishda respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning ishtiroki.
7. Madaniyat sohasini moliyaviy ta'minlashning bozor mexanizmi, uning takomillashuvi.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida madaniyat xarajatlarining tutgan o'ri, madaniyat xarajatlarini 3 yillik ko'rsatkichlari saosida jadval yasang va jadvalni tahlil qiling.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Madaniyat sohasidagi markazlashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibini tushuntirib bering.

17-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING IJTIMOY HIMOYA XARAJATLARI

REJA:

1. Mamlakatda ijtimoiy ta'minot tizimi va tadbirlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash manbalari.
2. Davlat byudjetining ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibi.
3. Ijtimoiy ta'minot tizimiga qarashli muassasa va tashkilotlar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
4. Qariyalar uylari, bolalar va kattalar nogironlar uylari xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari.
5. Ijtimoiy ta'minot tizimidagi uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
6. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot to'lovlarini moliyalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining ahamiyati, uning mablag'larini ishlatish yo'nalishlari.
7. Ijtimoiy pensiyalar va nafaqalar turlari, ularni to'lash manbalari, tayinlash tartibi.
8. Pensiya ta'minotidagi islohotlar, ularning bugungi kundagi asosiy yo'nalishlari


Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Quyidagi jadvalda keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqing va har biriga qisqacha izoh yozing:

	Hujjatning nomi
	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 16-son, 176-modda
	O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y. 52-son, 645-modda
	O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 17-son, 173-modda
	O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). O'RQ-162-son, 11.07.2008. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 18-son, 233-modda, 41-son, 543-modda
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli Farmoni
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1251-sonli Qarori
	O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Ijtimoiy ta'minot xizmatlarini bo'sh kataklarga yozib to'ldiring.



18-MAVZU. DAVLAT BUDJETNING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI

REJA:

1. Aholini ijtimoiy himoya qilishning davlat tomonidan kafolatlanganligi.
2. Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati.
3. Byudjetdan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya xarajatlari turlari: tovarlar va xizmatlar baholari hamda tariflari o'rtasidagi farqni qoplash; bolali onalarga nafaqalar; kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar.
4. Ijtimoiy himoyani tashkiliy-huquqiy va moliyaviy ta'minlash.
5. "Mahalla" fondining tashkil etilishi, uning aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishdagi ahamiyati.
6. "Mahalla" fondining davlat byudjeti bilan munosabatlari.
7. Aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmining takomillashuvi.
8. Davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini moliyaviy ta'minlash

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat byudjetining o'rni va amalga oshiradigan vazifalarini tushuntirib bering.

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Aholini ijtimoiy himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi me'yoriy hujjatlar katalogini tuzib chiqing, har bir hujjat bilan tanishib chiqish asosida ularga qisqacha sharh yozing.

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

Aholini ijtimoiy himoya qilishning mablag'larini shakllantirish mexanizmlarini chizmada ifodalang va xulosa yozing.

19-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, PROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI

REJA:

1. Davlat byudjetining boshqaruv xarajatlari tarkibi va tuzilishi.
2. Davlat boshqaruvi, sud va prokuratura organlari xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish.
3. Boshqaruv xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi.
4. Davlat byudjetining boshqaruv xarajatlaridan samarali foydalanish.
5. Boshqaruv xarajatlarini qisqartirish muammolari.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarining faoliyati xususiyatlari?

Davlatning davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash tizimining zarurligi va ahamiyati qanday?

Davlat byudjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlarining tarkibi va tuzilishi qanday?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari qanday rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi?

Sud, prokuratura organlari xarajatlari smetasini moliyalashtirish tartibi qanaqa?

20-MAVZU. DAVLAT BUDJETINING BOSHQA XARAJATLARI

REJA:

1. Davlat byudjetining boshqa xarajatlari tarkibi.
2. Byudjetning xarajatlari tasnifiga muvofiq boshqa xarajatlari turlari.
3. Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari.
4. Referendum va saylovlar o'tkazish, davlat mukofotlarini to'lash, pul-buyum lotareyalarini o'tkazish xarajatlari, ularning respublika byudjetidan moliyalashtirilishi.
5. Harbiy xizmatchilar, bojxona idoralari xodimlarini pensiyalar va nafaqalar bilan ta'minlash xarajatlari.

6. Mudofaa majmui, huquqni himoya qilish organlari xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish, bu xarajatlarning respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanish asoslari.

7. Byudjet tarkibida Kafolatli jamg'armaning tuzilishi, uning zarurligi va ahamiyati.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

1. Davlat byudjetining boshqa xarajatlarining zarurligi va ahamiyati nimada?
2. Davlat byudjetining boshqa xarajatlari tarkibi qanday?
3. Davlat byudjetining boshqa xarajatlari qanday tartibda rejalashtiriladi va mablag' bilan ta'minlanadi?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

1. Davlat byudjetining boshqa xarajatlarini moliyalashtirishda byudjet tizimi bo'g'inlari ishtiroki qanday?
2. Davlat byudjetining boshqa xarajatlarini mukammallashtirish istiqbollari qanday?

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

Davlat byudjeti xarajatlari tizimida boshqa xarajatlarning ulushi, Davlat byudjetining boshqa xarajatlarini rejalashtirish xususiyatlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi me'yoriy hujjatlar katalogini tuzib chiqing, har bir hujjat bilan tanishib chiqish asosida ularga qisqacha sharh yozing.

Auditoriyada bajarish uchun 4-topshiriq:

Harbiy xizmatchilar, bojxona idoralari xodimlarini pensiyalar va nafaqalar bilan ta'minlash xarajatlari, Mudofaa majmui, huquqni himoya qilish organlari xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish, bu xarajatlarning respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanish asoslari bo'yicha xulosa yozing.

21-MAVZU. BUDJET NAZORATINI TASHKIL QILISH

REJA:

1. Byudjet nazoratining mazmuni, vazifalari va ahamiyati.
2. Byudjet nazoratining guruhlanishi, uni amalga oshirishning shakllari va usullari.
3. Taftish – byudjet nazoratining muhim usuli sifatida.
4. Byudjet nazoratini amalga oshiruvchi organlar, ularning vazifalari, huquq va majburiyatlari.

Auditoriyada bajarish uchun 1-topshiriq:

Davlat moliyaviy nazorati tizimida byudjet nazoratining tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntiring.

Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi hozirgi zamon o'zgarishlarni izohlang?

Auditoriyada bajarish uchun 2-topshiriq:

Byudjet intizomi va byudjet nazorati tushunchalarining mohiyati qanday?

Byudjet nazorati ko'rsatkichlari va ularni qo'llash mezonlari qanday?

Auditoriyada bajarish uchun 3-topshiriq:

Byudjet nazorati shakllari va usullarini izohlang, ularning xususiyatlarini tavsiflang.

AMALIY MASHG‘ULOTDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

Ma'lumki, "Institutda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, "*joriy nazorat (J.N.)* - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli" hisoblanadi. Nizomda "...joriy nazorat fanning amaliy (seminar), laboratoriya darslariga ajratilgan maksimal 36 ballni o'qitiladigan dars juftliklari soniga bo'lgan holda shakllantirilib, har darsda guruh jurnali va elektron jurnalida aks ettiriladi", deb belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqqan holda, talaba bir semestr davomida har amaliy mashg'ulot natijasiga ko'ra muntazam ravishda baholab boriladi, uning JN dan umumiy bali barcha amaliy mashg'ulotlarda olgan ballari yig'indisidan iborat bo'ladi. Masalan, fandan amaliy mashg'ulot uchun 36 soat ajratilgan bo'lsa, talabaning 18 hafta davomida har bir amaliy dars mashg'ulotida olishi mumkin bo'lgan maksimal 2 ballga teng bo'ladi.

II-BO‘LIM. MUSTAQIL TA‘LIM

KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma‘lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur‘atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma‘lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta‘lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahatlari va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta‘limning *asosiy maqsadi* pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ta‘limning *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- kerakli ma‘lumotlarni izlab topish, bilim olish va uni mustahkamlashning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an‘anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma‘lumotlar banki bilan ishlash;
- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- Internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma‘lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

“Davlat byudjeti” fanidan mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ushbu uslubiy ko‘rsatma Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma” va boshqa huquqiy hujjatlar va adabiyotlar asosida tayyorlandi.

MUSTAQIL ISH UCHUN BERILADIGAN TOPSHIRIQLARNING SHAKLI VA HAJMI

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi *shakllardan* foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish;
- ma‘lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va

topshiriqlar tayyorlash;

- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o‘ylab ishlab chiqilgan va ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning auditoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Faning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn auditoriyada amaliy mashg‘ulotlarda himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari, qo‘shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi.

Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma’lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo‘yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. Talaba ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va auditoriyada amaliy mashg‘ulotda himoya qiladi.

Mavzu bo‘yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan talabaga testga qo‘yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq beriladi. Maslahat soatlarida bajarilgan ishlarning qo‘yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to‘ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi auditoriyada amaliy mashg‘ulotda himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo‘yicha (mavzuni talabaning o‘zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o‘quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to‘playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo‘shimchalar, izohlar kiritadi, o‘z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o‘qituvchi bilan

hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedra ilmiy seminarlarida, talabalarining ilmiy to'garagi mashg'ulotlarida yoki institutda tashkil qilingan talabalarining ilmiy anjumanlarida himoya qilinadi.

**“DAVLAT BUDJETI” FANINING HAR BIR MAVZUSI BO‘YICHA MUSTAQIL
TA’LIM TOPSHIRIQLARI**

№	Mavzular	Mustaqil ta’limga oid topshiriqlar	Bajarish muddati	Bajarish shakli
1.	“Davlat byudjeti” faniga kirish	“Davlat byudjeti” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi chizma tayyorlash va xulosa yozish	mavzu yakunida	chizma tayyorlash va xulosa yozish
2.	Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati	Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar asosida turli davr iqtisodchi olimlarning davlat byudjetining mohiyati va funktsiyalariga qarashlari bo‘yicha axborot tayyorlash	amaliy mashg‘ulot davomida	mustaqil o‘zlashtirish
3.	Byudjet tuzulishi va byudjet tizimi	Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimlari bo‘yicha taqdimot tayyorlash	amaliy mashg‘ulot davomida	referat tayyorlash
4.	Davlat byudjetining huquqiy asoslari	Byudjet munosabatlarining huquqiy asoslarini tavsiflovchi chizma tayyorlash va xulosa yozish	mavzu yakunida	chizma tayyorlash va xulosa yozish
5.	Davlatning byudjet soliq-siyosati	O‘zbekiston Respublikasida byudjet siyosatining bosqichlari va yaqin va o‘rta istiqbolga byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ilmiy ish tayyorlash va himoya qilish	ilmiy seminarda	ilmiy ma’ruza tayyorlash
6.	Davlat byudjetini boshqarish	Byudjet tizimini boshqarish organlarining vazifalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari haqida taqdimot tayyorlash	mavzu yakunida	ko‘rgazmali vositalar tayyorlash
7.	Byudjetlararo munosabatlar	Byudjetlararo munosabatlar shakllarini aks ettiruvchi mantiqiy chizma ishlab chiqish va xulosa yozish	mavzu yakunida	chizma tayyorlash va xulosa yozish
8.	Byudjet tasnifi	Xorijiy davlatlar va O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasniflarini qiyoslash asosida mustaqil ish majmuini tayyorlash	amaliy mashg‘ulot davomida	referat tayyorlash

№	Mavzular	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar	Bajarish muddati	Bajarish shakli
9.	Davlat byudjeti daromadlari tizimi	O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlash va himoya qilish	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash
10.	Davlat byudjeti xarajatlari tizimi	Davlat byudjeti xarajatlari-ning tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlash va himoya qilish	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash
11.	Davlat byudjetining holati	Byudjet taqchilligi to'g'risida mustaqil ish majmuini tayyorlash va himoya qilish	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash
12.	Byudjet jarayoni	Byudjet jarayoni mavzusining tayanch so'z va iboralari bo'yicha glossariy tayyorlash	mavzu yakunida	mustaqil o'zlashtirish
14.	Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish asoslarini belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash	mavzu yakunida	testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
15.	Davlat byudjetining ta'lim tizimi xarajatlari	Ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish bo'yicha masalalar yechish. Mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash, testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
16.	Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari	Mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash. Tibbiyot xodimlari ish haqlarini xisoblash va moddiy rag'batlantirish mexanizmi to'g'risida mustaqil ish majmuini tayyorlash	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash, testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
17.	Byudjetning madaniyat va sport xarajatlari	Madaniyat muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish bo'yicha masalalar tuzish	amaliy mashg'ulot davomida	testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
18.	Davlat byudjetining ijtimoiy himoya xarajatlari	Ijtimoiy ta'minot tizimi va uni moliyalashtirish manbalarini aks ettiruvchi chizma tayyorlash va xulosa yozish	mavzu yakunida	chizma tayyorlash va xulosa yozish

№	Mavzular	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar	Bajarish muddati	Bajarish shakli
19.	Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari	Davlatning ijtimoiy himoya dasturi vazifalari to'g'risida taqdimot tayyorlash, Ijtimoiy himoya turlari bo'yicha masalalar tuzish	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash, testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
20.	Davlat byudjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	Mavzu bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni konspekt qilish	mavzu yakunida	mustaqil o'zlashtirish
21.	Davlat byudjetining boshqa xarajatlari	Davlat byudjetining boshqa xarajatlarini jamlovchi chizma chizish va xulosa yozish	mavzu yakunida	mustaqil o'zlashtirish
22.	Byudjet nazoratini tashkil qilish	Byudjet nazorati organlarining nizomlarini o'rganish asosida mustaqil ish majmuini tayyorlash	amaliy mashg'ulot davomida	referat tayyorlash

*Izoh: *mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha topshiriqlar mazkur fandan dars olib boruvchi ma'ruzachi pedagog-xodim tomonidan talabalar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.*

*** barcha talabalar bajarishi tavsiya etiladigan mavzular jadvalda rang bilan ajratilgan.*

MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING MAZMUNI VA SIFATINI BAHOLASH MEZONLARI

Ma'lumki, "Institutda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, "oraliq nazorat (ON) - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli" hisoblanadi. Nizomda "... oraliq nazorat fanning ma'ruza darslariga ajratilgan maksimal ball(34)ni 2 ga, xususan, auditoriya va mustaqil ishga mos ravishda 24/10 nisbatda taqsimlagan holda rasmiylashtirilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ishga ajratilgan maksimal 10 ball o'quv semestri davomida 2 marta (5/5 nisbatda), oraliq ballarni rasmiylashtirishga mos ravishda talabalar tomonidan tayyorlangan mustaqil topshiriqlarning topshirilishi asosida guruh jurnali va elektron jurnalida rasmiylashtiriladi" deb belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqqan holda, talaba bir semestrda (muntazam bajarishi zarur bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlaridan tashqari) 2 marta, har bir oraliq nazoratdan bir hafta oldin topshirilib, himoya qilinadi.

III-BO‘LIM. GLOSSARIY

aholini ijtimoiy himoya qilishning byudjet mexanizmi, ijtimoiy himoya xarajatlari turlari, ijtimoiy himoyani tashkiliy-huquqiy va moliyaviy ta‘minlash, “Mahalla” fondi, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish, davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini moliyaviy ta‘minlash.

bevosita soliqlar – soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘laydigan, ya‘ni soliqning huquqiy jihatdan to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladigan, soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklash holati bo‘lmaydigan soliqlar, ularga daromaddan va mulkdan to‘lanadigan soliqlar kiradi;

bilvosita soliqlar – yuridik jihatdan to‘lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlarni) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko‘rsatuvchilar) bo‘lib, soliqning haqiqiy og‘irligi keyingi (so‘nggi) iste‘molchining zimmasiga tushadigan, soliq summasi tovar (ish, xizmat) narhi ustiga ustama ravishda qo‘yiladigan soliqlar;

boshqaruv xarajatlari tarkibi va tuzilishi, davlat boshqaruvi organlari, sud va prokuratura organlarini moliyalashtirish, boshqaruv xarajatlarini qisqartirish.

byudjet daromadlari tasnifi – barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasiga, daromadlar turiga va hududiga ko‘ra guruhlanishi;

byudjet daromadlarining manbalari – mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad;

byudjet defitsiti - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi;

byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari – defitsitni qoplashga jalb qilingan mablag‘lar va ularning manbalari.

byudjet dotatsiyasi – o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

byudjet huquqi – davlat byudjeti mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normalar majmui;

byudjet huquqi sub’ektlari – davlat pul mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armasini yaratish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarda qonunchilik bilan tegishli yuridik majburiyat va huquqlar berilgan davlat va uning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari, davlat hokimiyati va barcha darajadagi boshqaruv organlari, davlat va munitsipal korxonalar, tashkilotlar va muassasalar.

byudjet jarayoni – byudjet loyihasini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash bilan bog‘liq bo‘lgan qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan maqsadli faoliyat;

byudjet jarayoni bosqichlari – byudjet loyihasini tuzish, byudjetni ko‘rib chiqish va tasdiqlash, byudjetni ijro etish va uning nazoratini olib borish, byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlashdan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayon;

byudjet nazorati barcha darajadagi byudjetlarning, davlatning byudjetdan tashqari fondlarining shakllanishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazoratni ta‘minlaydi;

byudjet nazoratining shakllari – dastlabki, joriy va so‘nggi byudjet nazorati;

dastlabki byudjet nazorati – turli darajadagi byudjetlar loyhalarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlar smetasi, byudjet bilan bog‘liq qonun loyhalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli;

joriy byudjet nazorati – operatsiyalarni amalga oshirish chog‘ida, ssudalar va byudjet subsidiyalarini ajratish paytida, ajratilayotgan byudjet mablag‘larining rejaviy ko‘rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladigan nazorat shakli;

so‘nggi byudjet nazorati – hisobot davri va byudjet yili tugagandan so‘ng amalga oshiriladigan, hisobot yilida byudjet mablag‘larining ishlatilishi, rejaviy ko‘rsatkichlarning bajarilishi, xarajatlar smetasining bajarilishi, byudjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida o‘tkaziladigan nazorat shakli;

byudjet nazoratining vazifalari – byudjetni to‘g‘ri tuzish va ijro etishni ta‘minlash, byudjet va soliq amaliyotiga doir qonun xujjatlariga rioya qilish, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishini tekshirish, byudjet va soliq intizomiga rioya qilinishini ta‘minlash, byudjetlararo munosabatlar mexanizmining amal qilishini nazorat qilish, mintaqalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda maqsadli byudjet jamg‘armalarining shakllanishini va taqsimotini nazorat qilish, davlat byudjetidan ajratiladigan subventsiya, dotatsiya, ssuda va boshqa moliyaviy yordam turlarining berilishini nazorat qilish va boshqalar;

byudjet nazorati tamoyillari - nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda sinovdan o‘tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo‘lib, ularga og‘ishmay amal qilish nazoratning samaradorligini ta‘minlaydi.

byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi;

byudjet qonunchiligi – byudjet va byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar yig‘indisi;

byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjetlar tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi;

byudjet siyosati – davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va asosiy yo‘nalishlari yig‘indisi;

byudjet siyosati strategiyasi – uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutadi;

byudjet siyosati taktikasi – byudjet strategiyasi belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va konkret sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari va vositalari yig‘indisi;

byudjet so‘rovi – byudjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov;

byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘;

byudjet subventsiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi – taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlashdan iborat.

byudjet tashkiloti – zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idorasi, davlat tashkiloti;

byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari – qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lar.

byudjet tasnifi – O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarining, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining muayyan belgilariga ko‘ra guruhlanishi;

byudjet tasnifining turlari – davlat byudjeti daromadlarining tasnifi; davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi; davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi;

byudjet tizimi - davlat qurilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy byudjetlar yig'indisi;

byudjet tizimini boshqarish – byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini, byudjet jarayonini, unda ishtirok etuvchi sub'ektlar, alohida vakolatli organlar va byudjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyat;

byudjet tizimini boshqarish ob'ektlari – byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari;

byudjet tizimini boshqarish sub'ektlari – byudjet munosabatlarini boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo'lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – boshqaruv organlari;

byudjet tizimining asosiy tamoyillari - byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi; byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-xududiy tuzilishiga muvofiqligi; turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi; davlat byudjetining balansliligi; davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini aniq yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish; davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'lar doirasida sarflash; barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi

byudjet transferti – byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari;

byudjet xarajatlari tasnifi – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlarining mablag'larning manbasi va byudjetlar darajasiga, hududiga, bajaradigan vazifasiga, xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga va tashkiliy tegishliligiga ko'ra guruhlanishi;

byudjetdan mablag' ajratish – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga pul mablag'larini ajratish;

byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi;

byudjetlararo munosabatlar - davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilmalari sub'ektlari o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisi.

byudjetlararo munosabatlar shakllari – davlat byudjeti mablag'larini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash shakllari;

byudjetning daromadlar bo'yicha ijro etilishi – daromadlarni byudjetning yagona hisobraqamiga o'tkazish va yozish, tasdiqlangan byudjetga muvofiq ravishda tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash, byudjetga ortiqcha to'langan daromadlar summasini qaytarish, byudjet daromadlari hisobini yuritish va daromadlar to'g'risida hisobotni tuzish bilan bog'liq bo'lgan jarayon.

byudjetning ijtimoiy xarajatlari – davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot muassasalari va tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash) moliyalashtirish va aholini ijtimoiy himoya qilish (bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari) xarajatlarini o'z ichiga oluvchi xarajatlari.

byudjetning iqtisodiy funktsiyasi orqali davlat byudjeti soliqlar va byudjet xarajatlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo‘lib xizmat qiladi;

byudjetning iqtisodiy xarajatlari – byudjetdan iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llab quvvatlashga va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag‘lar;

byudjetning joriy xarajatlari – byudjet xarajatlarining bir qismi bo‘lib, davlat xokimiyati organlarining, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta‘minlashga, davlat tomonidan quyi pog‘onadagi byudjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag‘ ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko‘rsatish uchun ajratilagan mablag‘lar;

byudjetning kapital xarajatlari – byudjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta‘minlaydigan qismi, bo‘lib, unga tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo‘ljallangan byudjet xarajatlari kiradi;

byudjetning nazorat funktsiyasi orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag‘larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi.

byudjetning taqsimlash funktsiyasi – mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi;

byudjetning xarajatlar bo‘yicha ijro etilishi – byudjetning yagona hisobraqamida haqiqatda mavjud bo‘lgan byudjet mablag‘lari doirasida byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlarini to‘lab berish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon;

davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o‘rtasidagi mamlakat byudjet fondining shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi;

davlat byudjeti fanining predmeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida davlatning markazlashgan pul fondi – davlat byudjetini tuzish, taqsimlash va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar;

davlat byudjeti fanning maqsadi - davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida davlatning markazlashgan pul fondi bo‘lgan davlat byudjetini tuzish, taqsimlash va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish;

davlat byudjeti fanning vazifalari – “Davlat byudjeti” fanining maqsadidan kelib chiqqan holda oldiga qo‘yilgan vazifalar majmui;

davlat byudjeti g‘azna ijrosining tamoyillari – kassaning yagonaligi va buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligi;

davlat byudjeti mablag‘larini boshqarish – G‘aznachilik yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va G‘aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat byudjeti mablag‘larini ularni Davlat byudjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo‘naltirish, shuningdek Davlat byudjeti bo‘sh mablag‘larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, mahalliy byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga byudjet ssudalari berish yo‘li bilan boshqarish;

davlat byudjeti xarajatlari – YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag‘larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog‘liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig‘indisi;

Davlat byudjetining boshqa xarajatlari tarkibi, boshqa xarajatlarning respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi, Kafolatli jamg‘arma.

davlat byudjetining funktsiyalari – YaIM qiymatini qayta taqsimlash funktsiyasi; iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funktsiyasi; ijtimoiy funktsiyasi; nazorat funktsiyasi;

davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga to'plash va barcha xarajatlarni shu yagona hisobraqamdan amalga oshirishdan iborat;

davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladigan va tasdiqlanadigan hisobot, mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

davlat byudjetining soliqsiz daromadlari – yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar.

defitsitning hajmi – milliy valyutada absolyut summada, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan foizda, milliy daromad hajmiga nisbatan foizda, byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi;

direktor jamg'armasi – umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan tuziladigan va byudjet tashkiloti smetasining I-guruh xarajatlari tarkibida rejalashtiriladigan va moliyalashtiriladigan mablag'lar jamg'armasi.

g'aznachilik organlari – G'aznachilik yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, Moliya Vazirligiga tarkibidagi davlat organi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'limlari kabi hududiy organlari faoliyat qiladi;

g'aznachilikning axborot tizimi – byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar avtomatik ravishda yuklanadigan, daromadlarni tasniflar, xududiy belgilari, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bo'yicha aniqlash imkonini beradigan, daromadlar avtomatik ravishda tegishli byudjetlarga belgilangan normativlar asosida o'tkaziladigan Davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi (DMBAT).

g'aznachilikning bosh kitobi – G'aznachilikning yagona hisobraqami va subschyotlari bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha barcha buxgalteriya provodkalarini aks ettiradigan, byudjet operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuterlashtirilgan tizimi;

g'aznachilikning yagona hisobraqami – G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobraqami bo'lib, bu hisobraqamda davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobraqamidan davlat byudjetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi''

huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik xujjat;

ijtimoiy ta'minot xarajatlari, ijtimoiy ta'minot tizimiga qarashli muassasa va tashkilotlar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish, qariyalar uylarini moliyalashtirish, bolalar va kattalar nogironlar uylarini moliyalashtirish, ijtimoiy ta'minot tizimidagi uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatlari, Pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiyalar, nafaqalar turlari, pensiya va nafaqalarni hisoblash va to'lash tartibi.

iqтisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo'lgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi;

jon boshiga qarab moliyalashtirish – bir o‘quvchiga nisbatan o‘rnatilgan xarajat me‘yori, o‘quvchilar soni hamda umumta‘lim muassasalarining xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsientlarga asoslangan ta‘lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish tizimi;

madaniyat xarajatlari, madaniyat muassasalarining guruhlanishi, madaniyat uylarini moliyalashtirish, klublar, kutubxonalar va boshqa madaniyat muassasalarini moliyalashtirish, san‘at, televidenie, radio, matbuot xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish, madaniyat sohasini moliyaviy ta‘minlashning bozor mexanizmi

mahalliy byudjetlar - Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlar yig‘indisi;

markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari – davlat investitsiya dasturiga kirgan manzilli loyihalar bo‘yicha byudjetdan ajratiladigan pul mablag‘lari;

moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta‘minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondi;

Moliya vazirligi – O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta‘minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta‘minlaydigan davlat boshqaruvi organi;

Moliya vazirligi G‘aznachiligi – qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatlarga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlarda hududiy bo‘linmalari ega bo‘lgan davlat byudjetining g‘azna ijrosini amalga oshiruvchi moliya organi.

moliya yili – birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr;

pedagogik stavkalar soni – sinf guruhlari bo‘yicha haftalik o‘quv soatlari sonini shu sinf guruhi bo‘yicha o‘qituvchining haftalik o‘quv yuklama me‘yoriga bo‘lish orqali hisoblanadigan, o‘qituvchilarning ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda foydalaniladigan ko‘rsatkich.

pedagogik xodimning oylik lavozim okladi – har bir xodimning lavozimi va malaka toifasi uchun o‘rnatilgan bazaviy tarif stavkasi hamda qonun bilan belgilangan qo‘shimchalar va ustamalar asosida shakllanadigan ish haqi miqdori;

respublika byudjeti - davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

smetalar va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish – byudjet tashkiloti xarajatlari moliyalashtiriladigan tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat.

smetalarning turlari – yakka smetalar, umumlashtirilgan smetalar, yig‘ma smetalar, markazlashgan tadbirlar uchun smetalar;

sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning moliyaviy masalalari, sog‘liqni saqlash tizimining asosiy ko‘rsatkichlari, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarining guruhlanishi, tibbiyot xodimlari ish haqi tarkibi, tibbiy xodimlarning asosiy va qo‘shimcha ish haqlari, tungi navbatchilik uchun to‘lov, bayram kunlari ishlaganlik uchun to‘lov, zararli mehnat sharoitlari uchun to‘lov, to‘lovlarni hisoblash tartibi, sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlari, sog‘liqni saqlash muassasalarining yakka va yig‘ma smetasi, kasalxona xarajatlarini moliyalashtirish, ambulatoriya-poliklinika xarajatlarini moliyalashtirish, koyka-kunlar sonini aniqlash, vrach qabullari sonini aniqlash, sog‘liqni saqlash xarajatlarini aniqlashdagi byudjet me‘yorlari, moddalar bo‘yicha moliyalashtirish, aholi jon boshiga moliyalashtirish, byudjetdan tashqari mablag‘lar tarkibi, tibbiyot sohasidagi davlat dasturlarining moliyaviy masalalari

soliq tizimi – davlat byudjetini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisi;

solliqlar – majburiy pullik to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi sub’ekt sifatida davlat o‘rtasida sodir bo‘ladi;

solliqlarning guruhlanishi – soliqqa tortish ob’ektiga, iqtisodiy mohiyatiga, byudjet tizimi bo‘g‘inlari daromadlarini shakllantirishiga, soliq to‘lovchilariga ko‘ra guruhlanishi;

ta’lim tizimi – davlat standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

ta’limni moliyalashtirish manbalari – Ta’lim tizimiga mablag‘lar ajratiladigan manbalar: davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlarning mablag‘lari, xalqaro tashkilotlarning mablag‘lari, xorijiy kreditlar va grantlar, ota-onalarning o‘qish uchun to‘lovlari, boshqa manbalar;

vaqtinchalik xarajatlar smetasi – tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo‘lib, unda byudjet tashkilotlari uchun ko‘zda tutilgan, qonunchilikka o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdordagi byudjetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi;

xarajatlar smetasi – muassasaga ajratilgan byudjet mablag‘larining hajmi, maqsadli yo‘nalishi va yil choraklari bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy xujjat;

xarajatlar smetasiga ilova – smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslaydigan va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladigan hujjatlar yig‘indisi;

yagona tarif setkasi – byudjet tashkilotlari xodimlari ish xaqini hisoblashda qo‘llaniladigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o‘rnatiladigan, 22 ta razryaddan va har bir razryad uchun o‘rnatilgan tegishli tarif koeffitsientlaridan iborat bo‘lgan, amaldagi eng kam ish haqi miqdoriga asoslanadigan hujjat;

IV-BO‘LIM. ILOVALAR

4.1. TARQATMA MATERIALLAR



ИЖТИМОЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ АЙРИМ ФУҚАРОЛАРГА БИР МАРТАЛИК МОДДИЙ ЁРДАМ КЎРСАТИЛАДИ

Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолининг қуйидаги қатламларига бир марталик моддий ёрдам кўрсатилади:

- ✓ ёшга доир, ногиронлик пенсияси ва нафақасини олувчиларга
- ✓ болаликдан ногиронлик нафақасини ҳамда боқувчисини йўқотганлик пенсиясини ва нафақасини олувчи ҳар бир оила аъзосига
- ✓ ўзгалар парваришига муҳтож ногиронлиги бўлган 18 ёшгача болаларнинг парваришlash нафақасини олувчиларга



- ✓ “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали кам таъминланган сифатида моддий ёрдам олувчи оилаларга
- ✓ кам таъминланган сифатида оилалар нафақасини олувчи оилаларнинг ҳар бир 18 ёшга тўлмаган боласига



200 минг сўмдан

Бир нечта тоифа бўйича бир марталик моддий ёрдам олиш ҳуқуқига эга бўлган шахсларга бир марталик моддий ёрдам ҳар бир тоифа бўйича тўлаб берилади



Уйда вақтинча бўлмаганлиги ёки бошқа сабабларга кўра бир марталик моддий ёрдам пулларини ўз вақтида ололмаган фуқаролар тўланмаган моддий ёрдам пулларини



“Темир дафтар”га киритилган ҳамда бир марталик моддий ёрдам пулларини олмаган эҳтиёжманд оилалар рўйхати шакллантирилиб, ушбу оилаларнинг ҳар бир аъзосига 20 килограммдан бепул ун тарқатилади.

2022 йил 1 сентябргача олиш ҳуқуқига эга

Манба: ПҚ-258-сон, 25.05.2022 й.

@huquqliyaxborot

14 ёшгача болалари бўлган оилаларга нафақа, бола икки ёшга тўлгунга қадар бола парвариши бўйича нафақа, кам таъминланган оилаларга бериладиган моддий ёрдам ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятидаги муҳтож оилаларга бир марталик моддий ёрдам миқдорлари

		сўм
№	Нафақа ва моддий ёрдам турлари	Миқдор
1.	14 ёшгача болалари бўлган оилаларга нафақа	
	шундан:	
	битта болали оилаларга	144 100
	иккита болали оилаларга	238 700
	учта ва ундан ортиқ болали оилаларга	334 400
2.	Бола икки ёшга тўлгунга қадар бола парвариши бўйича нафақа	434 000
3.	Кам таъминланган оилаларга бериладиган моддий ёрдам	326 000 дан 653 000 гача
4.	Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятидаги муҳтож оилаларга бир марталик моддий ёрдам	434 000 дан 1 085 000 гача

Изоҳ: Кўрсатилган нафақа ва моддий ёрдам миқдорлари 2021 йил 1 февралга қадар тайинланган нафақа ва моддий ёрдамни тўлашда ҳам қўлланилади.

269

4.2. TEST SAVOLLARI

Zaxira jamg'armalaridan mablag'lar ajratilgan tadbirlar muayyan muddatga ega bo'lsa, foydalanilmay qolgan mablag'lar tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin qancha vaqtda tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi?

Besh ish kuni ichida

Bir hafta muddatda

O'n ish kuni ichida

Ikki hafta ichida

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamidan olingan mablag'lar qanday tadbirlarga sarflanadi?

olingan mablag'larning barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, moddiy-texnika bazani mustahkamlashga sarflanadi.

olingan mablag'larning 75 foizi moddiy-texnika bazani mustahkamlashga va 25 foizi xodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflanadi.

olingan mablag'larning barcha summasi xodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflanadi.

olingan mablag'larning barcha summasi kapital qurilishga sarflanadi

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbai hisoblanmaydi:

yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga beg'araz yordami

vaqtincha foydalanilmaydigan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berish

moliya bozorida ishtirok etishdan olinadigan dividendlar

faoliyat turi bo'yicha tovarlarni ishlab chiqarish va sotishdan daromadlar

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratining natijalari rasmiylashtirilgan tekshirish va taftish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat:

ma'lumotnoma

jamlanma dalolatnoma

dalolatnoma

hisobot

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati:

30 kalendar kundan oshmasligi lozim

40 kalendar kundan oshmasligi lozim

45 kalendar kundan oshmasligi lozim

10 kalendar kundan oshmasligi lozim

Ro'yxatdan o'tkazish chog'ida xarajatlar smetasiga ilova qilinadigan hujjatlar:

xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi

Shtatlar jadvali, xarajatlarning moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi

to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi, davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi

Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali kim tomonidan tuziladi?

Xalq ta'limi muassasalari tomonidan mustaqil ravishda

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan

Xalq ta'limi muassasalari va hududiy moliya organlari tomonidan birgalikda
Xalq ta'limi muassasalarining yuqori tiruvchi tashkilotlari tomonidan

Umumta'lim maktablarida barcha sinflar uchun pedagogik stavkalar soni qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi?

Umumta'lim maktabi direktorining ko'rsatmalari asosida
O'quvchilar soni, sinf xonalari soni va o'qituvchining haftalik o'quv yuklamasi asosida
O'quv soatlari soni, o'qituvchining haftalik o'quv yuklamasi va sinflar soni asosida
Sinflar soni, o'quvchilar soni va o'qituvchilar soni asosida

Umumta'lim maktablari rahbar xodimlarning ish haqi miqdorlari qaysi ko'rsatkichga bog'liq?

Rahbar xodimning malaka toifasiga
Rahbar xodimning rahbarlik lavozimidagi ish staji va tajribasiga
O'quvchilar kontingentiga (soniga) ko'ra maktab guruhiga
Maktabdagi o'qituvchilar va boshqa xodimlar nisbatiga

Umumta'lim maktablari hodimlarini moddiy rahbatlantirish Direktor jamg'armasining manbai?

Byudjet mablag'lari hisobidan iqtisod qilingan mablag'lar
Ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari tushumlari
Byudjet mablag'lari
Ota-onalarning shu maqsaddagi rasmiy to'lovlari

Tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish kim tomonidan amalga oshiriladi?

tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan
tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan
tegishli viloyat hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan
tegishli viloyat hokimliklari tomonidan

Tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o'rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag'lari - ...

dotatsiya
subvensiya
subsidiya
ssuda

Sog'liqni saqlash muassasalari (SSM) xodimlari ish haqlarini hisoblashda qo'llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlari qanday omilga bog'liq?

SSM ning guruhiga
Xodimlarning malaka toifasiga
Xodimning ish stajiga
SSM dagi tibbiy faoliyatning murakkabligiga

Ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi mavjud bo'lmagan taqdirda ...

joriy yilning 1 aprelidan boshlab byudjet tashkiloti xarajatlarini to'lab berish to'xtatiladi
byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi

joriy moliya yilining 1 aprelidan boshlab byudjet tashkiloti xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi
o'tgan yilda tasdiqlangan smetaga ko'ra xarajatlar oyma-oy to'lab boriladi

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari qanday muddatlarda va qaysi organga taqdim etiladi?

Moliya vazirligiga – joriy yilning 25 iyunigacha

Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyunigacha

Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyuligacha

O'zi joylashgan tegishli hududiy moliya organlariga – joriy yilning 1 iyunigacha

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari qaysi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetining zahira jamg'armalari qanday maqsadlarda tuziladi?

moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlar o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash

buyuk olimlar, mutafakkirlar, sarkardalar, davlat va jamoat arboblarning yubiley tadbirlarini o'tkazish

madaniy-ma'rifiy, sport tadbirlari, festivallar, umumdavlat va milliy bayramlarni o'tkazish
epidemiya qarshi kurashish, davlat dasturlarini mablag' bilan ta'minlash

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga

o'rnatilgan me'yorlar darajasida yo'l quyiladi

yo'l quyilishi mumkin

yo'l quyiladi, ular noinflatsion mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi

yo'l qo'yilmaydi

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari qachon va qaysi muddatlarda qabul qilinadi?

Davlat byudjeti qabul qilinishi bilan uch kunlik muddatda

Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar ikki haftalik muddat ichida

Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangandan keyin bir haftalik muddatda

Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangandan keyin ikki haftalik muddatda

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligi qaysi manbalardan moliyalashtiriladi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tarkibi:

Qoraqalpog'iston Respublikasiga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti va respublikaga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari
Umumshahar byudjeti hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlari
Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, umumtuman byudjeti hamda tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar byudjetlari

Qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari?

Byudjet subsidiyasi
Byudjet dotatsiyasi
Byudjet ssudasi
Byudjet subvensiyasi

Prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o‘rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun byudjet ssudasi qanday muddatga beriladi?

uch oygacha bo‘lgan muddatga
bir oygacha bo‘lgan muddatga
to‘qqiz oygacha bo‘lgan muddatga
olti oygacha bo‘lgan muddatga

Pedagog xodimlar (o‘qituvchilar) bazaviy tarif stavkalari nimaga bog‘liq ravishda tabaqalashtirilgan?

Xodimning malaka toifasiga, dars beradigan sinflar soniga
Ta‘lim muassasasining tipiga
Xodimning ish stajiga va yoshiga
Xodimning lavozimiga, malaka toifasiga, ta‘lim muassasasining tipiga

Oliy ta‘lim muassasalari qaysi byudjet bo‘g‘inidan mablag‘ bilan ta‘minlanadi?

Tegishli mahalliy byudjetlardan
Respublika byudjetidan
Respublika byudjetidan hamda tegishli mahalliy byudjetlardan
Oliy ta‘lim muassasalari o‘zini o‘zi moliyalashtirish asosida mablag‘ bilan ta‘minlanadi

O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlari nima deb ataladi?

davlatning moliyaviy majburiyati
davlat krediti
davlatning bankrotligi
davlat qarzi

O‘zbekiston Respublikasining beg‘araz yordam ko‘rsatishi to‘g‘risidagi qaror qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

Insonparvarlik yordami bo‘yicha hududiy va tarmoq komissiyalari tomonidan
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Palatalari tomonidan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armasidan ajratilib, moliya yili davomida foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratilgan mablag‘lar nima qilinadi?

Tegishli byudjetga o‘n ish kuni ichida qaytariladi

Ularning ishlatilishi keyingi moliya yiliga o'tkaziladi
Respublika byudjetiga o'n ish kuni ichida qaytariladi
Moliya yili tugagach tegishli byudjetga tiklanadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun Byudjetnomani qanday muddatlarda kiritadi?

joriy yilning 20 sentyabriga qadar
joriy yilning 15 sentyabriga qadar
joriy yilning 15 oktyabriga qadar
joriy yilning 1 iyuliga qadar

O'zbekiston Respublikasi nomidan beg'araz yordam ko'rsatgan vakolatli organ qanday muddatda va qaysi vakolatli organga moliyaviy hisobotlar taqdim etadi?

hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga
hisobot yilining oxirigacha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga
hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga
hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni qaysi moliya organlariga taqdim etadi?

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga

O'zbekiston Respublikasi Jamlanma byudjeti tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari, Toshkent shahar byudjeti

Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari

Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga belgilanadigan cheklovlar tarkibiga kirmaydi:

tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish

mablag'lar jalb qilishni amalga oshirish

tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish

yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida ... aks ettirilmagan

Respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi

Byudjet tizimi byudjetlari tuzilmasi

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi

Muayyan moliya yili uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari parametrlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi qachon qabul qilingan?

2002 yil 12 dekabrda

2000 yil 14 dekabrda

2013 yil 26 dekabrda

2014 yil 2 yanvarda

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi necha bo‘lim, bob va moddadan iborat?

10 bo‘lim, 38 bob, 182 modda

9 bo‘lim, 28 bob, 192 modda

11 bo‘lim, 128 bob, 292 modda

7 bo‘lim, 18 bob, 92 modda

O‘z tasarrufida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag‘ oladigan tashkilotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchi – bu ...

byudjet kreditarini taqsimlovchi

byudjet mablag‘larini taqsimlovchi

byudjet mablag‘larini tasarruf etuvchi

byudjet mablag‘larining so‘nggi iste‘molchisi

O‘tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri:

keyingi yilning yanvar oyi

keyingi yilning yanvar-fevral oylari

keyingi yilning 15 yanvarigacha bo‘lgan davr

keyingi yilning 15 fevraligacha bo‘lgan davr

Muayyan yil uchun barcha darajadagi mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari miqdorlari, ularga dotatsiya va subvensiyalar miqdorlari qanday hujjat bilan tasdiqlanadi?

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnom

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi

O‘zbekiston Respublikasi Presidentining har moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan “Makroiqtisodiy ko‘rsatlichlar prognozi va byudjet parametrlari to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi

Muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari – bu ...

byudjet dotatsiyasi

byudjet subsidiyasi

byudjet ssudasi

byudjet subvensiyasi

Moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori - ...

aylanma kassa me‘yori

aylanma kassa mablag‘i

aylanma g‘azna mablag‘i

mablag‘lar hajmining maksimal miqdori

Moliya Vazirligi tomonidan tayyorlangan davlat byudjeti loyihasi qaysi muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi?

Joriy yilning 1 oktyabrigacha

Joriy yilning 1 sentabrigacha
Joriy yilning 15 dekabrigacha
Joriy yilning 15 sentabrigacha

Mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar qanday tartibda amalga oshiriladi?

Mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash uchun javobgar bo‘lgan vazirliklar tomonidan belgilanadigan tartibda

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan belgilanadigan tartibda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda

Maktabgacha bolalar muassasalari xarajatlarini rejalashtirishda qanday operativ-tarmoq ko‘rsatkichlari asos qilib olinadi?

maktabgacha bolalar muassasalarining ish tartibi, bolalar soni

maktabgacha bolalar muassasalaridagi xonalar kubaturasi, xodimlar soni

tarbiyalanuvchilarning o‘rtacha yillik soni, guruhlar soni, xarajat me‘yorlari

maktabgacha bolalar muassasalaridagi guruhlar soni, tarbiyachilar soni

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash qaysi organning vakolatiga kiradi?

Hududiy moliya organlarining

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining

Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan kelgusi davr uchun byudjet so‘rovlari qanday muddatlarda va qaysi organga taqdim etiladi?

Tegishli moliya organlariga – joriy yilning 1 iyunigacha

Tumanlar moliya bo‘limlariga - joriy yilning 25 iyunigacha

Shaharlar moliya boshqarmalariga - joriy yilning 1 iyuligacha

Moliya vazirligiga - joriy yilning 1 iyunigacha

Mablag‘larni bir shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan boshqa shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun foydalaniladigan to‘lov hujjati –

g‘aznachilik memorial orderi

to‘lov topshiriqnomasi

hisobvaraqa-faktura

to‘lovlar jadvali

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari qaysi muddatlarda tuziladi?

joriy moliya yilining 30 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi

joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi

kelgusi yilning 10 yanvarigacha tuziladi

kelgusi yilning 1 aprelogacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari kimga, kim tomonidan belgilangan qanday muddatlarda taqdim etiladi?

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyulidan kechiktirmay

Kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti loyihasini qaysi organ tayyorlaydi?

Vazirlar Mahkamasi

Oliy Majlis

Moliya Vazirligi

Hokimiyatlar moliya bo‘limlari

Kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat?

byudjet so‘rovi

byudjet buyurtmasi

byudjetnoma

byudjet parametrlari

Javoblarning qaysi biri “smeta-shtat intizomini buzish”ga kiradi?

Davlat byudjeti mablag‘larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo‘lmagan maqsadlarga yo‘naltirish

Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘shimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etmaslik

Tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik

Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini, banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish

Javoblarning qaysi biri “byudjet intizomini buzish”ga kiradi?

tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik

noto‘g‘ri ma‘lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko‘rsatilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni xarajatlar smetasiga kiritish

xodimlarning belgilab qo‘yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik

davlat byudjeti mablag‘larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo‘lmagan maqsadlarga yo‘naltirish

Doimiy xodimlar va bo‘sh o‘rinlar lavozimlarining nomlanishini, ularning soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko‘rsatilgan holdagi ro‘yxatini o‘z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat:

shtatlar jadvali

tarifikatsiya ro‘yxati

xarajatlar smetasi

tabel

Davlat sog‘liqni saqlash muassasalari xarajatlarini moliyalashning asosiy manbai qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar

Muassasaning tijorat foydasi

Davlat majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi

Ixtisoslashgan tibbiy sug‘urta tashkilotlari mablag‘lari

Davlat byudjeti bo‘yicha byudjet so‘rovini tuzish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

Tegishli hududiy moliya organlari tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

Tegishli hokimiyatlar tomonidan

Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari qanday maqsadlarga ishlatiladi?

Davlat investitsion dasturini mablag‘ bilan ta‘minlashga, kapital qurilishga

Iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyalashtirishga

Kapital qurilishni moliyalashtirishga

Xarajatlar smetasi III-guruh xarajatlarini moliyalashtirishga

Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibiga quyidagilarning qaysisi kirmaydi?

biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar

suv, qishloq, o‘rmon xo‘jaligi xarajatlari

atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar

markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari

Davlat byudjeti qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas‘ul organlar:

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari – byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi tomonidan so‘ralgan axborot va ma‘lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo‘yicha

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari – byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi tomonidan so‘ralgan axborot va ma‘lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo‘yicha

Davlat boshqaruvi organlarining davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish va nazorat qilish qaysi organning byudjet sohasidagi vakolatiga kiradi?

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

Davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari qanday xarajat guruhiga kiradi?

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari
iqtisodiyot xarajatlari
ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari
sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari

Daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun byudjet ssudasi qanday muddatga beriladi?

uch oygacha bo'lgan muddatga
to'qqiz oygacha bo'lgan muddatga
bir oygacha bo'lgan muddatga
olti oygacha bo'lgan muddatga

Byudjet tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va tadbirlarning byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan uni moliyalashtirish uchun asos bo'lgan tegishli qonun hujjati ko'rsatilgan ro'yxati:

xarajat majburiyatlarining reestri
xarajatlar smetasi
byudjet buyurtmasi
tahliliy hisobot

Byudjetdan amalga oshiriladigan ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibiga qaysi biri kirmaydi?

Nogironlarga bepul ortopediya-protez vositalarini berish
Yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish
Nogironlar uy-internatlarini saqlash
Nogironlik pensiyalarini berish

Byudjetdan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibiga qaysi xarajatlar kiradi?

Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlikda beriladigan nafaqa
Nogironlarga pensiya to'lovlari
2 yoshgacha bolali onalarga nafaqa
Sanatoriya-kurort xizmatlarini moliyalashtirish

Byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o'rganish hamda taqqoslash nima deb ataladi?

nazorat va taftish
byudjet nazorati
davlat moliyaviy nazorati
ichri va tashqi audit

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi ...

byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan smetalar orqali amalga oshiriladi
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kassa ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi

4.3. NAZORAT SAVOLLARI

1. Byudjet daromadlari tarkibida bilvosita soliqlarning tutgan o'ri va ahamiyati
2. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati
3. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash
4. Byudjet jarayoni to'g'risida tushuncha. Byudjet jarayoni bosqichlari
5. Byudjet loyihasini tuzishning mazmuni, bosqichlari va muddatlari
6. Byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy asoslari
7. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi, ularning bog'liqligi
8. Byudjet ssudalari, ularning turlari, zarurligi va ahamiyati
9. Byudjet taqchilligini boshqarish
10. Byudjet taqchilligining kelib chiqish sabablari, shakllari
11. Byudjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish
12. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirish
13. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ishlatish yo'nalishlari
14. Byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asosi
15. Byudjet tasnifiga ko'ra dotatsiyalarning guruhlanishi
16. Byudjet tasnifining daromadlar tasnifi tarkibiy qismlari
17. Byudjet tasnifining mohiyati, zarurligi va ahamiyati
18. Byudjet tasnifining turlari, uning takomillashuvi
19. Byudjet tizimi tamoyillari, ularning ahamiyati
20. Byudjet tizimini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining o'ri, vazifalari, funktsiyalari, huquq va majburiyatlari
21. Byudjetlararo munosabatlar, ularning amal qilish shakllari
22. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar, ularning mazmuni va ahamiyati
23. Byudjetni ijro etish, uning vazifalari, byudjet ijrosini ta'minlovchi organlar
24. Byudjetning ijtimoiy sohalarni saqlash xarajatlarining tarkibi va tuzilishi
25. Byudjetnoma, uning tarkibi, tayyorlash va taqdim etish tartibi
26. Davlat byudjeti – iqtisodiy kategoriya sifatida
27. Davlat byudjeti daromadlarining guruhlanishi
28. Davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etishning qonuniy-huquqiy asoslari
29. Davlat byudjeti tizimida Respublika byudjetining tutgan o'ri va ahamiyati
30. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi
31. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlarining tutgan o'ri va ahamiyati
32. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funktsiyalari bilan bog'liqligi
33. Davlat byudjetidan ta'lim tizimi xarajatlarini moliyalashtirish
34. Davlat byudjetini boshqarish organlari, ularning guruhlanishi, vakolatlari
35. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tarkibi, tuzilishi va ahamiyati
36. Davlat byudjetining birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlari
37. Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni saqlash xarajatlari
38. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati
39. Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari
40. Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari mazmuni, tarkibi va tuzilishi
41. Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari
42. Davlat byudjetining ta'lim xarajatlari tarkibi tahlili

43. Davlat sog‘liqni saqlash muassasalarining tarkibi, ular xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari
44. Jahonda davlat qurilishi shakllari va byudjet qurilishi modellari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari
45. Jamlanma byudjet to‘g‘risida tushuncha, uning tarkibi va tuzilishi
46. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishi
47. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibi va tuzilishi
48. Mahalliy byudjetlarga o‘rnatilgan cheklovlar, ularning zarurligi
49. Maktabgacha ta‘lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish
50. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan byudjet siyosati bosqichlari, har bir bosqichning vazifalari
51. Oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjeti va boshqa manbalarning ahamiyati
52. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining mazmuni, tarkibi va ahamiyati
53. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining qabul qilinishi, uning mazmuni va ahamiyati
54. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi
55. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, uning byudjetni shakllantirishdagi ahamiyati
56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari
57. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet sohasidagi vakolatlari
58. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari
59. Respublika byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi va tuzilishi
60. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlari va moddalari
61. Sog‘liqni saqlash muassasalarida asosiy va qo‘shimcha ish haqlari turlari, ularni hisoblash xususiyatlari
62. Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati
63. Soliqlarni guruhlash mezonlari
64. Umumta‘lim maktablari xodimlari ish haqining tarkibi, asosiy va qo‘shimcha ish haqi turlari, ularni hisoblash
65. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari

4.4. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Malikov T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019 y. – 376 bet.
2. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: “Baktriya press”, 2016. – 168 b.
3. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. 224 b.
4. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 576 b.
5. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
6. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Byudjet tizimi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y. – 544 bet.
7. Жиянова Н., Ташматова Р. Бюджетно-налоговая политика: Учебное пособие. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2019 г. – 216 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
14. Nurmuxamedova B., Xamdamov Sh. “Davlat byudjeti” fanidan o'quv-uslubiy majmua. – T.: TMI, 2018 y. – 432 b.
15. Tashmuxamedova D. Byudjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019 y. – 440 b.
16. Tashmuxamedova D. G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y. – 304 b.
17. Fuqarolar uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. – T.: Baktriya press, 2023 y. – 57 b.
18. Ракитина И., Берёзина Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник и практикум М: Юрайт - М, 2017. – 392 стр.
19. Юлдашева Н. Местные бюджеты: Учебно-методическое пособие. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 364 г.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. – T.: “Ma’naviyat”, 2019 y. – 312 b.

Internet saytlari:

21. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
22. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti;
23. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy veb sayti;
24. www.lex.uz – O‘zbekiston qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi rasmiy sayti;
25. www.pfru.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi rasmiy veb sayti;
26. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi Qo‘mitasi rasmiy veb sayti;
27. www.openbudget.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ochiq byudjet portal.